

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

B. Ergashev

TARIKSHUNOSLIK

o'quv qo'llanma

史記



Kitob quyidagi ko'rsatilgan
muddatda topshirilishi shart

Oldingi foydalanishlar
miqdori

--	--

10 ra

Baxtiyar Ergashev

TARIXSHUNOSLIK

O'quv qo'llanma

Samarqand – 2019

Ergashev B. Tarixshunoslik. O'quv qo'llanma.
Samarqand 2019. 252 bet.

Mazkur o'quv qullanma respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha oliy o'quv yurtlari bakalavr tarixchilari tomonidan tarixshunoslik fanini o'rganish uchun mo'ljallangan.


Samarqand davlat universiteti kengashining 2019 yil 28 noyabrda
4 - sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan

ISBN-978-9943-6320-2-8

© B.Ergashev, 2019
© Samarqand davlat universiteti, 2019

Mundarija

Kirish.....	4
I-Bob. Tarix fanining maqsad va vazifalari. tarixshunoslikka kirish, fanning maqsad va vazifalari.....	7
Mustaqillik yillarida tarix fanlariga talablar. Tarixshunoslikning ma'nosi. Tarixiy manba. Tarixchi olimlar. Davrlashtirish. Tarix instituti	19
II-Bob. Tarixiy bilimlarning shakllanishi.....	
Tarixiy bilimlar, ularga bo'lgan zarurat, maxsus tarixiy bilimlar, rivojlanish bosqichlari, tarixshunoslik maktablari, qadimgi yunon-rim tarixshunoslik maktabi, tarixshunoslikda o'rganish sohalari, manbalar, qadimgi Xorazm, etnologiya	
III-Bob. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda tarixiy bilimlar taraqqiyoti.....	39
O'rta asrlar ilk o'rta asrlar tarixi-tarixshunosligi, arablar istilosi, xalq sanskati, yozuvlar-madaniyat tarixshunosligi, ilk sug'orma dehqonchilik tarixshunosligi, Samarqand shaxri darvozulari	
IV-Bob. Rivojlangan o'rta asrlar tarixshunosligi.....	66
Arab xalifaligi X-XIII asrlar siyosiy hayoti tarixshunosligi, Xorazmda sulolalar, Xorazmshohlar tarixshunosligi, Buxoro tarixshunosligi, O'rta Osiyo olim va mutafakkirlari tarixshunosligi, CHingizxon va chingiziylar tarixshunosligi	
V-Bob. Amir Temur tarixi tarixshunosligi.....	88
CHingiziylar, chig'atoy ulusi, Amir Temur Movorounnahr hukmdorligi tarixshunosligi, Temuriylar davri rus tarixshunosligida, Temuriylar davri madaniyati tarixshunosligi, Temuriylar davri xorij tarixshunosligida, Mirzo Ulug'bek ilmiy merosi	
VI-Bob. O'rta Osiyo xonliklari tarixshunosligi.....	104
XV asr oxiri siyosiy voqealari, Xorazm tarixnavislik maktabi, Abulg'azi, tarixiy asarlar, Buxoro tarixshunosligi, xonliklar tarixi rus tarixshunosligida, Qo'qon xonligi tarixshunosligi, islomshunoslik tadqiqotlari, mang'itlar sulolasi tarixshunosligi, xonliklar iqtisodiy hayoti tarixshunosligi	
VII-Bob. O'zbekistonda sovet davri tarixshunosligi.....	145
Sovetlar davri (1917-1991 yy), 80-yillar oxiri O'zbekiston tarixshunosligi, 70-90 yillar tarixshunosligi, xorij tarixshunosligi, jadidchilikning o'rganilishi, O'rta Osiyo xaritashunosligi, maorif tarixi, kollektivlashtirish, istiqlolchilik harakati, sovetlar davri tomorqa xo'jaligi tarixshunosligi, yangicha yondashuvlar, milliy-hududiy chegaralanish	
VIII-Bob. Mustaqil O'zbekiston tarixshunosligi.....	208
Mustaqil O'zbekiston tarixshunosligi, I.Karimov asarlari manba, 1998 yil avgust uchrashuvi, tarixiy xotirasiz kelajak yo'q asari, tarix fani rivojlanishi yo'llari, Turkiston muxtoriyati, qishloq xo'jaligi, Buxoro amirligi tarixi, Xorazm tarixshunosligi, yangicha yondashuvlar, tarix	



Kirish

Tarixshunoslik fani yurtimiz qadim tarixiy jarayonlarda shakllangan bilimlar taraqqiyoti haqida asoslangan va batafsil tasavvurga ega bo'lish, tarix sahifalari bosqichlari to'g'risida tushunchalar berish, hozirgi davrda kelajagimizni ko'zlab, munosib bilimli yoshlarni har tomonlama kamol topishi muhim ijtimoiy vazifa hisoblanadi. Chunki tarixiy haqiqat hikmatlari bilan sug'orilgan yosh avlod kelajakka tarixiy tajribaga asoslangan holda dadil qadam qo'yadi.

Tarixiy haqiqatning sinalgan jihatlaridan biri o'tmish voqealarini, sahifalarini o'rganmay kelajak hayotimiz quriladigan poydevorni anglash mumkin emasligi hisoblanadi. Mashhur Xitoy faylasufi, tarixchi Konfutsiy tarix kelajakning manbai degan fikri asrlar davomida o'zining hayotiylikini isbotlab berdi. SHu bois tarixiy bilimlarga, ularning ichki qonuniyatlari va xususiyatlarini o'rganishga dunyoning barcha xalqlari intilishi doimiy mezonga aylanib bormoqda.

YUrtimiz so'nggi yillarda tarix, tarixiy bilimlarni egallash, tarixning noma'lum sahifalarini o'rganishga bo'lgan intilishlar ortib bordi.

Hozirgi davrning tarix fanlari sohasidagi muhim jihatlaridan biri mustaqillik yillarida sovet mafkurasi ta'siridan xolis bo'lishga erishish uchun ijobiy natijalarga erishildi. Tarixchi olimlar, oliy o'quv yurtlari mutaxassis o'qituvchilari tomonidan olib borilgan ilmiy, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o'rtasida aloqalar etarlicha bo'lmadi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tarix institutining tarixshunoslik-manbashunoslik bo'limi etakchi mutaxassislari tomonidan dunyo e'tirof etgan yangi tarixshunoslik sahifalari yaratildi.

Biroq shuni ta'kidlash kerakki tarixchi olimlarning ilmiy natijalari oliy ta'lim tizimidagi tarixshunoslik ixtisoslik fani darajasida mukammal darsliklar yaratilganligi ob'ektiv haqiqatdir. Oliy ta'lim tizimida tarixchi talabalar tomonidan tarixshunoslik fanini o'zlashtirishdagi uslubiy qiyinchiliklarning asosiy sababi darslik va o'quv qo'llanmalarining etishmasligi yaqqol namoyon bo'ldi.

Tarixiy izlanishlar, erishilgan natijalarning oliy ta'lim tizimi darsliklarida o'z aksini topish uchun uzoq vaqt o'tishi kerak bo'lmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri tarixshunoslik va manbashunoslik sohasidagi o'zaro bir-biri bilan bo'lgan bog'liqlik jihatlarini uzviy bog'lashga tarixchi olim va pedagoglarda shijoat etarli bo'lmadi. Chunki shuni aytish lozimki tarixchi olim va pedagoglar tomonidan darslik yozilgan bo'lsa, ularning yaratilishidan keyingi turli

muahazalar, takliflar, ayniqsa tanqidiy fikrlar darsliklar yaratishga bo'lgan intilishlarni bir oz susaytirdi.

Tarixshunoslik o'quv qo'llanmasining yaratilishi yuqorida bildirilgan fikr va zaruratdan kelib chiqqan holda bajarilgan qo'llanmalardan biri hisoblanadi. Qo'llanmada Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti bakalavriatida "Tarixshunoslik-manbashunoslik" fanining dastlabki birinchi qismi "Tarixshunoslik" fani sohasidagi manbalarning o'rganilishi asosidagi tarixiy ma'lumotlar umumlashtirishga harakat qilingan. Unda o'quv yili yuklamalarida qaratilgan soatlar hajmida mavzular tanlangan.

Ularda O'zbekiston tarixi sahifalaridagi qadim davr tarixshunosligidan rivojlangan o'rta asrlarda markazlashgan faodal davlatlari, xonliklarda tarix fani, mustabid sovetlar tarixshunosligi hamda o'rganilishi jihatdan muammoli hisoblangan mustaqillik davri tarixiga e'tibor berilgan.

Mazkur qo'llanma oliy ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan fanlarning malaka talablariga muvofiq yaratildi.

Qo'llanmada ta'lim oluvchi talaba va mutaxassis o'qituvchilarda fanga oid umumiy tushunchalarni jamlashga harakat qilinib, O'zbekiston tarixining barcha davriga oid tarixiy ma'lumotlarning o'rganganlik darajasini yoritishga harakat qilingan.

E'tiborlisi shundaki tarixning davrlariga oid o'zbek va xorij tarixchi olimlarining tarixiy asarlari, monografiyalardan foydalangan holda yaratilgan va tarixshunoslik fanining uslublarini ochib barishga erishilgan.

Qo'llanmada tarixiy bilimlarning shakllanishi, ularning turlari, O'rta Osiyo tarixnavislik maktablari, ulardagi tarixiy tadqiqot uslublari shakllanishi tarixi yoritilgan.

Qo'llanmani tayyorlashda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix institutida an'anaviy o'tkazilib kelinayotgani YA'h'yo G'ulomov nomidagi "Tarixshunoslik" o'qishlari nashr materillaridan, shuning "O'zbekiston tarixi" jurnalining 2000 yildan "Tarixshunoslik" ruknida e'lon qilingan maqolaridan foydalangan holda tayyorlandi.

Ayniqsa O'zbekistonning sovetlar davri, Mustaqil taraqqiyot bosqichlari tarixshunosligiga oid materiallar nisbatan ko'proq berilishiga sabab, kitobxonlarda bu davrlarning mantiqiy davomiyligi masalasi ko'plab tushunmovchiliklarga sabab bo'lganligi hisoblanadi.

Qo'llanmani yaratishda davriy xarakterdagi tarixshunoslik ma'lumotlarni yoritish jarayonida ayrim kamchiliklar uchrashi tabiiy.

SHu sababli muallif qo'llanmani yanada takomillashtirishga xizmat qiladigan fikr va takliflarni kutib qoladi (baxegashev@mail.ru).

Muallif ushbu qo'llanmani yaratilishida o'zining qimmatli ma'lumotlarini tavsiya qilgan "Tarixshunoslik" fani bilimdonlari D.A.Alimova, M.M.Ishoqov, I.M.Saidov va kafedra o'qituvchilari J.Amirqulov, F.Mamatqulova va M.Asatullaevlarga o'zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi.

1.ROB. TARIX FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI. TARIXSHUNOSLIKKA KIRISH, FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng tarix faniga e'tibor kuchaymoqda. Jahon tarixi va madaniyati yutuqlarini o'rganish zarurligini his qilmoqdalar.

Tarixshunoslik, avvalo, tarix fanini chuqur va har tomonlama bilimni talab etadi. Zero, tarixni bilmay turib, O'zbekiston va jahon tarixini har tomonlama o'rganish, uning rivojlanishini kuzatib borish, hozirgi davr nuqtai-nazaridan qanday masalalarni hal etish kerakligini aniqlash ancha murakkablashadi. O'zbekistonda Vatanimiz va xorijiy mamlakatlar tarixi tarixshunosligini o'rganishdagi dolzarblik, umuman tarix fanining eng qadimgi davrlardan to hozirgi davrga qadar rivojlanish yo'lini yoritib berish tarixshunoslikning eng muhim vazifalaridan biridir. Tarixshunoslik fanining tarix fanlari tizimida egallagan o'rni va ahamiyati shundakim, barcha davrlardagi tarixchilarning boy merosini tanqidiy o'rganib, ularning eng qimmatli yutuqlaridan, Milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongida shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasida yangi jamiyat qurishda foydalanishdan iborat.

Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o'tmishga oid har xil voqea hodisalarning izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda qanday holatda yuz berganligi hamda insoniyatning paydo bo'lishi, tadrijiy-evolyutsion takomil jarayon va boshqalarni o'rganadi.

Tarix fani kishilik jamiyatni bosib o'tgan tarixiy yo'lni qonuniyatli bir jarayon sifatida, ayniqsa, ulug' ajdodlarimizning hayoti, turmush tarzi, dini va e'tiqodini o'rganishda xizmat qiladi. Respublika mustaqillikka erishganining dastlabki yillaridanoq uzoq va yaqin tarixni chuqur o'rganish, eng ishonchli manbalarga tayangan holda O'zbekistonning yangi tarixini yaratish masalasiga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Buning natijasida sobiq sovet mafkurasi ta'sirida soxtalashtirib ko'rsatilgan ko'plab tarixiy voqeliklar o'zining haqqoniy bahosini oldi. Jumladan, ilmiy tadqiqot ishlari va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish dasturi doirasida tadqiqotchilar oldiga XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy boshqaruv idoralari faoliyati tarixini manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish vazifasi qo'yildi. Tanlangan mavzuni ilmiy tahlil qilish zaruriyati «... mahalliy va xorijlik

tadqiqotchilarning tarixiy manbalar bilan ishlashi uchun zarur sharoitlarni yaratish, tarixiy-madaniy merosimiz namunalarini tomonlama chuqur o'rganish, yosh avlodni xalqimizning buyuk ma'naviy merosiga hurmat, ona yurtimizga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash» kabi vazifalarni amalga oshirish bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17-fevralda PQ 2789-sonli «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlari tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi 315-sonli «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-sonli «Oliy o'quv yurtida keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

XX asrning 90-yillarning boshida, sobiq SSSR hududida mustaqil davlatlarning tashkil topishi bilan tarix fanidagi ahvol tubdan o'zgara boshladi.

Ana shu davrdan boshlab O'zbekistonda mamlakat tarixining sovet davrida noto'g'ri baholangan, buzib ko'rsatilgan sahifalarini qayta ko'rib chiqish va idrok etishga kirishildi. SHu boisdan ham tarixshunoslik fani, mutaxassi tarixchilarni nazariy-uslubiy jihatdan tayyorlash tizimida asosiy o'rin egallaydi. Tarixshunoslik fanining bosh mavzusi mamlakatimizda tarix fani rivojlanishining qonuniyatlarini uning jamiyatimiz ijtimoiy-ilmiy fikrida egallagan o'rnini va xalqimizning ma'naviy madaniyati taraqqiyotini o'rganish bilan belgilanadi.

Tarixshunoslik fani mustaqilligimiz davrigacha va hozirgi zamon tarix fani saboqlarini umumlashtiradi, milliy istiqlol mafkurasi nuqtai-nazaridan haqiqiy tariximizni o'rganishning mohiyati va ahamiyatini ko'rsatadi, tarixiy ob'ektivlik doirasida barcha nazariy-uslubiy va aniq-tarixiy dunyoqarashlarni o'rganishni tadbqiq etadi.

Tarixshunoslik tushunchasi ikki ma'noda qo'llaniladi:

1. Tarixiy bilimlar taraqqiyoti va tarixiy tadqiqot usullariga doir fan ma'nosida.
2. Muayyan tarixiy davrga yoki muammoga bag'ishlangan tarixiy tadqiqotlar majmuasi ma'nosida (masalan, hozirgi davr

tarixshunosligi, o'rta asrlar davri tarixshunosligi, qadimgi dunyo tarixi tarixshunosligi va h.k.)

O'zbekiston tarixining tarixshunosligi deganimizda, O'zbekiston tarixshunosligi eng qadimgi zamonlardan hozirgacha bo'lgan tarixga xizmat qiluvchi tarixiy tadqiqot, ya'ni tarixshunoslik kursidan olingan bilimlar tushunamiz. Demak, tarixshunoslik kursidan olingan bilimlar bo'lib mutaxassislar-tarixchi, muzeysunos, arxeolog, folklorshunos, san'atshunos va sotsiologlar tarix fanining turli davrlardagi tarixshunosligi mavqei va vazifasini bilib oladilar.

Tarixshunoslik fani yurtimiz tarixi to'g'risida xolis va ob'ektiv tushunishga, o'zligimizni anglashga, boy va qadimiy madaniyatimizni o'rganishga xizmat qiluvchi tarix fanining muhim sohalaridan biridir.

Tarixiy manba va adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish. Tarix fan sifatida qadimgi va qanday paydo bo'lgan? – degan savolga javob topish tarixiy manba va adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilishdir. Bu savolga javob berish uchun qadimgi davr tarixnavisligiga (manbalarga) murojaat qilamiz.

Tarixiy manba deganda nimani tushunamiz?

Tarixiy manba deganda uzoq o'tmishda qolgan, tabiat va jamiyatning ma'lum bosqichdagi kechmishini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarni tushunamiz.

Moddiy yodgorliklarga – qadimiy obidalar, manzilgohlari va mozarlar, shaharlar, qasrlar va qal'alar xarobalari, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalar kiradi.

Ma'naviy yodgorliklar deganda qadimgi yozuvlar, xalq og'zaki ijodi namunalar, afsonalar, yozma yodgorliklar-bitik, qo'lyozma kitob, hujjatlar va arxiv materiallari tushuniladi.

Umuman, tarixiy manba inson ijtimoiy faoliyati natijasida paydo bo'lgan va uning xususiyatlarini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklardan iboratdir.

SHuni alohida ta'kidlash zararki tarixni, u qadimgi dunyo tarixi bo'ladimi, yoki o'rta asrlar tariximi, yo bo'lmasa yangi davr tarixi bo'ladimi, undan qat'iy nazar, uni manbasiz, aniqrog'i birinchi manbasiz, o'rganib bo'lmaydi. Masalan, ya'ni qadimgi dunyo tarixini o'rganish uchun ashyoviy (arxeologik) manbalar: qadimgi shaharlar, qal'alar, suv va mudofaa inshootlarini va umuman qadimgi odamlardan qolgan mehnat qurollari hamda zeb-ziynat ashyolari birinchi manba bo'lib xizmat qiladi. O'rta asrlar xususan VIII-XIX asrlar tarixini arab, fors, turkiy, xitoy va hind tillarida yozilgan qo'lyozma asarlarsiz o'rganib bo'lmaydi. YAngi zamon tarixini o'rganishda esa davlat va

mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan hujjatlarsiz, ya'ni arxiv materiallarisiz o'rganib bo'lmaydi.

SHu o'rinda yana bir zarur gapni aytib o'tishga to'g'ri keladi. Ma'lumki, manbadan foydalanishning o'zi bo'lmaydi. Buning uchun tadqiqotchi birinchi navbatda xorijiy tillarni yaxshi bilishi bilan birga o'sha tillarda yozilgan tarixiy manba va adabiyotlardan qiyosiy tahlil qilib foydalana olish malakasiga ham ega bo'lishi lozim.

Bir so'z bilan aytganda tarixshunoslikni tarixiy manba va adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilmasdan o'rganib bo'lmaydi.

Tarixshunoslik, bugungi kunda o'zining boshlang'ich o'rganish bosqichida turibdi. Bunday deyishimizga sabab, qadimgi tarix, ayniqsa, o'rta asrlar tarixi ko'pming yillik tariximizning eng kam o'rganilgan va muammolik davri hisoblanadi. Qadimgi va o'rta asrlar tarixini o'rganishda hali kam o'rganilgan, aniqrog'i etarli darajada o'rganilmagan masala va muammolarning o'zi ko'p uchraydi. Qadimgi shahar-davlatlar tarixi, xalqlarning turmush tarzi va asosiy mashg'ulotlari, dini hamda e'tiqodi, ularning boshqa davlatlar, xususiylar, xorijiy, qo'shni davlatlar bilan bo'lgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari, o'rta asrlar tarixidan esa feodal-yer egaligi, uning shakl va turlari, mehnatkash xalqning hayoti, o'z ozodligi va mustaqilligi uchun olib borgan kurashlari, qo'shni davlatlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari shunday muammolar jumlasiga kiradi. Bunga ko'p asrlar davomida yaratilgan kutubxona hamda muzeylarda taxlanib, haligacha o'z tadqiqotchisini kutib yotgan qo'lyozma asarlar va hujjatlarni chuqur o'rganish, xususan mamlakatimizda tarixshunoslikning vazifa va muammolarini chuqur o'rganish orqasida erishish mumkin. Lekin, hozircha tarixiy bilimlar rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi omillarni aytish mumkin.

Birinchi omil, mamlakatimizda tarixshunoslik fanini yorituvchi o'quv qo'llanmalarini etishmasligidir. To'g'ri, keyingi paytlarda bu mavzuda bir necha darslik, qo'llanma va dastur yozilib hurmatli va talabgan studentlar va magistrantlarga etkazildi. Ayniqsa bu sohada, marhum akademik Bo'riboy Ahmedovning mehnatlari samarali bo'ldi. «Vatan tarixidan hikoyalar» (1999 y.), «Amir Temur darslari» (2000 y.), «O'zbekiston tarixi manbalari (Qadimgi zamon va o'rta asrlar)» (2001 yil), «Tarixdan saboqlar» (1993 y.), «Istorikogeograficheskaya literatura Sredney Azii XVI-XVIII vv. (Pismennye pamyatniki)» (1985 y.), «O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari: (Bio-bibliografik ma'lumotnoma)» (2003 y.) shunday kitoblar jumlasiga kiradi.

Tarixshunoslik sohasida o'quv qo'llanmalari yozgan olimlarni ham sanab o'tish lozim, bular: D.A.Alimova, T.S.Saidqulov, E.V.Rtveladze, M.A.Axunova, B.V.Lunin, R.X.Aminova, A.Sagdullaev, Xamid Ziyoev, Dono Ziyoeva, Azamat Ziyo, A.Asqarov, K.SHoniyozev.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida o'zbekiston tarixiy tajribasi o'zbek xalqining qadimiy davlatchilik an'analari beqiyos ahamiyat kasb etishi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida o'z aksini topgan. SHundan kelib chiqib, tarixshunoslik fanining O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishdagi maqsad va bosh vazifasi belgilanadi. YA'ni, bosh vazifa-o'zbek xalqi davlatchiligi tarixini xolisona o'rganishning ilmiy metodologiyasini shakllantirish, shu asosda o'zbek xalqi va uning davlatchiligi haqqoniy tarixini yaratishda xizmat qilgan tarixchi-olimlarning nomlarini aniqlash, xalqimizda, ayniqsa, yosh avlodda tarix tafakkurini va tarixiy xotira tuyg'uchini tarbiyalashga qaratilganligidadir. SHuni hisobga olib, 2000 yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Tarix, Arxeologiya va O'zbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasining San'atshunoslik instituti va olimlari bilan hamkorlikda «O'zbek davlatchiligi tarixi» deb atalgan, so'nggi bronza davridan hozirgi zamongacha bo'lgan 3(uch) ming yillik ulkan tarixiy davrni qamrab oluvchi fundamental ilmiy tadqiqotni yaratishga kirishildi. Ayniqsa, taniqli olim T.Shirinov O'zbekistonda ilk davlatlar «voha davlatchiligi», «shahar davlatlar» Mesopotamiya, Mirs, Xitoy, Mezoamerikadagi «Noma» davlatchiligi kabi bo'lgan degan g'oyani ilgari surdi. Haqiqatdan ham tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, davlatchilik jamiyatda o'z ichki qonuniyatlari asosida paydo bo'ladi, rivojlanadi. YA'ni davlat tuzilmasi tashqaridan tayyor holda ko'chirilmaydi, ma'lum jamiyat bag'rida tug'iladi. O'zbek davlatchiligi taraqqiyoti ham bunday mustasno emas. Ana shunday jumboq sahifalardan biri O'zbekiston tarixining davrlashtirish masalasidir. Bu muammoni tarixshunoslik muqta-nazaridan o'rganishda bir nechta metodlarni va o'z oimllarini ishlatgan quyidagi tarixchi, arxeolog, san'atshunos olimlarning asarlarini keltirib o'tishni joiz deb hisoblaymiz.

Birinchi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. Tarix instituti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan «O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi kontseptsiyasi» (O'zbekiston tarixi, 1999 yil, №1-son, -31-34 betlar).

Ikkinchisi, akademik Ahmadali asqarovning «O'zbekiston tarixi davrlashtirish yuzasidan mulohazalar» maqolasi (Turon tarixi, ommabop to'plam, 2003, «Fan» 17-21 betlar).

Uchinchisi, akademik Akbar Hamidovning «O'zbekiston davrlashtirish shakllanishida madaniyat va san'atning roli» maqolasi (Moziydan sado, №3-4 (19-20), 2003 yil, -6-18 betlar).

Ko'rib turib, odamzod va uning jamiyat tarixi juda qadimiy va murakkabdir. U bir necha yuz ming yillik tarixni o'z ichiga oladi. Ana shu ko'p ming yillik tarixiy davr ichida insoniyat o'zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy rivojlanish darajasiga ko'ra qator tarixiy davr va bosqichlarni bosib o'tdi. Dastlab, XX asrning 40-yillarigacha O'rta Osiyoda hali arxeologik izlanishlar izga tushib, kishilik jamiyati tarixini davrlashtirishda arxeologik manbalardan foydalanish amaliyoti shakllanmagan paytda V.V.Bartol'd O'rta Osiyo xalqlari tarixini yozma manbalar asosida davriy tizimini ishlab chiqadi. Bunga ko'ra, O'rta Osiyo xalqlari tarixi «musulmonchilikka bo'lgan davr», «mo'g'ullargacha bo'lgan davr», «mo'g'ullar» va «temuriylar davri» nomlari bilan davrlashtirildi.

Sho'rolar davri tarix fanida kishilik jamiyati tarixini 5 ta ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar (ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va sotsializm)ga bo'lib o'rganish uslubi qo'llanildi.

Keyingi yillarda tariximizning dolzarb muammolarini yangicha qarashlar asosida yoritib boshlagan bo'lishimizga qaramay, O'zbekiston tarixining davrlashtirish masalasi hozirgacha o'z echimini topa olgani yo'q.

O'zbekistonnng zamonaviy "ilmiy tarixiy maydonida" faollashayotgan tarixshunoslik tobora tarixchilarning tadqiqotchilik amaliyotiga kirib borish diapazonini kengaytirmoqla, yangi muammolarni aniqlab va ularni hal qilish orqali, ilmiy tarixiy bilish chegaralarini ham kengaytirmokda. Bu nafaqat bugun mamlakatimizda kechayotgan tarix fani tashkiliy funksional tizimidagi modernizatsiyalashuv jarayoni balkim, katga hajmdagi ilmiy tadqiqotchilik muammolarini mushohada qilish, shuningdek, epistemologik va ijtimoiy madaniy "chaqiriqlar" sharoitida sifat jihatdan yangi "tarixiy polotno" yaratish bilan izohlanadi.

Tarixshunoslik ramziy ma'noda professional tarixiy bilimlarning, tarix sohasida bilish jarayonini tadqiq qilishga yo'naltirilgan qolaversa ilmiy mushohadaning haqqoniyligini ko'rsatuvchi "lakmus qog'oz",

tarixchilar g'oyalari va nuqtai nazarlari o'rtasidagi arbitrdir. Ilmiy tarixiy jarayonning "ustida"gi tarixshunoslik ayni paytda tarix fanining funksional muhitida bo'lib, uning ajralmas va tarkibiy qismidir. O'zbekiston tarixini qayta mushohada qilishda, tarix rivojini o'rganishning kontseptual yangilanishida, tadqiqotchilik muammolarini dolzarblashuvda tarixshunoslik muhim o'rin tutadi. Mazkur qo'llanmada tarixshunoslikning "Muammoviy tarixshunoslik" yo'nalishi, uning tarix fani uchun tahlilchilik vazifasining ahamiyati va ishlanajak dolzarb muammolarini aniqlashdagi roli haqida mushohada yuritiladi. Hozirgi paytda muammo tarixshunosligi funksiyasi ikki yoqlama bo'lib, bir tomondai tarixshunoslar an'anaviy ravishda vatan tarixi muammolarini o'rganilishi, ilmiy maktablar va tadqiqotchilar faoliyatini baholashga, yoki bir so'z bilan aytganda ma'lum bir muammo ikkinchi tomondan qadriyatli yondoshuv asosida muqaddam shakllangan tarixshunoslik an'alaridan ilmiy bilimlar rivojining zamonaviy bosqichi uchun nimalar muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqlash funksiyasi bo'lib, bu ancha murakkab vazifa hisoblanadi. Biz bu vazifaning nechog'lik murakkab ekanligini his qilgan holda diqqatimizni masalaning ikki jihatiga qaratdik: muammoviy tarixshunoslik sohasidagi tadqiqotchilik tajribasini umumlashtirish; hozirgi davrda muammoviy tarixshunoslik rivojining asosiy tendentsiyalarini ko'rsatish. Bu kontekstda mustakillik davrida muammo tarixshunosligining rivojlanish darajasi, holati, ko'lamini aniqlash muhimdir.

Avvalambor "muammo tarixshunosligi" nima va u "oddiy tarixshunoslik" dan qanday farq qiladi degan savolga javob berishga urinish ko'ramiz.

Muammo tarixshunosligi ma'lum bir muammoni yorituvchi ilmiy ishlar, u yoki bu muammo mavzuviy "bloklarga" kiruvchi alohida olingan tadqiqotlarning birlashmasidir. Muammo tarixshunosligida "o'rganilayotgan masala bo'yicha turli ilmiy maktablar va yo'nalishlar kontseptsiyalari tahlili markaziy o'rinni egallasa, kontseptsiyalar tahlilida esa ularning kelib chiqishi metodologiyasi, kontseptsiyalar genezisini o'rganish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tarixshunoslik haqida umuman gap yuritadigan bo'lsak birinchidan, ya'ni u yoki bu mavzuviy yoki xronologik ilmiy axborot hajmi umumlashtirilgan materiallar, tarixshunoslik planidagi ilk nashrlar 1920-30-yillarda vujudga kelgan edi. Undan so'ng 1940-50-yillarda

respublikada ilmiy tarixiy bilimlar rivojini ko'rsatuvchi yakunlovchi mazmundagi ishlar chop etildi.

Ikkinchidan, tarixshunoslik xaqida ilmiy tarixiy tadqiqotlar va tarix fani rivoji haqidagi ilmiy bilimlar tizimi sifatida fikr yuritadigan bo'lsak, vatan tarixshunosligi rivoji kontekstida 1950-yillarning oxiri, va 1960-yillari "tizimli epizodik" rivojlanish davri deb shartli ravishda xarakterlash mumkin. Gap shundaki bu davrda tarixshunoslik yordamchi funksiyalarni bajaruvchi "mavqega" ega bo'lib, uning uning predmeti atrofida sobiq SSSR ilmiy tarixiy doiralari qizg'in bahslar olib borilayotgan edi. Bu anjumanlar tarixshunoslikni tarixiy bilimlar tizimida o'z ob'ekti va predmetiga, funksiyalari va vazifalariga ega bo'lgan maxsus sohaga aylanishida muhim omil bo'lib, muammo tarixshunoslikni tadqiqotlarining sifatida ham aks etdi.

Uchinchidan, 1968 yilda FA Tarix institutida tarixshunoslik bo'limining tashkil topishi O'zbekistonda tarixshunoslikning mustaqil soha sifatida rivojlanishida muhim rol o'ynaganligini alohida ta'kidlash lozimdir. Bu soha shakllanishi va rivojida B.V. Luninning xizmatlari ayiqsa yuksak e'tirofga sazovordir. Muammo tarixshunoslikni haqida gapiradigan bo'lsak, bu soha O'zbekistonda 1970-yillarda, G. Jeltova, F. Qosimov va boshqa bir qator tadqiqotchilarning monografik asarlar chop etilishi bilan vujudga keldi. Bu tadqiqotchilik yo'nalishidagi tizimli ish to'g'risida shuni ta'kidlash o'rinli bo'ladiki, aynan shu davrda boshlab nafaqat umumlashtiruvchi balkim, tahliliy-tanqidiy mazmundagi kapital asarlar chop etila boshladi. 1970-1980 yillarda muammo tarixshunosligi rivojlana borib, bu sohada jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi, dissertatsiyalar himoya qilindi, ko'plab maqolalar e'lon qilindi.

Sovet davrida yaratilgan tarixshunoslik ishlarini tahlil kilar ekanmiz, bir qator tadqiqotchilar adabiyotlarni tahlil qilishda o'zlari bilmagan holda tahlil qilinayotgan adabiyotlardan ortiqcha tsitatlar keltirish yoki tarixshunoslik faktlarni sanab o'tishga og'ib ketganliklarini kuzatish mumkin. Sovet mualliflari nashrlarining nazariy metodologik va kontseptual mazmuniy darajasi ham bir qator savollarni uyg'otadi. Tarixshunoslik ishlarida obzor xarakteridagi tendentsiya bartaraf etilmaganligini: nazariy umumlashmalar va falsafiy mushohada nashrlar obzori bilan cheklangani yoki chop etilgan ma'lum muammoga doir adabiyotlarning bibliografik qaydi bilan almashtirilganligi, adabiyotlarni annotatsiya qilish bilan cheklanganligini ko'ramiz. Albatta tarixshunoslik uchun bibliografik tadqiqot zarur va muhim. Biroq bu hali tarixshunoslik emas. Bizningcha tarixshunoslik tadqiqotidan

o'rganilayotgan masalada yondoshuvlarning kengayib borishida namoyon bo'ladigan dinamikasini, aniqlagan muammolar doirasini ko'rsatish, jalb qilingan manbalar va tahlil usullarini, muammoni mushohada etish asosiga qo'yilgan asosiy g'oyalarni baholash talab qilinadi.

Sovet tarixchilari va tarixshunoslari asarlaridagi yondoshuvlarni tahlil qilar ekanmiz, ularda "g'oyaviy bo'yoqlar" yaqqol ko'zga tashlanishiga qaramay, bu asarlar juda katta hajmdagi foydali ilmiy axborotga ega bo'lib, bugungi kunda ham mazmuriy muhimligini yo'qotmagan.

Bu fikrimiz asosan ilmiy tadqiqot ishi "texnologiyasiga", sovet ijtimoiy tuzumi barcha tomonlarini tarixshunoslik sohasida o'rganilishida masalaning qo'yilishi va dolzarb muammolarini hal qilishga tegishli. Bu o'rinda tanqidiy remarka sifatida shuni ta'kidlashimiz joizki, muammo tarixshunosligi (tarix fani kabi) ilmiy ijod uchun zararli bo'lgan siyosiy va g'oyaviy unsurlar bilan yuklatilgan edi. Ko'rsatilgan kamchiliklarga qaramasdan, sovet davridagi muammo tarixshunosligi ma'lum darajadagi salohiyatini namoyon qilib, uni tarixshunoslik ishi formatida ilmiy bilimlarning yaxlit tizimi sifatida to'la asos bilan tasniflash mumkin. Bu davr tarixshunoslik adabiyotlarini diqqat bilan o'rganish respublikada ilmiy tarixiy tafakkur rivojining asosiy tendentsiyalari va jarayonini kuzatish, muammo tarixshunosligining asosiy va kontekst yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

O'zbekistonning Mustaqillikka erishuvi tarix fani vazifalari va mohiyatini tubdan o'zgartirdi. Bunga binoan tarixshunoslik va tarixshunoslar ham yangi jamiyat talablari va mezonlari asosida o'z oldida turgan vazifalarni qayta ko'rib chiqib, bu jamiyat tafakkuriga mos keladigan tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishga kirishdilar va o'tgan yillar davomida ma'lum natijalarga erishdilar. Mustaqillik yillarida tarixshunoslik sohasi dinamik ravishda, ma'lum darajada maqsadli rivojlanib bordi. Bu kontekstda muammo tarixshunosligi holati va xususiyatlari hakida fikr yuritir ekanmiz, uning rivojidagi asosiy tendentsiyalardan biri ushbu yo'nalishdagi tarixshunoslar va ilmiy maktabning shakllanishi bo'ldi. Bu ilmiy maktabning yangiligi shunda bo'ldiki, tadqiqotchi o'zini qiziqirayotgan mavzuga oid tarixshunoslik manbalarini o'rganish bilan cheklanmay, tadqiq qilinayotgan mavzu ramkasida "tarixshunoslik jarayoni" gushunchasini tashkil qiladigan masalalar doirasini ham ko'rib chiqishni qamrab oldi. Tarixshunoslar bu

tushunchaga "ilmiy tadqiqotlarni tashkil etilishini", konkret tarix muammoga oid nazariy tasavvurlar tahlilini mujassamlashtirish manbaviy asosidagi, tarixiy tadqiqot usullaridagi o'zgarishlarni, tarixiy profilidagi ilmiy muassasalar faoliyati xususiyatlarini, tarix fan rivojining har bir bosqichida kadrlar salohiyatining shakllanishi ko'rsatishga urindilar.

Muammo tarixshunosligi tadqiqotlari rivojidadagi ikkinchi tendentsiya tarixshunoslik manbalari janrining yiriklashuvi bo'ldi: ilmiy anjumanlardagi materiallari, jurnal maqolalari bilan bir qatorda individual monografiyalar chop etildi, alohida muammolar bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. O'tkazilgan yirik ilmiy anjumanlar tarix fani rivoji kontekstida tarixshunoslik rivoji muammolariga ham e'tibor qaratdi. FA Tarix institutida o'tkazilib kelayotgan an'naviy tarixshunoslik o'qishlari muammo tarixshunosligi holati, mavzular doirasini belgilash, istiqbolda o'rganiladigan dolzarb muammolarni aniqlashda muhim rol o'ynab kelmokda.

Mustaqillik yillarida muammoviy tarixshunoslik sohasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilishga o'tar ekanmiz, shuni ta'kidlash zarurki, 1990 yillarning boshlaridagi muammo tarixshunosligiga doir ishlar xususiyati shundan iborat bo'ldiki, ular sovet davrida tadqiq qilinib, shu davrda yaratilgan adabiyotlar sovet tarix fani g'oyalari asosida tahlil qilingan.

Bu yillarda tadqiqotlar mavzusining yangilanishi ancha sekinlik bilan amalga oshdi. Tarixshunoslik tadqiqotlari mavzularining yangilanishiga ularning sifat jihatidan o'zgarishiga tarix tadqiqotlaridagi yangilanish jarayoni turtki bo'ldi. Muammo tarixshunosligi rivojidadagi Vatan tarixining dolzarb muammolarini qayta mushohada etishda yangicha yondoshuvlarga asoslangan tadqiqotlar 1990 yillarning o'rtalaridan boshlab aytigsa vujudga kela boshlaganligini kuzatish mumkin. Vatan tarixining dolzarb muammolarini o'rganishda yangicha yondoshuvlarning ommalashuvida 1994 yilda tayyorlangan maqolalar to'plami O'zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti tarixshunoslik bo'limida tayyorlangan "XX asrning dastlabki o'ttiz yilligida O'zbekistonda tarix fani (Tarixshunoslik ocherklari)" ni alohida ko'rsatib o'gmoqchimiz. Mazkur tarixshunoslik ocherklarida mustaqillik davri ilgari surgan, sifat jihatidan yangi vazifalardan kelib chiqib, XX asrning dastlabki 30 yilligida O'zbekiston tarixi fani rivojining asosiy bosqichlari har tomonlama izchillik bilan yoritildi. Ushbu asarning ijobiy momenti sifatida ilmiy o'rganish ob'ektiga kirgan muammo va

masalalarni nihoyatda chuqur va jiddiy, yangi nazariy-metodologik yondoshuvlar asosida o'rganilganligini ta'kidlash zarur.

O'zbekistonda amalga oshirilgan tarixshunoslik tadqiqotlarini xarakterlashga o'tar ekanmiz, shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillari ilmiy tarixshunosligida O'zbekistonning alohida hududlari tarixshunosligi masalalari tadqiq qilindi. Xususan, Qoraqalpog'iston, Buxoro, Xiva tarixshunosligiga oid ishlar chop etildi. SHuni ta'kidlash zarurki, bu tadqiqotlarda O'zbekiston tarixining umumiy va regional jihatli turli muammoviy mavzuviy va xronologik rakursi vatan adabiyotlari doirasida tahlil qilish bilan chegaralanmaydi. Ishga yuqori mutaxassislik mahorati darajasida chet el tarixshunoslik manbalari jalb qilinadi. Bunday yondoshuv o'z navbatida tahsinga sazovorki, bu orqali vatan tarixining u yoki bu muammosi tarixshunosligining yaxlit manzarasi yaratiladi.

1990-yillarda sovet tarixshunosligida ilgari o'rganilmagan printsiplari yangi mavzu paydo bo'ldi. Gap tarixiy tsivilizatsion kommunikatsiyalar muammosi, avvalambor Buyuk ipak yo'li haqida ketyapti. Bugungi kunda ushbu mavzu O'zbekiston Respublikasi geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlari nuqtai nazaridan uning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga asosli ravishda intilayogganligi, dunyoning turli davlatlari bilan (asosan iqtisodiy va transport kommunikatsiyalar sohasida) har tomonlama munosabat o'rnatishida etakchi mavzu bo'lib kelmokda.

So'nggi yillardagi «tarixshunoslik mahsulotlar» ijtimoiy-siyosiy mavzularni etarlicha intensiv tadqiq qilish bilan xarakterlanadi. Ular mustaqillikning ilk yillarida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va uning oqibatlari, milliy-ozodlik kurashlari, «bosmachilik harakati», milliy va diniy siyosatning amalga oshirilishi, xotin-qizlar muammosi.

Jadidchilik tarixshunosligi masalasi tahlil qilishda original yondashuvni qo'llayotgan O'zbekiston tarixshunosligi maktabida bir muammo doirasida birlashgan ilmiy hamjamiyat xususiyatlarini namoyon qilmoqda.

Mustaqillik yillaridagi muammoviy tarixshunoslikdagi eng katta yutuqlaridan biri bu O'zbekiston tarixining turli mavzularini xorijiy tarixshunosligini yoritish bo'ldi. YAngi avlod tarixchilarining chet tillarni o'zlashtirishi, xorijiy mamlakatlarga safarga chiqish, ilmiy markazlar, kutubxonalaridan foydalanish imkonining vujudga ketishi bilan bu soxadagi tadqiqotlar ayniqsa kengaydi.

O'zbekistonda tarixshunoslik tadqiqotlari rivojlanishining asosiy tamoyillari haqida aytilgan fikrlarimizga yakun yasayotganimiz, tarix fanining rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan hozirgi zamon tarixshunoslik oldida quyidagi dolzarb muammolar borligi qayd etish lozim:

Tarixshunoslik tadqiqotlari tahlili asosiga qo'yilgan tarixiy adabiyotlarni yangicha nuqtai-nazardan o'qib, o'rganib chiqish kerak. Bunday tadqiqotchilik harakatlari tanqidiy ishning xolisligi va vafodir. Tarix tarixshunosligi muammolarini o'rganish umuman va xususan qanday amalga oshirilganligish baholashda maqsadga muvofiq bo'lgan edi.

Tarixshunoslik tadqiqotlari mualliflari ilmiy tarixshunoslikning zarurligini takidlayotgandalar. U fanda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni sabablarini anlashga, zamonaviy tarixiy ong mohiyatini, ilgari surilayotgan kontseptsiyalarning qanday tekshirilayotganini, yangi ilmiy bilimlar qanday qilib yangi shaklga kirishini tushunishga, tarix nafaqat bilim, balkim amalga oshayotgan jarayonni anglash vositasi sifatida ham zarur bo'ladimi degan savollarga javob topishga yordam beradi. Muammo tarixshunosligi o'zining rivoji davomida sifat jihatdan o'zgarib, tarixshunoslik tadqiqoti usullarini takomillashtirish uchun istiqbolida yaxshi imkoniyatlarga ega.

Savollar:

1. Zamonaviy bilimlarni egallashda tarix fanining o'rni.
2. Tarixiy xotira.
3. Tarixiylik.
4. Tarixiy asarlar.
5. Tarixshunoslik fani tarix fanidagi o'rni.
6. Tarixshunoslikning manbaviy asoslari.
7. O'zbekiston tarixshunosligining asosiy yo'nalishlari.
8. Tarixchi va tarixshunos olimlar.

II-BOB: TARIXIY BILIMLARNING SHAKLLANISHI.

Insoniyat tarixida tosh davri eng uzoq davrni o'z ichiga olgan bo'lib, bu davrda taraqqiyot sekin-astalik bilan ya'ni evolyutsion yo'l bilan rivojlanib borgan. Faqatgina yangi tosh davriga kelib kishilik jamiyatida keskin o'zgarishlar yuz beradi. Bu jarayon Mesopotamiya va Yevropa qit'asida miloddan avvalgi VII minginchi yillardan, Hindiston, Eron va Osiyoning janubida miloddan avvalgi VI minginchi yillardan boshlab kuzatilgan.

Million yillar davomida odamlar faqat tabiat in'omidan foydalanib yashaganlar, ya'ni kundalik hayotlarida ular tabiatda o'zi o'lib yetilgan meva-chevalarni va ovchilik yo'li bilan qo'lga kiritilgan qo'sha mahsulotlarini yeb kun kechirganlar.

Neolit (yangi tosh) davriga kelib esa inson birinchi bo'lib ilk marotaba dehqonchilik va hunarmandchilikka qo'l uradi. YOvvoyi hayvonlarning ba'zi bir turlarini qo'lga o'rgatish yo'li bilan dastlabki chorvachilikni yo'lga qo'yadi.

Xulosa qilib aytganda, bu davrda inson faqat tabiat in'onlaridagina foydalanib qolmasdan balki, o'zi ham ishlab chiqarishga qo'l uradi. Natijada, qo'shimcha mahsulotni paydo bo'lishiga asos yaratiladi. Bunda qabilalarni o'zaro kelishmovchiliklari natijasida paydo bo'lgan urushlar ham katta rol o'ynaydi. Urushda qo'lga olingan asirlar qo'shimcha mahsulotlarga ko'proq ega bo'lgan oilalarda va qabila boshliqlari qaramog'idagi yerlarda majburiy mehnatga tortiladi. Bu o'z navbatida sinfiy tabaqlanishni kuchayishiga olib keladi. SHu davrdan boshlab jamiyatning tarixiy bilimlarga bo'lgan ehtiyoji paydo bo'la boshladi.

Metallning ixtirov qilinishi (dastlab mis, so'ngra bronza) va undan xilma-xil mahsulotlarning ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi bilan jamiyat taraqqiyoti yanada tezkorlik bilan rivojlanadi.

Keyinchalik, shu asosda ilk shahar tipidagi qarorgohlar va shaharlar, so'ngra shu bilan bevosita bog'liq bo'lgan shahar-davlatlar hamda «Nom» tipidagi kichik-kichik davlatlar paydo bo'ladi. Jumladan, ilk davlat Mesopotamiyada shahar-davlatlar ko'rinishida miloddan avvalgi IV minginchi yillarning oxirida tarix maydoniga keladi.

Bu jarayon O'zbekiston hududlarida o'ziga xos ko'rinishda kuzatiladi. Arxeologik tadqiqotlarning guvohlik berishicha, sug'orma dehqonchilik O'zbekistonning janubiy hududlarida (Surxondaryo viloyati) miloddan avvalgi ikki minginchi yillarning o'rtalaridan

boshlab keng yo'lga qo'yila boshlanadi, ularning markazi sifatida Jarqo'ton yodgorligi o'rta o'z qal'asi, saroyi va ibodatxonasiga ega bo'lgan ilk shahar vujudga keladi.

YOzuv shakllariga qadar epik asarlar (epos-grekcha so'z bo'lib, doston, rivoyat, afsona asarlari ma'nosini anglatadi) tarix o'rganish uchun yagona manba edi. Ta'bir joiz bo'lsa, «Alpomish» dostonini ham xuddi shunday epik asarlar sirasiga mengzash mumkin. Buning rad etib bo'lmas bir dalili shuki «Alpomish» ko'plab variantlardan iboratdir. Bu asarning bir qator variantlari alpomishshunosligimiz zahmatkashlari Hodi Zarif, Mansur Afzalov To'ra Mirzaev va yana bir qator olimlar tarafidan yozib olingan, ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Lekin zamonaning zayliga ko'ra, ular izchillik topmadi. SHukri, O'zbekiston mustaqilligi «Alpomish»ning yo'lini ravon qildi. Qolaversa, doston yaratilganligining 1000 yilligini keng nishonlash to'g'risida hukumat qarori bu boradagi katta ishlarning deyoqasi bo'ldi.

Ayni paytda shuni ham aytmoq kerakki, «Alpomish» dostonining ko'p variantlari mavjud bo'lib, har bir variant o'ziga xos sifatlarga, afzalliklarga ega. «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi dostonlar kabi «Alpomish» dostoni ham o'ziga xos barkamol turkumni tashkil etadi.

YOzuvlar ixtiro qilinganidan so'ng esa mixxatlar, peroglyflar, tosh bitiklar va yilnomalar – eng qadimiy yozma tarix manbalari hisoblanadi. O'sha davrlardagi voqealarning guvohlari yoki zamondoshlari yozib qoldirgan manbalar keyinchalik xattotlar, shoirlar, oqinlar, baxshilar tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan yoki og'izdan-og'izga ko'chib, bizgacha etib, o'tib kelgan manbalar-manbalar hisoblanadi. YOzuv bo'lgan barcha xalqlarda bitiklar va yilnomalar uchraydi.

YAqinda manbashunos olim I.V.Pyankov «O'rta osiyoda eng qadimgi davlatlarni paydo bo'lishi» degan maqola e'lon qilib, unda Baqtriya ilk davlatlar («sarstvo drevnego kavi») miloddan avvalgi X-IX asrlarda paydo bo'lib miloddan avvalgi VII asrda (Kavi Vishtaspi va Zaratushtira davri) markazlashgan Baqtriya davlatiga asos solinganligi aytiladi.

Faqat ikkita belgi shahar, yozuv va ularga aloqador bo'lgan belgilar tsivilizatsiyaning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib qadimgi SHarqda milodda avvalgi IV mingginchi yillarning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Jarqo'tonda haqiqiy yozuv paydo bo'lmagan bo'lsa ham,

SHaydullaev eslatib o'tgan 52 ta belgi O'zbekistonda dastlabki piktografik yozuvni paydo bo'lishidagi bir ko'rinish deb qaralsa bo'ladi.

Bunday o'xshash jarayon O'zbekistonning shimoliy hududlarida ham kuzatiladi. Jumladan, Farg'ona vodiysida miloddan avvalgi II mingginchi yillarning o'rtalaridan boshlab dehqonchilik qilingan. Hozirgi davrlarda davlatlar yoki davlat tipidagi siyosiy uyushmalar vujudga kelgan bo'lsa kerak. Bu kichik-kichik davlatlar asosida miloddan avvalgi X-VIII asrlarda So'g'd hududida ham ilk davlat uyushmasi paydo bo'lgan, degan fikrni M.X.Isomiddinov o'rta qadimgi shahar qachon paydo bo'lgan? – degan savol hammani qiziqitmoqda. 1970 yillarning oxirlarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Afrosiyobning janubi-g'arbiy qismida shaharning muhofaza devori tagida va keyingi yillarda qo'lga kiritilgan ba'zi bir arxeologik materiallar Samarqand – hozirgi Afrosiyob yodgorligi o'rta mil.avv. IX-VIII asrlardayoq ilk shaharmonand qarorgoh ko'rinishida paydo bo'lgan bo'lsa kerak degan fikrni aytishga imkon bermoqda. Lekin, bu fikrni asoslash uchun 10-13 metr qalinlikdagi antik va o'rta asr madaniy qatlamlari tagidagi joylashgan eng qadimgi madaniy qatlamlarni bir necha joyda arxeologik-paleogeografiy nuqtai nazardan o'rganish zarur. Hozirgi o'xshash tarixiy jarayon Orolbo'yi o'lkalari, ya'ni Sirdaryo va Amudaryoning quyi havzalarida (Tegisken, Qo'zaliqir) ham yuz bergan. Barcha joylarda ilk davlatchilik yozuvning paydo bo'lishi va uning tarixiy bilimlarni to'planishi bilan bir qatorda rivojlanib borgan.

Davlatning paydo bo'lishi bilan tarixiy bilimlarga talab oshdi. Davlatning tuzilishida mafkuraning ahamiyati oshib, yozma tarixiy manbaga ehtiyoj ortdi. Miloddan avvalgi VII asrda yurtimiz hududida, otashparastlik-zardushtiylik dini paydo bo'ldi va keng tarqaldi.

Bu davrda davlatlarda, O'rta Osiyo va Qozog'iston cho'llarida, asosan chorvachilik bilan shug'ullangan dashtlilar saklar etnosini tashkil etgan. O'z davrida so'g'dlarning bobakalonlari ham O'rta Osiyo ikki oraliq saklari bo'lgan. Massagetlar esa korazmiylarning bobakalonlari edi. «Avesto»da tilga olingan turlar Turonzaaminning saklari bo'lganligiga shubhalanmasa ham bo'ladi. SHuningdek, Qozog'iston saklarining bobakalonlari andronova madaniyati aholisi bo'lgan. Andronova madaniyati aholisi – ariylar, dahlar va Avesto turlaridir.

2001 yili «Avesto»ning 2700 yilligi nishonlanishi munosabati bilan ushbu noyob madaniy yodgorlik o'zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi. Natijada butun dunyoda SHarq xalqlarining avesto, xorazm so'g'd, kushon, moniy, oromiy va boshqa yozuvlardagi adabiy yodgorliklarga doir tadqiqotlari e'lon qilindi. Zardushtiylik dini tarixi o'rganishga bag'ishlangan to'qqiz jildlik «Dinkard» kitobi chiqdi. «Avesto»dagi olamning yaratilishi haqidagi naskning bayoni – «Bundaxshin» jamoatchilik e'tiboriga havola etildi.

Zardo'sht «Avesto»ni Sablon tog'ida kechirgan yillarida bitirib boshlagan. Uning Gotlar hamda YAshtlarni bevosita she'r bilan yaratganini barcha «avesto»shunoslar tan oladi. U hijratga yuz tutgach, shimoliy Eronda bir necha qohin-ulamolar bilan birga kitobning qolgan qismini yozib, o'n ikki ming ho'kiz terisiga oltin suvi bilan ko'chirtiradi. Ana shu matndan yana bir nusxa olinib, ma'muriy xatlar, podsho farmonlari, nodir yozuvlar saqlanadigan dijnabishtga (arxiv) beriladi. Asl matn esa podsho Gushtasp xazinasiga topshiriladi. Iskandar Maqduniy Eronni zabt etgach, dijnabishtdagi «Avesto»ni zardushtiy ulamolar yordamida yunon tiliga tarjima qilinib, qolgan qismini yoqtirib yuborgan. Gushtasi xazinasidagi asl nusxaning taqdiri hamon noma'lumligicha qolib kelmoqda.

«Avesto» tili Markaziy Osiyo, ya'ni Ayrona Vijning bir nohiyasi bo'lmish Xorazmga taaluqli, degan yagona fikr olimlar o'rtasida hukmronlik qilmoqda. «Avesto» nafaqat eng qadimgi yozma manba, balki tarixshunosligimizda davlatning paydo bo'lishi bilan tarixiy bilimlar vazifasini belgilab bergan ajdodlarimiz tafakkurining ne'matidir.

Zardushtiylik. Avesto eng qadimiy monoteistik ta'limotlardan biri zardushtiylik va boshqa dinlarning, madaniyatlarning shakllanishiga bebaho ta'sir ko'rsatgan asar hamdir.

O'zbekistonning antik davrdagi tarixshunosligida qadimgi YUnoniston va Rim tarixchilari hamda geograflarining asarlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ulardan 9 tasi haqidagi ma'lumotni «Tarixiy manbashunoslik» o'quv qo'llanmasidan foydalanib topishimiz mumkin.

Xerodotning «Tarix» asarida o'zbekistonning qadimiy xalqlari bo'lmish agrippiylar, issedonlar, massagetlar, doylar va saklar haqida, ularning turmushi, urf-odatlari hamda qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

Diodor (mil.avv.90-21 yy.)ning «Tarixiy kutubxonasi» nomli 40 kitobidan iborat asarining, faqat – qadimgi SHarq xalqlarining tarixi va afsonalari haqida hikoya qiluvchi 1-5 kitobdari saqlanib qolgan.

Pompey Trog (mil.avv. I-milod. I asri)ning «Filipp tarixi»da skiflar, Baqtriya, Iskandar Zulqarnayn davrida Baqtriya va Sug'dda qurilgan shahar va imoratlar, Parfiya podsholigi, aholisining kelib chiqishi va Midiya bilan o'zaro munosabatlariga oid muhim ma'lumotlar mavjud.

O'zbekiston va Eronning qadimiy tarixini o'rganishda panegrizm-maddohlik ruhida yozilgan Arrianning «Iskandarning yurishlari» nomli asari muhim ahamiyat kasb etadi.

Kvint Kurtsiy Rufning asari – «Buyuk Iskandar tarixi»da O'zbekiston hududining Iskandar Zulqarnayn qo'shinlari tomonidan istilo qilinishi, xalqlarning chet el bosqichlariga qarshi kurashi, xususan, Spitamen boshliq qo'zg'alon keng yoritib berilgan. Kezi kelganda ta'kidlash joizki, Samarqandda, jasur Spitamen oilasida tug'ilib, yurti va otasining dushmani bo'lgan Selevka Iskandarning xohishi bilan turmushga chiqqan go'zal Apama haqida qiziqarli ma'lumotlarni Amriddin Berdimurodov e'lon qilmoqda.

Sermahsul olim Gay Pliniy Sekund (24-79) o'zining «Oddiy tarix» asarida O'zbekistonning ham qadimiy tarixi, unda yashagan xalqlar skiflar, Oks, YAKsart, Antioxiya shaharlarining barpo etilishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Polibiy (mil.avv.201-120 yy.) «Umumiy tarixi» Antixo I ning Baqtriya podshohi Eftidemga qarshi harbiy yurishi haqida muhim ma'lumot beradi.

Strabon (mil.av. 63-milod.23)ning «Ggeografiya»sida Girkaniya, Parfiya, Baqtriya va Marg'iyonaning tabiiy holat, shaharlari, qisman ularga borish yo'llari, Oxa (Harrirud), Oks va YAKsart daryolari haqida O'zbekistonning qadimiy xalqlari haqida, ularning kelib chiqish, bu xalqlarning turmushi, urf-odati va e'tiqodi, shuningdek Parfiya va Baqtriyaning miloddan avvalgi III asrning birinchi choragidagi ichki ahvoli va o'zaro munosabatlari haqida ma'lumotlar beradi.

Ptolomey Klavdiy (taxminan 90-160 yy.) «Geografiya»sida Girkaniya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona hamda skiflar mamlakatining geografik holati, Baqtriya va So'g'diyonaning mashhur shaharlari, ularning aholisi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Xuddi shuningdek Plutarx, Polien, YUstik asarlarida ham antik davrga doir qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

Insoniyat tarixining muhim bosqichi bo'lgan (V-XVII asrlar) o'rta asrlarni jahon xalqlarining barchasi o'z boshidan kechirgan. Tarixshunoslikda o'rta asrlar davrida insonparvarlik (gumanizm) dunyoqarash shakllanib, tarixni yangicha davrlash boshlanadi. Insoniy o'z taraqqiyoti davomida doimo o'zaro iqtisodiy va madaniy muloqotlarda bo'lgan G'arb va SHarq dunyosi o'rtasidagi munosabatlarning tiklanishi, rivojlanishi ham xuddi shu davr, ya'ni o'rta asrlardan yo'lga qo'yiladi.

O'rta asrlar davrida moddiy madaniyat qurollarining paydo bo'lishi isonlar hayotiga qanchalik katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, qo'lyozma va bosma kitoblarning paydo bo'lishi ham insoniyat madaniyati taraqqiyotiga shunchalar katta ta'sir ko'rsatdi. SHarq qo'lyozma kitoblari bir nechta olamshumul dinlarning avlodlardan-avlodga o'tishiga xizmat qildi, ko'plab diniy va etnik silsilalar (sistemalar)ning qonun-qoidalarini jahonga tarqatdi, jahon madaniyati xazinalarining davomiyligini ta'minladi.

Qur'oni Karim – insoniyat ma'naviy kamolotini ta'minlashda o'ziga xos manbadir. Hozirgi paytda ham odamzotning butun ma'naviy – ruhiy ehtiyojlarini qondiradigan yagona ilohiy kitob Qur'oni Karimdir.

Oldingi payg'ambarlar o'zlari yetkazgan xabarni eng oxirgi, qat'iy, uzil-kesil xabar deb e'lon qilmaganlar, ular to'xtovsiz ruhiy – ma'naviy kamolotga-taraqqiyotga ishongan edilar, doimiy ravishda o'z qavmlariga barcha insonlarni birlashtiradigan va ularni so'nggi yuksak manzil sari eltadigan payg'ambar – Muhammad (s.a.v.) keladilar, deb xushxabar bergan edilar. Alloh taolo Muhammad (s.a.v.)ni insoniyatga eng oxirgi payg'ambar «xtam ul-anbiyo» qilib yubordi. Bu ulug' payg'ambar orqali insoniyatga nozil etilgan Qur'oni Karim esa mazkur muqaddas kitoblar va sahifalarning eng oxirgisi, eng ulug'i va mukammali hamda ularni tasdiqlovchi, to'ldiruvchi va islom etuvchi kitobdir. Oradan o'n to'rt asrdan uzoqroq vaqt o'tgan bo'lsa ham, uning bironta kalimasi o'z zamasidan bizga etib kelgan.

Islom dunyosida yaratilgan o'rta asrlar davri tarixiy asarlarining shakllanishiga ham beqiyos katta ta'sir o'tkazgan buyuk asar ham Qur'oni karimdir.

Imom Buxoriyning «Jome'-as-Sahih» nomli hadislar to'plami mo'tabarligi jihatidan «Qur'on»dan keyingi, ya'ni ikkinchi o'rinda turadi. Gap shundaki, al-Buxoriy jahonga tanilgan buyuk muhandis bo'libgina qolmay, o'z zamonasining atoqli tarixchisi ham edi. Uning «Jome'-at-tavorix» asari Kichik tarix, O'rta tarix va Katta tarix deb

qismlanuvchi 3 qismdan iborat. Ahmad ibn Ismoil al-Buxoriyning 1974 yilda topilgan «Kichik tarix» va «O'rta tarix» kitoblari. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti SHarq qo'lyozmalari bo'limida saqlanmoqda.

XVI-XVII asrlarda tabiatshunoslik fanlarining keskin yuksalishi boshlandi. Ishlab chiqarish, jumladan, texnikani o'sishi ilmiy taraqqiyotga keng yo'l ochdi. Feodal jamiyatning so'ngida xalqlarning ma'naviy taraqqiyoti yangi davrga kirdi.

Flavio Biondo (1392-1463), Lorentso Valla (1407-1457) tarixiy tanqid asoschilari bo'ldilar. Nikollo Makkaveli (1463-1527) siyosiy tarix maktabi asoschisiga aylanadi. Jan Voden (1530-1569), Tomas Mor (1478-1535) asarlarida eski jamiyat inqirozi ichida, uning yetilib ketayotgan burjua munosabatlari ma'naviyat sohasida, kishilar dunyoqarashida keskin o'zgarishlar orqali uyg'onish davri madaniyatining byuuk muvoffaqiyatlari ta'minlandi.

O'rta asr Evropa tarixshunosligining o'ziga xos xususiyatlari shubhasiz, kelajakni ko'ra bilgan va XX asrda dunyoning katta qismida rivojga kelgan, lekin utopik g'oyalarni amalga oshira olmagan sotsialistik va kommunistik tuzumni ta'rif-tavsif qilib berdi.

XVI-XVII asrlardagi feodal va burjua qarama-qarshiliklarning o'zaro g'oyaviy kurashi tarix faniga jiddiy ta'sir qildi. Burjua sotsial-istimoiy qatlamning o'z tarixiy fikrlari g'olib bo'la boshladi.

XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida absolyutizm va feodalizm tartiblari tanqid qilinib, ilm-fan va maorif keng targ'ib qilindi. Ijtimoiy fikrdagi bu yo'nalish ma'rifat deb atalib, uning vakillari tarixga XVIII asr ma'rifatparvarlari nomi bilan kirdilar. Ular eski tartiblarni bekor qilishga, yangi, ilg'or tartiblarni joriy qilishga qaratilgan g'oyalarni ilgari surdilar. 1751-yildan boshlab yozuvchi va faylasuf Deni Didro boshchiligidagi qator ma'rifatparvarlar ko'p tomli «Fan, san'at va hunarmandchilik entsiklopediyasi»ni nashr qila boshladilar. (Entsiklopediya-lotinchacha so'z bo'lib, ilm, mahoratni o'rganish demakdir. Bu o'rinda turli predmetlarga oid batafsil maqolalar to'plangan lug'atni bildiradi).

XIX asrda Ogniyust Kont (1799-1857), Fridrix Gegel (1770-1831) tarix fani to'g'risida o'z fikr va qarashlarini bildirdilar.

Natijada tarixshunoslik degani «tarix yozish» degan ma'noni anglatadi degan fikrlar rivojlandi. Tarixiy bilimlarning yig'ilishi bilan tarix fanga aylandi. Rossiyada XVIII asrga kelib tarixiy bilimlar fanga aylandi, yoki mustaqil fan sifatida shakllandi. O'zbekistonda yoki O'rta

Osiyoda bu jarayon ko'pchilik dastur va adabiyotlarda XVIII asrning oxirlariga kelib yuz berdi degan fikrlar ustunlik qilmoqda. Tarix bilimlarning fanga aylanishini falsafiy va tarixiy dunyoqarashlarning rivojsiz tushinish qiyin.

Tarixshunoslikni o'rganishda sivilizatsion yondashuv ustunlik qiladi.

Tarixshunoslikni davrlashtirish deganda tarix fanining rivojlanish bosqichlari nazarda tutiladi. Yangi yondashuv, mavzularning keng chuqur tahlil qilinishi, turli manbalardan foydalanish ham ko'zda tutiladi.

Bugungi holatda tarixshunoslikni quyidagi davrlarga bo'linish o'rganish qabul qilinadi. Tarixiy bilimlarning yig'ilishi va tarixning mustaqil fan sifatida shakllanishi. Ikkinchi bosqich musulmon tarixnavisligi, bilim va tafakkurning o'sish jarayoni. IX-XII asrlardagi SHarq uyg'onishi davri tarixshunosligi yer-mulk egaligining shakllanishi jarayonida tarix fani rivojlanishi. (XIII-XVIII asr oxirigacha). To'rtinchi davr XIX asr boshlaridan-XX asr oxirigacha, ya'ni SHarqshunoslikning kuchayishi, O'rta Osiyoning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tarixining o'rganilishi.

Tarixshunoslikning o'rganishning beshinchi davri XX asrning oxirlaridan to hozirgi kungacha. Mustaqillik davri, xalqimizning o'z ozodligi va huquqini qo'lga kiritishi bilan belgilanadi. Bu davrda tarix fanini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Tarixshunoslik fani turdosh fanlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bir tomondan, navbatda manbashunoslik va arxeografiya fanlarining rivojlanishi. Tarix fani qancha ko'p manba bo'lsa shu bilan boyib, aniq faktlar asosida to'liq oydinlashadi. Ikkinchi tomondan shu to'plangan manbalar asosida tarixiy ong va tafakkur ham o'sib boradi, yangilanadi. Natijada bir-birini to'ldiruvchi kontseptsiyalar, nazariyalar yaratiladi.

O'zbekistonda aniq tarixshunoslik muammolarini ochib beruvchi asar 1970 yilda yaratildi. To'g'ri bundan oldin ham sovetlar davri tarixshunosligiga doir ilmiy maqolalar to'plamlari nashr etilgan edi. Xususan 1942 yilda «25 let istoricheskoy nauki v SSSR» (V.P.Volgin, E.V.Tarle, A.M.Pankratova tarhri ostida) e'lon qilingan edi.

SHunday qilib tarixshunoslik fanining rivojlanishida ikkinchi jahon urushi yillari muhim bir bosqich bo'ldi. Aynan mana shu davrdan boshlab tarixshunoslik fani belgilab bergan dolzarb vazifalardan kelib chiqqan holda ko'p tomlik «Ocherki istorii istoricheskoy nauki v SSSR» asarlari nashr etila boshladi.

Mustaqillik yillarida O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan qadimgi davrlarning tarixshunosligiga bag'ishlangan quyidagi ikki asarni ko'rsatib o'tish zarurdir. Birinchisi Anatolik Sagdullaev, Bobir Kanner, O'ktam Mavlonov, Naim Norqulov muallifligida Toshkent shahrida «Akademiya» nashriyotida, 2000 yilda nashr etilgan «O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti», I-qism asaridir. Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan ushbu kitob O'zbekiston davlat va jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridan boshlab XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan katta davrni o'z ichiga olgan birinchi qismidir.

Ikkinchi asar, o'zbek davlatchiligi tarixining eng qadimgi davrlaridan tortib to sovet mustamlakachiligi davrigacha bo'lgan tarixiy ocherklardan iboratdir. «O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. Toshkent, «SHarq», 2001. Mas'ul muharrir: prof. D.A.Alimova».

Ushbu asarlarda ko'rsatilishicha Kanguy davlati (e'tibor bering, bundan oldingi tarixshunosligimizda K.SHoniyo'zov Qang' davlati va Qang' tilar, T., 1990, deb ko'rsatilgan) Parfiya, Kushon podsholiklariga qaraganda ko'chmanchi sulolalarga mansub boshqa davlatlar kabi qabilalarning YEvroosiyoda siljishi va er.avv. III asrda sezilarli darajada kuchaygan ko'chmanchilarning O'rta Osiyo mintaqasining o'troq dehqonchilik vohalariga bostirib kirib, o'rganish olishlari natijasida paydo bo'ldi.

Kanguy ilgari «Avesto» orqali Kangxa nomi bilan mashhur bo'lib, asarda u «yuksak va muqaddas» deb ta'riflangan. «Avesto»da tilga olingan Qangxa – Qang' ekanligi tadqiqotchilardan birontasida shubha uyg'otmaydi, lekin uning o'zi masalasida olimlarning fikri bir-biridan jiddiy ravishda farqlanadi.

Kanguy asosan bir-biriga teng bo'lgan o'troq xo'jalik hududlaridan iborat besh kichik hokimiyatni o'z ichiga olgan. Ular Kanguy ittifoqi ishtirokchilariga qaram bo'lgan Suse, Fumu, Yuni, Gi, Yuegvan hududlaridan iboratdir. Har bir hokimiyatning shu nom bilan ataluvchi o'zining bosh shahri bo'lgan.

Geografik jihatdan Kanguy janubiy podsholiklar Parfiya, Kushon va mongoliyada vujudga kelgan ko'chmanchilar davlati – Xan imperiyasi o'rtasida joylashgan edi.

Hozirgi paytda O'zbekiston hududida ilk davlatning paydo bo'lishi tarixshunosligi haqida gapirar ekanmiz, Farg'ona vodiysida 80 dan ortiq chust madaniyati yodgorliklari qayd etilganligini alohida ko'rsatib o'tish kerak. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda Farg'onaning dehqonchilik uchun o'zlashtirilishi so'nggi bronza

davrida, eramizgacha bo'lgan II ming yillikning oxirgi choragi boshlangan. Birinchi topilgan yodgorlikka nisbatan bergan holda Farg'ona dehqonchilik madaniyati CHust madaniyati deb ataladi.

Farg'ona vodiysi bo'yicha yozma manbalar yo'q, shunday bo'lsa ham, ayrim olimlar Qadimgi Farg'ona podsholigining (Davan') mavjud bo'lganligini taxmin qiladilar. SHu sababli eramizgacha bo'lgan I ming yillikning o'rtalaridan oldingi davrdagi Farg'ona haqida so'z yuritganda odatda faqat «CHifdom» (voha) tipidagi qadimgi davlat asoslarini paydo bo'lishi anglashiladi. Mana shu holni hisobga olib Farg'onada davlatchilik, aftidan eramizgacha bo'lgan V-IV asrlarda paydo bo'lgan deyish mumkin.

Bu hodisa ikki tarixiy dalilga asoslangan. Birinchisi: aynan mana shu davrga oid arxeologik topilmalar (Jo'rabashot madaniyati) ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi (tovar ishlab chiqarish va savdoning o'sishi) haqida taxmin qilishga asos beradi. Ikkinchisi: eramizgacha bo'lgan II asrdayoq ko'p sonli shaharlar mavjud bo'lgan. Eramizgacha bo'lgan 136-128 yillarda Farg'ona kelgan Xitoy elchisi va sayyohi Utan TShan «Davanda yuzdan ortiq kichik va katta shaharlar bor» deb aytib o'tadi.

SHo'rolar tarixshunosligida umumiy vatanimiz Turkistan haqida bu diyor Rossiyaning qoloq, chekka o'lkasi, aholining faqat ikki foizi savodli, qolgani jaholatda, degan fikr hukmron edi. Holbuki, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida ta'kidlaganidek, «Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan allomalar, fozilul fuzalolar, olimu ulamolalar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zamonda yaratilgan, sayqal topgan... Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarixiga oid o'ng minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi». Demak tarixshunoslik kursidan olingan bilimlar asosida bo'lajak mutaxassislar - tarixchi, muzeyshunos, arxeolog, faylasuf, san'atshunos va sotsiologlar tarix fanining turli davrlardagi tajribasi, mavqei va vazifasini bilib oladilar.

Bugungi kunda O'zbekistonning qadimgi davr tarixini o'rganishda tarixchilar oldida ko'plab dolzarb vazifalar turibdi va bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Afsuski, ba'zida matbuotda bu davr tarixi noto'g'ri tahlil qilinayotgan maqolalar va risolalar chop etilmoqda. Bunday noxush holatlarga qarshi O'zbekistonning yirik olimlari e.V.

Shahmurodov, A.Asqarov, A.S. Sagdullaev tomonidan bir necha bor muhokama bildirilgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonning qadimgi davr tarixi bo'yicha yozilgan masalalar kengroq yoritilgan:

- qadimgi davrning yozma manbalardagi tahlili;
- qadimgi davrning afsonalar bilan bog'liq jihatlari;
- «Avesto» ma'lumotlari tahlili;
- qadimgi davrning arxeologik jihatdan o'rganilishi;
- ilk davlatchilikning shakllanish jarayoni;
- qadimgi davrda yozuvning shakllanishi.

Ushbu masalalarning o'rganilishi orqali O'zbekistonning qadimgi davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy tarixi yoritib berildi. Ushundan, O'zbekistonning qadimiy tarixini ilmiy jihatdan o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bunda rus sharqshunoslari, geografllari, arxeologlari muhim o'rin egallagan. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 30-yillarigacha O'zbekistonning qadimgi davri bo'yicha dastlabki ma'lumotlar to'plana borgan, lekin uning o'rganilish jarayoni sekin kechgan. Qadimgi davr bo'yicha nihoyatda kam ma'lumot aniqlangan.

Rus sharqshunosi V.V. Bartold tadqiqotlarida qadimgi davr tarixi «Musulmonlarga bo'lgan davr» deb nomlangan bo'lib, o'sha davrdagi mavjud bilimlar asosida yoritilgan. Lekin keyingi davrlarda arxeologiya sohasidagi izchil tadqiqotlar qadimgi davr tarixini kengroq yoritish imkonini berdi.

XX asrning 30-yillarida O'rta Osiyoning tarixini, yodgorliklarini o'rganish bo'yicha tashkil qilingan Xorazm, Termiz, Farg'ona, Toshkent, Buxoro arxeologik ekspeditsiyalari qadimgi O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim bosqichni boshlab berdi. Mazkur ekspeditsiyalar faoliyati natijasida O'zbekiston hududidagi qadimgi davr yodgorliklarini keng ko'lamda o'rganish jarayoni boshlandi. O'zbekistonning qadimgi davrini o'rganish bo'yicha qo'lga kiritilgan yutuqlar asosida 1956 yilda S.P. Tolstov tahriri asosida 2 jildlik «O'zbekiston tarixi» darsligi yaratildi. U uzoq yillar davomida oliy ta'lim tizimidagi tarix mutaxassisligining asosiy darsligi sifatida qo'llanib keldi. Bu darslik o'sha davrda tarix va arxeologiya fani yangiliklarini o'zida aks ettirgan, barcha tarixiy davrlarni batafsil yoritgan manba hisoblangan.

XX asrning 30-yillarigacha tarixchilar o'rtasida asosiy munozarali bo'lgan qadimgi davrdagi ijtimoiy tuzum masalasi o'z echimini topdi. S.P.Tolstov Xorazm hududida olib borgan arxeologik tadqiqot ishlari

natijasida qadimgi O'zbekiston hududida o'ziga xos qulchil munosabatlari mavjud bo'lganligini asoslab berdi va uni «O'zbekiston Osiyocha ishlab chiqarish usuli» deb nomladi. O'zbekistonda qadimgi davrda tabiiy sharoitga mos holda o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanganligi keyingi davr tadqiqotlarida ham isbotlandi.

XX asrning 60 - 80-yillari davomida qadimgi davrni arxeologik jihatdan o'rganish keng ko'lamda davom etdi. Bu davrda faoliyat yuritgan olimlar S.P. Tolstov, M.E. Masson, M.M.Dyakonov, A.P.Okladnikov, M.M.Gerasimov, G.Grigorev, A.YU.Yakubovskiy, YA.G.G'ulomov, M.P.Gryaznov, A.N.Bernshtam, A.I.Tercenokhin, B.A.Latinin, A.M.Belenitskiy, V.A.SHishkin, V.M.Masson, B.A.Litvinskiy, GA.Pugachenkova, P.I.Albaum, M.R.Qosimov, I.Mirsoatov, I.A.Itinaning ilmiy tadqiqot ishlari natijasida qadimgi davr tarixi keng ko'lamda yoritildi.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida, ayniqsa, XXI asr boshlarida O'zbekistonning qadimgi davr tarixini o'rganishda arxeolog olimlar tomonidan katta yutuqpar qo'lga kiritildi va bu jarayon bugungi kungacha davom etib kelmokda. Bu davrda A.Asqarov, O'.Islomov, A.Muhammadjonov, YU.F.Buryakov, R.H.Sulaymonov, e.V.Rivcladze, A.Kabirov, A.S.Sagdullaev, V.N.YAgodin, A.Anorboev, SH.SHaydullaev, B. Matboboev, A.V.Vinogradov, M.Jo'raqulov, T.SHirinov, M.Mambetullaev, G'.Xodjaniyozov va boshqa olimlar olib borgan tadqiqotlar O'zbekiston arxeologiyasi rivojlanishida, shuningdek, qadimgi davr tarixini yoritishda muhim bosqich bo'ldi.

Qadimgi davr tarixini yoritishda keyingi davrlarda muhokama bo'layotgan eng muhim masalalardan biri, bu - ilk davlatchilik masalasidir. O'zbekistonda davlatchilik tarixi masalalari va qadimgi davr bo'yicha o'quv qo'llanma, ilmiy asarlar nashr qilindi. Bu ilmiy adabiyotlar bo'lajak tarixchilar va tarixga qiziquvchilar uchun hozirgacha muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda.

Qadimgi O'zbekiston hududida shakllangan ilk davlatlar - Qadimgi Baqtriya podsholigi va «Katta Xorazm» tarixini o'rganish XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida «Avesto», yunon va rim yozma manbalar

XX asrning 30-yillarida O'zbekistonda boshlangan arxeologik tadqiqotlar mazkur yozma manbalardagi ma'lumotlarni arxeologik materiallar bilan taqqoslashga imkon berdi. XX asrning ikkinchi yarmida Qadimgi Baqtriya hududidan Sopollitepa, Jarqo'ton, Bo'ston yodgorliklari topildi. Ular A.Asqarov, B.Abdullaev, T.SH.Shirinov,

I.I.Bahmonov, SH.SHaydullaev, N.A.Avanesova, D.Xuff tomonidan o'rganildi.

Qadimgi Baqtriya podsholigi O'zbekiston hududida shakllangan ilk davlat va u to'rt ming yillik tarixga ega bo'lganligi asoslandi. Mil. avv. XIX - XVIII asrlarga oid Jarqo'ton yodgorligi O'zbekiston hududidagi ilk shahar bo'lib, unda dastlabki davlatchilik elementlari mavjudligi asoslab berildi. SH.SHaydullaev tadqiqot ishida birinchi marta ilk davlatning 24 ta arxeologik belgisini va shu asosda 11 ta ijtimoiy belgilarini ko'rsatdi. Ushbu arxeologik va ijtimoiy belgilar asosida Jarqo'ton yodgorligi ilk shahar-davlat ekanligini ko'rsatib o'tdi.

Qadimgi Xorazm hududida shakllangan ilk davlat-«Katta Xorazm» qabilalar konfederatsiyasi masalasi ham olimlar o'rtasida 100 yildan ko'proq muhokama qilinayotgan bo'lsada, haligacha o'zining echimini topgan emas. XX asr boshlarida «Katta Xorazm» tushunchasini nemis olimlari I. Markvart, V. Xenning 3 yunon mualliflari Gekatey, Gerodot va «Avesto» ma'lumotlari asosida ilgari surishgan edi.

XX asrning 80-yillarigacha bo'lgan davrda Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan bu davlatning mavjudligini arxeologik ma'lumotlar asosida isbotlashga harakat qilganlar. XX asrning 80-yillaridan keyin bu birlashma mavjudligini inkor etuvchi ilmiy g'oyalar ilgari suriladi.

«Katta Xorazm» davlati o'rganilish jarayonidagi ilgari surilgan fikrlar tahlil qilinib, «Katta Xorazm» davlati qabilalar konfederatsiyasi ekanligi asoslangan, lekin uning Gerodot ma'lumotida ko'rsatilgandek nihoyatda katta hududni egallaganligi shubha ostiga olingan, chunki bu arxeologik jihatdan o'z isbotini topgan emas.

Xorazm hududidagi ilk davlatchilikning shakllanishi masalasi yozma manbalar asosida tahlil etilgan va arxeologik manbalar asosida isbotlangan. Xorazmda ilk davlat mil. avv. VII - VI asrlarda vujudga kelgan bo'lib, u Ko'zaliqir, Xumbuztepa, Hazorasp yodgorliklari asosida o'rganilgan. Demak, Xorazm hududida ahamoniylar hukmronligiga qadar davlat mavjud bo'lgan.

Qadimgi Xorazm tarixi bo'yicha eng munozarali masala uning mil. avv. IX - VIII asrlardagi taraqqiyoti bilan mil. avv. VII - VI asrlardagi rivojlanish jarayonining bir-biridan keskin farq qilishidir. Qadimgi Xorazm tarixida bunday o'ziga xoslik Abu Rayhon Beruniy ma'lumotlarida Siyovushning kirib kelishi bilan izohlangan. Ba'zi noaniq ma'lumotlar yunon mualliflari asarlarida mavjud bo'lib, bu masala I.V. Pyankov, I.N. Xlopin tadqiqotlarida atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotchilar dastlabki xorazmiylar janubda, ya'ni Turkman-

Xuroson tog'i oldida yashab, ahamoniylar davrida Quyi Amudaryo bo'ylariga ko'chib kelishgan, degan xulosani berganlar.

XXI asr boshlarida Janubiy Xorazm hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida S.B.Bolelov va S.R.Baratov bu masalani arxeologik manbalar asosida tahlil qildilar. S.R.Baratov Meshekli va Ucho'choq yodgorliklari tahlili asosida «Xorazmiylar mil. avv. VII asrning birinchi yarmida, balki Kiaksar davrida Tajan-Herirud, Seraxs vohasi hududlarida yashashgan. Keyinchalik Doroning solis siyosati tufayli xorazmiylar Akes hududini tashlab, hozirgi Quyi Amudaryo bo'ylariga kelib qolishgan. Qal'a-shaharlarni bunyod qilganlar. Sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. SHuningdek, bu erga ahamoniylar siyosatidan norozi bo'lgan midiyalik, parfiyalik, marg'iyonaliklar ham ko'chib kelishgan. Bu bilan Xorazmning arxaiik davr madaniyatining xilma-xilligini asoslash mumkin» degan xulosa beradi. Mil. avv. VII asr oxirlariga oid Xumbuztepa yodgorligi topilmalari ham S.R.Baratov fikrini asoslaydi.

Mil. avv. I ming yillik boshlarida qadimgi Xorazm hududida yarim erto'la, erto'lalarda yashab dastlabki dehqonchilik madaniyati yaratgan amirobodliklarda Janubiy Oqchadaryo deltasining qurishi bilan chorvachilik xo'jaligi rivojlanadi va ular shimoliy sharq tomonga ko'chib, SHimoliy Oqchadaryo bo'ylari va Sirdaryoning qadimiy deltalari bo'ylariga ko'chib borib, o'ziga xos madaniyatni shakllantirganlar. Mil. avv. VII asr davomida amir obodliklar shimol-sharqqa ko'chgan bo'lsa, janubda istiqomat qilgan xorazmiylar shimol tomonga ko'chib, Quyi Amudaryo bo'ylariga kelib joylashganlar.

Sug'diyonada dastlabki davlatchilik izlari ilk temir va arxaiik davrlarga oid yodgorliklar asosida o'rganilgan. Sug'diyona hududidan topilgan Uzunqir, Sangirtepa, Daratepa, Erqo'rg'on, Ko'ktepa, Lolazor yodgorliklarini ilk vo'ha-davlat tizimi bilan bog'laydilar.

Farg'onada rivojlangan dehqonchilik madaniyati - CHust madaniyati mil. avv. XIII asrlarga oid bo'lib, uning izlari Namangan, Andijon, Samarqand va Qashqadaryo hududlaridan ham topilgan. Yodgorliklar sug'orish tarmoqlari bo'ylarida joylashgan. Har bir sug'orish tarmog'i hududida bitta yirik shahar, shahar atrofida esa ko'plab qishloq tipidagi yodgorliklar joylashganligi aniqlangan. Bu belgilar CHust madaniyatining so'nggi davrida Farg'ona hududida shahar-davlatlarning tarkibtopganligini ko'rsatadi. Bu mil. avv. VII asrlarga oid eylatan madaniyatida o'z aksini topgan. eylatan madaniyatiga doir yodgorliklar Farg'ona vodiysining deyarli barcha hududlaridan aniqlangan. Mazkur yodgorliklar orasida eng yirigi

Dalvarzintepa bo'lib, u so'nggi bronza va ilk temir davrlarida butun Farg'ona shahar-davlatlarining markazi bo'lgan degan xulosani beradilar. Qadimgi Farg'ona tarixi haqida xitoy yozma manbalarida mu'hamotlar ko'p uchraydi.

So'ngi bronza va ilk temir davrida qadimgi Toshkent vohasida ham o'ziga xos rivojlanish aniqlangan. Bu erlarda dehqonchilik kichik-kichik soy etaklarida yoki buloq yoqalarida vujudga kelib, ibtidoiy usulda olib borilgan. Zaminning tabiiy geografik sharoitidan kelib chiqib sug'orma dehqonchilik xo'jaligi rivojlangan. CHirchiq, Ohangaron va ularning irmoqlarida Toshkent vohasining eng qadimgi dehqonchilik madaniyati Burg'uluq madaniyati tarkib topdi. Uning so'nggi bosqichlarida, ya'ni mil. avv. III - II asrlarda Toshkent hududida Qanqa, SHoshtepa yodgorliklari vujudga keladi. Tadqiqotchilar bu yodgorliklarda ilk davlatchilik elementlarini ko'radilar. Ular O'zbekiston davlatchiligi taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi.

Mustaqillik yillarida qadimiy shaharlar yubileylarining nishonlanishi ham qadimgi davr tarixini yoritishda muhim o'rinni egalladi. 1997 yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 2002 yilda Termiz shahrining 2500 yilligi va SHahrisabz shahrining 2700 yilligi, 2006 yilda Qarshi shahrining 2700 yilligi, 2007 yilda Samarqand shahrining 2750 yilligi va Marg'ilon shahrining 2000 yilligi, 2009 yilda Toshkent shahrining 2200 yilligi keng nishonlandi. Qadimiy shaharlar tarixini yoritishda yubiley munosabati bilan tashkil qilingan xalqaro konferentsiyalar qadimgi davr tarixining eng dolzarb masalalarini yoritib berdi. O'zR FA Tarix instituti tomonidan doimiy o'tkazib kelinayotgan akademik YAhyo G'ulomov nomidagi «O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi» respublika ilmiy seminarlarida davlatchilik tarixi masalalari bilan birgalikda qadimgi davr tarixining dolzarb masalalariga e'tibor qaratib kelinmoqda.

Hugungi kunda qadimgi davr tarixini o'rganish borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni o'zida jamlagan o'quv qo'llanma, darslik yoki ilmiy nashrga ehtiyoj katta. SHuningdek, qadimgi davr tarixini o'rganishdagi muammolardan yana biri arxeologik va tarixiy ilmiy asarlarning rus tilida chop etilishi hisoblanadi. Hozirgi kunda bunday muammolarni bartaraf etish, xalqimizga boy qadimiy tariximizga oid ilmiy, o'quv adabiyotlarini o'zbek tilida nashr etish dolzarb masalaga aylangan.

Vatanimiz mustaqilligi yillarida nashr etilgan tarixny-etnografik adabiyotlar tahlili respublikamizda etnografiya faniniig, umuman, muvaffaqiyatli rivojlanayotganligidan dalolat beradiki, buni:

— tadqiqotchilariing etnografiyani kam o'rganilgan yoki umuman o'rganilmagan muammolariga murojaat qilayotgamliliklarida shu bilan birga tadqiqotlarning sifat jihatidan yangicha muammolarni ishlana boshlanganligida;

— etnograf olimlariing O'zbekiston etnografiyasi masalalarini ham tomonlama chuqur tahlil qilishga, uning tarixini o'rganishga, etnografiya fani rivojlanishining muhim yunalishlari va istiqbolini aniqlashga intilishlarida;

— mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar va demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishning amaliy vazifalarini hal qilishda etnograf olimlarning bevosita ishtirok etayotganliklarida ko'rish mumkin.

SHu bilan birga, shubhasiz, Vatanimiz etnografiyasi tadqiqot faoliyatida muayyay nuqson va kamchiliklar ham mavjudki, ularni tezroq bartaraf etish, bizningcha, ilmiy ishlar saviyasini keskin oshirishga, jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etishga yordam beradi. etnografiya — amaliyot fanidir, zero, u sirasini aytganda, insonlariing nafaqat qanday yashashi, mehnat qilishi, e'tiqodini o'rganishi, balki ularning turmushini farovonlashtirish, milliy rivojlanish ustuvorligida millatiing ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojlanishini zamonaviylashtirish xususida aniq takliflar ham beradi.

Biz, dastlab, O'zbekiston etnografiya faniniing ilmiy tadqiqot faoliyati muayyan darajada tahlil qilingan, nazariy asoslari, rivojlanish ustuvorliklari va istiqbollari uz ifodasini toptan nazariy-uslubiy va umumlashtiruvchi xususiyatga ega bulgan ishlar haqida to'xtalishni lozim topdik.

Mazkur asarlarda muallifning etnografiya fani "tarixiy o'tmishning chuqur o'rganilishi va haqqoniy yoritish mamlakatimiz barcha jihatlarini madaniy merosimiz boyliklari bilan tanishtirish va tarixiy bilimlarini keng targ'ib qilish"dek umumilliy jarayonga xolisona jalb etilgan, degan fikrlarga qo'shilish joizdir. O'zbekistonda tarix fani rivojlanishining dolzarb muammolarini o'rganar ekan D.Alimova va e.Karimov bizning tarix va boshqa ijtimoiy fanlarimiz xususan uslubiy ishlar sohasida barcha yutuq va ijobiy jihatlar bilan bir qatorda "talaygina hal etilmagan muammolar to'planib qolganligini haqli ravishda ta'kidlaydilar".

SHu ma'noda etnografiya fanining nazariy-uslubiy jihatlarini xususida so'z borar ekan olimlarimiz bizningcha qisqa qilib aytganda, mohiyati asosan quydagilardan iborat bo'lgan O'zbekiston ijtimoiy fani uslubiyatining boshqa g'oyasini albatta hisobga olishlari zarur.

Respublikamizning mustaqillik sharoitidagi o'n yillik rivojlanish jarayoni so'ngi yillarda barcha iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklarga qaramay O'zbekistonning milliy rivojlanish mafkurasi o'zining jihatiga qobiliyatligini yaqol isbotladi, demokratiyaning rivojlanishi jarayonining ma'naviy poklanishi o'zbek xalqining noyob an'analari saqlab qolish va yanada ko'paytirish sharoitida kechayotganligini tasvirlay etdi. Qolaversa, G'arb va SHarq madaniyatlarining an'anaviy shakl etiladigan mazmunini o'zbek madaniyatining ishtirokisiz tassavur qilish qiyinligi ayon bo'lib qoldi.

O'zbek xalqining etnik tarixi shuningdek O'zbekiston xalqlari o'rtasidagi munosabatlarning holati respublikamizda etnografik tadqiqotlarning etakchi mavzularidan biri hisoblanidiki, unga ilmiy jihatda va asarlar to'plamlarida nashr etilgan qator monografiyalar, dissertatsiyalar shuningdek etnografik-sotsiologik tadqiqotlar bog'langan.

Ushbu asarlar uchun xos xususiyat shundan iboratki, ularning mualliflari mazkur muammoni izchil, o'zbek xalqi rivojlanishining tarixiy-etnografik jixatlarini jahon tarixi va madaniyati, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlikda o'rganishga harakat qilganlar.

Tabiiyki, mazkur tadqiqot yunalishi o'zbek xalqi milliy madaniyatini qayta tiklash masalalari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, buhaqda ba'zi olimlar o'zlariing mamlakatimizda kechayotgan tub o'zgarishlarga, shuniigdek, Markaziy Osiyo mintaqasining xos xususiyatlariga bog'langan asarlarida to'xtalib o'tganlar. Mazkur asarlar mualliflari uchun mushtarak xususiyat shundan iboratki, ular hozirgi O'zbekiston xududi qadimdan turli madaniyatlar na tamaddunlarning jadal o'zaro ta'sirlashuv va o'zaro singishuv, shuniigdek, hunarmandchilik va san'atning rivojlanish maskani bo'lganligini anglab yotishgan. Bunda, 3.Orifxonova ta'kidlaganidek, (O'zbekistonning «etiik-madaniy uyg'onishi respublika aholisining ijtimoiy-siyosiy hayotida va ijtimoiy onginda» kechgan tub o'zgarishlarning muhim oqibatlaridan biri. Bu esa milliy o'z-o'zini anglashning ildam rivojlanishida, milliy madaniyat va ma'naviyatniing qayta tiklanishiga milliy davlatchilikni harpo etish va mustahkamlashga bo'lgan intilishni kuchaytirishda o'z ifodasini topadi».

SHu jihatdan O'zbekiston hozirgi rivojlanishining ijtimoiy yunalishlariga bog'langan bir qancha asarlar yaratildiki, ulardagi qoida va xulosalar O'zbekistonning birinchi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida mukammal bayon etilgan O'zbekiston rivojlanish kontseptsiyasining muhim qoidalariga asoslangan:

Ilmiy asarlarning kattagina qismi O'zbekiston etnografiyasi turli masalalarining tarixiy yunalishlariga shuningdek, o'zbek xalqining an'ana va urf-odatlarini shu jumladan mehnat va xalq ijodiyotiga bag'ishlangan.

Mazkur asarlar mazmunini tahlil qilishdan kelib chiqadigan eng muhim xulosa shundan iboratki, ularning mualliflari o'zbek xalqining iqtisodiy, etnik-ijtimoiy va etnik-madaniy rivojlanish muammolarini yangicha jamuljam, quruq fikrga asoslanmagan.

Har tomonlama idrok etish uning xususiyatlarining jahon taraqqiyotida o'zbek madaniyatining o'rni va rolini xolis tavsiflashga intilishadi. To'la ishonch bilan shuni aytish mumkinki ba Vatanimiz etnografiya fan rivojlanishining sifatini yangi, ijobiy yo'nalishidir.

Ayni vaqtda tarixiy-etnografik tadqiqotlar bilan jarayonida shu narsa ayon bo'ldiki, ularning aksariyat vaqt jihatidan XIX asrning oxiri va XX asr boshlarini o'z ichiga oladi. Bundan shu davrgacha va undan keyin xalqimiz hayotida go'yoki biron jiddiy o'zgarishlar ro'y bermagandek taasurot tug'iladi. Binobarin mualliflar o'z e'tiborini XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida qaratgan ekanlar, bilvosita o'zbek xalqining hayyoti, turmush va madaniyatida tub o'zgarishlar o'sha davrdagi siyosiy voqealar bilan, xususan, O'rta Osiyoning CHor Rossiyasi tomonidan zabt etilishi va o'lkani rus mustamlakasiga aylantirilishi bilan bog'liq degan fikrni tasdiqlamoqchi bo'ladilar.

Tarixiy-etnografik na etnografik-sotsiologik asarlari mualliflari o'zlarining maxsus tadqiqotlarida O'zbekistonning xududlari, chunonchi, Farg'ona, Buxoro, Qoraqalpog'istonning mintaqaviy o'ziga xosliklarini turli jihatlarini o'rganganlar. Afsuski, bu borada, Respublikamizning boshqa mintaqalari tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan.

Fikrimizcha, zamonaviy shahar hayoti etnografiyasini o'rganish va, ayniqsa, katta va kichik shaharlarni qiyosiy tahlili, shuniigdek, 1990 yillar davomida bo'lgan rivojlanish tarzini tadqiq etish ham ahamiyatga molikdir.

So'ngi yillarda O'zbekistonning tarixiy va zamonaviy etnografiyasi chet el olimlarida ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Buni uchun barcha asoslar mavjud, avvalo, respublikamizda olib borilayotgan siyosatning barqarorligi va ishoichiligi, mamlakatimizning alohida geosiyosiy mavqei, boy resurslari nufuzi va x. k., shuniigdek, tub o'zgarishlar jarayonlarining «o'zbek modeli» hamda O'zbekiston xalqaro nufuzining jozibadorligidir.

O'zbekiston bo'yicha Rossiyada nashr etilgan, boshqa masalalar ham o'zbek xalqining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, an'ana va urf-odatlarini, madaniyati va turmushini aks ettiruvchi jamoaviy monografik asarlar ham diqqatga sazovor.

Xususan, «O'zbekistan: obretenie novogo oblika» monografiyasi mualliflaridan biri e. Ivanov respublika iqtisodiyoti va xo'jalik yuritish siyosiyati haqida fikr yuritgan ekan, jumladan, shunday ta'kidlaydi: «Shu SSSRning mustamlakka erishgan va millatlararo munosabatlarni iqtisodiy ahvoli va xususiyatidan, mamlakatimizdagi mavjud vaziyatdan umuman bezabardir. Darvoqe, bunday holat Rossiyalik mualliflar tadqiqotlarining aksariyatiga taalluqli.

O'zbekistondagi mayda millatlarning ahvoli mavzo'i xususida so'z bo'lgan ekan, rossiyalik mualliflar, asosan, respublikadagi etnik ruslar tomonidan rus tilida so'zlashuvchi aholining axvolni tadqiq etishadi, Ushbu muammoga talaygina asarlar bag'ishlangan. Rossiyalik mualliflarning bu asarlari O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarda xar ikki mamlakatning xalqaro maydondagi o'z mintaqasi qo'lamidagi o'zaro aloqalari masalalar bilan uyg'unshib ketadi. Ta'kidlash joizki, bir qator holatlarda rossiyalik tadqiqotchilar ruslarning O'zbekistondagi axvolni aks ettiruvchi chinakam dalil ma'lumotlar ni e'tiborga olishmandi.

Ushbu sharhda, bir so'z bilan aytish mumkinki, O'zbekistonning tarixi va madaniyati mavzusi G'arbda, avvalo AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa xorijiy mamlakatlarda juda faol tadqiq etilapti, Maxsus tarixnavislik nuqtai nazaridan tadqiq etish talab qilinadigan mazkur asarlarni mufassal tahlil etishga berilmay, shuni ta'kidlamog'chimizki, xorijlik mualliflar O'zbekistonning tarixi, hozir rivojlanishi tug'risidagi muqolozalarida, baho berish hamda xulosa chiqarishda ko'pincha, bir yoqlama va nojuyay yul tutganlar. Bu hol, umuman, ularda respublikada yuz berayotgan o'zgarishlar haqida aniq tasavvur yuqligidan, o'zbek xalqining mentaliteti, milliy rush, milliy g'oyasini tushunmasligidan dalolat beradi.

O'zbekiston etnografiyasi bo'yicha maxsus adabiyotlarning qisqacha sharhini yakunlar ekanmiz, quyidagilarni ta'kidlash joizdir. Birinchidan, bizningcha, har qanday etnografik tadqiqotning nazariy asosi, amaliy ahamiyati tadqiqotining mamlakatimizda ruy berayotgan tub o'zgarishlardagi o'z ishtirokini nechog'liq aniq, ravshan anglab etishga o'z Vatanining mustaqillik g'oyalarga qay darajada sodiqligiga shaxsiy-ilmiy faoliyati amaliyotga qanchalik samara berayotganligiga bog'liq.

Ikkinchidan: etnografik tadqiqotlar faqat biron bir muayyan ilmiy bilish axborot tahliligagina yo'naltirilmasligi darkor, Bugungi kunda ilmiy bilish sohalaridan biri sifatida xalqning hayot tarzi, turmushi, madaniyati an'ana e'tiqodini o'rganuvchi etnografiya jamiyatimiz oldiga davr qo'ygan savollarga aniq javob berishi ayniqsa muhim. SHu munosabat bilan etnograf va o'lkashunoslarning respublika kengashida O'zbekiston enografiya faniniig aniq amaliy vazifalarini belgilab olish maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb o'ylaymiz.

Uchinchidan: O'zbekiston enografiyasi madaniyati buyicha chet el tadqiqotlari tanqidiy o'rganish etnografiya faniniig muhim vazifasi bo'lmog'i lozim. Buning muhimligi shundaki, xorijda nashr etilgan barcha asarlariig mualliflari ham o'z tadqiqotlarida xolis, respublikada po'y berayotgan jarayonlarni tug'ri tushunadilar, deb bo'lmaydi. Bizning tadqiqotchilarimiz chet ellarda elektron OAV va alohida nashrlar orqali keng tarqatilayotgan notug'ri fikrlarga, O'zbekistondagi voqelikka berilayotgan keskin va bir yoqlama, noxolis baholarga jo'yali va asosli javob berishlari lozim.

Savollar:

1. Tarixshunoslik predmeti va o'rganish sohasi.
2. Tarixshunoslikda maxsus sohalar.
3. Tarixshunoslikning rivojlanish bosqichlari.
4. Tarixiy manbalarning ahamiyati.
5. Tarixiy tadqiqotlari tizimida tarixshunoslikning ahamiyati.
6. Tarixiy davr va o'zgarishlar.
7. Tarixiy yilnomalar.
8. Soxta tarix va haqiqat.
9. Qadim tarix maktablari.
10. YUNon-Rim tarixchilari.
11. Geradot tarixshunosligi.
12. SHarq tarixshunoslik maktablari.

III BOB. ILK O'RTA ASRLARDA O'RTA OSIYODA TARIXIY BILIMLAR TARAQQIYOTI

V-VI asrlarda O'zbekiston tarixi Eftaliylar davlati tarixi bilan bog'liq. Eftaliylar saklar va massagetlarning avlodlaridir. Eftaliylar juda katta hududda o'z hukmronliklarini o'rnatdilar.

563-567 yillari turk hoqoni Istemi (Dizovul) Eron hukmdorlari bilan ittifoq tuzib, Eftaliylar davlatiga zarba beradi va ularga qarashli yerlarni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ladi.

VI asr o'rtalarida Turk hoqonligi zaminida ilk katta yer egaligi munosabatlari shakllana boshladi. O'zaro urushlar natijasida bo'linib ketgan G'arbiy turk hoqonligi markazlashmagan davlat bo'lib, 15 ga yaqin mustaqil hokimliklardan, So'g'dda yuechji xalqidan chiqqan juhg'u, Buxoroda mahalliy buxorudot, Farg'onada ixshidlar kabilardan tashkil topgan edi.

Hoqonlik tarkibiga kirgan xalqlar bir qismi So'g'd, Xorazm, Tokariston, Farg'ona dehqonchilik, shahar aholisi hunarmanchilik va savdo-sotiq bilan, uning tog'li va cho'l tumanlarida istiqomat qiluvchi katta qismi esa chorvachilik bilan shug'ullangan.

O'rta Osiyo davlatlari bilan Turk hoqonligi o'zaro munosabatlari tarixini T.Saidqulov, L.N.Gumilev Abushiy Xasan Ato va Turon Umon asarlari orqali bilib olishimiz mumkin. Bu asarlar orasida Navoiyning «Turk hoqonligi» nomli asari alohida o'rinni egallaydi. Garchi olim filolog bo'lsada, qadimgi turkiylarning imon-e'tiqodi, madaniyati, turmush tarzi haqida qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi. Ushbu asarning e'tiborli joyi shundakim, N.YA.Bichurin, I.G.Klyashtorniy, V.A.Livishits kabi tarixnavislarning ilmiy merosini yangicha yondashuv asosida talqin qila olgan.

Arablar O'zbekiston hududiga 674 yildan boshlab bostirib kira boshladilar. 705 yildan boshlab arablarning O'zbekiston ustiga istilochilik yurishlari kuchaydi. Bunga arablarning Xurosondagi noibi Qutayba ibn Muslim (715 yili hozirgi Andijon viloyatining Jalolquduq tumanida, hozirgi SHurunch mo'zar, aslida Qilich mo'zar temir yo'l bekati yonida o'ldirilgan) boshchilik qildi.

Arab istilosi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga katta zarar etkazdi, ko'plab katta va boy shaharlarning kuli ko'kka sovurildi, ming-minglab kishilarning «yostig'i quridi», Marv,

Buxoro, Samarqand va Xorazm kutubxonalarida saqlanayotgan juda ko'p noyob asarlar yo'q qilindi.

O'zbekiston xalqlari arab istilochilariga qarshi bir necha bor qo'zg'olon ko'tardilar. SHular sirasida 769-776 yillarda butun Movarounnahrni larzaga solgan Muqanna (783 yili o'ldirilgan) boshchiligida bo'lib o'tgan qo'zg'olon tarixshunosligi mustaqillik yillarida alohida o'rganildi. Masalan G'ulom Karim «Muqanna qo'zg'oloni muarrixlar talqinida» // Ma'rifat, 2003 yil 8 fevral, 15 fevral, 15 may sonlarida.

Ibn Xalikxon Muqannaning nomi Ato bo'lgan deb yozadi. O'rta asrlarda yashagan arab muarrix turkiy «ota» so'zini shunday yozgan bo'lishi mumkin. O'sha zamonda islomni qabul qilgan turonliklar asl turkiy va sug'diy nomlaridan tashqari, arabcha ism yoki laqablar ham olishi urf bo'lgan edi.

SHu narsa diqqatga sazovorki, qadimgi tarixiy manbalarda ham Muqanna qo'zg'oloniga turlicha munosabat bilan yondoshish hollari bo'lgan. O'rta asrlarda oq kiyimlilar harakatga maxsus bag'ishlab yozilgan asarlar qatorida Abubakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Ibrohim ismli muarrixning «Axbori Muqanna» («Muqanna haqida xabarlar») kitoblari tilga olinadi. Akademik V.V.Bartol'dning taxminicha, bu asar muallifi asli kelib chiqishi turkiy xonadondan bo'lgan va arab tilida ijod qilgan mashhur shoir Ibrohim ibn Abbos as-Suliy bo'lishi kerak. Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida: «Muqanna haqidagi xabarlarni forschadan arabchaga tarjima qildim va ularni «Oq kiyimlilar va narmatiylar haqidagi xabarlar» nomli kitobimda to'la bayon etdim», deb ma'lum qiladi. Oq kiyimlilar qo'zg'oloniga, shuningdek, o'rta asrlarning Tabariy, Bal'aviy, Ibn Xallikon, Gardiziy, Abulfaraj YAhudiy, YA'qubiy, Ibn al-Asir kabi ulkan muarrixlari o'z asarlaridan joy ajratishgan.

Muqanna qo'zg'oloni zamonaviy tadqiqotchi va adiblarni ham ilmiy va badiiy asarlar yaratishga ilhomlantirib kelmoqda. O'tgan XX asrda «oq kiyimlilar» harakati haqida Sadriiddiy Ayniy, A.YAkubovskiy, T.Qodirova va Poyon Ravshanovlarning muhim tadqiqotlari yuzaga keldi. Atoqli shoir Hamid Olimjon «Muqanna» tarixiy dramasi, yozuvchi Mirzapo'lat Toshpo'latov «Sanam tog'idagi gulxan» tarixiy qissasini yozdi. Xorijiy mamlakatlarda ham ilmiy tadqiqotlar yaratilgan bo'lib, Eron yozuvchisi Saif Nafisiy va argentinalik jahonga mashhur

shoir Xorxe Luis Borxesning Muqanna haqida hikoyalar yozishgani ma'lum.

Arablar bosqini tarixiy bilimlar rivojiga ta'sir qilmasdan qolmadi. Izzomiyat tarixida xalqlar hech qachon bir-biridan uzilib qolgan holatda yashaganlar. Hayot dialektikasiga binoan bunday bo'lishi ham mumkin emas edi.

Arab xalifaligi tarkibiga kirgan xalqlarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotidagi katta tafovutlar, mahalliy aholi va bosqinchilar o'rtasidagi ziddiyatlarning tobora kuchayib borishi tufayli Movarounnahrda Somoniylar (819 y) hokimiyat tepasiga keldilar. Bu hol mamlakatning iqtisodiy va madaniy yuksalishiga yo'l ochdi.

Movarounnahr maxsus geografik termin sifatida arablar o'rtasida VII-VIII asrdan, aniqrog'i, arab istilolari boshlanish davridan ma'lum va «faryo orqasidagi (Amudaryo ortidagi) erlar» ma'nosini anglatgan.

Darhaqiqat, shundan boshlab Movarounnahrning shon-shuhrati jahonga namoyon bo'ldi. Movarounnahr ilmiy ziyo markazi sifatida butun dunyogav etildi. U islom ulamolarini etishtirgan, xususan, tarixshunos va geograf olimlar Vatani sifatida olamda shuhrat qozongan muqaddas yurtidir. Vatanimizning IX-XII asrlaridagi madaniy yuksalishini tarixshunoslar sharq uyg'onish davriga mengzaydilar.

Bo'riboy Ahmedovning «O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari» (Toshkent, 2003) risolasida O'zbekistonda VIII-XIX asrlarda yashab ijod htgan tarixshunoslar, ularning ilmiy faoliyati va muhim asarlariga qisqacha to'xtalib o'tiladi. Risola ikki qismdan iborat. Birinchi qismga tarixshunos va geograf olimlar kiritilgan bo'lib, ikkinchi qismida biograf olimlar va ularning muhim asarlari (tazkiralari, manoqiblari) haqida umumiy ma'lumot beriladi. Risolada IX-XII asrlarda yashab, ijod qilgan 8 ta yirik, madaniy yuksalishga hissa qo'shgan, tarixshunoslar haqida ma'lumotlar beriladi. Bular quyidagilardir: Abu Abdulloh Muhammad al-Xorazmiy – VIII-IX asrlarda (789-850 yy.) o'tgan xorazmlik qomusiy olim. Al-Xorazmiyning tarixiy asari – «Kitob ut-tarix» bo'lib, ayrim parchalari al-Tabariy (839-923 yy.) va Ibn-al-Asir (1160-1234 yy.)ning kitoblari orqali bizgacha etib kelgan.

Bal'amiy – X asrda o'tgan buxorolik tarixnavis va davlat rabobi. Somoniylar qo'lida vazir vazifasida xizmat qilib, Tabariyning «Tarix ul-ansbiy» va – r-rasul va-l-xulof» nomli asarini fors tilida muxtasar qilib qaytadan yozgan, natijada asardan foydalanish osonlashtirilgan.

Abu Nasr Muhammad Utbiy (961-1022 yy.) X asrning yirik arabiynavis tarixshunos olimi. «Tarixi yaminiy» (YAmin-arab, o'ng qo'l; Sulton Mahmudga xalifa al-Qodir (991-1031) tarafidan berilgan) nomli asarni yozgan. Asar o'rta asr tarixshunosligiga oid va xos-og'ir uslub-saj bilan yozilgan.

Abu Hafs an-Nasafiy (1142-43 yy. Vafot etgan) Samarqandlik tarixchi olim. Uning «Kitob ul-qand fi tarixi Samarqand» nomli asari mavjud. Bu asarda Samarqandning osori atiqalari va ulamolarining tarjimai holi haqida ma'lumotlar beriladi.

Baxtga qarshi asarning arabcha nusxasi saqlanmagan. Bizgacha etib kelgani «Kichik qandiy» nomi bilan ataladi.

Sam'oniylar XII asrda yashab o'tgan mashhur qomusiy olim. Sam'oniylar o'zidan katta yodgorlik qoldirib ketgan. U ikkita yirik asar «Kitob ul-ansob» («Nasablar haqida kitob») hamda yigirma jildlik «Tarixi Marv» kitoblarining muallifidir.

Xullas, IX-XII asrlardagi yuksalish uzoq davrlar mobaynida taraqqiy etib kelayotgan turmush madaniyatiga ega bo'lgan xalqlar hayotida yuz beradi.

Abubakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn SHarik an-Narshaxiy (899-959) X asrda yashab o'tgan buxorolik yirik tarixshunos olim. Narshaxiy asli Buxoroning Narshax (hozirgi Vobkent yonida) qishlog'idan chiqqan.

Narshaxiy «Tarixi Buxoro» deb shuhrat topgan qimmatli bir asar yozib qoldirgan. Mazkur asar aslida arab tilida yozilgan, lekin arabcha matni saqlanmagan. Bizgacha uning qisqartirilgan forsiycha tarjimasi etib kelgan, xolos.

«Tarixi Buxoro»da Zarafshon vohasining quyi oqimida joylashgan shahar va qishloqlarning geografik holati, mahalliy aholining VII-X asrlardagi turish-turmushi, Buxoroning diqqatga sazovor joylari, O'rta Osiyoning arablar tarafidan istilo etilishi, mamlakatning Somoniylar hukmronligi (819-1005 yy.) yillaridagi siyosiy tarixi voqealariga qisqa tarzda bayon etilgan.

«Buxoro tarixi»ning hozirgi tarixshunoslik uchun qimmatli manba ekanligi shubhasizdir. Bizgacha etib kelgan «Buxoro tarixi» so'z boshida yozilishicha, kitobni 1128 yili arab tilidan quvalik Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Quboviy o'z do'stlari taklifiga binoan fors tiliga tarjima qilgan. Quboviyning yozishicha, u tarjima jarayonida kitobdagi ortiqcha tasvir va keraksiz joylarni qisqartirgan, ammo asl mohiyati va mazmunini qoldirib, keyingi tarixiy voqealar

hukmroni o'zidan qo'shgan. Asar 1966 yili o'zbek tilida Sodiq Mirzaev tashkilotida Toshkentda nashr etildi. Eng so'nggi o'zbek tilidagi nashri 1981 yilda flo'riboy Ahmedov tahririda chop etilgan bo'lib, tarixiy voqealarning xolisona bayoni uni qimmatli manba darajasiga ko'taradi.

O'rta Osiyodan etishib chiqqan olimlar tomonidan jahon ilm tarixiga qo'shilgan hissaning naqadar buyukligi tarixchilar tomonidan qayd etilgan, tarixshunoslar tomonidan esa muntazam targ'ib qilib kelmadi. Hozirgi bizga ma'lum «arab raqamlari» aslida Muhammad ibn Xorazmiy tomonidan hind tsifralari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, Rim papasi Sil'vester II (999-1003 yillar) buyrug'i bilan Ovrupo mamlakatlarida joriy etiladi. Bu davrgacha o'ta noqulay rim raqamlari qo'llanilar edi. Sil'vester yoshligida Ispaniyada ta'lim olgan, arab tilini bilgan zamonasining o'qimishli vakili edi. Dastlabki Ovrupo universitetlarining faqat tibbiyot bo'limlarida matematika o'rganilgan. O'rta asrlarda ko'pchilik shifokorlar matematik ham bo'lganlar. Ibn Sino nomini tarjimonlar o'z tillarida Aben Sena deb yozadilar. Bu nom o'zbek tilda Aven Sina shaklida qo'llanilib, lotin transkripsiyasida Avicenna bo'lgan. Bizning tushunchamizdagi shifoxonalar Ovrupada faqat 1500-yillarda tashkil topadi. Ular bemorlarni Ibn Sino va ar-Roziy usullari bilan davolaydilar. «Al-Qonun», 1500-yilgacha hali kitob bosish usuli endigina amalga oshirila boshlagan davrda 16 marta chop etiladi. Bu XVII asr oxirigacha Ovrupada yagona qo'llanma va darslik sifatida qo'llanilgan.

O'rta Osiyo olimlarining ilmiy taraqqiyotidagi xizmatlarini hozirgi zamon tarixshunosligi fani nuqtai nazaridan tahlil qilish barobarida ularning ijodiy merosini falsafiy-metodologik nuqtai nazardan o'rganish ham dolzarb vazifa. Aslida bu ham ana shu merosni ta'rifdaga kiritishning yana bir yo'lidir. O'rta Osiyo olimlari yunon, hind olimlari erishgan natijalarni o'zlashtirish barobarida, fanni butunlay yangicha yondashuvlar, original g'oyalar bilan boyitgani borasida dalillar etarli.

SHuningdek O'rta Osiyo hududlarining tarixiy-geografik tavsifiga oid asarlarda tarixdagi ob'ektiv taraqqiyot qonunlarini ochib bermasdan, voqealarni faqat tashqi bog'lanishi va izchilligiga qarab tasvirlashchi (pragmatizm) oqimi ham mavjud bo'lgan.

Bu yo'nalishning ham o'ziga xos murakkabliklari mavjud. U nafaqat SHarq olimlari asarlarini chuqur o'rganib chiqishni, ayni paytda G'arb falsafasining o'rta asrlardan to bugungi kungacha bo'lgan rivoji davomida ko'tarilgan g'oyalarning genezisi bilan tanishishni va qiyosiy

tahlil qilishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurtlari uchun tarixshunoslik darsliklarini nashr qilishni talab etadi. Bunday o'quv qo'llanmalarda O'rta Osiyo mumtoz fani natijalarini hozirgi zamon nuqtai nazaridan baholashimiz kerak bo'ladi.

Markaziy Osiyo ilk o'rta asrlar (V - VIII) tarixi o'ziga xos taraqqiyoti va mintaqaviy jarayonlari bilan ajralib turadi. Bu davr jarayonlarini aniqlashda sug'dshunoslik sohasiga asos solgan va uning rivojlantirgan garb, rus, sovet va postsovet, sharq va o'zbek olimlarning beqiyos xizmatlari bor.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida SHarqiy Turkiston vohalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida moniy, suryoniy va uyg'ur tiliga yaqin alifbolarda yozilgan yozma yodgorliklar topilgan. Bu nomalarning "pahlaviy dialekti" yozuvini F.K. Anders, X asrga oid Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asaridagi sug'diy oy va kunlarning nomlanishini hujjatlardagi nomlar bilan qiyoslab tiqladi. Bu xaqda 1904 yilda eronshunos F.V.K. Myullerga xabar berildi. SHu yildan boshlab sug'd tili va yodgorliklarni o'rganishga kirishilib, yangi soha sug'dshunoslikka asos solindi. Sohaga F.K. Anders, P. Pelo, F.V.K. Myuller tamal toshini qo'yishdi. Ular topgan aksariyat matnlar diniy-falsafiy mazmunda bo'lib, SHarqiy Turkistondagi turk-sug'd jamoalari tomonidan sug'diy tilga sanskrit va xitoy tilidan qilingan tarjimalar olindi. Bu sohada boshlangan ishni, sug'diy-suryoniy (xristian) matnlari asosida, K.G. Zaleman, 1906 yilda A.Steyn tomonidan Dunxuanidan topilgan "Ko'hna xatlar" ustida R. Plio, G. Rayxelt, keyinchalik V.B. Xeyaning, YA. Xarmatta, V. Lents kabi olimlar davom ettirdilar. Sug'diy til qonuniyatlarini P. Tedesko, sug'diy-buddaviy, sug'diy-moniy va sug'diy-suryoniy matnlardagi sug'diy tili qonuniyatlari, yozuvlar shakli uslubi, tarjimasi, translitiratsiyasi, izohi bilan e. Benvenist, I. Gershevich, S. Telegdi, O. Xansen, F. Veller, D.N. Makkenzi, M. SHvarts, N. Sims-Vilyams kabi olimlar ishlab chiqdilar. Jumladan, N. Sims-Vilyams so'nggi yillarda topilgan sug'd yozma yodgorliklarining o'qilishi va talqini masalasida F.Grene bilan hamkorlikda ish olib bordi. Ular Janubiy Qozog'istondan topilgan sug'diy yozuvli Kultepa bitigini tahlil qilishdi.

Sugdshunoslik sohasiga Osiyo olimlari tomonidan munosib hissa qo'shilmokda. YApon olimlaridan Y. Yoshida Ipak yo'li va u erdagi sug'diy-larning savdo koloniyalari masalalarini so'nggi yillarda topilgan yangi materiallar asosida o'rgangan bo'lsa, K. enoki ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyodagi etnik jaraslar bilan shug'ullandi, eronlik olim B.

Shu sug'diy, forsiy va ingliz tillaridagi lug'ati bilan sug'dshunoslik sohasida katta xizmat qildi. So'nggi yillarda frantsuz tadqiqotchisi F. Lense sug'd yozma yodgorliklari va sug'diylarning Markaziy Osiyo masalasida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. U Sug'd arxeologiyasi, tarixi va madaniyatiga oid qator ilmiy ishlarni chop etdi.

Evropa olimlarning barcha sug'diy madaniyatni, eron madaniyatining bir qismi deb talqin qilib, xatoga yo'l qo'ymokdalar. Chunki, sug'diy madaniyat o'ziga xos bo'lib, bu madaniyat turkiy madaniyat shakllangan va turkiy madaniyat bilan simbioz holatida faqat Markaziy Osiyoga xos turk-sug'd madaniyatining ajralmas qismidir. Chunki Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasini sug'diy (eroniy) yoki turkiy madaniyat sifatida alohida o'rganish va tadqiq qilish mumkin emas.

XX asr ikkinchi choragidan sobiq SSSRda sug'dshunoslik bo'yicha qator ishlar qilindi. XIX asr oxirlarida evropalik olimlar qatori SHarqiy Turkiston arxeologiyasida ishtirok etgan Rossiya Fanlar akademiyasi SHarqiy bo'limining arxeologik jamiyatining vakillari A.I. Kuzanovskiy, N.I. Krotkova, S.F. Oldenburg va V.I. Rorobovskiyalar tomonidan bir qator buddaviy, moniy va xristian dinlari mazmunidagi matnlarining parchalari kolleksiyasi jamlandi. Mazkur noyob matnlar parchalaridan iborat kolleksiyani L.N. Ragoza nashrga tayyorlab, chop etgirdi. 1932-1933 yillarda Tojikistonning Panjikent shahri yaqinidagi Mug' qal'asi xarobalaridan topilgan VIII asr boshlariga oid arxiv hujjatlari sovet sug'dshunosligi uchun katta manba bo'ldi. N.A. Vasilevning Mug tog'i arxivi haqidagi ma'lumotlari, A.A. Freyman ekspeditsiyasi aniqlagan 74 ta hujjat (teri, qog'oz va yogoch parchasidagi shaxsiy va diplomatik xatlar, bitimlar, taqvimlar, xo'jalik va hisob qaydlari, bitta arabcha, uchta xitoycha va bitta runik yozuvidagi arxiv) 1934 yildan nashr etila boshlandi. 1962 yilda A.A. Freyman mazkur hujjatlarning tavsifi, nashri va tadqiqoti bo'yicha o'z ilmiy natijalarini nashr ettirdi. I.YU. Krachkovskiy Mug' arxivining arab tili hujjatlarini tarjimasi va talqini e'lon qildi. XX asr ikkinchi yarmidagi sug'dshunoslik taraqqietiga V.A. Livshits katta hissa qo'shdi. U nafaqat Mug' tog'i arxivi hujjatlarini, balki sug'diy matnlarning katta kompleksini amaliy o'rgandi. Uning sohaga oid nashrlari orasida sug'd yozuvi xillari va tili masalasi alohida o'rin tutadi. V.A. Livshits SHarqiy eroniy tillar bo'yicha mutaxassis L.A. Xromov bilan hamkorlikda sug'd tilini maxsus tadqiq etdi.

Sug'dshunoslik sohasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar O.I. Smirnova 1962 yilda M.N. Bogolyubov bilan birga Mug' arxivining uchinchi qismini (xo'jalik hujjatlarini) nashr ettirdi. U nafaqat Mug' arxivi hujjatlarini ustida, balki ilk o'rta asrlardagi Sug'dning siyosiy tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati va ayniqsa numizmatikasini o'rganishda samarali ish olib bordi. Bu asarlarda Sug'dning mintaqada tutgan o'rni, turk-sug'd munosabatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy qirralariga daxldor ma'lumotlar keltiriladi.

So'ngi yillarda Rossiyada sug'dshunoslikning yangi avlodi etishib chik-mokda. SHulardan biri P. Lure hisoblanadi. Uning tadqiqotlari asosan sug'diy toponimiyani tarixiy-lingvistik tahlillariga bag'ishlangan.

O'zbekistonda sug'dshunoslik sohasiga XX asrning 70-yillarda asos solindi. V.A. Livshitsning shogirdi M.M. Ishoqov O'rta Osiyoda birinchi-lardan bo'lib, sug'dshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borib, sug'dshunoslik maktabini shakllantirmokda. 2008 yilda M.M. Ishoqovning "Marka-ziy Osiyo dunyo yozuv madaniyati tizimida" nomli paleografik tadqiqotlarga bag'ishlangan moirografiya o'zbek va jahon sug'dshunosligining katta yutuklaridan biri bo'ldi. Uning shogirdlari O' Mansurov, III. SHoyoqubov, B.Mamurahimova, A. Xolmatov kabilar sug'dshunoslikning kelajakdagi rivoji uchun hissa ko'shishga kirishganlar. Ularning maqolalari va monografiyalarida sug'diy hujjatlar, xususan Mug' arxivi izchil o'rganilib, Sug'dning ikki etnik birligi sug'diylar va turkiylar o'rni xolis yritilganligi bilan xarakterlanadi.

Sug'd yozuviining mintaqadagi o'rni va turkiy davlatchilikdagi ahamiyati G'.B. Boboyorov tomonidan olib borilyotgan tangashunoslik tadqiqotlarida aks etmokda.

O'zbekistonda sug'dshunoslik sohasini rivojlantirish va o'zbek olimlarining jahon sug'dshunoslari bilan hamkorlik qilishi masalasi dolzarbligicha qolmoqta. CHunki, shu davrgacha qilingan sug'dshunoslikka daxldor ilmiy maqolalar va ilmiy tadqiqot ishlari hozirda O'zbekistonda mavjud manbalarga suyanganda holda bajarilmokda xolos. Vaholanki, so'nggi yillarda Germaniya, Italiya, AQSH, Yaponiya va Xitoy kabi mamlakatlarda sug'd yozma yodgorliklarning yangi namunalari asosidagi tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbek olimlari ushbu jarabga qo'shilish uchun xalqaro internet tizimi, ilmiy mussasalar bilan xamkorlik va O'zbekistonda sug'd yozma yodgorliklari fondini yaratish uchun harakat qilishlari, soha bilan

hamkorlikdagi mutaxassislarini bir markazga to'plab faoliyat yuritishlari zarur bo'lganligi muvofiq bo'lar edi.

MADANIYAT MASALALARINING NAZARIY JIXATLARI

XVIII asrning mashhur nemis faylasufi I.G.Gerder Uning "Insoniyat tarixiga doir g'oyalar" nomli fundamental asarini yozishga boshlayotganda "madaniyat iborasidan ko'ra noanikroq so'z bo'lmasa kerak", deb aytgan edi. Xaqiqatan ham qayd etilgan fikrlar muhokimining "madaniyat" tushunchasini aniqlashdagi asosiy qiyinchiliklarni, uning murakkab, qarama-qarshi va ko'p qirrali mohiyatini to'g'ri tushunganligidan dalolat beradi. Har bir inson bu dunyo o'z dunyoqarashidan kelib chiqib tushunadi. SHuning uchun ham "madaniyat" tushunchasi haqida aniq bir yagona to'xtamli izox yaratilmagan. Zero "madaniyat" so'zining mohiyati shu qadar kengki, uni bir so'z bilan ta'riflash imkoniyati yo'q. 1952 yilda amerikalik olimlar A.Kreber va A.Klaxsonlar madaniyatning 164 ta tavsifini va undan ortiq uning mohiyatini ochishga qaratilgan intilishlarni xisoblab chiqdilar. 1964 yilda ular to'plagan ta'riflar 257 taga etib, hozirda bu son ikki barobar ortgan. YUNESKO ekspertlarining taxminicha, ushbu son 600 ga qarab yaqinlashmokda. Dunyo olimlarining madaniyatga bu qadar qiziqishi uning tushuncha sifatida o'ziga xos murakkabligi va doimiy taraqqiyotda bo'lgan ko'p qirrali ko'rinish ekanligini isbotlaydi. Darhaqiqat, madaniyat shu qadar cheksizlikka ega bir tushunchaki, uning chegarasini aniqlash va ma'lum me'yorga solib qo'yish to'g'ri emas. SHuning uchun xam uning turlari, mazmun-mohiyati, imkoniyatlari doirasi juda keng va doimiy rivojlanishda ekanligini e'tirof etish lozim.

Insonlar madaniyatni xis qilishi va tushunishi bevosita ularning hayot tarzi, o'zaro muloqotga kirishuvi, ijtimoiy munosabatlarning xarakteri va boshqa bir kancha omillar bilan chambarchas bog'liq O'zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasida: "Madaniyat - jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar xayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy davr, konkret jamiyat, elat va millat, shuningdek inson faoliyati va turmushining uziga xos soxalarini izoxlash uchun ko'llaniladi. Tor ma'noda "madaniyat" atamasi kishilarning faqat ma'naviy xayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi", deb ta'rif berilgan. Umuman lotin tilidan evropa xalqlari uchun kirib kelgan "cultura"

iborasi insonning tabiatga ko'rsatadigan maqsadga muvofiq; ta'lim insonga ta'lim-tarbiya berish mazmunini bersa, "madaniyat" so'zi arabchadan turkiy xalqlar tiliga o'rinishib, uning mazmuni "madina" shaxarni anglatadi. Arablar kishilar xayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroi turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik - ko'chmanchi holda dashtu saxrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik - shaxarda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan. SHunga muvofiq, musulmon dunyosi falsafasida, ilm axli dunyo qarashida madaniyat talqiniga aynan shu nuqtai-nazardan yondashuv ustuvorlik qiladi.

Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosida xam "madaniyat" tushunchasi, uning mohiyatini ochishga intilish kuchli bo'lganligini kuzatamiz. SHuningdek, insonlarning madaniylik darajasini belgilash bevosita va bilvosita ijtimoiy xayot, ular yashayotgan jamiyatning ichki va tashqi xolati, siyosiy jarayonlar bilan bog'liqlikda talqin etish ustuvorlik qiladi. O'rta asr SHarq madaniyatining buyuk namoyondasi Abu Nasr Forobiyning fikricha, xar bir inson o'z tabiatiga ko'ra, "oliy darajadagi etuklikka erishish uchun intiladi", bunday etuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Ma'lumki, Forobiy qarashlari Aflotun, Arastu nazariyalari ostida shakllangan bo'lib, allomaning ezigulik va yaxshilik kategoriyalari xususidagi falsafiy qarashlarida yaqqol namoyon bo'ladi va bu tasavvurlarni umumiy xolda "fozillik" iborasida qo'llaydi. Forobiy jamiyat qz rivojida etuklikka tomon intilishi, shuning uchun kurash olib borishi va nihoyat fozil jamiyat, fozil shaxar darajasiga ko'tarilishi xaqida fikr yuritir ekan, "fozil jamiyat va fozil shaxar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, bunday mamlakatda xar bir odam kasb-xunarda ozod, xamma bab-baravardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'z istagan yoki tanlagan kasb-xunari bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod yashaydilar, deb yozadi. Mutafakkir o'z qarashlarida "fozillik" iborasi ostida "madaniylik" mazmunini beradi. jamiyatning mavjudligining ma'naviy asoslarini alloma "tenglik", "birodarlik", "ozodlik", "haqiqat", "go'zallik", "insoniylik" kabi tushunchalar orqali ta'riflashga intiladi va ular insonlar xayotini asosiy maqsadlaridan bo'lishi kerak, degan fikrga urg'u beradi. Umuman olganda, Forobiyning bu fikrlari asosida SHarq mutafakkirlari Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar shahar turmush tarzini jamoaning etuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Masalan, Alisher Navoiy etuk axloq ma'rifatli

va etuk jamiyat, jamoa masalasini qayd etish bilan birga, ma'naviy etuklikka erishishning asosiy mezonini deb insonparvarlik g'oyalariga muvofiqlikni tushundi. O'rta asr mutafakkirlari yuqorida qayd etilgan insonparvarlik tushunchalari orqali madaniyatning holati va turlarini talqiniga intilganlar.

SHarq tarix falsafasining asoschilaridan biri Ibn Xaldun o'zining "Muqaddima" asarida jamiyat va insonlar xayotini "umron" tsivilizatsiyaga taqqoslaydi. Uning barcha ko'rinishlarini umumlashtirilgan xolda, uch bosqichga yoki turga taqsimlaydi. YA'ni "yashaylik" - insonlarni o'troq hayyot kechirgungacha bulgan davri, "badaviya" - ko'chmanchi xayot kechiruvchi, yarim madaniyatli, "shaxariy" yuqori darajadagi xujalik va iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlangan jamiyat. "SHaxariy" madaniyatga o'tganda jamoalar o'rtasidagi tenglik yo'qola boradi va bir-biridan farqlanuvchi "talaqqi"lar vujudga keladi. Ular orasida xokimiyatga intiluvchi gurux ko'planib, davlat tuzadilar. Albatta mutafakkir asarining bosh mohiyatida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan birgalikda falsafiy mushohadalar yotsa-da, shu bilan bir qatorda, turli-tuman xalqlar, qabilalar xamda tsivilizatsiyalarning taraqqiyoti va tanazzuli masalalari xam taqdim etilgan. Ibn Xaldun tsivilizatsiyani tabiat qonuniyatiga taqqoslaydi va uning qo'llash xamda boshqa tsivilizatsiyaga o'z o'rini berish jarayonini - "asabiylilik" davri deb baxolab, uni Mag'rib tarixi misolida tahlil qilib beradi. Mutafakkirning nazariy fikricha, o'ta rivojlanib ketgan jamiyat oxir-oqibat tanazzulga yuz tutishi mumkin.

XX asr boshlari Turkiston jadidlari madaniyat va ma'rifatni ijtimoiy taraqqiyotning bosh omili deb bildilar. Ular o'z davrining ijtimoiy-siyosiy holatini inobatga olgan xolda xalqning milliyligini saqlab qolish bilan birga turmush tarzini zamonaviylashtirish madaniyatlilikning bir belgisi deb hisobladilar. Jadidlar xam dunyo mutafakkirlari singari "madaniyati iborasini ko'prok "taraqqiyot" ma'nosida qo'llaganlar. Iltom dunyosi vakillari sifatida madaniyat xakida mushohada yuritganlarida musulmon falsafasidagidek ular xam taraqqiyotning yaxshilik badaviylik va madaniylik bosqichlarini sanab o'tadilar, xamda tamaddun, ya'ni tsivilizatsiya - madaniyatli jamiyat yaratish uchun ilm, xunar, din zarurligini o'qiradilar. Ular maishiy turmush va axloq mukammalligi madaniyatning eng muxim tarkibiy qismi ekanligiga ypg'y berdilar. Ularning bu qarashlari Evropada ma'rifatparvarchilik davrlaridan boshlangan madaniyat masalalarining nazariy jihatlariga o'xshash edi. Bu tabiiy edi albatta, chunki ular

Aflotun, Suqrot, Arastu qarashlari bilan bir qatorda, I.Kant, SH.Senoboss, O.Kont asarlari bilan xam yaqindan tanish bo'lganlar va shu bilan birga SHarq falsafasining ham bilimdonlari edilar. SHuning uchun ularning nazariy xulosalarining aksariyatida nemis faylasufi I.Kantning tafakkur mukammalligi kontseptsiyasiga yaqin bo'lgan. Inson madaniylikka tayangan holda o'z oldiga maqsadlar qurishi mumkin, madaniyatning "tarbiya madaniyati" va "bilim madaniyati" mavjud kabi fikrlari bilan xamoxanglikni kuzatish mumkin.

Madaniyat masalalarining nazariy-uslubiy jihatlari xususida fikr yuritganda bevosita jahon ilmiy adabiyotlarida ishlab chiqilgan qarashlar, kontseptsiyalarni ba'zilarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. CHunki aynan Fapb falsafiy tafakkurida madaniyat nazariyasiga oid turli-tuman munozaralar, yondashuvlar vujudga keldiki, ular bugungi kunga qadar madaniyatshunoslik nazariyasini takomillashtirishda eng muhim asosni tashkil etadilar. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida ta'kidlaganidek: "Albatta, falsafa zamon va makon bilan bog'liq murakkab fan ekanligini tushunamiz. SHu bois haqiqatni topish uchun qarama-qarshi fikrlarni o'rta tashlaylik, muxokama qilaylik. Talabalar, ziyoli yoshlarimizning o'zi kerakli xulosani chiqarib oladi. ...Men Fapb falsafasida barcha muammolar echilgan, demoqchi emasman. ...Lekin ularni hisobga olishimiz, kerakligini e'tirof, keraksizini inkor etishimiz zarur".

Ma'lumki, Evropada "ma'rifatparvarlik" g'oyalari XVIII asrda keng tarqaldi. Aynan shu davrdan boshlab madaniyat zamirida tsivilizatsiyalar paydo bulganligi xususidagi fikrlar rivojlanib, ularning falsafiy talqinida bu ikki ibora teng ma'noda o'rganila boshladi. SHu bilan birga bu davrda madaniyat va tsivilizatsiyalarning "tanqidi" ham vujudga keldi. Masalan, J.J.Russo "madaniy millatlarning" buzilganligi va axloqan tubanlashganligini taraqqiyotning ilk davrlarida bo'lgan xalklar axloqining soddaligi va sofligiga qarshi qo'ydi. Nemis faylasuflari bu ziddiyatli holatdan chiqishning yo'lini axloqiy (I.Kant), estetik (SHiller) yoki falsafiy (Gegel) ong doirasidan qidirdilar. Ular bu ong soxalarini haqiqiy madaniyat va inson taraqqiyotining omillari deb bildilar. Umuman XIX asr - XX asr o'rtalari dunyo ijtimoiy tafakkurida turli madaniyatlarning kelib chiqish sabablarini tushunish, o'rganishga qiziqish yanada ortdi. Bu davr Fapb falsafiy tafakkurida "lokal tsivilizatsiya" degan qarashlar vujudga keldi. Bugungi kun madaniyatshunoslik fanida "madaniyatning mohiyatini bilishga

madaniyatni yondashuv har bir milliy madaniyatning betakrorligini, uning umuminsoniylik va o'ziga xoslik mavjudligini e'tirof etishni nazarda tutadi", - deb tushuntiriladi. Bu g'oyalar N. YA. Danilevskiy, O. Aflotunlar, Aloyinbi kabi mutafakkirlarning asarlarida qayd etilib, ular o'z mazharlari ijtimoiy xayotning tsivilizatsion tuzilmasiga e'tibor qaratishlar. Ular ijtimoiy xayotning asosini turli darajadagi bir-biridan farqlanib bo'lgan tsikli "madaniy - tarixiy tiplar" yoki "tsivilizatsiyalar" o'z taraqqiyoti bosqichida tug'ilish, rivojlanish, keksalik va qulash bosqichidan o'taydi, degan fikrga ypg'y berganlar.

Tafakkur "madaniyat tsikllari nazariyasi"dan farqli ravishda nemis faylasufi Karl YAspers (1883-1969) "insoniyat yagona kelib chiqish va yagona rivojlanish yo'liga eta" degan g'oyani o'rta tashladi. SHunga ko'ra u insoniyat bosib o'tgan juda katta yulni 4 ta yirik madaniy tipdagi bosqichga bo'ladi:

ibtidoiy davr - madaniyatning Prometey tipi (mil.avv 5000y.)

qadimiyatning buyuk madaniyatlari davri (Qadimgi Misr, SHumer, Babul, Hindiston, Xitoy madaniyati)

"O'q atrofidagi vaqt" - madaniyatning umuminsoniy asoslarining rivojiga kelishi, shaxslarning shakllanishi (mil.avv 7-1 asrlar). U madaniyatshunoslikka "O'q atrofidagi vaqt" - "osevce vremya" tushunchasini kiritdi. Os - bu markaz, tayanch, mazmuman vaqt nuqtasidir — YUqori davr (imper davri) - fan va texnika rivojiga aylanadi.

YAspers bunda Evropadagi ilmiy-texnika tsivilizatsiyasining shakllanishi bilan bog'lanadi. XVII-XX asrlar)

YAspers bu tipologiyaning evrotsentrik ko'rinishga ega bo'lishini istamagan va tarixiy vaqt o'qi barcha insoniyatga taalluqli deb xisoblaydi. Uning kontseptsiyasi buyicha eng zarur tayanch nuqtasi, ya'ni markazi sifatida muhim tarixiy voqealar ko'rsatiladi va ular insoniyat tarixini tubdan o'zgarishiga ham sabab bo'lgan. YAspersga ko'ra, ibtidoiy davr - bu tarixgacha bo'lgan davr. CHunki inson bunda vaqt oraliq'ini bilmagan holda tarixdan ayro yashagan. Bu davrda asta-sekin til, mehnat qurollari, olovning paydo bo'lishi natijasida insoniyatning bir-biriga yaqinlashuvi vujudga keldi. YAspers kommunikatsiya aloqalarining paydo bo'lishini madaniy bosqichning muhim jihati sifatida karadi. Mil. avv. 4 ming yilliklarga kelib, insoniyat rivojida yangi bosqich - tarixiy davr vujudga keladi. Qadimiy buyuk madaniyatlar, davlatlarning, yozuvning paydo bo'lishi, suv resurslaridan foydalanish texnologiyalarining yaratilishi bunga asosiy omil bulib

xizmat qilgan. YAspers 3-bosqichni insoniyat tarixida "o'q atrofidagi vaqt" deb atar ekan, u bu davrda madaniy to'ntarilish bo'lib o'tdi, u ta'kidlaydi. YA'ni bu to'ntarilishlar bir-biridan aloxida uch regionlarda SHarqda (Xitoy, Hindiston), Yaqin SHarqda Falastin, eron, G'arbda kadimiy YUnonistonda sodir bo'ldi. YAspers "o'q atrofidagi" vaqt diniy falsafaning paydo bo'lishiga bog'laydi: "Bu bosqichda yunon hozirgacha fikrlayotgan va bugungi kun kishilari xayoliga yunonlarni yunaltirayotgan dunyo dinlariga asos solindi". Uning fikricha, Xitoyda Konfutsiy va Lao TSzi, Hindistonda buddizm, eronda zardushtiylik, kadimiy YUnonistonda Gomer eposlari asosidagi yunon falsafasining vujudga kelishi davridan turli mifologiyalardan ilmiy tafakkurga o'tish davri boshlanganligini kuzatish mumkin. Aynan shu davrdan boshlab turli mintakalarda ilmiy, falsafiy bilimlar, san'at va dunyo dinlarining poydevorlari qo'yildi. Bu esa kelgusi madaniyatlar rivojini belgilashda muhim omillardan bo'ldi. "O'q atrofidagi vaqtda" insoniyatning ma'naviy birligi shakllana boshladi va xalqlar tarixiy taraqqiyotga tortila boshladi. YAspers buni G'arbda german va slavyan, SHarqda esa yapon, koreys, malayziy xalqdari tarixi bilan bog'liqlikda ko'rsatadi. Messopotamiya misolida avval fors, keyin islom, Misrda rim-xristian, keyinroq islom ma'naviy dunyosiga kirish jarayonlarini kursatar ekan. "O'q atrofi"dagi g'oyalarni qabul qilmagan xalqlar tarixdan ajralib kolganlar yoki yo'k bo'lib ketganlar.

N. A. Berdyaev (1874-1948) bu ikki ibora o'rtasidagi farqni
ko'rsatadi. Uning "ijtimoiy xayotda ma'naviy ustunlik
tomoniga tegishli. Jamiyatning maqsadi siyosat va iqtisodda emas,
madaniyatda amalga oshadi. Jamoatchilikning sifat va qadriyatlarini
jamiyatning sifat darajasi bilan o'lchanadi degan fikri K.Y.Aspersning
fikriga asoslanib, yanada yanqindir. N.Berdyaev madaniyatning asosiy
komponentlari - vorislikda ko'radi, ya'ni bu madaniyatning konservativ
komponenti bo'lib, kelajakka intiluvchi va yangi qadriyatlarni yaratuvchi
komponentidir. Madaniyatning konservativ komponentlarini e'tiborga
olib, berdiyaev uni inqilob bilan ziddiyatda ko'rди. eng avvalo
inqilob madaniyat va tsivilizatsiyani aniq ajratdi. "Madaniyat
qadimiy bo'lsa, u shunchalik ahamiyatli va go'zaldir.
Inqilob esa qadimiy bo'lsa, u shunchalik ahamiyatli va go'zaldir.
Inqilobat doimo o'zining qadimiy kelib chiqishi, buyuk o'tmish bilan
bog'liqligi bilan g'ururlanadi", "tsivilizatsiya o'zining
qadimiy qadrlab, qadimiy va chuqur ildizlarini izlamaydi. U
inqilobning kashfiyoti bilan g'ururlanadi. Uning ajdodlari yo'q". Aytish
kerakki, N.Berdyaev tsivilizatsiyaning umumiy xarakteriga ko'proq
e'tibor beradi va bu hodisani barcha xalqlarda bir-biriga o'xshash belgilar
bilan namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. "Mist, Bobil, YUnoniston va
Roma madaniyatlar kabi qadimiy xalqlarning madaniyati ilk
inqilobatdan beri, o'ziga xos va qaytarilmas individuallikka ega.
Madaniyatning qalbi mavjud. TSivilizatsiyaning esa faqat usul va
usullar bor. Olim madaniyatning tub ildizini din bilan bog'laydi.

yondashuvlar mavjud.

Bugungi kun da dunyo olimlari Yaponiya, Janubiy Koreya kabi Osiyo davlatlarini an'analarga sodiqlik asosida G'arb texnologiyatlarini o'zlashtirib, an'anaviy madaniyatga, o'z identikligi saqlab qolgan va rivojlantirayotgan tsivilizatsiyalar sifatida baxolamoqdalar.

Madaniyat tarixi falsafasiga doir nazariy fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, ularda eng avvalo jamiyat rivojining o'ziga xosligi aniqlash kuchli bo'lib, turli yondashuvlar, ya'ni tarixiy jarayonlarga madaniy tiplar, davrlashtirish mezonlari orqali, taraqqiyot o'leholi nisbatida tahlil etilganligi kuzatiladi. Bunday turli talqinlarning bo'lishi tabiiy, chunki tarix turli ijtimoiy davr, madaniyat, tsivilizatsiyalarni o'z ichiga olar ekan, har bir jamiyat rivoji o'ziga xoslik xususiyatlari bilan taraqqiy etadi hamda har xil ma'naviy qadriyatlar, diniy, mafkuraviy va x.k. jihatlarni o'zida aks etiradi.

O'rta Osiyo hududi o'zining tabiiy-geografik sharoitiga ko'ra, qadimgi dehqonchilik va chorvachilik yodgorliklari keng tarqalgan o'lkalardan biri hisoblanadi. Aytigsa, mazkur xudud qadimgi dehqonchilik madaniyatining paydo bo'lishi va rivoji uchun qulay imkoniyatlarga ega. O'rta Osiyoning mintaqaviy rivojlanishi asosida ibtidoiy urug' jamoalarining o'zlashtiruvchi xo'jaligidan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tishi, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklarining paydo bo'lishi va rivojlanishi stadi. Uning davriy sanasi mintaqaning tabiiy geografik sharoitidan kelib chiqib, turli tarixiy davrlarda, ya'ni vohalarda bir davrda yuz bermagan. O'lkamizni tabiiy-geografik muhiti, tekislik erlarda dehqonchilikni rivojlantirish uchun, tog' va tog' oldi hududlarda esa chorvachilikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat mavjud bo'lgan.

Dehqonchilik madaniyatining ilk bosqichi ilmiy adabiyotlarda turlicha nomlar bilan atalib kelingan bo'lib, ular qayir, liman, qoq, cho'ntaq, qo'ltiq (motiga) dehqonchiligidan iborat bo'lgan. Azim daryolar va tog' soylari quyi havzalarida keng tarmoqlarga bo'linib, asrlar davomida oqizib kelgan chirindi aralash loyqa hisobiga, keng va tekis maydonlarda ilk dehqonchilik paydo bo'lgan. Odatda, qalin va unumdor tuproq o'zida namlikni uzoq saqlash xususiyatiga ega bo'lgan va ibtidoiy ajdodlar ana shu erlarga yovvoyi boshqoqli donlarni sepib, dehqonchilikni boshlaganlar. Sababi qalin unumdor taqir erlar tarkibida namlik uzoq saqlangan, shu bois, dastlab ekinlarni sug'orishga hojat qolmagan. Ana shunday qoq erlar massivlarida katta va kichik ekin maydonlari paydo bo'ladi. Bu tarixda qoq dehqonchiligi, liman

dehqonchiligi, qayir dehqonchiligi, ko'ltiq dehqonchiligi, ya'ni urug' jamoasi dastlab o'zlashtirgan chegarali maydonda paydo bo'lgan qo'ltiq dehqonchiligi deb nom olgan. Dastlab bunday dehqonchilik maydonlarini ekinga tayyorlashda hayvon kuchidan foydalanilmagan. U uchun biroz yumshatish uchun qo'l omochi qo'llanilgan. SHuning uchun qo'ltiq dehqonchiligi fanda motiga dehqonchiligi deb xam yuritiladi.

Dehqonchilik madaniyati o'z taraqqiyotida ilk, sug'orma, takroriy sug'orma va yuksak darajada rivojlangan madaniy xo'jalik bosqichlarini bosib o'tgan. Qachonki, ilk bobodehqonlar tomonidan dehqonchilik qilish uchun er maydonlarini kengaytirilishi va bu erlarga ishlov berish uchun hayvon kuchidan foydalanila boshlashii kashf etishgach, endi shu maydonlarini sug'orish uchun ariqlar orqali suvlar olib kelish zaruriyati tug'iladi. Bu esa tarixiy manbalarda sug'orma dehqonchilik deb yuritilgan.

Oddiy qilib aytganda, dehqonchilik va chorvachilikning paydo bo'lishi va rivoji mintaqaviy xususiyatning mazmun va mohiyatini tashkil qiladi. Bu ibtidoiy ajdodlarimiz hayotidagi tub ma'nodagi muhim o'zgarishlar O'rta Osiyo mintaqasida, uning rang barang tabiiy geografik sharoitiga ko'ra, mil. avv. VII - V ming yilliklarda ro'y berdi, ya'ni O'rta Osiyoda neolit davridan boshlab rivojlanishniig mintaqaviy xo'li shakllanib bordi. Bu jarayonlarning boshlanishidan dalolat beruvchi yirik va muxim yodgorlik Joytun yashash makoni bo'lib, aynan ana shu ob'ektda O'rta Osiyo mintaqasining ilk bor qadimgi dehqonchilik madaniyati belgilari yaqqol ko'riladi. SHu kezlarda uning shimoliy sarhadlarida bu davrda ibtidoiy jamoalar hali ovchilik bilan kun kechirar edilar.

Joytun madaniyati madaniy-xo'jalik an'analari asosida tarkib topgan eneolit va bronza davrining Anov-Nomozga madaniyati O'rta Osiyo janubining shimoli-sharqiy mintaqalari tomon, shimoliy Kopetdog' bo'ylab keng yoyildi.

Eneolit va bronza davrining boba dehqonlari Zarafshon vodiysiga, Anov-Nomozgoh madaniyatining Nomozga V-VI bosqichlarida Murg'ob vohasiga, Qadimgi Baqtriya kirib boradi. Ularning iqtisodiy xo'jalik va etnomadaniy ta'sirida bronza davriga kelganda qadimgi dehqonchilik madaniyatining qabilalari Ikki daryo oraliq'i (Movarounnahr) va unga tutash viloyatlarga keng yoyiladi.

Zarafshon tog' tizmalaridan bosh olgan Otchonar soy, CHumali soy na SHo'mova soy etaklarida Oyim ko'l tarkib topgan va uni atrofida

sug'orma dehqonchilik qilish uchun qulay unumdor erlar hosil bo'lgan. Dehqonchilik madaniyatining ilk bosqichlarida ushbu erlar atrofida boba dehqonlarning qishloq maskani poydo bo'ladi. Bu qishloq maskani Sarazm qishlog'ini hududida joylashganligi sababli shu nomda atalgan. Qadimgi sarazmliklarni paydo bo'lishini O'rta Osiyoning janubiy mintaqalaridan, ya'ni Kopetdog' tog' etaklarida eneolit davrida tarkib topgan Nomozga madaniyati qabilalarining bu zaminga ko'chib kelishi bilan bog'lasada, A.A. Asqarov fikriga ko'ra, Janubiy Turkmanistonning qadimgi Geoksyur vohasidan ikki maqsadda, birinchisi dehqonchilik xo'jaligi uchun qulay erlarni izlab kelgan bo'lsa, ikkinchisi, rangli metall ma'dan konlari uchun kelib o'rnatilganlar. Yodgorlikda qo'lg'a kiritilgan arxeologik topilmalarning ilmiy tahlilini ko'rsatishicha, Qadimgi Sarazm aholisining iqtisodiy asosini sug'orma, lalmikor dehqonchilik va xonaki chorvachilik tashkil qilgan. SHu bilan birga hunarmandchilikning bir necha turlari hamda binokorlik yuqori darajada rivojlangan. Zarafshon vohasini o'rta havzasida mil.avv. II ming yillik o'rtalarida Sarazmda yuz bergan iqtisodiy va siyosiy inqirozdan so'ng bu hududda ilk bor qad ko'targan qadimgi dehqonchilik madaniyatiga tegishli Ko'ktepa yodgorligi hisoblanadi.

Zarafshoi vohasini quyi oqimlarida ochib o'rgatilgan Zamonboba madaniyati soxiblarining iqtisodiy asosini xonaki chorvachilik va namli qoq erlarga ekanligidan motiga dehqonchilik tashkil qilgan. Bu erda topilgan mehnat qurollari kompleksida tosh yorg'uchoqlar, o'roqlar, tosh keli soplari, qorayib ketgan boshqoli o'simlik donlari, ya'ni arpa, bugdoy, tariq va boshqa o'simliklarni qayd qilinishi dehqonchilik xo'jaligi mavjud bo'lganligidan guvohlik beradi. Kompleks materiallar tahliliga ko'ra, Zamonboboliklarda chorvachilik bronza davrida hali dehqonchilikdan alohida xo'jalik sifatida ajralib chiqmagan. Tadqiqotchi D. Djurakulova Zarafshon vohasini quyi oqimlaridagi tabiiy-geografik omillarni e'tiborga olgan holda, bu erda to antik davriga qadar dehqonchilik xo'jaligi rivoj topmaganligini ta'kidlaydi.

1968 yildan boshlab Surxondaryoda, Ulanbuloqsoy o'zanida joylashgan, mil. avv. II mingyillikka oid Sopollitepa yodgorligining o'rganila boshlanishi bilan O'zbekistonda ilk dehqonchilik madaniyati tarixiga oid ilmiy qarashlar va yondashuvlar tubdan o'zgardi.

O'zbekistonning janubiy hududlarida sun'iy sug'orma dehqonchilikni paydo bo'lishi so'ngi bronza davriga to'g'ri keladi. Buning asosiy sabablaridan biri hududning qulay iqlimi va uning subtropik kenglikda joylashganligidir. Bu hududlarda olib borilgan

arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, so'nggi bronza davriga oid sun'iy sug'orish ipshootlari ilk bor Ulanbuloqsoy va Bo'stonsoy atroflarida topilgan bo'lgan.

A.A. Asqarovni ta'kidlashicha, Ulanbuloqsoy o'zanlari miloddan avvalgi 1700-1500 yilliklarda Sopollitepadagi istiqomat etgan aholi tomonidan o'zlashtirilgan. Sopollitepa va uiiig atrofida kengligi 5-6 metr va cho'qqiligi 1-1,5 metrni tashkil etgan sun'iy sug'orish inshootning qisman saqlanib qolganligi bundan dalolat beradi. Bundan tashqari, ilk dehqonchilik madaniyatlarida sug'orma dehqonchilikni yuqori darajada rivojlanganligini bildiruvchi juda ko'plab mehnat qurollari topilgan. Hozirga toshdan qilingan yorg'uchoqlar, hovoncha, o'g'ir dastasi va uchli motigalarni misol qilib keltirish mumkin. Sopollitepa manzilgohidan esa motigani eslatuvchi bir nnscha topilmalar o'rganilgan bo'lib, hular ikkita yirik o'lchamdagi uchli motiga va ikkita er kavlashga oid motigaga o'hshash qilib suyakdan yasalgan mehnat qurollaridan iborat bo'lgan. Ularga ishlov berish tomoni yaltiroq ko'rinishda bo'lib, hularning sababi qurollar erlarni yumshatish uchun ishlatilgan.

O'rta Osiyoning dehqonchilik madaniyatlarida erga ishlov beruvchi mehnat qurollari qattiq materiallardan, ya'ni tosh va bronzadan yasalgan, lekin tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, qo'shni madaniyatlarda dehqonchilik qilish uchun ajratilgan erlarni yumshatish uchun qadimgi dehqonlar daraxtdan yasalgan mehnat qurollaridan foydalanilgan.

Lekin Sopollitepa manzilgohida olib borilgan tadqiqotlar natijasida, metallardan yasalgan mehnat qurollari uchrasada, lekin bu erda erna yumshatish uchun yog'och va suyakdan yasalgan mehnat qurollari hozircha qayd qilinmagan.

A.A. Asqarov va T.SH. SHirinovlarning Jarqo'ton yodgorligida olib borgan tadqiqotlari natijasida bu erda o'troq dehqonchilik madaniyatining rivojlanganligi, dehqonchilikda sun'iy sug'orish sistemasining kashf etilganligi, Bo'stonsoydan magistral kanallar orqali yangi erlarga suv chiqarilganligi, erna ishlashda omochdan va hayvon kuchidan foydalanilganligi isbotlab berilgan. Sun'iy sug'orishga moslangan dehqonchilikni har tomonlama rivojlantirgan va O'rta Osiyoda ortiqcha boylikning paydo bo'lishiga olib kelgan bir er maydonida bir necha marotaba xosil olish usulini qo'llashgan. SHundan xulosa qilish mumkinki, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'zbekistonning janubiy hududlarida bronza davridayoq shakllangan. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, har qanday dehqonchilik emas, balki

ekinni ko'p marta sug'orish tizimi hosildorlikni oshirib, mehnat unumdorligining yuqori bo'lishiga olib kelgan. A.A. Asqarov fikriga ko'ra, Sopolli madaniyati yodgorliklarida har bir ko'p xonali uylarni bu xonasida zahira mahsulotlari, ya'ni bug'doy, arpa saqlaydigi maxsus saqlash xonalari mavjud bo'lgan. Olib borilgan ilmiy tahlillarni guvohlik berishicha, bu erda past bo'yli g'alla (zerno karlikovoy), yumshoq navli bug'doy va uzum urug'lari qoldiqlari uchragani aniqlangan.

Miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmiga kelib Jarqo'ton SHerobod vohasidagi dehqonchilik jamoalarining himoya qal'asiga aylangan. Aftidan shu davrdan boshlab aholi soni, ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi va aholining turli dehqonchilik vohalariga tarqalib borishi sodir bo'lgan. Aholining ko'payishi o'z navbatida yangi vohalarni o'zlashtirishga va bu vohalarda sun'iy sug'orish inshootlarining barpo etilishiga olib keldi. Mirshodi [Bandixon] sug'orish inshootlari ilk temir davriga borib yanada takomilashadi. Bu jarayonni biz Surxondaryo viloyatida yangi vohalarpi paydo bo'lishidan ham kuzatamiz.

Boshqa vohalarda, jumladan Xorazm, Toshkent, Farg'ona vodiysida ilk sug'orma dehqonchilik jaryonlari birmuncha kechroq, ya'ni so'nggi bronza va ilk temir davrida sodir bo'la boshlagan.

Sopolli madaniyati moddiy manbalarini o'rganish uning tadqiqotchilariga shunday xulosaga chiqarishga imkon berganki, Sopolli davrida dehqonchilikdan ikkinchi mehnat taqsimoti-hunarmandchilikning ajralib chiqishi yuz bergan. Bronza davriga kelib aholi ishlab chiqarishning ma'lum bir sohalariga dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashib bordi. Bu o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ularning bir erga to'planishi uchun imkoniyatlar paydo qiladi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi esa mahsulot hajmining o'sib, qo'shimcha mahsulot paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu davrda xo'jaliklarning ixtisoslashuvi, sugorma dehqonchilikning rivojlanishi, hunarmandchilikda turli tarmoqlarning rivojlanishi, o'zaro ayirboshlash va savdo-sotiqni taraqqiy etishi natijasida jamiyat hastida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga olib keladi. Ushbu o'zgarishlar ilk shaharlarp va ilk davlatchilikpi paydo bo'lishida asosiy poydevor bo'lib xizmat qildi.

YUqordagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, qadimgi sug'orma dehqonchilik uchta bosqichni bosib o'tadi: Birinchi bosqichda eng oddiy liman usulida sug'orishni paydo bo'lishi va uni rivojlanishi. Bunda mavsumiy suv toshishidan tabiiy sug'oriladigan

erda dehqonchilik qilingan. Ikkinchi bosqichda tabiiy sug'oriladigan erdan hosil olish mobaynida dehqonlarda ularni tartibga solish bo'yicha asosida dastlabki irrigatsiya inshootlari bunyod etildi. Uchunda irrigatsiya tizimidan foydalanib sun'iy sug'orishga o'tildi va dastlabki magistral kanallar paydo bo'ladi. Uchinchi bosqichda esa liman erdi kanallardan ariq kovlab suv chiqarish boshlandi.

Umuman olganda mamlakatimiz xududida ilk dehqonchilik inshootlari Zarafshon xavzasida dastlab Sarazmda va Zamonbobo madaniyati zamirida va bir oz keyin Sopolli madaniyati yodgorliklarida topilgan ko'rinadi.

IX-X asrda arab tilidagi tarixiy-geografiya ilmi o'zining yuksak darajasiga chikdi va tarixiy geografiyaga bag'ishlangan katta asarlar yaratildi. Arab tarixiy geografiyasida tavsifiylikka kuchliroq e'tibor qaratilib, ular arab tilida tavsifiy geografiya deb ham ataladi. Bu esa, tarixiy geografiya sohasida butkul yangi qadam bo'lib, yuion matematik geografiyadan katta farq qilar edi. IX-X asrlar O'rta Osiyo shaharlari tizimini o'rganishda mana shu turdagi asarlarning qiymati yuksak hisoblanadi. CHunki tarixiy manbalarda shaharlar holatini yoritib berish mualliflarning e'tiborlaridan chetda qoladi. Ularning ayrimlari asosan kontekst shaharlar va tarixiy jarayonlar bilan bog'liq tarzda shaharlar tarixiga oid ayrim ma'lumotlarni yozib qoldirganlar, xolos. Tarixiy geografik asarlarda esa asosan shaharning o'zini alohida ob'ekti sifatida yoritib berishga urinish kuchli. Bunda butun bir mintaqa, uing geografik holati, axolisi va uning tabaqalanishi, xo'jalik mashg'ulotlari, asosiy dehqonchilik manbai, irrigatsion tizimi, bozorlari, ichki va tashqi asosiy yo'llari, madaniy va diniy holati bir tizimli tarzda yuritib beriladi. Aynan yuqoridagi jihatlariga ko'ra, tarixiy geografik asarlar O'rta Osiyo shaharlari tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. YAna e'tiborli jihati shundaki, tarixiy geografik asarlarning mualliflari o'zlari tavsiflagan hududlarini ko'p holatlarda o'zlari sayohat uyushtirib bevosita ko'rgan kechirgan holatlarini tavsiflashga uringanlar. Hormagan hududlari haqidagi ma'lumotlarni esa boshqa aia shu hudud bo'yicha asosiy hisoblangan manbalardan olganlar.

Al-Johiz (IX asr), Abu Zayd Ahmad ibn Sahla al-Balxiy (X asr) va Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr al-Jayhoniylarning (X asr) bugungacha etib kelmagan geografik asarlarida O'rta Osiyo xalqlari, ular yashagan shahar va qishloqlar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, Istaxriy, Ibn Xavqal va al-Muqaddasiylarning asarlari bu o'rinda alohida ajralib turadi.

Al-Istaxriy, Ibn Xavqal va al-Muqaddasiy asarlarining ahamiyati tomoni shundaki, ularda Movarounnahrning o'sha zamonda qanday viloyatlarga, viloyatlarning ma'muriy bo'linishi, asosiy tumanlari va shaharlari, ularning iqtisodiy holati va mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'rush, asosiy binolari, irrigatsion tizimi, tirikchilik manbai, mexmondo'stligi va ayrim mintaqalarning etnik va diniy tarkibi to'g'risida ham muhim ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, katta shaharlarning har bir ko'chasining nomi, asosiy suv bilan ta'minlovchi irrigatsion tizimlar, shaharlardan o'tgan kanalchalar, ular to'yinadigan manbalar, shaharlarning darvozalari, ularning nomlari va shaharlarning hayotida qanchalik ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berilgan.

Samarqand shahri to'g'risida so'z ketar ekan, ularda bu shahar Somoniylar sulolasi hukmronligi davrida va undan keyin ham mintaqaning eng katta va markaziy shaharlaridan biri bo'lganligi aytilgan. Tadqiq etilayotgan davrga oid manbalarda bu shaharga alohida e'tibor qaratilgan va umuman Samarqandning shahar sifatida holati yorqin holda yoritib berishga urinilgan. Samarqand shahri haqida ma'lumotlar arab geograflarining dastlabki ishlardayoq uchrab kelgan bo'lsa-da, ammo anchayin mukammalroq ma'lumotlar Istaxriyning yuqorida to'liq tavsif etilgan asarida mavjud. Jumladan unga ko'ra «So'g'dniig poytaxtiga Samarqanddir, u shuningdek mintaqaning poytaxti bo'lib, uning o'n ikkita rustaqi bor va ularning oltitasi daryoning janubida joylashgan hamda ular quyidagilardir: Bunjikas(t), Keyin Varag'sar, keyin Moymurg', keyin Si(a)njarfag'n, keyin D.trg'am, keyin esa U(Av)far, daryoning shimolidagilardan esa eng (gpadagisi YOrkas(t), keyin Burnamaz(d), keyin Buzmojan, keyin Kabuzanjkas(t), keyin Vizor, keyin Marzbon, ayrim holatlarda imharlarning yarmi rustaqlarda joylashgan, o'lkani qolgan shaxarlari esa Rivdad, Abg'ar, Ishtixan, Kushoni, Dabusiya, Karminiya, Rabinjan, Qatvona. Ibn Xavqal esa Samarqand Sug'd daryosining janubiy qismida baland erda joylashgan shahar nisanligini, shuningdek, uning qo'handiz, madina va rabadi mavjudligi to'grisida ma'lumotlarni bergan. Ibi Xavqal imonida ko'handizda qamoqxona mavjud bo'lganligi va u erda mishm qasri bu davrda vayronaga aylanganligi to'g'risida ma'lumot beriladi.

Boshqa bir muallif, Ibn Xudodbehning ma'lumotiga ko'ra esa, «Samarqandda shuningdek ko'rg'on ham mavjud bo'lgan. Ayrim mualliflar uning [Samarqandning] shaharlari sifatida ad-Dobusiya, Arbinjan, Kushaniya, Ishtixan, Kess, Nasaf va Xujanda ilbilarni ham

qayd etganlar. Ammo bu erda bizning fikrimizcha, Samarqandning mintaqasi miqyosidagi poytaxt shaharlardan biri bo'lganligiga urg'u berilmas.

Shuningdek, Istaxriy, Ibn Xavqal, Muqaddasiy va undan g'iyngi mualliflari o'z asarlarini yozishda arab tilidagi g'irixiy geografiya asoschilari al-Balxiy, al-Jaybopiy va boshqa olimlarning asarlaridan ham keng foydalandilar. Afsuski, ushbu asarlarning to'g'riligi bugungi kunga qadar saqlanib qolmagan. Jumladan, buni al-Balxiyning quyidagi V (laridan bilib olish mumkin: «Jayhoni o'z tashabbihi aytilishicha So'g'dni odamni suratiga o'xshatish mumkin uning boshda Hunji-k.k;(t)dir, oyoqlari Kushoniya, beli U(Av)far, qoni Kabuzanjkas(t) na Turksafi, qo'llari Moymurg' va Buzmojan, uning uzunligini qirq olti farsaxda o'ttiz olti farsax etib belgilagan. Uning eng katta masjidi (minbar) Samarqandda, keyin Kesh, keyin Kasaf, keyin Kushoniya va boshqalarigacha. Undan boshqasi esa Sug'dning yana bir shahari Ishtixan va uni Samarqanddan ajratib ko'rsatgan. Buxoroni ham Sug'dga mansub qilib ko'rsatgan, bunga asos sifatida Sug'd nomli daryoning Buxorodan ham o'tishini misol qilib ko'rsatgan. Ammo masalaga bunday yondoshish noto'g'ridir, masalan Iordan (Urdun) daryosi Falastin ham o'tganligi uchun Falastinni Urdun (Iordan) o'lkasi deyilmaydi-ku...», An-Nasafiyning asarida esa, Samarqandga tegishli 110 ta toponim zikr etiladi. Bular Samarqand devori (xoit Samarqand) Kavyan devori, Kavsakon (Kusakok) devori, ichki shaharning uch darvozasi (bob), tashqi shaharning 2 darvozasi (darb), 16 ta mahalla, 36 ta ko'cha (sikka), 12 qabristop (maqbara), 14 ta masjid, 5 ta madrasa, 7 rabot, YA ta xonaqoh, 2 ta rasta (xonut), bitta saroy (dor), bitta savdo qatori (raff), bitta harbiy lager (al-maaskar) va bitta hovuz nomi keltirilgan.

Ibn Xavqaliyning ma'lumot berishicha, «Samarqand Sug'dida, agar odam ularning qo'rg'oniga [qo'handiz] chiqsa, daraxtlardan holi bo'lgan tog'larga va chang sahrolarga nazar tushadigan biror bir makon va shaharni ko'rmagan holda manzara guvohi bo'ladi. Ularning dalalari yan-yashillikka burkangan, daraxtlar bilan o'ralgan. Abu Usmon aytib o'tganki, nabotot yashil manzarasidagi o'simlik ustidagi g'uhor go'zallikdandir [ziynatdir], birok keng tuproq ustidagi chang er qichonki hayotda o'z bahosini yo'qotib, go'zallikdan mahrum bo'ladi, go'zallik xususiyati qolmaydi, huzurbaxshligi yo'qoladi, sayohatchini lazzatdan mahrum etadi. Movarounnahr bu masalada [go'zallik bobida] inqidir ato etgan mo'l-ko'llikka ega».

Yana uning ma'lumoticha, «Samarqand [shahri] da qal'a va to'rt darvoza bor; sharqiy darvoza Xitoy [darvozasi] deb atalgan bo'lib, balandlikda joylashgan. Un[oni] dan nastga qarab ketgan ko'p sonli zinalar orqali Sug'd daryosi [oldi] ga tushiladi; Garbiy darvoza Navbahor [deb ataladi], u ham balandlikda joylashgan; shimoliy [darvoza] Buxoro [darvozasi], janubiy [darvoza esa] Katta [darvoza deb ataladi]. Ibn Xavqalning ushbu ma'lumoti ushbu davrda ijod qilgan boshqa arab geograflari al-Istaxriy, Al-muqaddasiy va boshqalarning ma'lumotlarida ham o'z tasdig'ini topadi.

Tarixchi SH. Kamoliddin fikricha, qo'rg'onli shahar Afrosiyok chududida joylashgan bo'lib, janubiy shahar tashqari qismi (rabad) yana «Amir Temur Samarqandi» hududida joylashgan. SHaharning uch qismli bo'linuvi islomdan avvalgi paytlardayoq mavjud bo'lgan. SHahar atrofdagi joylari rabad devori bilan o'rab shshngan va uning qoldiqlari bugungi kunda Devori Qiyomat nomi bilan ma'lum. XII asrga kelib, janubiy shahar atrofi hudud «shahriston» (madina) deb, avvalgi shahristonning o'zi qo'rg'on bilan birgalikda «ichki shahristoi» (al-madina ad-daxila) deb itala boshlagan. Biroq IX - X asrlardayoq ayrim mualliflar yumonidan rabad atamasi bilan birgalikda «ichki shahriston» atamasi ham ayrim holatlarda qo'llanilgan. Ibn al-Faqihning ma'lumotiga ko'ra, Samarqand shahri ichki shahristondan (maydoni 1500 jaribga teng bo'lgan), tashqi shahristondan (maydoni 5000 Jaribga teng) va rabaddan (maydoni 6000 jaribga teng) iborat bo'lgan.

SHuningdek, yana Ibn Xavqalning ma'lumotiga ko'ra, Samarqandda yirik shaharlardagidek katta bozorlar, bir qator mahallalar, hammomlar, karvon-saroylar va uylar mavjud. Unda okar suv (soy) bo'lib, u [shahar ichi] ga bir qismi ko'rg'oshindan yasalgan ariq orqali kirib boradi. Uning ustida to'g'on kurilgan oo'lib, uning ayrim joylari er ustidan ko'tarilib turadi. Bozorning o'rtasi va sarroflar mahallasida [er ustiga] toshlar terilgan bo'lib, ular ustidan suv [arikda] Misgarlar mahallasidan oqib chiqadi va Kesh darvozasi orqali shahristonga kirib boradi. Bu [osma] ariqning tashqi tarafi butunlay qo'rg'oshindan [yasalgan]. Gap shundaki, shahriston atrofidan chukur xandaq o'tgan bo'lib, [burun] uning ichidan shahar devorining qurilishi uchun] loy olingan. Uning ichidan qazib olingan tuproq va loyning miqdoriga yarasha bu [xandaq] katta bo'lib ketgan, shuning uchun uning ustidan shahristonga suv o'tkazish uchun Gumbaz boshi» (Ra's al-Toq) degan joyda, shahar bozorlarining o'rtasida, Samarqandning eng aholisi zich [joylashgan] erda to'g'on kurilishiga ehtiyoj tug'ildi. Bu [osma] ariq

qurilgan bo'lib, islomdan oldingi davrlarda [qurilgan]. Bu [osma] shahar ikki tarafida joylashgan erlardan olinadigan daromad uni qishlarda va yaxshilashga ishlatiladi. Unga qishda ham, yozda ham [suv] [parvarish qilib] turish otashparastlar [«mug'lar»]ga topshirilgan bo'lib, [ular bilan tuzilgan] maxsus shartnomaga ko'ra, buning evaziga [devlat] [devlat] g'aznasi foydasiga jon boshidan [olinishi lozim bo'lgan] [devlat] olinmaydi. Jome' masjidi shahristonda qo'rg'ondan pastroqda joylashgan, ular orasidan katta yo'l o'tgan. SHahristonda suv [yuqorida] oqib ariq va bog'lardan olinadi. SHahristonda, Asfizor deb atalgan joyda Somoniylar qurdirgan qasr binolari joylashgan, shu bilan birga yana bir qasr bir qo'rg'on [ichi] da joylashgan». An-Nasafiy, Ibn al-Faqihlariipg ma'lumotiga ko'ra esa, Samarqand devori 134/750-751 yillarda Abu Muslimning Samarqandga yurishi natijasida, u tomonidan 135/752-753 yillarda bitkazib tugatilgan va o'z ichiga 450 ta zirani (javsaq) o'rab olgan. Uning balandligi 15 zira (lokot), kengligi 7 zirani va aylanasi 90 ming zirani tashkil etgan. Unda 360 ta minora bo'lib, har birining orasida 250 va istehkom tuynukchalari mavjud bo'lgan.

Samarqand shahrini suv bilan ta'minlovchi daryo, soy va ariqlarga nisbatan geograf Ibn Xavqal tomonidan berilgan quyidagi ma'lumoti katta qiziqish uyg'otadi. Uning yozishicha, «Samarqand aholisi foydalanadigan suvlar Sug'd daryosidan oqib keladi. Bu daryoning boshi - Buttam tog'larida, Sag'oniya orqasidadir. Daryo tizimida Jan nomli ko'lga o'xshash bir suv havzasi [mavjud] bo'lib, uning atroflarida qishloqlar joylashgan. Bu er Urgar deb ataladi. Daryo tog'lar orasidagi [o'sha] ko'ldan oqib chiqib, «To'g'on boshi» degan ma'noni anglatadigan Varag'sar nomli bir joyga etib boradi. Bu erdan vodiyning garbiy qismiga Samarqand [shahri] tomoidap bevosita tutashuvchi ariqlar va rustaqlar ajralib chiqadi. Vodiyning sharqiy qismidagi ariqlar [esa] Varag'sar qarshisidagi Gubar nomli joydan boshlanadi, chunki aynan shu joydan tog'lar ayrilgan bo'lib, ekin ekish va ariq utkazish mumkin bo'lgan erlar ko'rinadi. Varag'sardan Barsh, Barmish va Bashmin [nomli] anhorlar boshlanadi. Barsh anhoiri Samarqand [shahri] yaqinidan [oqib] o'tgan bo'lib, undan SHahristonni va unga butun uzunligi bo'ylab har tomondan [kelib] Gutashgan bog'lar va qishloqlarni [sug'oruvchi] ariqchalar oqib tsiqadi. Barmish [arig'i] shu ariq bilan janub tomondan chegaradosh oo'lib, uning [bo'ylarida] butun uzunligi bo'ylab bir kunlik yo'l Sofasi] davomida qishloqlar joylashgan. Bashmin [anhor] ga kelsak, u Barmish [anhor] dan janubroqdan [oqib]

o'tadi va o'zining outun uzunligi bo'ylab [joylashgan] ko'p qishloqlarni VI oradi, lekin u [yuqorida] zikr etilgan ikkala antan Oldinroq tugaydi. Anhorlarniig eng kattasi Barsh, keyin Varman, ularning ikkovisida ham kemalar yurishi [mumkin]. Vu anhorlarni ariqlar ajralib chikqan bo'lib, ularning soni juda ham ko'p, shu tashqari ular yordamida qishloqlar va dalalar rullab yashiydi. ... Buza [arigi] Sinavab [arigi] dan yaqinroqda, shaharga tutash bo'lgan tomonda joylashgan bo'lib, Kuzmojan [nomli] rustaqni sug'oradi. Ishtixan [arig'i] ga kelsak, uning [suvlari] dan faqat uning boshiga taxminan 4 farsax masofadagi srdan boshlab foydalaniladi; o'sha vodi [kichik] .fiqchalarga bo'linadi va Ishtixan shaxriga etib borguncha 4 farsax maydonni sug'oradi.... Samarqandda suv ta'minotining bosh boshqa-ruvchisi, shuningdek, daryoning qirg'oqlari, daryo o'zani va uning to'g'onlari emirilib [ishdan] chiqqanda, [ularni] mustahkamlash [gurish] uchun maxsus tayiilangan odamlar bor. Varagsarda u solig'idan ozod etilgan uzumzorlar na bog'lar bo'lib, buning evaziga ularning [egalari] shu to'g'onlarni tuzatib turish [majburiyat] yuklatilgan. Daryodan biz [yuqorida] zikr etgan .fiqlar ajralib chiqqandan keyin undan Samarqand darvozasi yonidagi Jird ko'priq chuqurligi bir necha kam ga teng bo'lgan [boshqa] bir suv oqib chiqadi. Sug'd yog'ochlari Samarqandga [shu] daryo orqali [oqizib] keltiriladi. Bu daryo yozda Buttam, Ustrushana va Samarqand tog'laridagi qorlarning erishi hisobiga ko'payadi. Ba'zi vaqtlarda suv shunchalik ko'p bo'ladiki, u ko'tarilib Jird ko'prigining to'g'onidan toshib chiqadi va suvning haddan tashqari ko'pligi tufayli Samarqand aholisi o'zlarini suv toshqinidan himoya qiladilar».

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, IX-X asrlarda Samarqand shahri mintaqa siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotida katta ahamiyat kasb etgan. SHu sababdan arab geograflari Samarqand shahrining ushbu davrdagi tarixiy joylashuvi, hududi, tarkibiy tuzilishi va eng asosiysi shaxarlar vujudga kelishi va rivojlanishida muhim o'rin tutgan suv bilan ta'minlanishi kabi moslamalarni tasvirlashga katta e'tibor qaratganlar.

Savollar:

1. O'rta Osiyo davlatlari bilan Turk hoqonligi o'zaro munosabatlari tarixshunosligi.
2. Arablar bosqini va uning tarixiy bilimlar rivojiga ta'siri.

1. O'rta Osiyoda IX-XII asrlarda madaniy yuksalish tarixshunosligi.
2. Arablar bosqini «Uxuro tarixi» asarining uslubi va tafakkuri.
3. O'rta Osiyo bilimlar rivojlanishida yangi mazmun, yangi shaklda tarixshunosligi kuchayishi.
4. O'rta Osiyoda XII-XIV asrlarda tarixiy bilimlarning holati.
5. Karakentchuhlar davlati tarixi va Sulton Jaloliddin kurashi tarixshunosligi.
6. O'rta Osiyo xalqlari siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti munosabatlari Rashiduddin, Ibn Batuta va Hamidulloh Kattiniy asarlarida yoritilishi.

IV-BOB. RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR TARIXSHUNOSLIGI

Bag'dod xalifaligining sobiq hududida tashkil topgan eng yirik davlatlardan biri Somoniylar davlati (819-999 yy.) edi. X asr oxirlarida kelib feodal tarqoqlik yanada kuchaydi. Hamadon, Isfahon va Buxoro, Buvahiyalar, Tabaristonda va Jurjonda Ziyoriyalar mustaqillik erishdilar. 962 yilda Somoniylarning G'aznidagi noibi Alptakin ham mustaqillik e'lon qildi. Sirdaryoning o'ng sohilidagi erlar, shuningdek, CHag'oniylar va Xorazm ham somoniylarga itoat etishdan bosh tortdilar.

Xorazmshohlar davlati tarixshunosligini o'rganish, ayniqsa Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topganidan so'ng jonlantirildi. Bu sohada Azamat Ziyov, Ozod Masharipov, Matyoqub Maniyozov, Abdulla Sotliqov, Anatoliy Sagdullaev va boshqalarning xizmatlari samarali bo'ldi.

Tarixshunosligimizda, mamlakatimizning har bir vohasida vodiysining hissasi bor ekanligini biz bir necha bor ko'rdik. SHu ma'noda davlatchiligimiz ibtidosi qaror topgan qo'hna Xorazmda XI-XIII asr boshlarida kechgan siyosiy jarayon va uning tamom mintaqaga ta'siri katta qiziqish uyg'otadi.

Xorazmshoh deyilganda, aslida, Xorazm vohasida hukmronlik qilgan sulola vakili tushuniladi, ya'ni Xorazm hukmdori (shohi) ma'nosini anglatadi. Uzoq asrlar davomida bu viloyatda bir qator sulolalar xorazmshohlar unvoni ostida faoliyat ko'rsatganliklarini bilamiz. Masalan, IV-X asrlarda afriq'iylar xonadoni, 995-1017 yillarda ma'muniylar (Ma'mun I, Abulhasan Ali, Ma'mun II), 1017-1041 yillarda esa oltuntoshiylar (Oltuntosh, Horun, Handon) sulolalari xorazmshohlar unvoni bilan boshqaruv kursisida o'tirganlar. Ammo Xorazm doirasidan tashqariga chiqib, mamlakat, mintaqa miqyosida ot surib va bu bilan ham cheklanmasdan boshqaruvning saltanat darajasiga erishgan sulola bu anushtegeniylardir (1097-1231).

1017 yili Xorazmni Mahmud G'aznaviy bosib oldi, o'zining bosh hojibi Oltuntoshni xorazmshoh unvoni bilan Xorazm hokimi etib tayinladi.

1043 yili Xorazm saljuqiylar davlatiga qo'shib olindi. Saljuqiylarning Xorazmdagi noibi Otsiz xorazmshoh saljuqiylarning zaifligidan foydalanib, mustaqil siyosat yurgiza boshladi va Xorazmda yangi sulolaga asos soldi. 1172 yili Xorazmga qoraxoniylar bostirib kirdi. Otsiz xorazmshohning nabirasi Takash 1187 yili nishonpurni,

1193 yili Rayni, 1193 yili Marvni bosib oldi, 1194 yili saljuqiylar tomonidan g'ul II ni engdi. Takash xorazmshoh davrida (1172-1200) Xorazmning sharqiy qismi Xorazmga qo'shib olindi. Uning o'g'li Xorazmshoh davrida Xorazm YAqin SHarqda eng qudratli davlatga aylandi. Xorazmga Kaspiy dengizining shimoliy sohillaridan Kavkazgacha, Kavkazdan hindukush tog'larigacha bo'lgan hududga Xorazm Xitoy, Mo'g'uliston, Tibet, Hindiston, YAqin SHarqdagi mamlakatlar, Rus va volga bo'yidagi shaharlar bilan savdo qilardi. Bu haqda tarixchi olim Ozod Masharipov «Xorazmshohlar sahifalari» (Toshkent, 1994), Matyoqub Matniyozov va Abdulla Sotliqov «Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm» (Urgench, 1994 yil), o'z asarlarida ma'lumotlar keltirib o'tadilar. Ularning qimmatli asarlaridagi, bugungi zamon nuqtai-nazaridan tarixshunosligimizni bayon qilganlar.

Ammo, Anushteginlarning turkiy qabilalardan kelib chiqqanligi, ularning o'z g'ul qabilalarining Bekdili urug'idan ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlar fors tarixchisi Rashiduddin asarlarida keltirilgan.

G'aznaviylar sulolasiga 962 yil somoniylar sarkardasi Alptakin Hamadon shahrini bosib olib, u erda g'aznaviylar sulolasiga asos solgan. SHu tarixnavislikda G'aznaviylar devonida 25 yillik davlat xizmati bilan Abul Fayzi Bayhaqi o'zining «Mas'ud tarixi» yoki «Tarixi Bayhaqi» nomi bilan asos soldi.

G'aznaviylar davlati ravnaq topgan davrda saroyda va shaharlarda buyuk olimlar yashab, ijod etganlar (Beruniy, Utbiy, Abulfazl Bayhaqi, Gardiziy, Firdavsiy va boshqalar) G'aznaviylar davlati Mahmud G'aznaviy vafotidan keyin zaiflana boshladi. Mas'ud I davri (1030-1041)da Xorazm qo'ldan ketdi, Movarounnahring Amudaryo yuqori oqimidagi erlarni qoraxoniylar tortib oldi. XII asr 70-yillarida g'uriylar g'aznaviylarni SHimoliy Hindistonga siqib chiqardilar, Lahor ularning poytaxtiga aylandi. 1186 yili g'uriylar Lahorni ham bosib oldilar.

Saljuqiylar davlati (1038-1194) nomi ko'chmanchi turk-o'g'uz qabilasi boshlig'i Saljuq nomidan olingan. Saljuqiy turklar XI asr 30-yillarida harbiy xizmatlari evaziga Xurosonda g'aznaviylardan mulklar oladilar. Tarixchi olim Azamat Ziyovning «O'zbek davlatchiligi tarixi» nomli asarida ko'rsatilishicha saljuqiylar tarixshunosligi Sadr ad-din Ali Husayniyning «Zubdat at-tavarih», «Tarixi Saljojoqa», «Rohat as-sudur» nomli asarlaridan boshlanadi. Eng yangi zamon tarixshunosligi

Agadjanov S.A.ning «Ocherki istorii og'uzov i turkmen Sredney Azii IX-XII vv» (M., 1969) asarlari bilan davom etishini ko'rsatadi.

XI asr oxirlaridan boshlab, saljuqiylar davlati tanazzulga uchradi va boshladi. Chunki birinchi salib yurishlari natijasida saljuqiylar Khorazm Osiyoning qirg'iq bo'yi hududlaridan ajradilar. Uo'zaro sulolaviy urushlar ichki nizolar tufayli. To'g'ulbek avlodlarining ba'zilarini musulmon sultonliklar tuzib oldilar, natijada saljuqiylar davlati ikkiga bo'linib ketdi. Birinchi poytaxt Hamadon, ikkinchisi Marv bo'lib qoldi. Xorazmshoh Takash Marvni bosib oldi, hamadon poytaxti bo'lgan ko'hna sultonligi esa XII asrgacha hukm surdi.

A.Sagdullaev, B.Aminov, O'Mavlonov, N.Norqulov «O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. I qism» (-Toshkent: «Akademiya», 2000) asarida saljuqiylar haqida hech bir ma'lumot keltirmaydilar. SHunday bo'lsada, Bo'riboy Ahmedovning «Tarixda saboqlar» (T., 1994) asarining 424-425 betlarida Saljuqiylar davlati haqida qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tiladi.

So'g'diylar va turkiy urug'lar aloqalarining kuchayishi SHarqiy Turkiston, Ettisuv va Janubiy Tangritog' viloyatlarida tashkil topgan musulmon turk davlati-Qoraxoniylar (927-1212) muhim o'rinni tutadi. Qoraxoniylar davlati Ettisuv hududida Qorluq (756-940) davlati o'rni tashkil topdi. Uning asoschisi Sotuq Bug'ro'xon (915-955) hisoblanadi. U 942 yili Bolosog'un hokimini mag'lub etib o'rniga o'zini hoqon deb atadi. Qoraxoniylar davlatiga ikki qabila -yag'mo- chig' qabilalari birlashdilar. Qoraxoniylar tarixshunosligi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'ati turk», Gardizning «Zayn ul-axbor» («Xabarlar ziynati») asarlari bilan boshlanadi. Keyinchalik bu yo'nalishdagi tarixnavislik Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi.

XI asr 60-70 yillarida qoraxoniylar saljuqiylar bilan to'qnashib, zaiflashib qoladi. 1212 yili Muhammad Xorazmshoh qoraxoniylar davlatini butunlay tugatdi.

XI-XII asrlarda O'rta Osiyoda tovar-pul munosabatlari juda rivojlandi. Bu davr tarixshunoslikda ham shaharlarning kengashi va rivojlanishi, tovar ishlab chiqarish, iqtisodiyotning umumiy ko'tarilish davri edi. Siyosiy o'zgarishlar O'rta Osiyo xalqlari fani va madaniyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Tarixshunoslikda siyosiy dunyoqarash va ularni tarixiy o'rganish arab tilida yaratilgan tarixiy asarlarning umumiy xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Ular garchi arab tilida yozilgan bo'lsada, barchasida

tarixni qamrab olishga, ya'ni tarixni jahon tarixi sifatida idrok qilishga intilish alohida sezilib turadi.

Tarixnavislikda ham kitoblar ichida tarixchi o'zining «Qur'oni karim» kitoblar va «Payg'ambarlar qissalari», diniy rivoyatlarni yaxshi bilgan namoyon etishga va ulardagi mashhur va ma'lum voqea, hodisa, shariat, qidalardan umumli foydalanishga intilganlar.

Arab tilidagi tarix asarlarining eng qadimgilari - kufiyda yozilgan «Qur'oni karim» va tafsir, hadislar - nasxda, suls-yozuvlarida bitilgan. SHundan so'ng iste'molga nasta'liq yozuvi kirgan. Alohida farmon va hukmlar ta'liq yozuvida bitilgan.

Tarixnavisligimizga oid asarlar mazmunida mayin a'naviy Alloh nomi - tashdid, payg'ambarimiz na'tlari, to'rt sahoba yoki sahobai karama ta'rifi kelib, undan so'ng asar kimga bag'ishlangan bo'lsa, shunda sharga bag'ishlov - maqtov yoziladi va shundan keyin kamtarin muallif o'zi haqida, qanday asar yozmoqchi ekanligi, uning nomi va ismning taxlam mazmuni haqida yozgan.

Asarning oxiridagi xotima - kolofonda esa, muallif asarini tugatib olgani uchun Allohga shukronalar keltirib, mazkur qo'lyozma asar va uning ushbu nusxasi, ko'chirilish joyi va tarixi, xattoti haqida ma'lumot keltiradi.

Hazrati Beruniy arablarda tarix yaratish an'anasi juda qadimiy va muvaffaqiyatli haqli ravishda qayd etgan bo'lsa-da, arab xalifaligi shakllanganidan so'ng, yunon, eron, yahudiy va nasroniy tarix asarlaridan ijobiy va ijodiy foydalangan arab va arab tilida ijod qiluvchi muarrixlar arab xalqlari, hamda arab xalifaligi hududiga kirgan yoki unga qo'shni bo'lgan xalqlar tarixini yozishga katta hissa qo'shdilar.

Yurtimizdan etishib chiqqan tarixchilarimiz ham arab tilida, ayniqsa Beruniy, Sam'oni, SHahobiddin Nisoviy kabi tarixchilar ajoyib asarlar yaratib arab tilidagi tarix ilmiga munosib ulush qo'shdilar.

Ko'chmanchi xalqlar tarixini o'rganish va uning tarixshunosligi hozirgi zamon tarixshunosligining dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu muammoni, taniqli olim Bo'riboy Ahmedov «Tarixda saboqlar» (T., 1994) asarida tahlil qilishga harakat qiladi.

XIII asrning ikkinchi yarmida Dashti qipchoqning katta qismi, xususan, Oq O'rda va SHaybon ulusida ko'chib yurgan turk-mo'g'il qabilalari «o'zbeklar», bu bepoyon hudud esa «O'zbeklar viloyati» deb atala boshladi. Bundan o'zbeklar Dashti qipchoqda faqat XIV asrning ikkinchi yarmidan paydo bo'lgan, degan xulosa kelib chiqmaydi.

«Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231 yy.)» nomli asar qimmatlidir.

Jaloliddin 1231 yil 17-20 avgustlarida xoinona ravishda o'ldirilgan. Jaloliddin nobul bo'lgan bo'lsada, ammo uning safdoshlari-xorazmshoh amirlar va ularning qo'l ostida minglab askarlar halit edilar. Harbiy mahorat va uyushqoqlikda g'oyatda puxta tayyorgarlik ko'rgan, o'z davri ham shijoatli Xorazmliklar – Sulton Jaloliddin o'limidan so'ng yana o'z besh yil davomida Iroq, Kichik Osiyo, Suriya, Misr siyosiy hayotida muhim o'rin tutib kelganlar. Ularning qudratiga tayanib YAqSHarqdagi mahalliy turkiy sulolalar Damashq, Qohirani zabt etishda muvaffaq bo'lganlar. 1241 yili esa xorazmliklar Quddusni egallaydilar. Natijada 1229 yildan beri salibchilar qo'lida bo'lgan bu muqaddas shaharni musulmonlar ixtiyoriga qaytaradilar.

Xullas, tarixshunosligimizda, biz Jaloliddin mo'g'ullar va yaqSHarq, Evropa o'rtasidagi to'g'on bo'lgan desak hech ham mubolag'ga yo'l qo'ymagan bo'lamiz. SHuning uchun ham ona yurt sharofati bilan sulton Jaloliddin Manguberdi tariximizda Buyuk Xorazmshoh nomi bilan kirib abadiy qolmoqda.

Buyuk mutafakkir va olim Abu Rayxon Beruniy hayoti va ilmiy merosining o'rganilishi o'z tarixiga ega bo'lib, tarix fanining beruniyshunoslik yunalishiga aylandi. XX asrda mazkur sohaning rivojlanishi alloma faoliyatiga doyr ko'plab adabiyotlarning yuzaga kelishiga sabab buldi. Ushbu asrning 70-yillarini beruniyshunoslikning avj nuqtasi deyish mumkin. Sababi 1973 yilda Abu Rayxon Beruniy tavalludining 1000 yillik yubileyi YUNESKO boshchiligidagi jahon miqyosida keng nishonlangan. SHu munosabat bilan allomaning hayoti va ilmiy merosini o'rganish jarayoni yanada faollashdi. Ular orasida atoqli shaxsgunos olim P. G. Bulgakovning «Beruniyning hayoti va asarlari» («Жизнь и труды Беруни») kitobi alohida o'ringa ega. Umumiy hajmi 428 betdan iborat bo'lgan ushbu kitobni beruniyshunoslik sohasida erishilgan yutuqlarning cho'qisi deb hisoblash lozim. Kitob muallifi o'zining ko'plab tadqiqotlarida Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodining u yoki bu jihatlarini yoritgan bo'lib, mazkur kitob ana shu ilmiy izlanishlarning natijasi va umumlashmasidir.

«Beruniyning hayoti va asarlari» kitobi 15 bo'limdan iborat bo'lib, dastlabki bilim «Madaniy yuksalish davri» deb nomlanadi. Unda muallif SHark, Renessansi davriga tarixiy nuqtai nazardan baho bergan. P. G. Bulgakov uchun mazkur davrdagi O'rta Osiyo madaniyati Uyg'onish davrining ajralmas qismidir. U o'z fikrini Muxammad al-

Beruniy, al-qutobi, Ibn Sino, Abul Vafo Buzjoni, Abu Nasr al-Farisi, Ibn Iroq, Abu Maxmud Xo'jandiy, Abu Abdulloh al-Biruniy kabi ushbu davr ilm-fani namoyandalari misolida asoslab olingan kitobning qolgan bo'limlari Abu Rayxon Beruniyning bolalik davridan boshlab vafotiga qadar bo'lgan davrining tarixiy manbalar va adabiyotlarga asoslangan batafsil bayoniga bag'ishlangan.

«Beruniyning hayoti va asarlari» kitobida allomaning hayot yo'li haqida boshqichlarda kirib chiqilgan bo'lib, ularning har birida yaraqlagan asarlar nomi, ular mavzuining qisqacha tahlili berilgan, shoh asarlar uchun esa alohida bo'limlar ajratilgan: «O'tmish avlodlarga meros sifatida qoldirilgan» («Qadimgi xalqardan qolgan yodgorliklar») asari haqida 119-betlar), «Fan homiysining maslagi» («Geodeziya») haqida 120-188-betlar), «Indica» («Hindiston») haqida 189-235-betlar), «Buyuk ishlarning cho'qisi» («Qonuni Mas'udiy») haqida 236-279-betlar), «Qimmatbaho toshlar haqidagi kitoblarning javohiri» («Mineralogiya») haqida 314-335-betlar), «So'nggi jasorat» («Jahonshunoslik») haqida 336-351-betlar). Mazkur bulimlarda asarning muammosi, asosiy erishilgan yutqlari alohida misollar bilan kiritilgan. Masalan, «Geodeziya» haqida fikr yuritir ekan, P. G. Bulgakov Beruniyni SHarq, musulmon astronomlari orasida turar joy muammosining geografik uzunligini aniqlash metodini batafsil ishlab chiqqan yagona olim ekanligini qayd etgan. Tadqiqotchi alloma asarlarining fan tarixidagi o'rini aniq, misollar bilan ko'rsatib bera olgan. Jumladan, etnografiyada qiyosiy metoddan foydalanganligi, Beruniy foydalangan manbalarning aslligi va boshqa asarlarda uchramasligi, uning birinchi sharqshunos ekanligi, birinchi bo'lib trigonometrik jadvallarning kvadrat interpolatsiyasini ishlab chiqishi kabilari keltirilgan. Muallif har bir bo'limda alloma hayotining har bir boshqichini siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot bilan hamohanglikda bayon qiladi. Bu esa o'quvchilarga mantiqiylik bilan tarixiylik tamoyillari doirasida fikrlash imkonini beradi.

P. G. Bulgakov Beruniyning hayoti va ijodiga doyr manbalarni tasniflar ekan, bu borada allomaning asarlari birinchi o'rinda turishini qayd etgan (25-bet). Ular orasida Beruniy tomonidan 1036 yilda tuzilgan Abu Bakr ar-Roziy (925 yilda vafot etgan) asarlariga bibliografik ko'rsatkich-fexrist alohida o'rin egallaydi. Sababi hozirga qadar yagona qo'lyozma shaklida etib kelgan va Leyden shaxrida saqlanuvchi ushbu manbaning so'nggida Beruniyning o'z asarlariga o'zi tuzgan bibliografiyasi o'rin olgan. Aynan shu qo'lyozma tufayli

allomaning hayot yo'lini o'rganish boshlangan, deyish mumkin. Chunki dunyoda birinchi beruniyshunos deb xisoblanuvchi Ibrohim ibn Muhammad al-G'azanfar at-Tabriziy (1233—1293) mazkur qo'lyozmani o'rganib unga ilova tarzda Beruniyning 1036 yildan keyin yozilgan asarlari ruyxatini ham qo'shgan. SHuniigdek, at-Tabriziy birinchi bulib Abu Rayxon Beruniyning tavallud topgan va vafot etgan sanasini aniqlashtirgan tadqiqotchidir. P. G. Bulgakovning kitobida bu haqda to'liq ma'lumot keltirilgan bo'lib, muallif ham uning xulosalariga qo'shilgan, ya'ni Abu Rayhon Beruniy tavallud topgan sana — xijriy 362 yil 3-zulhijja (973 yil 4 sentyabr), vafot etgan sanasi esa — xijriy 440 yil 2-rajab (1048 yil 12 dekabr).

«Beruniyning hayoti va asarlari» kitobida ko'rib chiqilgan keyingi masala allomaning ijtimoiy kelib chiqishiga oid fikrlar tahlilidir. Bunda muallif XII asr tarixchisi as-Sam'oni va XX asrning yirik tadqiqotchisi I. YU. Krachkovskiyning ma'lumotlarini taxdirlagan. Uning yozishicha, Beruniyning ijtimoiy kelib chiqishiga doyr ham ikkala tadqiqotchining mulohazasi ham tutilgan, asosga ega bulmay, ularni faqat ilmiy farazlar deb hisoblash lozim (27-bet). P. G. Bulgakovning uo'i ham bu haqda aniq fikr aytmagan, buning sababi ilmiy asoslar etarli emasligida deb xisoblaydi. SHuning uchun kitobda Beruniyning yoshlik davriga oid bo'limda asosiy e'tibor u amalga oshirgan dastlabki mustaqil ilmiy tadqiqotiga qaratilgan.

P. G. Bulgakov tomonidan «Geodeziya» asarining tutilgan arabcha tan-qidiy matni 1962 yilda Qoxirada nashr etilgunga qadar beruniyshu-noslikda Abu Rayxon Beruniyning dastlabki olib borgan mustaqil astronomik kuzatishlari 21 yoshdan boshlangan degan fikr hukm surar edi. «Geodeziya» asarining matnini sinchiklab o'rgangan P. G. Bulgakov asarda Beruniyning avtobiografik mazmundagi parchalarini tahlil qilgach, uning dastlabki astronomik kuzatuvlari 16 yoshdan o'tganda, aniqrog'i, 990 yilda amalga oshirilgan, degan xulosaga kelgan (28-bet). SHu tarifa Beruniyning tarjimai holidagi muhim davr aniqlashtirilgan.

P. G. Bulgakovning keyingi fikrlari Beruniyning 995-1010 yillar oralig'ida kechgan xayot yulini anikdasttirishga oiddir. Bu borada muallif usha paytga qadar mavjud bo'lgan I. YU. Krachkovskiy, D. YU. YAKubovskiy, S. P. Tolstov, A. M. Belinitskiylarning qarashlariga tanqidiy yondashib, yakuniy xulosa bergan. SHu bilan birga, fikrlar xilma-xilligining sababi alloma asarlarining tarjimalari bilan bog'liqligini misollar bilan kursatib bergan. Masalan, kitobda

Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarining fors tilidagi manba - «Nomai donishvaron»dan olingan arab tarjimasining A. A. Semenov amalga oshirgan tarjimasini bilan arab asari manbadan A. M. Sale amalga oshirgan rus tilidagi tarjimasining kichik bir qismi qiyosiy tahlil qilingan. Muallifning fikriga ko'ra, A. M. Salening tarjimasini aniq va to'liq bulib, fors asariga manba asosida amalga oshirilgan tarjimaning noaniq qismlari muallifning tarjimai holiga doyr yanglish fikrlar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Natijaga ko'ra, 995 yilda Beruniy siyosiy sabablar tufayli Kot shahridan Rayga, undan sung Jurjonga ketgan (avvalgi fikrlarga kura, beruniyshunoslar Rayga ketgan edi). P. G. Bulgakovning biz fikr yuritayotgan kitobda bu haqda batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kitobning turtinchi bo'limi alloma «hayotining noma'lum sahifalari», ya'ni 995-998 yillariga bag'ishlangan. P. G. Bulgakovning «Geodeziya» asari ustida olib borgan uzoq yillik ilmiy izlanishlari bu borada katta yordam bergan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 995 yildan boshlangan Beruniyning o'z vatanidan ketishi 1010 yilda emas, 1004 yilning oxirida nihoyasiga etgan. Mazkur emigratsiya davri ham muallif tomonidan quyidagi ikki bosqichga bulingan: 1) 995—997 yillar-Rayjon davri; 2) 998 yilning oxiri-999 yilning boshlaridan 1003 yilning oxiri-1004 yilning boshlarigacha - Jurjon davri. 997—998 yillarda esa Beruniy Kot shahrida yashagan (59-bet). Ayni shu yillarda u mashhur matematik Abul Vafu Buzjoniy va yana bir komusiy olim Abu Ali ibn Xurozmi bilan yozishmalar olib borgan. Beruniyning Jurjondan Xorazmga qaytishi sanasi xususida usha paytga qadar tadqiqotchilarda turlicha fikrlar mavjud edi. P. G. Bulgakov bu boradagi e. Zaxau, R. Rayt, D. Bualo, K. Brokelman, M. Krauze, S. P. Tolstov, B. A. Rozenfeld kabi olimlarning xulosalarini tarixshunoslik nuqtai nazaridan o'rganib, «Qonuni Mas'udiy» asaridan olingan ayrim parchalarini tanqidiy tahlil qilib o'zining yakuniy xulosasini bergan: Abu Rayhon Beruniyning Jurjondan Xorazmga, aniqrog'i Urganch shahriga qaytishi 1003 yilning oxiri — 1004 yilning boshlarida ruy bergan.

Kitobda allomaning siyosiy faoliyatiga doyr ma'lumotlar manbalarga asoslangan holda berilgan (122—126-betlar). SHu bilan birga, uning shaxsiy fazilatlarini ham bayon kilingan. P. G. Bulgakov Beruniyning olim sifatidagi faoliyatini Abu Bakr ar-Roziy shaxsi bilan solishtirish asnosida baholagan va ularning umumiy jihatlari quyidagicha ta'riflagan har ikkala alloma ham naturfal- safa tarafdori bo'lganlar va antik falsafiy merosni rivojlantirganlar, ular uchun

dogmatizm bilan kurashga yunaltilgan ratsionalizm xos bulgan, eskilikka yangicha qarash har ikkala olim falsafiy qarashlarining umumiy tomonidir. Roziy ham, Beruniy ham inson tafakkuri dunyoning rivojlanish qonunlarini tajriba orqali bilishining cheksiz imkoniyatlariga ishonganlar. Dinga munosabat borasida ham ularning fikrlari umumiy bo'lgan (285—288-betlar). SHuningdek, kitobda muallif Abu Rayhon Beruniyning ilmiy uslubini aniq va lo'nda qilib kuyidagicha ifodalagan: «o'tkir tanqidchilik, an'analarga amaliy tajriba natijalarini qarama-qarshi ko'yish, xulosalarni tahlilash, talabchanlik bilan o'z-o'zini tekshirib borish, aniq tajribalarning natijalarini sintezlash asosida umumiy xulosalar va qoidalar ishlab chiqish, fan masalalarini hal qilishda din talablaridan mustaqil bo'lish» (69-bet).

«Beruniyning xayoti va asarlari» kitobida P. G. Bulgakov allomaning fexristi va unga qo'shimchalardan kelib chiqib u qoldirgan ilmiy meros hajmi o'n ming qulyozma varaqdan iborat bo'lishi mumkinligini bayon qilgan. Agar ushbu xajmni zamonaviy nashrlar bilan taqoslasak, har biri kamida 35 bosma taboqli 40 jild kitob hosil bo'lgan bular edi (289-bet). SHundan so'ng P. G. Bulgakov 115 ta asar nomini o'z ichiga olgan fexristni birinchi marta tarkibiy jihatdan tahlil qilgan va quyidagi xulosaga kelgan: asarlarni mavzu jihatdan kuyidagicha tasniflash lozim:

1. Sferik astronomiya va zijlarga oid asarlar 18 ta.
2. Geodeziya va geodezik astronomiyaga oid asarlar 15 ta.
3. Arifmetikaga oid asarlar 8 ta.
4. Astrologik astronomiyaga oid asarlar 4 ta.
5. Astrolyabiya va u bilan ishlash usullariga oid asarlar 5 ta.
6. Vaqtni anglash masalalariga oid asarlar 5 ta.
7. Meteorit va kometalar haqida asarlar 5 ta.
8. Turli mavzularga bagishlangan asarlar 12 ta.
9. Astrologiyaga oid asarlar 9 ta.
10. Satira va afsonalar haqidagi asarlar 13 ta.
11. Diniy e'tikrd bilan bog'liq asarlar 6 ta.
12. Qoralama holda qolib ketgan va yuqolgan asarlar 5 ta.
13. Alohida qo'shimchalar talab qilinadigan ishlar 10 ta.

Kitob da ana shu tasnifdan so'ng qiziqarli tahlilga duch kelamiz. 1953 yilda xorij tadqiqotchisi D. Bualo fexrist, YO'kut Xamaviy va Xoji Xalifa asarlaridan foydalanib Abu Rayxon Beruniy qalamiga mansub asarlar ro'yxatini tuzib chiqqan edi. Mazkur ro'yxatda alloma qalamiga mansub asarlar soni 180 ta deb kursatilgan. P. G. Bulgakov esa o'z kitobida ro'yxatni tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqqan.

Uning fikricha, asarlar soni oshirib yuborilgan, sababi D. Bualo asarlar ro'yxatini tuzganda, «Fexrist»da keltirilgan ayrim asarlarni Beruniyga tegishli emas, balki unga atab yozilganligini xisobga olmagan, shuningdek, ba'zi asarlarning manbalarda keltirilgan turlicha nomlarini alohida asarlar deb xisoblagan. P. G. Bulgakovning sinchiklab o'tkazgan taxlili, Beruniy qalamiga mansub asarlar soni 146 ta bo'lib, kitob suo'ggida ilova tarzda ularning tuliq ro'yxati keltirilgan (420—424-betlar).

«Beruniyning xayoti va asarlari» kitobining so'nggi bobida allomaning hayot yuliga umumiy tavsif berilgan. Muallif bayon qilingan barcha ma'lumotlardan foydalanib uni kuyidagi bosqichlarga bo'lgan:

1. bosqich. 983—990 yillar. Umumiy ta'lim va boshlangach maxsus matematik-astronomik bilimlar olish davri.
2. bosqich. 991—998 yillar. Dastlabki mustaqil ilmiy tadqiqotlar davri.
3. bosqich. 998 yillar oxiri — 1004 yilning birinchi yarmi. Jurjon davri. Sermaxsul ilmiy ishlar va ijodiy faoliyat davri.
4. bosqich. 1004—1017 yillar. Urganch davri. Beruniy ilmiy faoliyatini siyosiy ishlar bilan birga olib bordi.
5. bosqich. 1018—1029 yillar. «Geodeziya» — G'azna davri.
6. bosqich. 1030—1037 yillar. Sakkiz yillik kulminatsion ijod davri.
7. bosqich. 1038—1048 yillar. YAkuniy davr (352—355-betlar).

Bunga kadar allomaning umr yuli faqat umumiy tarzda bosqichlarga bo'lingan bo'lib, yuqoridagi davrlashtirish P. G. Bulgakov tomonidan ilk marotaba amalga oshirilgan.

SHundan keyin kitobda Beruniyning fanlar rivojiga qo'shgan hissasi umumiy tarzda ko'rib chiqilgan. etish lozimki, P. G. Bulgakov allomaning falsafiy qarashlari va dinga munosabatiga baho berganda o'z davri talablaridan kelib chiqib, ob'ektivlikdan bir oz chetga chiqan. Allomaning falsafiy qarashlarini materialistik nuqtai nazardan baholagan muallif Beruniyni deist deb xdooblaydi, uning fikrlaridan allomaning ilmiy merosida materialistik qarashlarni quchaytirib ko'rsatishga intilishni kuzatamiz. Dinga munosabat borasida P. G. Bulgakov Beruniy ilmiy merosini ateistik nuqtai nazardan baholagan, ammo, fikrimizcha, Beruniyning diniy bagrikengligi va dunyoviy fanlarga munosabatini yoddan chi-qarmagan holda uning musulmon olim ekanligini esda saqlash lozim.

Bo'limning so'nggida XIX asr oxiridan 1973 yilga qadar bo'lgan davrda allomaning hayoti va ijodining o'rganilish tarixi berilgan. Kitobni mutolaa qilish asnosida beruniyshunoslik bilan shug'ullangan xorijlik tadqiqotchilar, ularning ishlari bilan tanishish imkoniga ega bo'lamiz, kitob bibliografiyasida ularning ilmiy tadqiqotlari uchun alohida qism ajratilgan (404—410-betlar).

YUqoridagi fikrlarning barchasi kitob muallifining mukammal bilim egasi va fidoyi beruniyshunos bulganligidan dalolat beradi. Kitobda keltirilgan fikrlar va tahlillarni beruniyshunoslik sohasida usha davrgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarning jamlanmasi deb hisoblash buladi. Fikrimizcha, uni uzbek tiliga tarjima qilish Abu Rayhon Beruniy merosini o'rganishga yanada yaqnlashuvga xizmat qilgan bulardi. Kitobning so'z boshisida ta'kidlanganidek, P. G. Bulgakovning kitobni yozishdan «asosiy maqsadi alloma Beruniyning mumkin qadar to'liq qiyofasini o'quvchiga ravon tilda etkazish» bo'lib, u o'z maqsadiga erishgan, deb hisoblash mumkin.

Buyuk alloma Abu Rayxon Beruniy (973-1048) hayoti davomida fanning turli sohalariga oid 150 dan ortiq, asarlar yozib qoldirgan. YUrtimizda uning hayoti va ilmiy merosiga qiziqish Rossiya imperiyasi davrida boshlanib sovet sharqshunosligida katta o'rin olgan va rivojlangan. Ayniqsa, XX asrning 40-yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar beruniyshunoslik sohasiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. 1949 yilda Abu Rayxon Beruniy vafotiga 900 yil to'lishi (xijriy yil xisobida 1000 yilligi) ning Butunittifok, miqiyosida nishonlanishi Beruniyning xayoti va ijodining o'rganilishida muhim omil bo'ldi. YUbileyning Xorazmda 1937-1947 yillarda o'tkazilgan S.P.Tolstov boshchiligidagi SSSR FA arxeologik-etnografik ekspeditsiyaning yakunlanishi bilan bir paytga to'g'ri kelganligi esa beruniyshunoslik sohasidagi tadqiqotlarning sermahsulligini yanada oshirdi. 1948-1950 yillar oralig'ida e'lon qilingan tadqiqotlarning barchasi buyuk Beruniy vafotining 900 yilligiga bag'ishlandi. YUqorida qayd etilgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining o'n yillik faoliyati natijalari bayon qilingan S. P.Tolstovning «Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab» nomli mashhur kitobi Abu Rayxon Beruniy xotirasiga bag'ishlangan edi. ekspeditsiya natijasida kulga kiritilgan ishlar fan olamida birinchi marta Qadimgi Xorazm va Beruniy zamonidagi Xorazmning tarixi va madaniyati haqida to'liq va aniq tasavvur hosil qilishga imkon yaratdi. O'z navbatida Beruniyning Xorazm va unga yondosh mamlakatlar xaqidagi ma'lumotlari S. P. Tolstov va uning

qarshiga ekspeditsiyada qo'lga kiritilgan Xorazm tarixiga oid ko'plab fakt va dalillarni talqin qilishda katta yordam berdi. S. P. Tolstovning yuqorida tilga olingan asarining alohida bo'limi Beruniy davriga bag'ishlangani bejiz emas.

1949-yilning 25-26 martida SSSR FAning Tarix va falsafa, Til va adabiyot, Fizika-matematika, Geologiya-geografiya fanlari bilimlarining birlashgan yubiley sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda S. P. Tolstovning «Beruniy va uning davri», I. YU. Krachkovskiyning «Beruniy va uning sharq geografiyasi tarixidagi roli» (bu ma'ruzani sessiyada Zaxoder o'qib bergan), X.U.Sodiqovning «Beruniyning astronomik bilimlari», A. M. Belenitskiyning «Beruniyning «Mineralogiya»si xaqida», G. G. Lemmleynning «Beruniyning mineralogiyaga oid ma'lumotlari», V. Y. Zoxidovning «Beruniy donishmand sifatida» deb nomlangan ma'ruzalari tinglandi. Ammo Beruniy dahosining o'rganilish jarayoni o'sha davrda barcha sohalarini qamrab olgan mafkuralashtirish siyosatidan chetda qolgani yuq. Allomaning yubileyi bu davrda e'lon qilingan «burjua kosmopolitizm»ga qarshi kurash shiori bilan o'tkazildi va mafkuraviy qiro'l vazifasini bajardi, desa buladi. Birok, bu jarayon beruniyshunoslik sohasidagi tadqiqotlar aksariyatining qimmatini kamaytirgani yuk.

Usha davrda allomalar faoliyatiga baho berishda sovet konseptsiyasi shakllangan edi. Hattoki, Abu Rayhon Beruniy davrini tadqiq qilgan arxeolog V.M.Massonning maqolasi ham bundan xoli bo'lmagan. Xususan, u shunday deb yozgan: «Tarixga antipatriotcha kosmopolitik nuqtai nazar bilan yondashuvchi falsifikatorlar Beruniyning ustolastik mavhumlashtirilgan planda ko'rib chiqishga harakat qilib, o'zbek xalqini madaniy merosdan mahrum qilishga uringanlar. Beruniy merosini materialistik nuqtai nazardan baholash birlamchi manbalarga asoslangan o'lkan mehnat talab kdladi. Beruniyning asarlari materializm va idealizm kurashgan kesishmada ko'rib chiqilishi lozim, uning davri sinfiy kurash tushunchasi chuqurlashgan davrdir, bunda kurash umumiy jihatlarini ko'rsatsada, mafkura sohasida hali udarajada o'zini ko'rsatmagan edi». V. M. Masson o'z maqolasida Xorazmning usha davr tarixini yaxshi yoritgan, ammo sovet mafkurasida alloma faoliyatining biryoklama o'rganilishiga olib keldi.

1949-yilning yanvar oyida Uzbekistonda Abu Rayhon Beruniy vafotining 900 yilligi keng nishonlangan. Bu munosabat bilan ikkita to'plam nashr etilishi mo'ljallangan edi. Birinchisi «Beruniy asarlaridan parchalar», ikkinchisi

Beruniyga bag'ishlangan maqolalar to'plami. Ushbu to'plamlarni nashrga tayyorlash uchun ham maxsus komissiya tuzilgan bo'lib, unga YA. F. G'ulomov rahbarlik qilgan. Ammo har ikkala to'plam umumlashgan hadda o'zbek va rus tillarida nashr etildi. V. I. Zoxidovning «Fan xomiyasi Beruniy» deb nomlangan maqolasi ham yubiley munosabati bilan e'lon qilingan edi. Maqolada Abu Rayhon Beruniy yashagan davr haqida hikoya qilingan, uning ilmiy va falsafiy qarashlari tanqidiy sharhlangan. SHu bilan birga Beruniyning borliqni ilmiy bilish uchun kurashi, fanni din ta'siridan kutqarish uchun intilishlari, g'ayriilmiy tushunchalarga qarshi kurashi haqidagi fikrlar berilgan. Garchi maqolada masalaga ilmiy materialistik yondashuv sezilib tursada, u Beruniyning falsafiy qarashlarini o'rganishda ahamiyatga egadir.

1949-yil Beruniy merosini o'rganishda yangi qarashlar ochilgan yil buldi. Gap allomaning mineralogiya va geologiya sohasida qoldirgan ilmiy merosi va bu fanlar rivojlanishi uchun qo'shgan hissasi haqida bormokda. Ushbu masalani o'rgangan olim A. M. Belenitskiy o'zining qator tadqiqotlarida Beruniyning minerolog va geolog sifatidagi faoliyatini yoritgan.

A. M. Belenitskiyning «Beruniyning dunyo kartinasini» deb nomlangan makrasi 1937 yil Hindistonda shu nomda (Beruni's picture of world) arab tilida nashr etilgan seriyali nashrga bag'ishlangan taqrizdir. Uning tarkibida Beruniyning kuyidagi asarlaridan parchalar o'rin olgan edi: «Al Konun al Mas'udiy», «Geodeziya», «Mineralogiya» va «Saydana». A. M. Belenitskiy o'z maqolasida mazkur nashrning tarkibi haqida so'z yuritgan. Maqolada Beruniy asarlarining qaysi qo'lyozmalardan olinganligi, ularning ko'pchiligi birinchi marta chop etilayotgani haqida so'z boradi. Muallif 1936 yili Xaydarobodda Beruniyning «Mineralogiya» asari arab tilida to'la nashr qilinganligini alohida ta'kidlagan.

«O'rta Osiyolik XI asr entsiklopedista Al Beruni O'rta Osiyoning TOF boyliklari haqida» deb nomlangan maqolasida esa A. M. Belenitskiy «Mineralogiya» asari va undagi ma'lumotlar haqida fikr yuritgan. Bunda muallif asarning 1937 yilgi Hindiston nashridan foydalangan. Maqolada muallif allomaning O'rta Osiyo hududlarida mavjud bo'lgan ma'danlar, metallarni ko'rib chiqqani, ularni bayon qilish asnosida tarixiy-geografik joy nomlarining izohlarini ham keltirgani, jumladan, minerallardan badaxshon la'li, lazurit, TOF billuri, firuza, nefrit toshi, yada toshi, metallardan oltin va margimush haqidagi Beruniy keltirgan ma'lumotlarni ukish mumkin.

A. M. Belenitskiyning keyingi tadqiqoti «Al Beruniyning «Mineralogiya»si xakdda»dir. Makola yukorida tilga olingan 1936 yili

1. B. B. B. tomonidan Xaydarobodda amalga oshirilgan arab tilidagi asariga asoslanib yozilgan. A. M. Belenitskiyning maqolasida Beruniyning mineralogiya o'z ishlari haqida xoriyda amalga oshirilgan yana bir tadqiqot xaqida so'z boradi. 1935 yilda Germaniyaning Bonn universitetida suriyalik tadqiqotchi Xashmiy Beruniyning «Mineralogiya» asariga oid manbalar haqida dissertatsiya nashrini e'lon qilgan. Ammo usha paytda dissertatsiya muallifi o'z tadqiqotida alloma Beruniyning ikkinchi darajali boblardan foydalanib, «Mineralogiya»-«kompilektiv asar» deya noto'g'ri xulosaga kelgan. A. M. Belenitskiy ushbu fikrlariga e'tiroz bildirar ekan, «Mineralogiya»dan isbotlar keltirib, Beruniy zamonaviy fan talablariga javob beruvchi olim, degan xulosaga kelgan. A. M. Belenitskiyning maqolasi, uning xulosa qismida ta'kidlanganidek, Beruniy asarining mineralogiya tarixidagi o'rini yoritishdagi dastlabki qadam edi. Ammo tahlil qilingan qisqacha ushbu materiallar ham xorazmlik Abu Rayxon Beruniyning mineralogiya sohasida qiyoyib asar yaratganligidan guvohlik beradi.

Oradan bir yil utib ushbu tadqiqotning bevosita davomi sifatida A. M. Belenitskiy «Beruniyning mineralogiya o'z asarining «Temir haqida»gi bo'limi» va B. A. Kolchinning «Beruniyning mineralogiya o'z asarining «Temir xaqida» gi bo'limiga bir qancha «matnalar» deb nomlangan maqolalari chop etilgan. Birinchi maqolada muallif Beruniyning «Mineralogiya» asaridagi «Temir haqida»gi bo'limining tarjimasini berish bilan birga asarni yozishda alloma foydalangan usullar, asar tarjimasidagi ayrim qiyinchiliklar va undagi she'riy matnlarning tashlab ketilganligini yozgan. Ammo maqola «Mineralogiya» asari rus tilidagi tarjimasining (bir bo'limi bo'lsa ham) kaldirigochidir.

Ikkinchi makrta muallifi B. A. Kolchin esa mazkur tarjima haqida va undagi ma'lumotlarning rus metallurgiyasi tarixidagi ahamiyati haqida fikr yuritgan. Unda Beruniyning rus qilichlari haqidagi ma'lumotlari qimmatli ekanligi, ular arxeologik ma'lumotlar asosida tasdikdanganligi, tarjimada she'riy matnlar berilmaganligi uchun ayrim tushunarsiz joylar borligi, umuman, Beruniyning ushbu asari O'rta Osiyoda X—XI asrlarda metallurgiya va metallarga ishlov berish texnikasi rivojlanganligi va ilmiy asoslanganligidan darak berishi bayon qilingan.

1949 yil Abu Rayxon Beruniyning xayoti va ijodini o'rganishda sermahsul yil bulgan. Usha yili yuqorida tilga olingan yubileylar munosabati bilan uchta to'plam dunyo yuzini kurdi. Ularning birinchisi

SSSR Faning birlashgan yubiley sessiyasi materiallari bo'lib, S. P. Tolstov tahriri ostida «Beruniy» nomi bilan nashr etilgan. Dastlabki maqola unga tegishli bo'lib, «Beruniy va uning zamon» deb ataladi. Mazkur maqola har uchala to'plamning ilk maqolasidir. Maqolada Beruniy yashagan davr tadqiq, etilib, alloma «arab» yoki «eronli» emas, «o'zidan oldin o'tgan buyuk vatandoshi Muxammad ibn Muso Xorazmiy singari o'zbek madaniyatining klassigi, o'zbek fanining yaratuvchisi, O'zbekistonda etishgan o'rta asr olimlarining eng buyuklaridandir», deya e'tirof etilgan. Maqolada Beruniy yashagan davr tarixi sinfiy kurash nuqtai nazaridan yoritilgan, Beruniy va Xorazmiyning hayot yuli ham solishtirilib, ularning umumiy jihatlari bayon qilingan. SHuningdek, muallif Beruniyning ijodi, ilmiy karashlariga qisqacha to'xtalib, uning xarakterli xususiyatlaridan biri haddan tashqari ko'p o'qiganligi va kishini hayron koldirarli darajada bilimdonligidadir, deb xisoblaydi.

«Beruniy donishmand sifatida» nomli maqola muallifi V. I. Zoxidov Beruniyning ilmiy va falsafiy merosi, o'sha davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotni ko'rib chiqqan.

Akademik I. YU. Krachkovskiy esa o'z maqolasida Beruniyning SHarq geografiyasi tarixidagi o'rni to'g'risida, xorijlik beruniyshunos M. Meyerxofning alloma haqidagi fikrlarini keltirgan, ya'ni maxsus tadqiqotlar natijasida Meyerxof shunga amin buldiki, butun o'rta asrlarda tadqiqot usullarining asoslanganligi buyicha Beruniyga etadigani topilmaydi. Mashxur sharqshunos Beruniyning hayoti va ijodini tadqiq etar ekan, o'zigacha mavjud bo'lgan barcha manba va adabiyotlarni chuqur tahlil qilgan, ulardan unumli foydalangan. CHunki bu davrga kelib xorij tarixshunosligi beruniyshunoslikda ancha yuqori natijalarni qo'lga kiritgan edi. Al Beruniyning nisbasi forschada Berunidir, arab tilida cho'ziq «e»ning yo'kligi Biruniy aytilishiga sababdir, deb izoxlaydi I. YU. Krachkovskiy. Berun — «shahar tashqarisidan bo'lgan kishi», uning kunyasi Abu-Rayxon esa rayhonga ega kishi demakdir. Olim Beruniyning genealogiyasini izlashda uning she'rlariga ham murojaat qilgan. Arab adabiyoti tarixida Al Beruni geografiya va sayohatlar sohasida nom chiqargan bo'lsada, u yozgan asarlarning nomlaridan ko'rinib turibdiki, Beruni nafaqat geograf, balki o'z davrining barcha fanlarini egallagan, avvalo, matematika-fizika, so'ngra tabiiy-tarixiy fanlar sohaslarini mukammal bilgan keng dunyoqarashli entsiklopedist hamdir. SHu o'rinda qayd etish lozimki, I. YU. Krachkovskiy Beruniyning arab tilida ijod qilgan

korlamlik olim deb xisoblaydi. Muallif «Xronologiya», «Hindiston», «Al-Beruniyning qonuni», «Mineralogiya», «Geodeziya», «Farmakognosiya» asarlaridagi ma'lumotlar (asosan geografik)ni tahlil qilgan. SHuningdek, asarda Beruniy asarlaridan foydalangan o'rta asr arab geograflari haqida ham so'z yuritilgan (YO'kut, Abul Fid, al Makriziy). Bu esa Beruniyning bizgacha etib kelmagan asarlari haqida ma'lumot olishga imkon beradi. Masalan, YO'kut o'z asarida Beruniyning 1031 yilda yozib qoldirgan «Taqosim al-aqolim» («Olimlar taqsimoti») asaridan foydalangan, ammo u bizgacha etib kelmagan. I. YU. Krachkovskiyning e'trofiga ko'ra, Beruniyning geografiyaga bag'ishlangan alohida asarlari saqlanib qolmagan bo'lsada, yirik asarlarida keltirilgan ma'lumotlarning o'ziyoq uning geografik qarashlarini o'rganishga imkon beradi, olim uchun Beruniy shunday alomaki, uning qiziqan sohaslarini sanashdan ko'ra, qiziqmagan sohaslarini sanash osonroq.

X.U. Sodiqovning «Beruniyning astronomiyaga oid bilimlari» nomli maqolasi esa allomaning astronomiyaga oid merosini o'rganishda yirik va zararli tadqiqot xisoblanadi. CHunki o'sha davrga qadar Abu Rayxon Beruniy, asosan, astronom va matematik sifatida ma'lum bo'lsa ham, uning bu sohalardagi ishlari ilmiy asosda tadqiq etilmagan edi. Uning o'sha yili e'lon qilingan «Beruniy va uning astronomiyaga oid ishlari» maqolasi ham diqqatga sazovordir. Maqola muallifi o'z tadqiqotida Beruniyning Kopernikdan 500 yil avval erinib harakatlanish ehtimoli haqidagi fikrga kelmaganligini ta'kidlaydi. Ikkinchi maqolada esa o'zigacha bo'lgan Beruniyning nashr etilgan asarlaridan foydalanib allomaning nafaqat astronomik, balki trigonometrik jadvallar va matematikaga oid boshqa ishlarini ham yoritgan.

«Beruni» to'plamidan A. M. Belenitskiyning yuqorida nomi tilga olingan «Al-Beruniyning «Mineralogiya»si haqida» nomli maqolasi o'rta olgan. To'plam so'ngida esa uning mazkur asardan olingan «Kahrabo haqida» nomli bo'limining tarjimai berilgan.

To'plamning so'nggi maqolasi professor T. G. Lemmleyniga tegishli bo'lib, unda «Beruniyning mineralogiya o'ld ma'lumotlari» o'rta olgan. Maqola o'sha paytgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarning mantiqiy davomidir. Unda Beruniyning ma'danlar va ularning solishtirma og'irliklariga misollar keltirilgan.

«Beruniy — o'rta asrning buyuk olimi» deb nomlanuvchi V. Y. Zoxidov tiri ostida chikdan ikkinchi tuplam esa yurtimizda nishonlangan

yubiley natijasidir. Uning rus tilidagi nashrida S. P. Tolstovning «Beruniy va uning zamon»i, A. A. Semenovning «Beruniy — o'rta asrning buyuk olimi», V. Y. Zovddovning «X—XI asrlarning buyuk mutafakkiri», F. Jalolovning «Beruniy va astronomiya fani», YA. G'ulomovning «Beruniy Amudaryo oqimining tarixiy gidrografiya haqida» deb nomlangan maqolalari o'rin olgan. To'plamning o'zbek tilidagi nashrida esa ularga ko'shimcha ravishda F. Jalolovning «Beruniy va kartografiya», S. Mirzaevning «Beruniy va saydana ilmi», A. Nosirovning «Beruniy haqida sharq qo'lyozma kitoblaridagi materiallar», «Beruniy asarlarining ruxxati (fexrasti)», shuningdek, Beruniy ayrim asarlarining o'zbekcha tarjimalari o'rin olgan.

Mazkur to'plam materiallarining tahlili bizga beruniyshunoslikda katta yutuqlarga erishilganligini ko'rsatadi. Masalan, A. A. Semenov o'zining maqolasida o'rta asr Evropasi buyuk olimi Aliborona ismi bilan tanir edilar, deb yozgan. Maqolada Beruniyning «Yodgorliklar», «Geodeziya» va «Hindiston» asari haqida fikrlar, astronomiyaga oid ishlari, biologik va botanik kuzatishlari, yo'li va yashagan davri haqidagi qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan.

V. I. Zoxidovning «O'rta asr falsafiy ongining ulug' pahlavoni» maqolasi esa Beruniyning falsafiy merosi va qarashlariga bag'ishlangan qimmatli tadqiqotdir. Unda Beruniy ishlab chiqqan tabiatni o'rganish va bilish metodining xarakterli belgilari tizimlashtirib bayon qilingan. Muallif Beruniy tarixchi sifatida ham ko'rib chiqqan.

YA. G'ulomovning maqolasida esa Beruniy asarlarida keltirilgan Amudaryo oqimining gidrografiya doyr ma'lumotlar kurib chiqilgan. Ushbu maqola xam Beruniy ijodining yangi kiralalaridan biri, ya'ni allomaning gidrografiya sohasidagi ishlarini yoritdi.

F. Jalolovning Beruniy astronom sifatida tadqiq qilgan maqolasida Beruniyning astronomiya va matematikaga oid o'rta yangi asarining nomlari, uning astrologiyaga munosabati bayon kilingan. Shuningdek, O'z SSR FA SHarq qulyozmalari institutida saqlanuvchi «Kitob at Tavhim»da berilgan Beruniyning astronomiyaga oid chizmalari, er harakati haqidagi fikrlari, sferik trigonometriya sohasidagi ishlari ham tadqiq qilingan. Bu muallifning «Beruniy va kartografiya» deb nomlangan maqolasi esa alloma faoliyatining yangi qirrasini namoyon etishi bilan ahamiyatlidir.

Beruniy ijodini yanada kengrok, yoritishga, uning yangi jihatlarini ochishga xizmat qiluvchi yana bir maqola S. Mirzaevga tegishli. «Beruniy va saydana ilmi» deb nomlangan maqolada

Beruniyning farmakologiya sohasidagi asariga oid ma'lumotlar bor. Muallifning yozishicha, Beruniy O'rta Osiyoda birinchi marta saydana ilmi haqida asar yozdi. Bu asarning nomi «Kitob saydana fit tib»dir. Usha davrda asarning tulik, kismi hali aniklanmagan bulib, makola muallifi Moskva universitetining Gorkiy kutubxonasidan olingan 18 betlik kismi bilan tanish bulgan va ularning ayrimlarini uzbek tiliga tarjima kilgan. Mazkur manba Beruniyning «Saydana» asarini o'rganish tomon qo'yilgan ilk qadamdir.

To'plamdan o'rin olgan A. Nosirovning «Beruniy haqida SHarq qo'lyozma kitoblaridagi materiallar», «Beruniy to'g'risida bo'lgan manbalarining qisqacha mazmuni», «Beruniy asarlarining ro'yxati» va «Beruniy asarlaridan ba'zilarining mazmuni va mavqei haqida turli manbalardan olingan ma'lumotlar» deb nomlangan maqolalari esa beruniyshunoslikda tengi yuq tadqiqotlardir. Bunda muallif O'z SSR FA SHarqshunoslik institutida, O'rta Osiyo Davlat universitetining asosiy kutubxonasida va A. Navoiy nomli O'zbekiston Davlat xalq kutubxonasida saqlanib kelayotgan o'zbek, arab, fors tilidagi qo'lyozma va bosma kitoblardan Beruniyga va uning asarlariga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni jamlagan va ularni uch qismga ajratgan. Birinchi qism Beruniyning tarjimai holidan iborat bo'lib, o'sha davrgacha adabiyotlarda mavjud bo'lmagan yangi ma'lumotlar berilgan. Jumladan, allomaning ustozlari, shogirdlari va yuzga yaqin zamondoshlarining ismlari keltirilgan. Ikkinchi qism o'zbek, arab va fors tillarida uchragan qo'lyozma va bosma kitoblarda uchragan Beruniyga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Uchinchi qism faqat olimning asarlariga bag'ishlangan. Bunda Beruniyning 154 asarini o'z ichiga oluvchi uch xil ko'rsatkich berilgan, asarlardan 47 tasining mazmuni va ulardan ma'lumotlar xam berilgan. Fexrasta Beruniy o'z ko'li bilan yozgan kitoblari ro'yxati va unga atab yozilgan kitoblarning ruxxati o'rin olgan. Ushbu tadqiqot Beruniy hayoti va ijodining o'rganilishida muhim o'rin tutadi va keyingi tadqiqotlar uchun manbaviy asos vazifasini bajargan.

Beruniyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan to'plamning yana bir qimmatli jihati shundaki, unda birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilingan Beruniy asarlari bilan tanishish mumkin. «Hind xalqlarining aqliga muvofiq yoki aqlga muvofik fikrlarining xaqiqati tug'risida» asarining E. Muxammadxujayev tomonidan, «Al osorul bokiya anilqurunil xoliya» asarining A. Rasulov tomonidan amalga oshirilgan tarjimalari va M. Abduraxmonovning «Kitobul jamohir fi ma'rifatul

jamohir»dan olingan tarjimasini beruniyshunoslikda Beruniy asarlarining o'zbekcha tarjimasiga tamal toshini qo'ydi. SHu bois ularning qisqa parchalar ekanligi tarjimalar ahamiyatini pasaytirmaydi.

1949 yilda Beruniy vafotining 900 yilligi munosabati bilan yana bir muhim nashr dunyo yuzini ko'rgan. Bu Beruniy bilan Ibn Sinoning Aristotel ilmiy merosi masalasida olib borgan yozishmalarining o'zbekcha va rus tilidagi nashrlaridir. Mazkur tarjima Xar ikkala alloma ijodi bilan tanishish imkonini beradi, ularning falsafiy qarashlarini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. SHuningdek, F. Jalolovning rus va o'zbek tillarida nashr etilgan Abu Rayxon Beruniyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop kitobi, M. A. Salening «Xorazmlik buyuk olim Abu Rayhon Beruniy» nomli maqolasi ham yubiley munosabati bilan e'lon qilingan tadqiqotlardir. F. Jalolovning «Abu Rayhon Beruniy» nomli kitobida alomaning tarjimai holi va ijod yuli bayon qilingan. U orqali Beruniy ijodiga qiziqqan barcha kishilar alloma hakida etarli ma'lumot olish imkoniga ega bo'lgan.

M. A. Salening maqolasi esa ocherk tarzida yozilgan. Unda Beruniyning hayot yuli, uning asarlari mavzularining tamili, ilmiy metodologiyasi, alomaning metodologik va sotsiologik qarashlari haqidagi fikrlar o'rin olgan. Muallifning fikricha, Beruniy asarlarining ko'pchiligi aniq fanlarga bag'ishlangan, sof falsafiy masalalarga bag'ishlangan asarlar uning ilmiy merosida uchramaydi, Beruniyning dunyoqarashida stixiyali materializm din elementlari bilan qorishib ketgan, shu bilan birga, Beruniy ijodida jaxon fanida birinchi bulib Amudaryo (o'zani) masalasini kiritgan. Maqolada Beruniyning «Yodgorliklar», «Hindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya» asarlari haqida fikrlar berilgan.

Umuman olganda, XX asrning 40-yillari beruniyshunoslik tarixida avvalgi tadqiqotlarni rivojlantirgan, sifat va son jihatidan kengaytirgan davr bo'ldi. Bunda alloma vafotining 900 yilligiga bag'ishlangan yubileylar muhim omil bo'ldi. Ushbu davrda Abu Rayhon Beruniyning xayoti, faoliyati, ilmiy merosi va yashagan davriga oid yangi tadqiqotlar va ma'lumotlar yaratildi, uning barcha asarlarining nomi bilsada tuliq aniqlandi. SHu bilan birga alomaning ijod yuli va u qoldirgan merosdan kommunistik mafkura manfaatlari yulida foydalanildi. Ammo bu amalga oshirilgan tadqiqotlar ahamiyatini tushirmadi. endilikda Beruniy asarlarini topish, tarjima qilish va nashr etish, xayotining hali yoritilmagan

jihatlarini tadqiq etish kabi vazifalar bor ediki, bu kabi ishlar keyingi davrdagi tadqiqotlarda amalga oshirildi.

Savollar:

1. Xorazmshohlar davlati tarixshunosligi muammolari.
2. G'aznaviylar davlati Saljuqiylar sulolasining va Qoraxoniylar hoqonligi tarixshunosligi.
3. XI-XII asr tarixchilari siyosiy dunyoqarashi va ularni tarixiy jihatdan o'rganish muammolari.
4. Ko'chmanchi xalqlar tarixini o'rganish va uning tarixshunosligi.
5. Movarounnahrda mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti masalalari.
6. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va kurashi tarixshunosligi..

V-BOB:AMIR TEMUR TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

CHingiziylar hukmronligi o'lkamizda 150 yil davom etgan bo'lsa-da, shu katta davr ichida na ijtimoiy-iqtisodiy hayotda, na ilmiy madaniyatda e'tiborga molik biron-bir tadbir amalga oshirilmadi. Ko'plab olimu fozillar, shoirlar panoh izlab tinch o'lkalarga, masalan SHimoliy Hindistonga ketib kolgan edilar.

XIV asr ikkinchi yarmida, CHig'atoy ulusining janubi-g'arbiy kismini tashkil etgan Movarounnahrda siyosiy tarkoklik yanada kuchaydi. Feodal tarkoklikdan barlos amirzodalardan Amir Temur ustalik bilan foydalandi va 1370 yili oliy hokimiyatni ko'lga oldi. U 1370-1379 yy. mamlakatdagi tarkoklikni tugatib, Movarounnahr va Xorazmni o'ziga bo'ysundirdi. 1381-1402 yillarda Amir Temur ko'shni mamlakatlar ustiga yurish kilib, Eron, Kavkaz orti, Irok, Kichik Osiyo va Hindistonni istilo kildi, Oltin O'rda xoni To'xtamishga (1376-1395) kakshatkich zarba berib, uni poytaxti Saroy Berkani egalladi.

Amir Temur va Temuriylar davlati mayda uluslarga bo'lingan holda idora kilindi. Amir Temur davrida davlat tepasida rasman CHingiz avlodidan bo'lgan Suyurg'atmish (1370-1380) va Sulton Mahmudxon (1380-1402) turdi. Keyinchalik xon ko'tarish tartibi bekor kilinib, oliy hukmdor o'zini podshoh deb e'lon kildi. Bu davrda ilm-fan va madaniyat rivojlandi. Nizomiddin SHomiy va Hofizi Abru, SHarafuddin Ali YAZdiy va Abdurazzok Samarkandiy, Muhammad Mirxond va G'iyosiddin Xondamir kabi mudarrix olimlarni, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, Bisatiy Samarkandiy va Xoja Ismatilla Buxoriy, SHayx Ahmad Suxayliy va Kamoliddin Binoiy kabi juda ko'p iste'dodli shoir va olimlar etishib chikdi.

Sobik tarixshunoslik fanida Amir Temur faoliyatining fakat bir tomoni ya'ni uning jahongirlik faoliyati yoritildi. Mana endi mustakillikdan ilhomlangan respublikamiz tarixchi olimlari, keyingi 15 yil ichida sobibkiron Amir Temur hakida bir kancha ilmiy makolalar e'lon kilishdi, kitob va risolalar chikarishdi. O'zbek tilida ijod kila oladigan bo'riboy Ahmedov, Ashraf Axmedov, Ahmadali Askarov, Amriddin Berdimurodov, Abdulahad Muhammadjonov, SHodi Karimov, Rustambek SHamsutdinov, Turg'un Fayziev va shu kabi boshka tanikli tarixchi olimlarimizning o'tmishimizdagi oltin davr - temuriylar davri hakidagi mehnatlari ayniksa samarali bo'ldi.

O'zbekiston tarixshunosligining bu yo'nalishida, 1992 yilda bir guruh olimlar, yozuvchilar, rassomlar va jurnalistlar tarafidan ta'sis

qilgan «Amir Temur ma'rifiy jamiyati» muhim o'rin egalladi. SHu jamiyat mustakil O'zbekiston yurtboshisi o'ziga xos jasorat bilan respublikaning yuragida sobibkironga haykal ko'yirdi, 1996 yilni Amir Temur yili deb e'lon kildi. Vazirlar mahkamasi «Xalkaro Amir Temur yili» g'anasini ko'llab-kuvvatlash to'g'risida» va «Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» qarorlar kabul etildi.

Turkiy xalklarning ilm-fan, madaniyat va san'at sohalarida jahon madaniyatiga ko'shgan hissalar Amir Temur asos solgan temuriylar davlati bilan bevosita bog'lik. SHu ma'noda, jahon tarixnavisligida bu hakda kator ijobiy fikrlar aytilgan bo'lishiga karamay, 1995 yilning sentyabr o'yida Rossiya Federatsiyasining Elets shahrida «Rusning temuriylar kutkarilishining 600 yilligi» mavzusida xalkaro ilmiy konferentsiya o'tkazilishi taajubli bo'ldi. CHunki borgan sari ko'prok Temur shaxsining buyukligi, uni SHark va Ovrupo tarixchilari buzib tashil kilganliklari ravshan bo'lib boryapti. Buni biz 1996 yilda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat kutubxonasining Amir Temur tarixiga bog'lik adabiyotlar va makolalar bibliografik ko'rsatkichidan ham bilsak bo'ladi. Unda bir ming to'rt yuzta kitob, ham makolalar ro'yxati berilgandir. Bularning 240 tasi chet ellardar nashr etilgan. Bu borada, ayniksa, «Temurshunoslik» frantsuz tarixshunoslik maktabining mustakil bir yo'nalishi desa bo'ladi. Endi o'zbek tarixshunosligida ham hech kanday bir yoklamalik va yuzaki faxrlanishlarga imkon bermasdan, Temur shaxsi, uning davlatchilik tarixini butun murakkabliklari bilan hakkoniy talkin etish kerak bo'lgan yangi zamon etib keldi.

Darhakikat, sobibkiron shaxsiyati buyuk, ayni paytda ziddiyatli. Amir Temur o'zidan keyin ko'pgina jumboklar koldirdiki, ular hakuzgacha muarrixlar uchun izlanishlar mavzusi bo'lib kolmokda.

Xullas, Amir Temur shaxsiyati ko'p kirrali bo'lib, uning har bir kirrasi maxsus mavzu sifatida alohida-alohidadir. O'ylaymizki, yangi zamon tarixshunosligida bu hakda hali ko'plab ilmiy asarlar yaratiladi.

Sobibkiron Temur jahon xalklari tarixida katta iz koldirgan buyuk siymodir. Amir Temur timsoli badiiy adabiyotning kariyb barcha janrlarida tasvirlangan. Mag'ribu Matrikning so'z san'atkorlari uning siymosini chizishga, fenomeni sirlarini ochishga intilganlar.

Sobibkiron Temur obrazi yaratilgan asarlari ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi, ilmiy-tarixiy va memuar asarlar bo'lsa, ikkinchisi adabiy-badiiy asarlardir. Amir Temur obrazi birinchi bo'lib tarixiy-

memuar asarlarda yaratilgan. Bularga Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi», Ryun Gonsales de Klavixo «Samarkandga Temur saroyiga sayohat kundaligi» kabi va boshka asarlar kiradi.

Amir Temur obraziga murojaat Sohibkironning tirikligidayok boshlangan. Ayniksa, Ovrupa Uyg'oniy davri ijodkorlari uning shaxsiga katta kizikish bilan karaganlar. Uyg'oniy davri gumanistlari jismoniy va ma'naviy etuk komil inson idealiga intilganlar.

Xorijning mashhur tarixchilaridan E.Gibbon, F.Shlosser, G.Veber, Jan-Pol' Ru va boshkalar o'z asarlarida Amir Temur faoliyati haqida ma'lumotlar berganlar.

Xorij tarixshunosligida Amir Temur tarixiga oid yozilgan asarlarning salmikli va ilmiy kimmati bilan ajralib turadigan kismi Rossiya tarixshunosligiga taalluqli. Rus muarrixlarining Amir Temur shaxsi va uning tarixdagi o'ni haqidagi fikrlari sovet tarixchilari uchun asosiy dasturilamal bo'lgan.

V.V.Bartol'd, A.YU.YAkubovskiy va boshkalarining asarlari bir necha tillarga tarjima kilingan hamda jahon temurshunosligi rivojlanishiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatilgan.

B.V.Lunin, T.N.Granovskiy, S.M.Solov'ev, V.V.Bartol'd va A.YU.YAkubovskiyilar Amir Temur tarixiga oid xususida kuyidagi asarlarda bir kator fikr-mulohazalar bildirilgan.

XX asrning 20-80 yillar Rossiya tarixshunosligining o'ziga xos jihatlaridan biri shu bo'ldiki, bu davr tarixshunosligida o'tgan asrlardagi rus shovinizmining ta'siri ma'lum darajada saklangan holda, unga yangi salbiy jihatlar ko'shildi. Bular tarixga va tarixiy shaxslarning hayoti, faoliyatini o'rganishga kommunistik mafkura talablari asosida partiyaviy va sinfiy nuqtai nazardan yondashish edi. Natijada Amir Temur shaxsini koralash, uni fakat salbiy bo'yoklarda yoritish avj oldi. Bu hol, ayniksa, XX asrning 70-yillarida yakkol namoyon bo'ldi. A.P.Novosel'tsevning 1973 yili «Voprosi istorii» jurnalida e'lon kilingan «Ob istoricheskoy otsenke Temura» makolasi Amir Temur ustidan o'kilgan hukmdok yangradi. SHundan so'ng XX asrning 70- va 80-yillarida Amir Temur haqida birorta temurshunoslik ilmiy saviyasi bilan farkanuvchi tadkikot ishi e'lon kilinmadi.

XIV asr oxirida Usmonli turk imperiyasi ko'shinlari G'arbiy Evropa tomon siljib borar edi. Sulton Boyazid (1354-1403)ning bu harakatlaridan tahlikaga tushgan Evropa hukmdorlari, unga karshi armiya to'plab, navbatdagi salib yurishiga otlanadilar.

Bu vaktda Kichik Osiyoda yana bir turkiy el hokoni, jahongir Amir Temurning kudratli ko'shini hozir bo'ladi. Ikki jahongirning o'zaro to'knashuvi va kudratining zaiflashuvi esa Evropa hukmdorlari uchun ayni muddao edi. SHu maksadni ko'zlagan Vizantiya imperatori Konstantin II Paleologning dojlari (imperatorning o'zi o'sha kezlarda G'arbiy Evropa kirollari huzurida bo'lgan) Yildirim Boyazid tazyikidan sakos etishni so'rab, Amir Temurga murojaat kilishadi va shu paytgacha nek sultoniga to'lab kelgan bojlarini bunday buyon sohibkironga berajaklarini aytadilar. Kastiliya kirollari Genrix III va Frantsiya kirollari Karl VI o'z elchilarini, Rim papasi Bonifakiy IX bo'lsa o'z katolik missionerlarini shoshilinch Amir Temur huzuriga yo'lladilar.

Bobomiz Amir Temur vaziyatni yumshatish uchun sulton Yildirim Boyazidga o'z elchilarini yuboradi. Ammo, Yildirim Boyazid kaysurlik kilib, jahongir bobomizga nopisand mulozamat ko'rsatadi.

Amir Temur 1402 yilning 28 iyulida Ankara shahri yakindagi g'alabadan so'ng, ertasi kuni Kastiliya kirollari Genrix III de Trastamara (1379-1406)ning elchilarini kabul kiladi. Oradan bir yil o'tkach, Kastiliya kirollari elchisi Run Gonsales de Klavixo boshchiligidagi elchilar 1404 yilning 8 sentyabrida Samarkandda Temur saroyida hozir bo'ladilar.

Bu orada, Amir Temurning sulton Boyazid ustidan erishgan g'alabasi haqidagi xabarni Frantsiya va Angliya kirollariga etkazish niyatida sohibkiron maktublarini olgan Sultoniy (Eron hududidagi shahar) arxieskopi Ioan ham G'arbga jo'natiladi. Ioan ham 1404 yil kuzida Samarkandga etib keladi.

Ammo Karl VI de Valua va Genrix IV Lankaster nomalari arxieskopi Ioan bobomiz Amir Temurga olib kelib topshirgani haqida anik ma'lumot yo'k.

Sohibkiron Amir Temur bilan Evropa hukmdorlari o'rtasidagi yozishmalarning takdiri xususida to'xtaladigan bo'lsak, bu nomalarning asl nusxa va tarjima variantlari hozirda Parij, Madrid va London kutubxonalarida saklanib kelinadi. Bu haqda biz kuyidagi tarixiy asarlardan bilib olsak bo'ladi.

Ushbu ma'lumotlar Keren L. Amir Temur saltanati // Frantsuz tilidan tarj. Va izohlar muallifi: B.Ermatov, Maxsus muharrir: X.Sulton; Suz boshi Lui Bazan. -T.: «Ma'naviyat», 1999, -224 bet. kitoblari ham bor.

Barcha tafsilotlarning to'lik tarixshunosligi: Jahon adabiyoti №1 (104) 2006 yil, yanvar sonida to'lik keltirilgan; Muhammadjon

Xolbekov «Amir Temurning Evropa kirollari bilan yozishmalari». – Samarkand, 1996, -38 bet.

Istoriya Samarkanda. Tom 1: -Tashkent, Izd. «Fan», 1969, -482 s.

Umnyakov I.N. Mejdunarodnie otnoenie Sredney Azii v nachale XV veka. Snoteniya Temura s Vizantiyey i Frantsiyei // Trud Uzbekskogo gosudarstvennogo universiteta im. N.Navon. Novaya seriya. №61. – Samarkand: izd. UzGU., 1956. –s.179-197.

Mustakillik davri tom ma'noda hazrati Temurning kayta tug'ilish davri bo'ldi. Sohibkironning «Bizkim, mulki Turon, Amiri Turkistonimiz. Bizkim, millatlarning eng kadimgi va eng ulug'i – turkning bosh bo'g'inimiz», degan gaplari xalkimizga milliy o'zligini, buyuk va jahonshumul an'analarga voris ekanligini chukur anglashga xizmat qiladi.

«Amir Temur tuzuklarini o'ksam, - degan edi Prezident I.Karimov-xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topgandek bo'laman».

1995 yil dekabrda Prezident I.Karimov 1996 yilni Amir Temur yili deb e'lon kildi. «Temur tuzuklari» bir necha tillarda chop etildi. O'sha davr tarixiy, madaniy yodgorliklarini tiklab, yozma adabiyotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Mukaddas kadamjo - Amir Temur makbarasi ta'mirlandi. Juda kiska fursatda, bobokalonimizning dunyoviy sha'ni va shavkatiga mos keladigan Temuriylar davri tarixi muzeyi kurildi.

Birinchi Prezident I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Sohibkiron Amir Temurning 660 yillik yubileyiga bag'ishlangan 1996 yil 24 oktyabrda Toshkentda o'tkazilgan xalkaro ilmiy anjumanda shunday dedi: «Bizning tariximizda Amir Temurday ulug' siymo bo' ekan, uning koldirgan merosi, padu o'g'itlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan muammolarni echishda bizga ko'l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o'rganmasdan, tariflamasdan, targ'ibot kilmasdan hakkimiz yo'k. SHuning uchun ham mana shu minbardan turib, butun O'zbekiston xalkiga, kolaversa, butun jahon ahliga karata «Amir Temur bizning faxrimiz, iftixorimiz, g'ururimiz!», - deb aysam, o'ylaymanki, xato kilmagan bo'laman».

SHuni alohida ta'kidlash joizki, Amir Temur tavalludining 660 yilligi jahonning 50 dan ortik davlatlarida nishonlangani, ulug' bobokalonimiz merosini o'rganishga bag'ishlangan xalkaro ilmiy anjumanda 30 ga yaqin mamlakat olimlari ishtirok etgani buni yana bir bor tasdiklaydi.

Sohibkiron Amir Temurning 660 yillik yubileyi 1996 yil 21-24 aprel kunlari Frantsiya poytaxti Parij shahrida YUNESKO tashabbusi va rahbarligida nishonlandi, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ishtirok etdi va katta nutk so'zlad. 1996 yilning 18 oktyabr kuni ulug' bobokalonimiz, buyuk davlat arbobi va engilmas sarkarda Amir Temur yodi xotirasiga atab SHark milliy ma'morchiligining noyob namunasi sifatida bunyod etilgan – Temuriylar tarixi davlat muzeyining tantanali ochilish marosimi bo'ldi.

Buyuk Turon tuprog'i jahon tsivilizatsiyasi rivojlangan kadimiy o'choklardan biri bo'lganligi tufayli ham bu erda necha bor renesans-uyg'onish jarayoni yuz berdi. Ammo, Mustakillik davrigacha Turon tuprog'ida rivojlangan madaniy va ilmiy jarayonlarni o'rgangan g'arb olimlari bu yuksak tsivilizatsiyasining ildizlaridan bexabarligi uchun Turon tsivilizatsiyasini Eron madaniyatining bir bo'lagi deb, tahlil kilishar edi. Turonlik allomalarni, arab yoki fors allomalari, deb hisoblar edilar. Bu hol Turon tuprog'ida saklanib kolgan boy arxeologik yodgorliklarning va jahonning mashhur kutubxonalaridagi noyob ko'lyozmalarining kam o'rganilganligi tufayli yuz bergan edi.

Bugungi kunga kelib, ahvol tubdan o'zgardi. Endi shuni kat'iy aytalimizki, Turonning yuksak tsivilizatsiyasi ildizlari hech bir chekka o'lkaga borib takalmaydi, uning ildizlari shu erdan o'sib chikkandir. Aksincha, Turon tsivilizatsiyasining shu'las i ko'pgina shark mamlakatlarida ham madaniyat, san'at va tarixshunoslik kabi, barcha fan tarmoklarining rivojlanishiga turtki bo'lgandi.

G'arb olimlarining yaratgan o'lchovlari bilan hisoblaydigan bo'lsak renesans – uyg'onish jarayoni bu san'at, fan va madaniyatning yuksak darajada rivojlanishi demakdir. G'arb mamlakatlarida va sharkda yuz bergan renesans jarayonining tahlil kilinishi shuni ko'rsatadiki, bu ikki geografik regionlardagi uyg'onish jarayonlari bir-birlaridan sezilarli fark kiladi.

XIV asrning oxirlarida dastlab Italiyada, XV-XVI asrlarda G'arbiy Evropada yuz bergan renesans jarayoni bu mamlakatlarda hukm surgan feodalizm va uning mafkurasiga kattik zarba berib, inkor etib, burjua manfaatlarini himoya kilish va kuchaytirish evaziga yuzaga chikkan bo'lsa Turondan Buyuk Temuriylar davrida yuz bergan renesans jarayoni o'tmishdagi barcha ma'naviy kadriyatlarni tiklash va uni yanada yangi g'oyalar hamda karashlar bilan boyitish evaziga yuz berdi. SHuni ta'kidlashimiz kerakki, SHark renesansi ham g'arb renesansi kabi o'sha mamlakatlarda bir paytlar yuz bergan, gullab

yashnagan antik davrdagi yuksak madaniy va ilmiy meroslardan oziklanadi.

Temuriylar davrida Turonda yuksalish jarayonining yuz berishiga asosiy sabab bu davrda insonning har tomonlama rivojlanishi va har bir kishiga o'z kobiliyatini amalda ko'rsatishga shart-sharoitlar yaratilganligidir. Temuriy hukmdorlar nafakat tirik insonlarga, balki o'tmishda yashab o'tgan allomalar va aziz-avliyolarning xotiralarini abadiylashtirishga ham g'amxo'rliklik kildilarki, bu hol odamlar ongida ezgu xizmatlar qilganlar hech kachon unutilmas ekanlar, degan tushunchalar paydo bo'lishiga olib keldi.

Bugun tarixiy bilimlarning boskichlarini o'rganar ekanmiz, darhakikat, Temuriylar davrida o'zining yuksak cho'kkilariga erishgan madaniy sohalariga e'tibor beradigan bo'lsak, temuriy hukmdorlar boshkargan mamlakatlarda shaharsozlik, me'morchilik, tasviriy san'at, nakkoshlik, zarduzlik, metallga badiiy ishlov berish, hattotlik, ilmiy fan, adabiyot, hunarmandchilik, rivojlanganligining guvohi bo'lamiz.

YUkorida sanab o'tilgan sohalar nafakat poytaxtlarda, davlatlarning eng chekka o'lkalarida ham gurkirab rivojlandi hamda ko'shni mamlakatlarga yoyildi.

Ayrim olimlar temuriylar sulolasining inkirozi bilan ular yaratgan renesans ham barham topgan degan fikrlarni aytganlar. Ammo tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, temuriylar tarix sahnasidan tutganlaridan so'ng ham ular yaratgan renesans Turon, Xuroson va Hindistonda uzok asrlar mobaynida shu'la sohib turadi.

Amir Temur buyuk sarkarda, kuragi erga tegmagan, engilmas fohidir. Amir Temur – insoniyat tarixida eng nodir hodisa – renesansni yuzaga chikarib, amalga oshirgan ulug' zotdir!

«Tarixi arba' ulus» Mirzo Ulug'bekning ilmiy rahbarligi va shaxsan ishtirokida 1425 yilda yozib tamomlangan. Unda XIII-XIV asrlarda Mo'g'ul imperiyasi tarkibiga kirgan mamlakatlar (Mo'g'uliston, Koshg'ar, Ettisuv o'lkasi, Movarounnahr, Dashti Kipchok va h.k.)ning ijtimoiy-siyosiy tarixi kiska tarzda bayon etilgan.

«Tarixi arba' ulus» yoki «Ulus arba'yi CHingiziylar» («CHingiziylarning to'rt ulusi tarixi»)ning o'zbekcha nashri 1994 yili Toshkentda amalga oshirilgan (tarjimonlar: B.Ahmedov, N.Norkulov va Hasanov M.).

«Tarixi arba' ulus» mukaddima va to'rt kismdan iboratdir.

Mukaddima o'rta asrlarda tarixshunoslar o'rtasida hukm surgan an'anaga ko'ra, islomiyatdan avval o'tgan payg'ambarlar, turklarning

afsonaviy ota-bobolari hisoblangan YOfas ibn Nuh va uning farzandi Turkxon, shuningdek, tukr-mo'g'ul kabilalari hamda CHingizxon (1206-1227) tarixi bayon etilgan.

Asarning birinchi kismi Ulug' yurt, ya'ni Mo'g'uliston va SHimoliy Xitoy tarixi, Ugadaxon (1227-1241) davridan to Arik bug'a (1328)ning avlodi, O'rdoy koon zamonigacha yuz bergan voqealarni o'z ichiga oladi.

Asarning ikkinchi kismida Jo'ji ulusi, ya'ni Oltin O'rda tarixi, Jo'jixon (1227 yili vafot etgan) davridan to Muhammadxon (1419-1420, ikkinchi bor 1427-1433)ning zamonigacha kechgan voqealar bayon etiladi.

Uchinchi kism Elxoniylar, ya'ni Eron hamda Ozarbayjonning XIII-XIV asrlardagi tarixini o'z ichiga olgan. To'rtinchi kismida CHig'atoy ulusi (Koshg'ar, Ettisuv, Movarounnahr, SHimoliy Afg'oniston)ning XIII-XIV asrdagi tarixi bayon etilgan. Muallif CHig'atoy ulusida hukmronlik qilgan har bir xon hakida alohida, kiskacha to'xtalib, ularning davrida sodir bo'lgan voqealardan eng muhimlarini tilga oladi.

Asarning ayrim kislmlari, xususan uning so'nggi, to'rtinchi kismi, SHarafiddin Ali YAZdiyning «Mukaddimayi zafarnoma»siga ko'p jihatlar bilan o'xshab ketadi. Lekin «Tarixi arba' ulus» birmuncha to'larok. Bundan tashkari, unda to'rt ulus o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, eng muhimi, «o'zbek» etnonimining kelib chikish vakti hakida kimmatli ma'lumotlar uchratamiz.

Xullas kalom, Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» asari O'rta Osiyo va Kozog'istonning XIII-XIV asrlardagi tarixini o'rganishda, xususan CHig'atoy ulusi tarixini bilishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

XVI-XVII asrlarda yashab ijod etgan muarrixlar uchun ham Ulug'bekning bu asari asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.

Amir Temur daholigi tarixini ilk bor uning zamondoshlari G'iyosiddin Ali, Nizomiddin SHomiy, SHarofiddin Ali YAZdiy, Hofiz Abro', Ibn Arabshoh, Muyiniddin Natanziy va boshkalar yozib koldirgan. Buyuk shaxslar hamisha tarixshunoslik ilmining dikkat markazida bo'lgan.

Amir Temur vafotidan (1405 yil 18 fevral) keyin 1409 yilgacha o'zaro kurash davom etdi. SHohruh Mirzo (1409-1447), Mirzo Ulug'bek (1409-1449), Sulton Abu Said Mirzo (1451-1469), Sulton Husayy Mirzo

(1459-1506) davrida davlat nisbatan markazlashgan edi va xalqaro obro'ga ham ega edi.

XV asrning 80-yillaridan boshlab, o'zaro hamjihatlik juda susaydi. Movarounnahrning bir o'zida deyarli uchta mustakil davlat bo'lib, ularda Sulton Abu Said Mirzoning o'g'illari Sulton Ahmad Mirzo Samarkandda, Umarshayx Mirzo Farg'onada va Sulton Mahmud Mirzo Hisor, Xuttalon hamda Badaxshonda hokimi mutlak hisoblanar edilar.

Bu davrga kelib, avval oddiy xalk orasida, asta-sekin olimlar va davlat ayonlari va rahbarlari orasida arab tili bilan forsiy va turkiy tillardan foydalanilishi natijasida arab tili din va diniy bilimlar tiliga aylandi. She'riyat va tarixda forsiy va turkiy tillar ma'lum mavkega ega bo'lib, ularda ilmiy, badiiy va tarixiy asarlar yaratildi, davlat hujjatlari yuritila boshlandi. Bora-bora forsiy til davlat tili darajasiga ko'tarilib, bu tilda juda katta hududda badiiy va tarixiy asarlar yaratildi.

Masalan, Bayhakiyning «Tarixi Mas'udiy», Nizomiddin SHomiylar va SHarafuddin Ali YAZdiyning «Zafarnoma» asarlari, Mirzo Ulug'bek rahnamoligi va ishtirokida bitilgan «Tarixi ulusi arba», Muhammad Mirxondning «Ravzat us-saf» («Jannat bog'i»), G'iyosiddin Xondamirning «Xulosat ul-axbor» va «Habib us-siar», Mirzo Haydarning «Tarixi Rashidiy» va boshkalar forsiy tilda bitilgan. Movarounnahrda forsiy va turkiy tildan doimo yonma yon foydalanilar edi.

Bizning tariximizga oid salmokli tarixiy manbalar avval arab tilida yaratilgan bo'lsa, ayniksa davlat rahbarlari arab yoki hokimlar arab bo'lganlarida, keyincha forsiy tilda bitildikim, bu til ilmiy doiralarda, madrasa va maktablarda umumiy tarakkiyot darajasini belgilovchi zarurat sifatida o'rgatilar va XIX asr oxirlarigacha ziyoli oilalarda arab tili din va «Kur'oni karim» tili sifatida, she'riyat va boshka sohalar uchun forsiy va turkiy tillari istifoda etilar edi.

Temuriylar davrida fors tilida bitilgan tarixshunoslik asarlarda o'ziga xos xususiyatlardan biri – matn orasida, vokealar bayoni davomida she'riy lavhalarining keltirilishidir. Bu she'riy lavhalar tarixchining o'z asari bo'lishi mumkin va u boshkalarining she'riy asarlaridan ham bimalol foydalanishi mumkin.

Bu badiiy-she'riy lavhalar kenkret tarixiy shaxslar nolari obraz, timsol sifatida juda ko'p ishlatilishidir. Fors tilida bitilgan ayrim tarixiy asarlarda o'xshatish, mubolag'alar ko'p ishlatilib, bayon uslubi o'ta jimjimador bo'lishi mumkin. Mana shunday asarlar to'g'risida Amir

Yusuf tarixchi Nizomiddin SHomiylar shunday degan: «SHu uslubda yozilgan, tashbih va mubolag'alar bilan oro berilgan kitoblarda ko'rilgan maksadlar o'rtada yo'kolib ketadi, agar so'z koida-konidan nasibador bo'lganlardan birontasi ma'nini fahmlab kolsa kolar, ammo kolgan o'ntasi, balki yuztasi uning mazmunini bilishdan, nasadga etishdan ojiz. SHu sababli, uning foydasi barchaga barobar bo'lmadi».

Xondamir o'zining o'lmas tarixiy asarlari bilan ko'p asrlik madaniyatimiz xazinasini boyitdi va tarixnavisligimizda o'chmas iz koldirdi.

G'iyosiddin ibn Humomiddin Muhammad ibn xoja Jaloliddin Muhammad ibn xoja Burhoniddin 1475 yili Xirotda tug'ildi. Uning otasi Humomiddin Muhammad o'kimishli kishi bo'lib, Sulton Abu Saidning o'g'li Sulton Muhammad mirzoning vaziri edi. Onasi esa mashhur muarrix Mirxondning kizi bo'lgan.

Xondamirning yuksak kamolotga etishishida o'tkir zehni, terakkiy fikri va zo'r akl-farosatidan tashkari, Alisher Navoiydek rahnamo kishining bo'lishi va uning ilmu fan va madaniyat ravnakiga bo'lgan oliy kimmati ham sabab bo'ldi, albatta. Navoiy ko'p olimlar, shoirlar, makshshlar, xattotlar katori Xondamirning ham ilmiy ishlariga bevosita rahbarlik kildi. O'sha zamonda Xurosonda eng boy hisoblangan. Navoiy kutubxonasining kaliti Xondamirning ko'liga topshirib ko'yilgan edi.

Xondamir o'zining to'g'ich asari «Xulosat ul-axbor»ni yozishdan oldin Navoiy huzuriga boradi va u bilan maslahatlashib o'zining («Xayrli kishilar ahvolidan jahon xabarlarining xulosasi») to'ng'ich asarini yozadi. Xondamir Navoiy vafotigacha uning huzurida bo'ldi va bir kator tarixiy asarlar yaratdi. Navoiy vafotidan so'ng, u ona yurti Balxga ketib koldi va Badiuzzamon Mirzo (1458-1511)ning xizmatiga kirdi.

1527 yili yozida Xondamir Hindistonga ketishga karor kildi va Kandahorga jo'nadi. 1528 yil 3 martda Kandahordan chikib Hindistonga, Bobur mirzo huzuriga etib keldi. Bu vaktida Bobur Aud shoirlar SHahob Muammot va Hirotdagi «Sultoniya» madrasasining mudarrisi amir Ibrohim Mashhadyi ham Xondamir bilan birga bu erga kelgan edilar. Bobur ularni zo'r hurmat va ehtirom bilan karshi oldi va ularga saroy xizmatchilari katoridan joy tayin kildi.

Xondamir 1535 yilda, ya'ni Humoyunning Burhonpur (Gujarat viloyati)ga harbiy yurishi vaktida vafot etdi va Dehlidagi xoja Nizomiddin Avliyo va Husrav Dehlaviy mozoriga dafn etildi.

Xondamir bor-yo'g'i 62 yil umr ko'rdi. Lekin uning umri sermazmun, kelajak uchun foydali kechdi. U yaratgan 10 yaqin o'lmasi asarlari tufayli o'z nomini tarix sahifasiga abadiy nakshladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ulug' bobokaloni Amir Temur dahosidan konuniy ravishda hamisha iftixor kilar edi. Hazrati Bobur o'z esdaliklarida Amir Temur nomini doimo zo'r ehtirom, ixlos bilan tilga oladi. «Boburnoma»ning ilk sahifalaridayok u o'z nasl-nasabi Temurning oliy shajaraisiga borib takalishini mamnuniyat va g'urur bilan kayd etadi.

Amir Temur 1399 yilda Hindistonni ko'lga kiritadi. «Temur tuzuklari»da bu ulug' mamlakat sari yurishning tarixi, unga kay tarika uzok va puxta rejalar tuzilgani-yu ularning kanday kilib amalga oshirilgani hakida batafsil ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Mazkur voqealardan so'ng oradan kariyib bir yarim asr vakt o'tgach, temuriy tojdorlardan biri-Bobur Mirzo Hindiston sari yuz tutmokka karor kiladi. Ulug' ajdodi singari u ham yaqin beklarini to'plab mashvarat kiladi. «Boburnoma»ning 1507-1508 yil voqealari tavsifida kuyidagilarni o'kiymiz: «Men va ba'zi ichki beklar Hindiston tarafi bormokni tarjih kilduk...»

Agar Amir Temur Hindistonni zabt etishdan davlatga davlat, shuhratiga shuhrat ko'shishni, o'z mavkei va nufuzini yanada yuksaltirishni ko'zda tutgan bo'lsa, Bobur Mirzoning niyatlari bo'lakcha – «o'ziga bir er fikrini kilg'ulik», ya'ni muhim bir viloyatni ko'lga kiritishdan iborat edi.

Buyuk me'mor, buyuk bog'bon, buyuk ijodkor sifatida voyaga etgan Bobur Mirzo go'dak chog'idanok sohibkiron Amir Temur joriy etgan, undan meros bo'lib kolgan go'zal bunyodkorlik muhitida tarbiya ko'rgan edi. Ehtimol, shu sababdan bo'lsa kerak, «Boburnoma»da muallif ulug' ajdodining yaratuvchilik ishlarini, uning amru farmoni va g'oyalari bilan barpo kilingan muazzam inshootlarni, bog'u bog'otlarni zavk-shavkka to'lib tasvirlaydi. Bu haroratli tasvirlar bugun ham dilbir g'azalning baytlari yanglig' tassurot koldiradi. Bobur Mirzoning mazkur yodnomalari bo'lmaganida, sohibkironning tarixiy siymosi tug'al bo'lmay kolishi shubhasiz edi.

«Boburnoma» - bebaho asar, turli-tuman ma'lumotlarga boy va uni sinchiklab o'rganish zarurdir. Davlatchilik ishlarini yurgizishda bek va shahzodalarning o'rni masalasi ham «Boburnoma»da keng yoritilgan. Muallif kaysi bir bek yoki sulton, vazirni ta'riflamasin, avvalo, Amir

Temur saltanatining yaxlitligi, yurt tinchligi va raiyat bilan bog'lik masalalar nuktai nazaridan fikr yuritadi.

Alisher Navoiyning Amir Temurga ixlosi balandligiga uning yozgan asarlari guvohdir. Hazrat Navoiy ayniksa, «Xamsa», «Majolisun nafois», «Muhokamatul lug'atayn» kabi kimmatli asarlarida Amir Temur va uning avlodlarini hurmat bilan tilga olib, ta'rif-tavsif kiladi. Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bekning Buyuk Temurxonning sevimli shoirasi bo'lganligi uchun yukori salohiyatga erishganligini tarannum etadi. Jumladan, «Farhod va SHirin» dostonida Mirzo Ulug'bekning Temurbek naslidan ekanligi alohida kayd etilgan mashhur bir baytini ko'pchilik yaxshi eslasalar kerak:

... Temurxon naslidan sulton Ulug'bek,
Ki, olam ko'rmadi sulton aningdek.

Alisher Navoiy «Hazratul abror» asarida mana bu misralarni keltiradi:

Andok eshittimki, shohi komron,
To'rt ulus xoni Temur Ko'rgon.
Fathi akoling'a kilg'onda azm,
Hind savodida kotig' bo'ldi razm...

Buyuk shoir Farhod tilidan aytgan bo'lsa-da, bobokaloni Amir Temurning jahongirliigi, uning ko'l ostida ko'plab mamlakatlar va shaharlar jamlanganligi, ularda sohibkironning erkin hukmronlik kilganligini yana bir karra eslatib o'tadi. Bu esa Amir Temur sulolasining so'nggi vakillaridan bo'lgan Sulton Husayn va uning farzandlari, nabiralari o'rtasidagi o'zaro karama-karshiliklarning yuz berishi, buyuk markaziy davlatning parchalanib ketishi kabilar bilan bog'lik holda ajdodlar tarixini yana bir esga olib, o'zaro birlikka undash, uni inkirozdan saklab kolishga o'z yo'li bilan kilingan bir harakat edi.

Buyuk Navoiy o'zining «Majolisun nafois» asarida o'z bobokaloni bo'lgan Amir Temurni madh etib, «Muluk shajalarining bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni hokoni, jahongiri sohibkiron, ya'ni Temur Ko'rgon (anarollohu burhonahu), agar nazm aytmokka iltifot kilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andok xo'b mahal va makida o'kuburlarkim, aningdek bir bayt o'kug'on, ming yaxshi bayt aytkoncha bor» deydi.

Navoiyning «Muhokamatul lug'atayn» asarida ham Amir Temur hakida ajoyib so'zlar aytilgan: «Sulton sohibkiron Temur Ko'rago

zamonida farzandi xalafi SHohruh Sulton zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo'ldilar».

Bu fikrni kuyidagicha izohlash o'rinlidir: Amir Temur o'z o'zbek eli farzandi bo'lganligi uchun ona tilida ilm-fan yaratilishi, badiiy asarlar ijod qilish, mahkamada ish yuritishni ham o'z tilida amalga oshirishga harakat kiladi. SHu sababli ko'plab turkiygo'y shoir-yozuvchilar paydo bo'la boshladi.

Xullas, Navoiyning Sohibkiron Temurga, uning saltanatiga, avlodlariga mehri bag'oyat samimiy va sarbaland edi. Buni biz o'z eslab o'tgan asarlarini, boshka meroslarini teran o'rganish bilan anglashimiz mumkindir. Bu mavzuda katta tadqiqot ishlari olib borish endigi davr tarixshunosligining vazifasi hisoblanadi.

Jahon adabiyotida Amir Temur obraziga murojaat Sohibkironning tirikligidayok boshlangan. Ayniksa Ovrupa Uyg'onish davri ijodkorlari uning shaxsiga katta kizikish bilan karaganlar. Uyg'onish davri gumanistlari jismoniy va ma'naviy etuk komil inson idealiga intilganlar. Ular fakat ulkan kudratga ega bo'lgan shaxslargina adolatsizlik, jaholat va beboshliklarga barham bera oladi, er yuzidan istibdod va zo'ravonlikni supurib tashlaydi, deb ishonganlar. Amir Temur shaxsi ularning ana shu ideallariga muvofik kelgan.

XVII-XIX asrlarda jahon tarixnavisligida Amir Temur shaxsi va faoliyati o'rganishga qayta-qayta murojaat kilingan. H.Vamberi, L.Lengle, Perrodino, De Sensio, P.Dela Krua, De Marga, F.Nev, J.Kamyu, E.Gallios va boshka evropalik tarixchilar Amir Temurning harbiy san'ati, davlat tizimi va konunlari hamda iktisodiy islohotlarini tarixshunoslikda yoritganlar.

Sovet tarixshunosligi hakida ham to'xtalib o'tish joizki, bu sohada Amir Temur dahosining yoritilishi ikki davrga bo'linadi: kirkinchi yillarga va undan keyingi yillardagi davrlarga.

Kirkinchi yillargacha sovet tarixchilarining barcha asarlarida Amir Temur shaxsi, uning tarixdagi tutgan ancha karama-karshi fikrlar bilan ifodalangan bo'lsada, xolisona yondoshish hollari ham bor edi: V.Bartol'd, A.YAkubovskiy, A.Belenetskiy, A.Fitra va M.Massonlar Sohibkironning bunyodkorlik faoliyatining keng yoritdilar.

Kirkinchi yillardan so'ng sovet tarixshunosligida Amir Temur shaxsiyatiga bo'lgan munosabat keskin salbiy tomonga o'zgardi. Albatta, bu borada Stalinning shaxsiy ko'rsatmasi bilan SSSR tarixi darsligidan «Temur davlati» bobining chikartirib yuborilishi

munosabotlikda siyosiy bir ko'rsatma sifatida kabul kilindi va tarixiy tadqiqotni soxtalashtirishga olib keldi.

2006 yilda, parijda Temuriylar davri tarixi va san'atini o'rganish bo'yicha assotsiatsiyaning asoschisi va prezidenti, professor Lyus'en Katen kalamiga mansub «Samarkandga, Temur davriga sayohat» kitob shuning uchinchi nashri bosmadan chikdi. Bu kitob YUNESKOning «pak yo'li-mulokot yo'li» dasturiga muvofik yozildi va nashrga tayyorlandi. Kitobning uchinchi nashri uning kitobxonlar orasida keng tarqalishganidan dalolat beradi va u Evropa kitobxonlarida ulug' bobokalonimiz, buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur shaxsiyatiga katta kizikish uyg'otishi shubhasiz.

Jahon tarixnavisligida Amir Temur faoliyatining tahlili sovet tarixchiligining fikridan fark kilib asosan hakkoniy va ijobiy edi.

Istiklol tufayli milliy kadriyatlarimizga, buyuk avlodlarimizga munosabatimiz tubdan o'zgardi. SHu nuktai nazardan karaganda, tarixiy mavzudagi bir kator o'rinlar bugungi dunyokarashlarga muvofik kelmandan koldi.

Keyingi o'n yillikda Sohibkiron Temurbek siymosiga kizikish har kachongidan kuchaydi, bir kator tarixiy badialar, dramatik asarlar, teatr tomoshalari paydo bo'ldi. Bo'riboy Ahmedovning «Amir Temur» nomli kitobi, Muhammad Alining «Sarbadorlar» tarixiy romani, O.YOkubovning «Fotih muzaffar yoxud bir parivash asiri» tarixiy dramasi, Abdulla Oripovning «Sohibkiron» dramasi, To'ra Mirzoning «Amir Temur», «Amir Temur va To'xtamishxon», dramatik asarlari dunyoga keldi.

Ayniksa, ulug' bobokalonimiz 666 yilligi munosabati bilan u hakida va Temurbek hamda temuriylar davri to'g'risida kitoblar kuchayib boraverdi. YOzuvchi Evgeniy Berdikovning «Buyuk Temur» roman-xronikasi 1995 yilda «O'kituvchi» nashriyotida nashr etildi.

Hozirgi davr tarixshunosligida Sohibkiron hakida ilmiy tadqiqot ishlari ham bajarila boshladi. Mana shunday tadqiqotchilar hakida «Turkiston» gazetasining 1996 yil 15 may sonida ma'lumot bosilib chikdi. «Turkiston» 1996 yil 15 may.

Erkin A'zam o'g'li Azimov buyuk bobokalonimiz Amir Temurning siyosiy faoliyatlariga bag'ishlangan «Amir Temurning davlatni boshkarish siyosati» mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasini yozib tugatgan bir paytda hayotdan ko'z yumdi.

Bu izlanishda Amir Temur kadrlar siyosatining yana ibratli tomoni o'sha vaktida hech bir davlatda bo'lmagan va tarixda kamdan

kam uchraydigan lavoz, «Adolat» amiri lavozimini ta'sis etilishidir. Bu lavozim o'z mavkei bo'yicha vazirlar darajasida bo'lgan. Adolat amiri har el va har shaharda sipoh bilan raiyat orasidagi urf-odatlar, rasmlar, rusumlar okibatida kelib chikadigan janjalli ishlar, nizom masalalarini tinch, tushuntirish yo'li bilan hal qilgan.

1999 yilda O'zbekiston tarixi Davlat muzeyining katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi Irpon To'xtievning: «Temur va temuriylar sulolasining pul-moliya siyosati va ularning tangalari nomli ilmiy asari Eron Islom Respublikasining «Buyuk Oyatullo al-Azami» nashriyotchiligi hukmiga havola etildi».

2006 yilda Moskvadagi «EKSMO» nashriyoti sohibkiron Amir Temur haqida «Donishmandlik antologiyasi» nomli kitob chikardi. Rus tilidagi yangi nashr to'rt kismga bo'lingan bo'lib, u sharxshunos olim V.A.Panovning «SHark hukmdorlari» nomli makolasi bilan boshlanadi. Kitob nashrida ayrim juz'iy nuksonlar ham ko'zga tashlanadi.

Bu kitoblar orasida Mixail Arno'dovning «Bir mahoraba tarixi» nomli makolasining ham nashr etilganini aytib o'tmokchimiz.

yukorida nomlari zikr etilgan asarlar orasida akademik B.Ahmedovning «Amir Temur kitobi o'zining monumentalligi bilan ajralib turadi. Unda Sohibkiron Temur hayoti va faoliyati barcha boskichlarda berilgan. SHu jihatdan bu kitob Salohiddin Tokandiyning «Temurnoma»siga yaqin turadi. Lekin Salohiddin Toshkandiy o'z kitobini rivoyatlar va xalk romanlari asosida yaratgan bo'lsa, Bo'riboy Ahmedov tarixiy manbalar asosida yaratgan.

Savollar:

1. Amir Temur davlati tarixshunosligi.
2. Amir Temur to'g'risida jahon tarixshunosligi.
3. Amir Temurning Yevropa davlatlari bilan olib borgan diplomatik yozishmalari.
4. Xalqaro Amir Temur jamg'armasining tashkil etilishi hamda Amir Temur va Temuriylar davri tarixi muzeyining ochilishi.
5. Amir Temur davri ma'muriy, ijtimoiy va madaniyat sohalaridagi o'zgarishlar tarixshunosligi.
6. Amir Temur tarixining zamondoshlar nazdidagi tarixshunosligi.
7. Amir Temur tarixining hozirgi zamon tarixshunosligi.
8. Amir Temur to'g'risida jahon tarixshunosligi.
9. Temuriylar davlatlari davrida tarixiy bilimlar.
10. Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arba'i ulus» asari.

11. XV-XVI asrlarda O'rta Osiyoda feodal ziddiyatlar va kurashlar tarixshunosligi.
12. Tarixchi Xondamirning ilmiy merosi.
13. Muhammad Zahiriddin Boburning «Boburnoma» asari.
14. Alisher Navoiyning tarix ilmiga oid asarlari.
15. Amir Temur va Temuriylar davlati to'g'risida jahon tarixshunosligi.
16. Amir Temur va Temuriylar davri hozirgi davr tarixchilari asarlarida.

VI -BOB: O'RTA OSIYO XONLIKLARIDA TARIXSHUNOSLIK FANI

XV asrning 80-90 yillarida kuchayib ketgan tarqoqlik, xususan Toshkent, Farg'ona va Hisorning markaziy hukumatga itoat qilmay qo'yishi, yosh Temuriylarning toji taxt uchun kurashlari davlatning inqirozini tezlashtirdi.

Muhammad SHayboniyxon (1500-1510) — SHayboniylar davlatiga (1500-1601) asos soldi. Lekin, SHayboniylar ham ma'lum darajada iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohada taraqqiyotga erishgan bo'lsalar-da, baribir ular ham mahalliy yirik er-suv egalarning ayrimachilik harakatlariga barham bera olmadilar.

Abdullaxon soniy 1557 yili Buxoroni egalladi va uzoq davom etgan urushlardan (1557-1582) so'ng Movarounnahrni birlashtirdi. U davlatni markazlashtirdi, lekin uning vafotidan (1598 yil 8 fevral) keyin ayirmachilik harakati avj oldi.

Mana shunday bir sharoitda movarounnahrlik yirik er-suv egalari ruhoniylar va zodagonlar bilan til biriktirib, Jo'jixonning o'n uchinchi o'g'li To'qay Temur naslidan bo'lgan YOrmuhammadxonni taxtga o'tqizdilar. YAngi sulola tarixda Ashtarxoniylar (1601-1785) nomi bilan mashhur (Asli Xoji tarxon (Astraxon)lik bo'lganlari uchun sulola shunday atalgan).

Bu davrda mamlakatda tarqoqlik yanada kuchaydi. Dashti qipchoqliklar, asosan gozoq xonlari va qalmoqlar, Xorazm hukmdorlari Abulg'ozixon va Anushaxon Movarounnahrda tez-tez bostirib kirib, uning CHorjo'y, Buxoro va Samarqand shaharlari va qishloqlarini talon-taroj qila boshladilar.

Eron va SHimoliy Hindiston hukmdorlari Boburiylarning Buxoro xonligi ichki ishlariga aralashuvi kuchaydi. Mamlakatdagi beqarorlik Ubaydullaxon soniy (1702-1711) hukmronligi yillarida juda kuchaydi. Ulus hukmdorlari, Balxdagi Mahmudbiy qatag'on markaziy hukumatga bo'ysunmay qo'ydilar. Samarqand va Hisor viloyatlarida yuz qabilasi, SHahrisabz va Qarshida kenagas va mang'it qabilalari xonga qarshi isyon ko'tardilar. Ubaydullaxon soniy o'rniga xon ko'tarilgan Abulfayz (1711-1747) nomigagina xon bo'lib, hokimiyat bir guruh yirik boylar qo'lga o'tib qoldi.

Eron podshohi Nodirshoh (1736-1747) Movarounnahrda parokandalik va beqarorlikdan foydalanib, 1740 yilning kuzida Buxoro xonligini o'ziga bo'ysundirdi. SHundan keyin hokimiyat, asosan

Nodirshoh tarafdori, mang'it qabilasidan chiqqan nufuzli, katta yer egasi Muhammad Rahimbiy qo'lga o'tdi. Abulfayzxon o'ldirilganidan keyin taxtga o'tkazilgan Abulmo'min (1747-1751) va Ubaydullaxon soniy (1751-1753) nomigagina xon bo'lib, davlatning muhim ishlarini Muhammad Rahimbiy boshqargan.

1753 yilning 16 dekabrda Muhammad Rahimbiy xon bo'ldi. SHu kundan boshlab Buxoro xonligida hokimiyat Mang'itlar sulolasi qo'lida bo'lib, ular 1920 yilning sentyabr oyigacha hukmronlik qilgan.

1709 yili Markaziy hukumatning zaifligi tufayli Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi (1709-1876) tashkil topdi.

XVIII-XIX asrda yurtimiz hududida Buxoro amirligi, Xeva va qo'qon xonligi mavjud bo'lib, Rossiya asta-sekin bu hududga siqilib kelib, o'z mustamlakasini o'rnatdi.

Bo'lib o'tgan siyosiy voqealarning ta'siri tarix faniga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Natijada tarixshunoslik ham o'z taraqqiyotida ma'lum bir o'zgarishlarga yuz tutdi.

O'zbekiston tarixi Xorazm tarixisiz tasavvur etib bo'lmaydi. CHunki, O'zbek xalqi hamda uning davlatchiligi, madaniyati shakllangan beshiklaridan biri — bu qadimiy Xorazm vohasidir.

Xorazmda hukm surgan SHayboniylar sulolasi (1512-1688)ning ko'zga ko'ringan vakili, Xiva xoni (1644-1663), tarixchi olim, tabib Abulg'oz Bahodirxondir.

Abulg'ozixon murakkab siyosiy-ijtimoiy rivojlanish jarayonida, qaltis vaziyatda, shiddatli kurashlar oqibatida Xiva taxtiga o'tirdi. U davlat boshlig'i sifatida feodal siyosiy tarqoqlikni tugatish, markazlashgan davlat hokimiyatini tuzish va uni mustahkamlash, mamlakat mustaqilligini ta'minlash uchun kurash olib bordi.

Abulg'oziy vafotidan so'ng, xon hokimiyati zaiflashib ketdi. Inoqlar, davlat siyosatida u yoki bu shahzodani «xon ko'tarish o'yini» natijasida, o'z ta'sirini kuchaytirib bordilar. «SHayboniy xonlaridan Abulg'oziy xondan keyin, — deb yozadi Mulla Olim Maxdum Xoji, — xonlar podshohligidan yolg'iz ismi podshohlikka qanoat qilib qo'llarida aslo hukumat va tasarruf bo'lmay, inoqlar ra'yicha ish va alarning kalomi ila takallum qilib ... inoqlar xonbozlik qilur edilar».

Taniqli venger olimi H.Vamberi: «Abulg'oziy o'z hayotining barcha qirralari bilan birga bizga Boburni eslatadi», deb baho bergan edi. Agar shoir va olim Zahiriddin Muhammad Bobur XV asrda eski o'zbek-chig'atoy tilida olamshumul ahamiyatga ega «Boburnoma» asarini yaratib, o'zbek xalqi va uning adabiy tili taraqqiyotiga beqiyos

hissa qo'shgan bo'lsa, Abulg'ozii XVII asrda turkiy tilidagi tarix fanining yorg'in yulduzi bo'lib qoldi. Uning bu boradigan xizmati markazlashgan davlat tuzish kabi buyukdir.

Bir necha tilni mukammal bilgan Abulg'ozii o'sha davr udumlariga ko'ra arab, fors tillarida emas, turkiy tilda ijod qildi. «U tarixni yaxshi va yomon barchalar bilsun» deb turkiy til bilan aytdim. Turkiyni ham andoq aytubmanki, bet yoshar o'g'lon tushunur». Uning ana shunday asarlaridan biri «SHajari tarokima», deb atalib, bu asar turkmonlarning boshliqlari va beklari iltimosiga ko'ra «1658-1661 yillarda yozilgan», deb taxmin qilinadi. Ushbu asar 1958 yilda akademik A.N.Kononov (1900-1986) tarafidan tanqidiy matni, ruscha tarjimasi va ilmiy tadqiqi bilan Sankt-Peterburgda chop etilgan. Hozirda zamonaviy o'zbek tilida ham nashr etildi.

Abulg'oziiyning ikkinchi asari «SHajariy turk va mo'g'ul» deb atalib, 1664 yilda yozila boshlagan va vafoti tufayli tomonlanmay qolgan. Asar Abulg'oziiyning vasiyati va o'g'li Anushaxonning topshirig'i bilan Mahmud ibn Muhammad Urganjiy tomonidan tugallangan.

Mazkur asar qisqacha muqaddima va 9 bobdan iborat bo'lib, Odam stodon ta turklarning Mo'g'ulxongacha va undan CHingizxon, SHayboniyxongacha bo'lgan davrda ularning Movarounnahr, SHarqiy Turkiston, Mo'g'ulistonda hukm surgan avlodlari shajarasi, shu davrlardagi ba'zi ijtimoiy-siyosiy voqealar tasvirlanadi. Asarning so'nggi IX bobida Xorazmda hukm surgan SHayboniy sulolalar haqida so'z borib, eng qimmatli qismini tashkil qiladi. Unda tark-mo'g'ul qabilalari, ularning kelib chiqishi, nomlarining mazmuni, yashash joylari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Asardagi tarixiy-siyosiy ma'lumotlar ichida SHayboni uhusi, uning vujudga kelishi va chegaralari, XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida bu ulusning holati, Xorazmning XVI-XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Xiva xonligining Rossiya, Qozoq hamda Buxoro xonliklari bilan munosabatlari yoritilgan o'rinlar O'zbekiston tarixi tarixshunosligining masala va muammolarini tadqiq qilishda juda qimmatlidir.

Mazkur asar Abulg'oziiyning tarixchi olim sifatida olamga tanitdi. U XVIII asrdan Evropa tillariga tarjima qilina boshlandi. Nihoyat, 1992 yilda asar hozirgi zamon imlosida B.Ahmedovning so'z boshisi, mas'ul muharrirligida nashr etildi.

YUqorida keltirilganlarning o'zi Abulg'ozii Bahodirxon va uning asarlari tarixshunoslik faniga ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxs sifatida qaralishiga imkon beradi.

O'zbek davlatchiligi tarixida shayboniylar sulolasi hukmronligi o'lim o'rin tutadi. Buxoro xonligida bu sulola hukmronligi davrida tarixshunoslik ancha yuksalganini A.A.Semyonov, A.YU.Yakubovskiy, B.Ahmedov kabi taniqli tadqiqotchilar haqli ravishda e'tirof etishgan. Tadqiqotchi P.P.Ivanovning fikricha, shayboniylar davrida Buxoro xonligida madaniyatning rivojlanishida Eronda hokimiyatni qo'lga olgan H.H. Ismoilning Erondagi va Hirotdagi sunniylarni ta'qib ostiga olgani ham o'z ta'sirini o'tkazdi. CHunki ta'qiblar tufayli bu erdagi madaniyat namoyandalari, shoirlar, olimlar Buxoro xonligiga kelib, o'rganib qolganlar. Bu davrda Buxoro xonligida tarixnavislik adabiyot, tarjima san'ati, xattotlik, me'morchilik sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritilgani ma'lum.

Xususan, V.V.Bartol'dning fikricha, shayboniylar davrida tarix va adabiyot sohalarida yaratilgan asarlar soni, sifati bir qadar ortgan. Ayniqsa, Hofiz Tanish Buxoriyning «SHarafnomayi shohiy» («SHohlarni sharaflovchi asar») asarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

«Abdullanova» yoki «SHarafnomayi shohiy» asarining ijodkori XVI asrda yashab o'tgan buxorolik shoir va yirik tarixchi olim Hofiz Tanish Buxoriydir. U 1549 yilda Buxoroyi sharifda nufuzli mansabdor xonadonida dunyoga kelgan.

Hofiz Tanish Buxoriy o'z davrining chuqur va keng ma'lumotli kishilaridan bo'lib, 1584 yili Abdullaxon soniyning (1583-1598 yy.) yaqin odami Qulbobon ko'kmdotning tavsiyasi bilan Abdullaxonning xizmati qabul qilingan va uning shaxsiy voqeanavisi, tarixchisi vazifasiga tayinlangan. Hofiz Tanish Buxoriy umrining oxirigacha shu lavozimda ishladi. Maleho Samarqandiyning ma'lumotiga ko'ra, Hofiz Tanish 1589 yili xotini tarafidan zaharlab o'ldirilgan.

«SHarafnomayi shohiy» asarida O'zbekiston, Qozog'iston, shuningdek, qisman, Afg'oniston va Eronning XVI asrdagi tarixi ijtimoiy-siyosiy jihatdan bayon qilinadi. Undan tashqari, asarda Buxoro xonligi bilan Eron, Hindiston, Qoshg'ar va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor. Asar XVI asrning 80 yillari oxirida yozib tamomlangan. Hofiz Tanishning zamondoshi shoir va adabiyotshunos olim Mutribiyning guvohlik berishiga qaraganda, asarning oxirgi qismini, xonning topshirig'i bilan, qozi Poyanda Zomoni (1602 yili vafot etgan) yozgan. Lekin, bu fikrni boshqa manbalar tasdiqlamaydi.

«SHarafnomayi shohiy» asari qofiyat nasr, ya'ni saj-murakkab badiiy uslubda yozilgan. Unda she'riy parchalar Firdavsiy, Rudakiy,

Sa'diy, Kamoliddin Binoiy, Mushfiqiy va muallifning o'z she'rii «Qur'oni karim» oyatlari, «Hadisi sharif»lardan parchalar ham ko'p. XVI asrning 30-60 yillari orasida yuz bergan voqealar sarfida muntazam yuritib turiladigan kundalik daftar, sodir bo'lgan muhim siyosiy voqealarning shohidi bo'lgan keksa kishilarning og'zaki axborotlari asosida, 70-80 yillar voqealari esa muallifning bo'lib o'tgan voqealarda shaxsan o'zi qatnashib to'plagan daliliy ma'lumotlar asosida yozilgan.

Ushbu asarning qo'lyozma nusxalari ko'p. 1995-1997 yillarda kitob ikkita alohida qismlardan iborat holda B.Ahmedov tomonidan nashr etildi.

O'zbek davlatchiligi tarixida Buxoro xonligi davri uchta sulola hukmronlik qilgan yillarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu SHayboniylar (1500-1601 yy.), Ashtarxoniylar (1601-1756 yy.) va mang'itliylar sulolasi (1776-1920 yy.) hukmronligi bo'lib, har bir shajaraning taxti egallab turgan yillari tarixini o'rganish tarixshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

SHarq tarixining ulkan tadqiqotchisi akademik V.V.Bartol'd «O'rta Osiyoning ikkinchi quruvchisi» deb baho bergan hukmdor – bu XVI asrda hukm surgan askarboshi hamda buyuk davlat arbobi, shayboniylar sulolasidan Abdullaxon II dir. Agar Muhammad SHayboniylar O'zbekiston va o'zbek xalqi tarixida shayboniylar davlatining asoschisi, Ubaydullaxon I uning mustahkamlovchisi sifatida tanilgan bo'lsa, Abdullaxoni soniy siyosiy tarqoqlikni tugatish va markazlashgan davlatning quruvchisi bo'lib kirdi. YOki, Ahmad Donish ta'biri bilan aytganda: «Hijriyning har yuzinchi, minginchi yillarida davlat va jamiyatni yangilovchi hukmdorlar vujudga kelib turadi. Bir minginchi hijriyning boshlarida Buxoroda yangilovchi bo'lib Abdullaxon maydonga keldi».

Bugungi kunda, yirik huquqshunos olim, professor Ziyodulla Muqimov ta'biri bilan yondoshilganda ham «U o'z hukmronlik yillari markazlashgan davlat timsolida farovonlik, Turkistonda tartib va madaniyatni ta'minlagan hakmdor sifatida shuhrat topib kelmoqda».

Abdullaxon soniy zamonida tarixshunoslik sohasida ham ko'zga ko'rinarli asarlar yaratilib, bunga misol tariqasida Buxoroda yashab ijod qilgan Hasanhoji Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» asarini («Do'stlar yodnomasi») keltirib o'tish mumkin. Bu asarda XVI asrda Movarounnahrda, shuningdek, Afg'oniston, Hindiston, Eron, Turkiya va Qashg'arda yashab o'tgan 228 nafar shoir haqidagi ma'lumotlar

topilgan. Ular orasida o'z asarlari bilan o'zbek va tojik adabiyoti uchun ulkan hissa qo'shgan Bobur, Hiloliy, Majlisiy, Xoja, Nizomiy, Uvaysiy, Komron, Bayramxon, Mushfiqiy kabi yirik so'z ustalarlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bor. Abdullaxon ikkinchiga ma'lumotlar bor. Abdullaxon ikkinchiga bag'ishlab yozilgan bu asar Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat shuaro», Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asarlaridan keyin «uchinchi tazkira» hisoblanadi va XVI asrda O'rta Osiyo, Eronu Hindistondagi adabiy mahitni va adabiy hayotning boshqa masalalarini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi.

SHayboniylar davrida tarixnavislik sohasidagi katta yutuqlardan biri, bu katta ilmiy qimmatga ega bo'lgan, xususan Muhammad boshining «SHayboniynoma», Mirzo Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» asarlarini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Albatta tarix ilmining rivojini boshqa ilm-fanlar taraqqiyotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu davrda Movarounnahrda musavvirlik, hattotlik, musiqa san'ati, fiqh hamda ko'pgina aniq fanlar: tibbiyot, mantiq, handasa (geometriya) va ilmi hay'at (astronomiya) sohalarida ham anchagina yutuqlar qo'lga kiritildi. «Muhammad amali shabaka» (1550), Bobokalon mufti Samarqandiyning «Risola dar ilmi hisob», «Vasiyat bar chahor qism», Muhammad Husayn Minajjim Buxoriyning «Ma'rifati samti qibla» va boshqa asarlar bu davrda aniq fanlardagi yuksalishdan dalolat beradi.

SHayboniylar davrida Buxoro xonligida, tibbiyot sohasida yozilgan asarlar, ayniqsa kuchaydi. Ularda ilgari surilgan davo usullari, tashxis qo'yish, dorilar tayyorlash o'rta asr musulmon sharq tibbiyotiga xos ilg'or an'analar XVI asrda ham davom etganidan dalolatdir.

Xullas, Buxoro xonligida SHayboniylar sulolasi hukmronligi yillarida Turon zaminida azaldan mavjud bo'lgan madaniyatga homiylik qilib, uni yanada yangi bosqichga ko'tardi.

Buxoro, Samarqand va Xiva (Xorazm) kabi qadimiy madaniy markazlarga nisbatan, Qo'qonda tarix fani va tarixnavislik (istoriografiya) birmuncha keyinroq paydo bo'ldi. Buning sababi, Qo'qon xonligi XVIII asrda tashkil topgan edi. Xuddi shu yillarda SHohruhbiy Buxorodan mustaqil bo'lgan Qo'qon xonligi asos soldi. Avvalgi Qo'qon hukmdorlari o'zlarini «beklar» yoki «biylar» deb atar edilar. Ular ichida Olim (1798-1810) birinchi bo'lib o'zini «xon» deb atadi. Muhammad Alixon (1822-1842) davrida esa qozoqlar, qirg'izlar

va tojiklar yashaydigan hududlarni ham egallagach, Qo'qon xonligi juda keng va kuchli davlatga aylandi.

SHunga qaramay, Qo'qon tarixnavislik maktabi xonlik tashkil topganidan ancha keyin shakllana boshladi.

Tarixiy adabiyot ham nazmiy, ham nasriy shaklda yoziladi. Mazmuniga nisbatan esa ularni voqeanavislik (bayoniy), xotira jo'g'rofiy asarlarga ajratish mumkin bo'lib, ular umumdunyo yoki umumiy tarixni ham qamrab olardi. YA'ni, bunday asarda muallif o'z so'zini olamning yaratilishidan, Odam alayhissalomning dunyoga kelishidan boshlaydi. SHu bilan bir qatorda, ko'plab mamlakatlarning tarixini ham tasvirga oladi. Boshqa bir asarlar esa yaxlit bir tarixga bag'ishlanib, muayyan bir xon yoki sulolaning hayoti yoritilgan bo'ladi.

Ilk tarixiy asar qo'qonda 1237/1823 yilda bitildi. Muallifi Mirzo Qalandar Isfaragiy. U Umarxon (1810-1822) saroyida muarrix va shoir Mushrif nomi bilan ham tanilgan. Asar «SHohnomai Umarxoniy», «SHohnoma», shuningdek, «Tarixi amir Umarxoniy», «SHohnomai Nusrat payom» kabi bir necha nomlar bilan atalgan.

Mushrifning mazkur asari «Umarnoma» manzumasining nasriy bayonidan iborat bo'lib, «Umarnoma»ning o'zi «Fazliy» taxallusi bilan mashhur bo'lgan shoir Abdulkarim Namangoniy qalamiga mansubdir. Fazliyning ushbu asari ham 1237/1823 yilda bitilgan. Boshqacha aytganda, Fazliy o'z manzumasini tugatgan zahotiytoq, Umarxon manzumaning nasriy bayonini tayyorlash uchun Mushrifga ko'rsatma bergan. Sababimanzulga tilining og'ir ekanligidan bo'lsa kerak.

Qo'qon xonligida yaratilgan navbatdagi asar – «Muntaxob at-tavorix»dir. Muallifi Muhammad Haqimxonto'ra bo'lib, asar 1259-1843 yilda yozilgan. Bu kitob umumdunyo tarixi bayon etilgan asarlar sirasiga kiradi, undagi voqealar dunyoning yaratilishidan boshlanib, 1845 yil voqealariga qadar davom etib keladi. Asarning qurama (kompilyativ) qismi ko'plab boshqa kitoblarga asoslanib yozilgan lavhalardan iborat.

Qo'qon xonligida yaratilgan tarix asarlari ichida «Mirot ul-futuh», «Tuhfat at-tavorixi xoni», «Tarixi SHohruhiy» kabi asarlarni ham ko'rsatib o'tish mumkin. SHulardan «Mirot ul-futuh» To'raxo'ja qalamiga mansub bo'lib, asar 1281/1865 yilda yozilgan. «Tuhfat at-tavorixi xoni» asari 1286/1869 yil yozilgan bo'lib, muallifi Avazmuhammad Attodir. 1288/1871 yilda yozilgan «Tarixi SHohruhiy»ning muallifi Mulo Niyoz Muhammad Ho'qindiydir. Jamlab aytganda, Qo'qon tarixnavislik maktabiga oid o'ttizga yaqin tarixiy-adabiy, solnoma va boshqalarni sanay olamiz.

Qolaversa, Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan so'ng bitilgan «Ansob as-salotin tavorix al-xavoqin» (XIX asrning 80-yillari), «Mufassali tarixi Farg'ona» (yozilgan yili noma'lum, muallifi Qozi Otabek Andijoniy), yana o'zbek tilida bitilgan «Mukammali tarixi Farg'ona» (muallifi – Qozi Otabekning o'g'li Muhammad Fozilbek) kabi asarlarni ham aytib o'tish kerak. Ammo, ular hozirgacha ilmiy jihatdan chuqur tahlil etilmagan, sababi, ularda avval bitilgan asarlardagi voqealar takrorlanadi.

Xiva xonligi Amudaryo quyi oqimidagi, qadimgi Xorazm vohasida XVI asr boshlarida shakllangan feodal davlat bo'lib, XVII asr boshlarida mustaqil davlat sifatida boshqarilgan. 1763 yildan o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'ining vakillari – inoqlar Xivada hukmronlikni qo'lga olishadi. 1873 yilda Ruslar istilosidan keyin Rossiyaga qaram davlatga aylandi. 1920 yilda bol'sheviklar tomonidan qumalay tugatildi.

Xorazm o'zining an'anaviy tarixnavislik maktabiga ega o'lkalardan biridir. Xiva xonligi tarixiga bag'ishlangan asarlarda bu qadimiy an'analar bir qadar saqlanganligini ko'ramiz. Abulg'ozixon asos solgan tarixnavislik maktabining an'analari keyinchalik Munis, Ogahiy va Muhammad YUsof Bayoniylar davom ettirdilar.

Xorazm adabiy muhitining xarakterli tomoni shundakim, bu vohada yaratilgan barcha tarixiy-badiiy asarlar o'zbek tilida bitilgan.

XIX asr boshlarida Muhammad Rahimxon buyrug'i bilan saroy tarixchisi, shoir SHermuhammad ibn Amir Avazbiy Mirobal-Munis (1778-1829) Xiva xonligi tarixiga bag'ishlangan «Firdavs ul-iqbob» asarini yozdi. O'zbek tilida yozilgan bu asar «Iqbolnoma» nomi bilan ham mashhurdir. Xiva xonligining XVIII-XIX asr tarixi haqidagi qimmatli ma'lumotlar beruvchi bu asar keyinchalik Olloqulixon topshirig'i bilan Munisning jiyani Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan davom ettirildi va Xiva xonligining to 1872 yilgacha, ya'ni rus istilochilik yurishlariga qadar bo'lgan tarixi bayoni bilan to'ldirildi.

Ogahiy tomonidan yaratilgan «Zubdat ut-tavorix», «Riyo'z ud-davla», «Jomi' ul-vaqotli sultoniy» kabi tarixiy asarlar ham Xorazm tarixnavislik maktabining nodir namunalari.

Xiva xonligining tarixiga bag'ishlangan asarlar ichida Muhammad YUsof ibn Bobojonbek Bayoniy (1859-1923)ning «SHajarai Xorazshohiy» asari katta o'rin tutadi. Bu asarda Xorazm vohasining rus armiyasi tomonidan istilo etilishi haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Bayoniy tomonidan «Xorazm tarixi» asari ham

yozilgan bo'lib, afsuski, u to'raligicha saqlanib qolmagan. Ushbu xonlikdagi saroy amaldorlari, mashhur kishilar haqida ma'lumotlar ayniqsa Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz)ning shoh va shohsifatidagi tavsifi o'ta aniqligi bilan ajralib turadi hamda Xorazm adabiy muhiti haqida ham bir muncha to'liq tasavvur beradi.

Xorazmda o'rta asr muarrixlarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish bo'yicha ham katta ishlar iolb borildi. Xususan Ogahiy o'rta asr musulmon mualliflarning bir qancha tarixiy asarlarini Mirxondning «Ravzat us-safo» asarini, Mahfiy Astrabodiyning Muhammad Nosirning «Nodirnoma» asarini, Kaykovusning «Qobusnoma» asarini va boshqa bir qancha asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, Xorazm tarjimonlik maktabi an'analarini davom ettirdi. Ogahiyning o'zi ham Xorazm tarixiga oid beshta asar yaratgan. Akademik V.Bartol'd ta'kidlashicha: «Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlarning qanchalik kamchiliklari bo'lmasin, tarixiy voqealar bayon etilishi va ularda keltirilgan daliliy materiallarning ko'pchiligi jihatidan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixiga oid bizgacha etib kelgan hamma asarlarni o'zidan ancha orqada qoldiradi». Bu juda yuksak baho, chunki Xorazm tarixnavisligi, o'zbek tarixnavisligining asosidir, degan ma'no yotibdi, bu erda.

Muhammad Rahimxon (Feruz) hukmronligi davrida arab tarixchilari Al-Ma'sudiy (X asr)ning va Ibn - al-Asir (XII-XIII asr boshlari)ning asarlari, Bayoniy tomonidan «Tarixi Tabariy» asari o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Hozirgi zamon, yangicha dunyoqarashga asoslangan-mustaqillik davri tarixshunosligida Xiva xonligi tarixshunosligi chuqur o'rganilmoqda. Jumladan 2005 yil «Moziydan sado» jurnalida Feruzxonning inisi, tarixchi Komyobning asarlari haqida ma'lumot e'lon qilindi.

XIX asr boshiga kelib Movarounnahrda uchta mustaqil davlat faoliyat ko'rsatar edi. Aynan mana shu davrdan Rossiya iqtisodiy va harbiy qudratga erishishi munosabati bilan uning Qo'qon, Xiva Xonliklari va Buxoro amirligiga bo'lgan munosabatida istilochilik ruhi ustin kelib, XIX asrning ikkinchi yarmidan o'lkani zabt etishga kirishdi.

Rossiya o'zining jug'rofiy joylashuviga ko'ra uzoq davrlardan beri SHarqning ta'siriga, boshqa G'arb mamlakatlariga nisbatan, ko'proq berilgan mamalakatdir. Rossiya sharq bilan qadim davrlardan buyon aloqador bo'lib kelmoqda. Lekin, sharqshunoslikning Rossiyada rivojlanishiga G'arbning sezilarli ta'sirini ham hech inkor etib

bo'lmaydi. Xususan, G'arbiy Evropaning hukmron doiralari Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng va kapitalistik taraqqiyot yo'liga o'tish jarayonidan boshlab YAngi dunyoni, Afrika xalqlari va Osiyoning dengiz bo'ygi mamlakatlarini istilo qilish va mustamlakaga aylantirish harakatlari bilan band edilar. O'rta Osiyo bu davrda G'arbning ushbu siyosiy va harbiy harakatlari chetroqda edi.

XIX asrda uncha ko'p bo'lmagan g'arbiy Evropaliklar yoxud ular yolg'iz sayyohlar O'rta Osiyoga tashrif buyurdilar va o'lkaga oid yangi ma'lumotlar to'plashdi.

G'arbiy evropaliklarning O'rta Osiyoda bo'lishlariga oid ma'lumotlar unchalik ko'p bo'lmasada, lekin diqqatga sazovordir. Aytish mumkinki, mintaqamizga tashrif buyurgan g'arbiy evropaliklarning ko'plari maxsus topshiriq yoki shunchaki qiziqish asosida biror ob'ektni o'rganish maqsadida kelgan kishilardan iborat edi.

Aytish mumkinki, XIX asrda O'rta Osiyoga kelgan yoki bu er haqida asarlar yozgan Aleksandr Gumbol'ut (1769-1859), Frans Ferdinand fon Rixtgoften, Vilgel'm Sivers, Fridrix fon-Gel'val'd-nemis olimlarining tadqiqotlarida O'rta Osiyoga oid qiziqarli tarixiy-geografik ma'lumotlar uchraydi. Ularning ba'zilar O'rta Osiyoda bo'lgan, ba'zilar esa unga chegaradosh hududlarda bo'lib, o'lkaga oid muhim ilmiy ma'lumotlarni to'plashgan. Ularning ma'lumotlaridan siyosiy va ilmiy doiralar kerakli maqsadlarda foydalandilar.

Bu davrda O'rta Osiyo siyosiy, harbiy manfaatlar to'qnash kelgan hududga aylandi. SHu sababdan o'lkaga g'arbdan ko'plab missiyalar tashrif buyurdi. Ular asosan Rossiyaning o'lkadagi harbiy harakatlarning borishi, istilodan keyingi o'lkada ahvol haqida ma'lumot yig'dilar. Rossiyaning Turkiston general-gubernatorligi va yarim mustamlaka hisoblangan Buxoro amirligi, Xiva xonligida olib borgan siyosatlarini muttasil kuzatib turdilar.

XIX asrda O'rta Osiyoga kelgan va o'lkamiz haqida ma'lumotlar to'plagan Nikolay Potanin, Aleksandr Byorns, P.I.Demizon, P.S.Savel'ev, I.V.Vitkevich, K.F.Butenov, G.I.Danilevskiy, N.V.Xanikov, A.I.Butakov, savdogar Abrosimov, V.V.Vel'yaminov-Zernov, A.P.Xoroshxik, V.V.Krestov, G.A.Aminov va Arminiy Vamberilarning asarlari haqida Boris Vladimirovich Lunin o'z asarlarida ma'lumotlar beradi. Ushbu to'plam asarda mualliflarning qisqacha tarjimai holi va yozgan asarlarining tafsilotlari haqida ma'lumotlar bor.

Bundan tashqari XIX asrning so'nggi choragida Turkiston siyosiy-ijtimoiy tarixi sahifalarini yoritishda ozmi-ko'pmi xizmat qilishga harakat qilganlar – Vladimir Petrovich Nalivkin va A.G.Serebrennikov haqida ocherklar respublika matbuoti sahifalarida e'lon qilindi.

Bartol'd Vasiliy Vladimirovich 1869 yilda Sankt-Petburgda tavallud topib, 1930 yilda dunyodan ketgan, sharqshunos, akademik olim. Bartol'd haqida ma'lumot O'zbekiston milliy entsiklopediyasining birinchi tomida, 641-642 betlarida, Ashraf Ahmedov tomonidan keltirilib quyidagi, dumlarni o'qiymiz: «Nashr qilingan 685 ta asaridan 320 tasi O'rta Osiyo tarixiga bag'ishlangan. Bartol'd SHo'ro sharqidagi xalqlarning alifbosini arabchadan lotinchaga o'tkazishda faol qatnashdi. «Islom entsiklopediyasi»da 246 ta maqolasi bilan qatnashgan. Bartol'd O'rta Osiyo xalqlari tarixi, etnografiyasi va psixologiyasini chuqur o'rgangan olim bo'lsada, Turkiston xalqi madaniyatini ob'ektiv va haqqoniy baholay olmadi, ma'lum darajada uni kamsitdi. Bu uning «Ulug'bek va uning davri» asarida aniq seziladi. Chunki Bartol'd chor Rossiyasi mustamlakasiligining ideologi edi, u eropaliklarning osiyoliklardan ustunligi g'oyasini olg'a surdi va shu ustunlikni ilmiy va mafkuraviy jihatdan asoslashga xizmat qildi».

Akademik Bo'riboy Ahmedov «Tarixdan saboqlar» nomli asarida, 5-11 betlarida V.V.Bartol'dning Toshkentdagi faoliyatini yoritib beradi. Olimning ilm-fan jabhasida barakali mehnat qilganligini va o'zidan ulkan ilmiy meros qoldirganligini ham alohida ta'sidlaydi.

Xuddi shuningdek, professor L.I.Umnakov ham V.V.Bartol'dning 30 yillik professorlik faoliyatiga baho berilgan asarida, uning ustozlari haqida ilmiy-pedagogik qarashlari haqida batafsil ma'lumotlar beradi. L.I.Umnakovning ushbu asari V.V.Bartol'dning ilmiy merosi tarixshunosligi to'liq bag'ishlanadi. Bejiz emaskim L.I.Umnakov «Bibliografiya trudov V.V.Bartol'da» nomli yirik asar-ko'rsatkichni ham tuzib, nashr ettira olgan (Ushbu asar, SamDU ilmiy kutubxonasida mavjud).

V.V.Bartol'dning 9-tomlik asarlar to'plami nashrdan chiqarilgan bo'lib, faktik materiallarga boy, ilmiy jihatdan puxta, bugungi kunda ham har bir sharqshunos, tarixchi, geograf va filolog undan bahramand bo'lib kelmoqda.

Bu davrda yuz bergan voqealar bir tomondan o'sha davr rasmiy hujjatlarida rossiyalik mualliflar tomonidan turlicha yoritilgan. Mana shuning uchun ham XX asrning boshlarida Turkistonda tarixnavislikni

mahalliy xalq vakillari qarashlari asosida o'rganish, turli tomonlar qarashlari-yu o'zaro qiyosiy tahlil qilinishi maqsadga muvofiq. G'arb sharqshunoslari, Rossiyalik mualliflarning dunyoqarashi Turkistonlik tarixnavislarning ijodiga ham turlicha ta'sir qildi. Natijada mahalliy xalq orasidan ma'rifatparvar, kitobchevar kishilarning ham soni asta-sekinlik bilan bo'lsada orta bordi. Mustaqillik sharofati bilan mana shunday ma'rifatparvar insonlar haqida risolalar chop etila boshladi. Masalan, haliq olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Qo'rg'on Bo'ronov XIX asrda yashab, milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimizga o'z hissasini qo'shgan atoqli olim Sattorxon Abdug'afforovning hayoti va ma'rifat yo'lidagi xizmati haqida «Atoqli o'zbek ma'rifatparvar olim Sattorxon» nomli risolasini Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyotida chop ettirdi. Ushbu risolada Sattorxon Abdug'afforovning faoliyati va ma'rifatparvarlik qarashlarning turli ijtimoiy voqea-hodisalarda namoyon bo'lganligi to'g'risida hikoya qilinadi.

XX asr boshlarida Turkistonda tarix fani haqida to'xtalar ekanmiz, ulkan tarixnavis olim Bo'riboy Ahmedovning «Tarixdan saboqlar» nomli asarida keltirilgan ushbu jumalarni o'qiymiz: «V.V.Bartol'd 1902 yilgi safari vaqtida toshkentlik bir necha kitobsevarlar: general Jo'rubeq (1840-1906); Muhiddin qozi, Said Boqixon qozi, tuttor Mirza Abdulla Isamuhammedov, shuningdek o'sha paytda Piskentda istiqomat qilib turgan qoshg'arlik Bekkulibekning shaxsiy kutubxonalarda saqlanayotgan qo'lyozma asarlarni ham borib ko'rdi».

Demak bu hol o'sha davrda mahalliy kitobsevarlar ham o'z tarixini o'rganishga munosib hissa qo'shishga harakat qilganliklaridan dalolat beradi.

O'sha zamon muarrixlaridan, Toshkent shahar himoyasiga o'z jasorati bilan hissa qo'shganlar safida Muhammad Solih Qoraxo'ja o'g'li bo'lib, uning «Tarixi jadidai Toshkant» («Toshkentning yangicha tarixi») nomli asari ham mavjud.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston xalqlari tarixshunosligiga Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) ham munosib hissa qo'shdi. XIX asrning 90-yillarida jadidlar harakatiga qo'shilib, 1901 yili Toshkentda «Usuli jadid» maktabini ochdi. O'zbek matbuotining vujudga kelishida Munavvarqorining xizmati katta bo'lgan. U XX asr boshidagi Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy harakat va milliy ko'tarilishning eng nufuzli namoyondalaridan edi.

Turkistonda teatr ishlarini yo'lga qo'yishda ham Munavvarqori Abdulla Avloniy yonida turib jonbozlik qildi.

Munavvarqori oktyabr to'ntarishini tashvish va sarosima bilan kutib oldi. SHo'rolar tuzumi va ma'rifatparvar insonni 1931 yilda xalq dushmani sifatida otib tashladi.

Xiva xonligidagi XX asr boshlaridagi tarixnavislik haqida Soliy Hasanovning «Xorazm ma'rifati – olam ko'zgusi» (T., O'qituvchi, 1997) asarida birmuncha foydalanish mumkin.

Mazkur tadqiqotning ijobiy xususiyatlari haqida gapirganimizda, eng murakkab masalalardan biri – Xorazmda «YOsh xivaliklar» jadidchilik harakatiga berilgan haqqoniy bahoni qayd qilib o'tishni ham lozim topdik. Muallif «YOsh xivaliklar» jadidchilik harakati ma'rifatparvarlik dasturining ham musbat, ham manfiy jihatlarini xolisona tahlil qilib bergan. Jadidchilik harakati munosabati bilan «YOsh xivaliklar» tashkiloti faolligi Boboxun Salimov, Polvonniyoz, Xoji YUSuf, Islom Xo'ja, Jumaniyoz Hoji ibn Hivaqiy, Hasanmurod Laffasiy, Komil Xorazmiy, Muhammad Rasul Mirzo, Avaz O'tar o'g'li, Ahmad Tabibiy, Mutrib, Rojiy, Faqiriy, Bayoniy, So'fi, CHokar, Devoni, Xudoybergan Devonov, Otajon Abdalov, Husainbek Matmurod Devonbek o'g'li, Mulla Matmurod, Mulla Bekchon, Murodov, Isomiddin Eshon, Nizomoxun, Otajon Xo'janiyozov, Rahimbergan YOqubov, Muhiddin Umarov, Xudoybergan Matniyozovlarning faoliyati to'g'risidagi mulohazalarga qo'shilmasdan ilojimiz yo'q. CHunki mustaqil bo'lgunimizgacha yuqorida nomlari zikr etilgan jadidlarga salbiy munosabat bildirilib, ularning ma'rifiy-pedagogik faoliyatini va yaratgan darsliklarini qoralab yurgan bo'lsak, muallif klarning qilgan xizmatlarini va asarlarini mustaqillik asosida qaytadan tahlil qiladi va yangi tarbiya tizimiga moslashtirib to'g'ri baholaydi. Xiva xonligi tarixshunosligiga qo'shilgan hissiga olib keladi.

Buxoro amirligining bu davrdagi tarixnavisligida tojik va o'zbek xalqlarining mutafakkiri Ahmad Donish (1827-1897) katta rol o'ynaydi. Buxoro amiri byurug'i bilan bir necha yil davomida tarix, tib va falsafaga oid qo'lyozma asarlardan nusxa ko'chirdi. 1857, 1873 yillarda Buxoro amiri elchilariga mirzolik qilib Peterburgga bordi. Rus hayoti va madaniyati bilan tanildi, rus tilini o'rgandi. Tarixga oid «Tarjimai ahvoli amironi Buxoro» (Buxoro amirlarining tarjimai hollari) nomli asar yozgan.

Buxorolik Mirzo Salimbek Samimiy (1850-1930) tarixchi va shoir 6 ta ilmiy asar yozib qoldirgan. SHular orasida eng kuchlisi

«Tarixi Samimiy» (Samimiy tarixi). Bu Salimbekning eng muhim asari bo'lib, Buxoro amirlarining so'nggi 3 tasi davridagi 60 yillik tarix haqida qimmatli va mufassal ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Markaziy Osiyo tarixiga oid manbalar tadqiqiga qaratilgan ilmiy izlanishlarda «Qo'qon tarixnavislik maktabi» nomi bilan ma'lum nasr va nazmda yozilgan tarixnavislik yunalishidagi asarlarning umumiy nomi o'ttizdan ortikligi ma'lum. Bu manbalardan aksariyatining o'zbek va rus tillariga tarjimalari hamda matnlari chop etilgan, xali nashr etilmaganlari ustida izlanishlar davom etmoqda. Ular orasida Mirzo Kalandar Mushrifning «SHoxnoma-i nusratpayom» asari alohida ahamiyat kasb etadi.

Xozirgacha bor ma'lumotlarga asoslanib aytadigan bulsak, «SHoxnoma-i nusratpayom» Qo'qon xonligi tarixiga oid ilk nasriy asardir. Uning uchta qo'lyozmasi etib kelgan bo'lib, kataloglarda va ayrim tadqiqotlarda atroflicha tavsiflangan. Ulardan biri Rossiya Fanlar akademiyasi SHark qulyozmalari institutida (Sankt-Peterburg) S471 raqamida muallif dastxati sifatida e'tirof etilgan qulyozmadir. Boshqa IKKI nusxasi Tojikiston Fanlar akademiyasi qulyozmalar fondida saqlanadi. Ulardan biri XIX oxirida, ikkinchisi 1937 yili ko'chirilgan (fond xodimlarining aytishicha, 1088 va 1026 raqam ostida saqlangan ushbu qo'lyozmalarning taqdiri hozirda noma'lum).

Bu maqolada biz asarning Sankt-Peterburgda saqlanayotgan nusxasi asosiy matniga kirmay qolgan bir tarixiy voqea xususida to'xtalib o'tmoqchimiz. Ushbu bob 1821 yilning may oyida Qo'qon xukmdori Umarxon (1810-1822) saroyiga Xiva xoni Muhammad Rahimxon (1806—1825) nomidan rasmiy maktub bilan kelgan elchilik va uning oqibatlari xususida so'z boradi.

Bu bobning asosiy matnga kirmay qolgani tug'risidagi ma'lumot bir necha tadqiqotlarda ham tilga olingan. Qo'lyozmaning boshidan 16 varag'i asarning asosiy matnidagi ajralgan qismidir. Ushbu kism boshida «Xorazm xoni Muhammad Rahimxonning Amiri sohibqiron saroyiga arznoma jo'natgani va uning elchilari saroy ostonasini o'pishga etishgani bayonida» nomli bob keladi. Qo'lyozmaning 17-varag'idan esa, an'anaga ko'ra, «Bismillox» iborasi bilan asarning muqaddima qismi boshlangan. Mazkur bob va qo'lyozmaning boshqa qismlarining xattotlik uslubi va yozuv belgilari ularni bir shaxs yozganini ko'rsatadi. Lekin ikkalasini solishtirganda kog'ozida farq bor. Demak, muallif bu bobni asarni yozib bo'lgach kitobning old kismiga

keyin qo'shib kuygan.

Fikrimizcha, ushbu bob asarning qaysi qismida joylashganidan qat'i nazar, uning qanchalik xaqiqatga yaqinligini tahlil qilish O'zbekiston tarixining chalkash sahifalaridan birini yanada oydinlashtirishga xizmat qiladi. SHu sababli maqolada e'tiborni asosan ana shu masalaga qaratamiz.

"SHoxnoma-i nusratpayom"ning Tojikistondagi ikkita nusxasi bilan tanisha olmaganimiz tufayli elchilik haqidagi bob ularda qay darajada aks etganini aytish qiyin. T.Beysembiev tadqiqotlaridagi ayrim tagsharlarga qaraganda, bu bob ularning birida yoki ikkalasida ham bo'lgan.

Aytish joiz, Fazliyning nazmda yozilgan "Umarnoma"si, garchi Umarxon davriga bag'ishlangan bo'lsada, Xivadan elchilar kelmasidan oldinroq yozilgan sabab, unda ushbu ma'lumot o'rin olmagan.

Buxoro va Xiva saroy tarixchilari asarlarida esa, bu elchilik haqida umuman eslatilmagan. Lekin ayni shu elchilikdan so'ng Xiva va Qo'qon tomonidan Buxoro amirligi chegara hududlarida olib borilgan harbiy harakatlar o'sha yildagi asosiy voqea sifatida birinchi o'ringa chiqarilgan.

Qizig'i, keyingi davrlarda, Qo'qon tarixnavisligi an'analari doirasida yaratilgan deyarli barcha asarlarda ular uchun asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan "SHohnomai nusratpayom"dagi bu bob uchramaydi.

Fakatgina Avaz Muhammad Attorning "Tarixi jaxonnamiy" va keyinchalik uning asosida yozgan "Tuxfatut tavorixi xoniy" nomli asarida ham "SHoxioma-i nusratpayom"dagi ushbu bob takrorlanadi. CHunki ushbu ikkala asarga "SHoxnoma-i nusratpayom" birlamchi manba bo'lib xizmat qilgan bo'lib, undan Umarxonning xukmronlik davri voqealari to'liqligicha "SHoxnoma-i nusratpayom"dan olingan. Attor "SHoxnomai nusratpayom"dagi matn va xoshiyadagi tuzatishlarni e'tiborga olgan. Qo'lyozmaning old qismidagi bobni ham matn ichiga kiritgan. Lekin davriy jihatdan hato joyga, ya'ni 1813-1814 yil voqealari ichiga joylashtirgan.

"SHoxnoma-i nusratpayom" (hamda "Tarixi jahonnamiy")dan o'rin olgan Muhammad Raximxon maktubi mazmuni budir:

"...men kim Xorazm mamlakatining farmonravosi, ushbu ulug'vor hukmni o'zinga qabul qilishni lozim deb bildim hamda sultonun sohibqiron, saxovat va xayr-ehson manbasi, tinchlik va xotirjamlikning sababchisi bo'lmish u zotga bo'lgan itoatni o'zinga vojib deb bildim.

Zero, Allox subhanaxu va taolo Kur'oni majid va Furqoni hamidda marhamat qilganidek: "Allohga, uning payg'ambarlariga va o'zlaringizdan bo'lgan amirlarga itoat qiling" (Niso 59). Ushbu kundan e'tiboran men amiri sohibqironning farmonlariga buyunaman. Agar men tomonga marhamat nazarlari bilan ishora qilib, sarkashligi bilan ma'lum bo'lgan Buxoro podshohining ahvolini xarob qilishga amr qilsalar, agar Parvardigor o'z lutfi marhamati bilan madadkor bo'lsa, umidvormanki, ularni tag-tugi bilan yulib tashladim. Assalom at-taqsir."

Elchilar keltirgan maktub va Umarxonning unga javobi Xiva xonligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida Buxoro amirligiga qarshi xarbiy ittifoq tuzilganini anglatadi edi, CHunki bu ikki tomon o'rtasidagi elchilar bordi-keldisi uchta davlat o'rtasida yuz bergan xarbiy-siyosiy jarayonlarga bevosita aloqadordir. "SHoxnoma-i nusratpayom"da elchilarning kelish yillari ko'rsatilmagan, faqatgina sha'bon oyidaligi aytilgan. "Tarixi jahonnamiy"da 1236 yil sha'bon (mil. 1821 yil may) oyi deb berilgan. Bunaday aniq sana balki "SHoxnoma-i nusratpayom"ning Tojikiston nusxasida kelgan va Avaz Muxdmmad Attor uni o'sha manbadan olgandir.

XIX asr boshida taxt tepasiga kelgan uchchala hukmdor-Amir Xaydar, Muhammad Raximxon va Umarxon o'rtasidagi munosabatlar maxalliy manbalarda turlicha yoritilgan. Masalan, Amir Haydar Umarxonga taxtga o'tirishi munosabati bilan tabriklab hadyalar jo'natib, do'stlik taklif qilgani haqidagi matn saqlanib qolgan. Balki Amir Xaydar davlatlararo munosabatlar rasmiy an'anasiga amal qilgan holda shunday xat jo'natgandir.

Qo'qon va Buxoro tarixi aks etgan "Muntaxabut tavorix" asarining muallifi Hakimxontura ma'lumotlariga qaraganda, Umarxon Buxoroga elchi qilib yuborgan Sayyid eshonxoja to'ra Maxdumi A'zamiyni (vaf.1834/35 y.) Amir Haydar juda iliq kutib olgan. Bundan tashqari, boshqa manbada Oxund domla Mir Boqiy Buxoro olimlari bilan bellashish uchun yuborilgani va Buxoro amiri qo'qonlik olimning ilmiga tan berib hadyalar bilan kuzatib qo'ygani haqida tafsilotlar ham aytiladi.

Biroq ikki hukmdor o'rtadagi dustona aloqalar uzoqqa cho'zilmagan. Xususan, Buxoro tarkibidagi O'ratepa hokimi Maxmudxojaning (Maxmudxon Axroriy, vaf. 1821Y.) Umarxon xizmatiga o'tib ketishi o'rtadagi iliq munosabatlar buzilishining boshlanishi bo'ldi.

Umarxonning 1810-1820 yillar oralig'ida amirlik chegarasidagi Jizzaxga uch-to'rt marotaba yurishi va O'ratepa uchun doimiy urushlar hamda Turkistonda hukmron bo'lib turgan To'qi to'ra Buxoro amiridan yordam olib Qo'qon xonligi xududlarini talon-taroj qilib, karvonlarni talashi ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni butkul yomonlashtirgan edi.

O'rta Osiyo mintaqasida asosiy ta'sirga ega hukmdor mavqei egallash borasida ham Amir Haydar bilan Umarxon o'rtasida kurash ketgan. Amir Haydar hukmronligining dastlabki yillarida Usmonli davlati bilan aloqalarini yaxshilab, Qo'qon va Xiva xonliklarini turk Sultoni bilan yaqinlashishiga to'sqinlik qilib turadi. SHuning uchun dastlab Umarxonning Sulton Maxmudga bay'at qilish, to'g', bayroq va yorliq so'rab yuborgan elchilari natijasiz qaytgan.

Qo'qon-Xiva o'rtasidagi munosabatlar masalasida ham qator ziddiyatlar bor. Xo'sh, Xiva xoni Muxammad Raximxon Umarxonga shunday maktub yuborishi mumkinmi? "SHoxnomai nusratpayom"da kelgan maktub mazmunidan Xiva xoni Muxammad Raximxon Umarxonga so'siz itoat qilishga qaror qilgani tasvirlangan. Albatta, bu erda vaziyat bir oz bo'rtirilgan ko'rinadi. Qolaversa, Muxammad Raximxonning bunday taklifi tug'risida boshqa manbalarda deyarli ma'lumot yo'q. Uchchala davlat hukmdorlari o'rtasidagi tortishuvlarni o'sha davr manbalarida mashhur bo'lgan she'riy musobaqada ko'rish mumkin. Unda, Umarxon amir Haydardan yuqori turishini ko'rsatishga uringan.

SHunga qaramay, Umarxon va Muxammad Raximxon davrida Qo'qon Xiva munosabatlari ancha yaxshi bo'lgani ma'lum. 1822 yil baxorida turk sultoni Sulton Maxmudxonning (1808-1839) Umarxon uchun yuborgan hadyalari va "xoni xonon" yorlig'ini olib kelayotgan Mir Qurbon Xorazm orqali kelgan. Xiva xoni Muxammad Raximxon uning xavfsizligini ta'minlash uchun ikki elchini hamroh kilib yuborgan.

Muxammad Raximxonning Buxoroga qarshi kurashish uchun Qo'qon bilan ittifoq tuzishini tushunsa bo'ladi. CHunki, birinchidan Muxammad Raximxonga Umarxondan boshqa amaliy yordam ko'rsata oladigan ittifoqchi topish qiyin edi. Qolaversa, Dashti Qipchoq buysundirilgach, Qo'qon bevosita Xorazm hududi bilan chegaradosh davlatga aylanib, kelgusida Xiva saroyida tinch ko'shnichilik munosabatlarini kafolatlash masalalari ham ko'ndalang turardi.

Muhammad Raximxonning xonlik davri aks etgan "Firdavsul iqbol" asarida Marvdagi taka va boshka turkman urug'lari Xorazm

hukmdorlariga hujum qilib talonchilik qilgani, Muhammad Raximxonning kimga chora ko'rish uchun Amir Haydarga yuborgan maktublari natijasiz qolgani aytiladi. SHu sababdan qo'shin to'plab 1821 yil boshlarida Buxoro hududlariga hujum qilgani ko'rsatiladi. Buxoro talonchilari esa, Xiva xonlarining amirlik chegara hududlariga yurishlarini ko'prok talonchilik deb baxolaydilar. Xususan, "Tarixi Amir Haydar" asari mualliflari ayni o'sha 1236 yilning sha'bon (1821 yil may) oyidagi Muhammad Raximxonning Buxoroga yurishini akasi uchun Amir Haydardan o'ch olish niyati bilan bog'liq deb yozadilar.

Umuman olganda, Buxoro amirligida 1821 yil markaziy hokimiyatga qarshi bosh ko'targan Samarqand hududidagi xitoy-qipchoqlar hamda Muhammad Raximxon va Umarxonning amirlik hududiga qaratilgan harbiy harakatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq edi.

Umarxon Xiva xoniga javob xatini yozishi Qo'qon bu urushga rozi ekanini bildirardi:

"... ushbu vaqtlarda Buxoro podshohi kuchsizlanib qolganimizni natarda tutib Jizzax, Hisor, Zomin, YOm, O'ratepani davrping nomdor qaroqchi muftid va navbakorlaridan Xudoyorbek yuzning farzandi Otulqbek, ya'ni ushbu dargohning bog'iyi (isyonkori) va xoiniga tortiq qilgan. O'zi esa Buxoro arkini vatan qilmishdir. Bizning niyatimiz shu-ki, Ramazon ro'zasi, Maliki Mannon toatlari va tasbehlari tugagandan so'ng, Izidi taoloning xohish irodasi bilan shavvol oyining boshlarida o'zimizning saltanat borgohimiz va shavkatli davlatiz chodirlarini Jizzax va Zomin hududi atroflariga yoyishdir. Biz istaymizki, siz janobi oliylari ham ayni shu kelishilgan kun va vaqtli soatlarda o'zingizning bemisl lashkarlaringiz va suvoriylaringiz bilan Amu soylaridan kechib o'tib, Buxoro tumanlariga kirib borsangiz. Toki sarkash dushmanimiz ko'rsinlar va shunga yarasha muomalada bulsinlar. SHunda biz ularning bu holatdagi kuchi qanchaga etishini bilamiz.

Hamma holatda ha'm nusrat (yani, g'alaba) Karim sifatli Zomin qulidadir. Vassalom".

"SHoxnomai nusratpayomdagi ma'lumotlarga ko'ra, Umarxon Xiva elchilariga Abdulholik koravulbegini hamrox qilib sovg'a-salomlar bilan jo'natadi. Bu hol Buxoroga qarshi rasman Qo'qon-Xiva harbiy ittifoqining tuzilganidan darak berardi. Ko'p o'tmay ittifoqchilar amaliy harakatlarni ham boshlab yuborishgan. Xususan, o'sha yili Ramazon oyining 27-kunida (1821 yil 28 iyun) Umarxon saroyiga Xiva qo'shini Buxoro tumanlariga etib kelgani

xaqida xabar keladi. Bu vaqtda Umarxon ham urushga alohida tayyorgarlik ko'rgani shubhasiz. Chunki Ramazon hayiti o'tishi bilan u ham 12 ming askar bilan yurishga otlangan. Umarxon boshchiligidagi qo'shin Qo'shko'prik mavzeiga etib kelganida, unga Andijonda hokim bo'lib turgan ug'li Muhammad Ataxon o'z odamlari bilan qo'shilgan. Yo'lda, Konibodomga qarashli Sobirtepa to'qayzoriga etganlarida Muhammad Alixonning ukasi, To'raqo'rg'on hokimi amirzoda Sulton Mahmudxon ham odamlari bilan kelib qo'shilgan. Bundan tashqari, Jigdalik mavzesida Xo'jand hokimi SHohibek dodxoh ming kishi bilan, rasman Toshkent va Dashti Qipchoq xokimi bo'lib turgan yana bir shaxzoda Abdullaxon (amaldagi xokim Lashkar qo'shbegi) kuchlari ham asosiy qo'shin bilan birlashgan.

Umarxonning bunday katta qo'shin bilan chiqishi bu urushga katta e'tibor berilganidan dalolat beradi. Qolaversa, Qo'qon qo'shinlarining keyingi harbiy harakatlari bu borada alohida reja asosida olib borilganini ko'rsatadi.

Tabiiyki, bu vaqtda Umarxon itifoqchisi Muhammad Raximxon hamda amirlik ichkarisidagi uning yurishini qo'llab-quvvatlab turgan muxolifatchilar bilan ham aloqada bo'lib turgan. Xususan, Xiva xarbiy kuchlarining Buxoroga karashli Qorako'l mavzesiga etib kelgani, Samarqand va Miyonkoldagi xitoy-qipchoq etakchilarining Umarxon xizmatiga shay turgani xabari keladi. Xiva xoni Muxammad Raximxon kelishuvga ko'ra, 1821 yil o'rtalarida Amudaryo buyidagi CHorjuy mavzesida Amir Haydar yuborgan Rajabbek parvonachi, Qurbonbek to'qsabo va Mir Umar qo'shinlarini engib, Buxoro hududlariga kiradi. Taxminan avgust oyida u Qorakul mavzesiga etib keladi. Amir Haydar xorazmliklar bilan ovora bo'lib turgan bir vaqtda Samarqandga xitoy-qipchoqlar qo'zg'olon ko'taradi.

Hakimxonto'ra xitoy-qipchoqlar Amir Haydarning Samarqanddagi noibi Davlat ko'shbegini asir olib Umarxonga yuborgani, Umarxon bundan xursand bo'lib, xitoy-qipchoqlar nomidan yordam so'rab kelgan Odinaqul devonbegi va Ma'muriy parvonachini munosib taqdirlab, Ishok devonbegini ularga boshliq qilib tayinlagani haqida yozadi. Demak, Umarxon faqatgina Xiva xonining taklifi bilan emas, balki bir tomondan xitoy-qipchoqlarning yordam so'raganini inobatga olib ham Jizzax ustiga qo'shin tortib borgan va Samarqand qamalida yordam bergan.

"SHoxnomai nusratpayom"da hayon qilingan voqealar davomiga qaraganda Umarxon Zomin qal'asining qamaliga tayyorgarlik qilib

ko'rgan vaqtda Kesh hokimi Doniyol otaliq Urgut va Mog'iyon hokimi Kattabek parvonachi va Miyonkol hokimlaridan Odinakul devonbegi va Ma'mur parvonachilar xonga belgilangan joyda turganlari tug'risida xabar yuboradilar.

Doniyol otaliq Buxoro amiridan norozi bo'lib, o'zining dushmanlik kayfiyatini doim bildirib turgan. Buxoro amirligiga qarshi chiqqanlarni qo'llab-quvvatlagan. Qo'qon bilan siyosiy yaqinlashuvining bir sababi Umarxon bilan qarindoshlik aloqalari ham bo'lgan.

Kattabek parvonachi ham amirga qarshi chiqib, Samarqandning egallanishi tarafdori edi. SHu sababli Amir Haydarning Xiva qo'shini bilan urushayotgan paytidan foydalanib Urgut qal'asini egallab olgan. Mazkur shaxslar yolg'iz o'zlari Amir Haydarga qarshi tura olmasligini yaxshi bilardi, shu sababli Samaqkandni olishda va keyingi harakatlarda yordam so'rab Umarxonga bir necha bor maktub bilan murojaat qilishgan. Keyin ular xitoy-qipchoqlar bilan birlashib, Samarqand atrofiga joylashgan edilar. Umarxon qipchoq sardori Odinaqul devonbegini Zomin qal'asini qamal qilishda yordam berishini istab Samarqanddan chaqirtirib oldi. SHundan keyin Odinaqul besh ming kishilik qo'shin bilan kelib Qo'qon qo'shiniga qo'shildi. Birlashgan qo'shin bilan Zomin qal'asi egallanganidan keyin Umarxon Samarqand qamali uchun Xushvaqt qo'shbegi, Hasan dodxoh, Aslonbek dodxoh, Yodgorbek taksoba va Odinaqul devonbegilar ixtiyoriga o'n ikki ming kishilik qo'shin berib, Samarqandga borib Doniyolbek va Kattabek parvonachi qo'shinlari belgilangan joyga kelgunicha poylab turishlariga buyruq bergan. Hushvaqt kushbegi Samarqand yaqinidagi Ipor dushtiga, Doniyol otaliq askarlari esa Obi Kuxak (Zarafshon) suvi buyiga, Kattabek parvonachi jangchilari buyruqqa binoan Urgut va Mog'iyon hududlariga joylashgan. Belgilangan qo'shin to'planganidan keyin Samarqand qamali boshlangan.

Demak, Umarxonning shaxsan o'zi Samarqand qamali uchun bormagan. Balki shuning uchun Buxoro va Xiva manbalarining mualliflari xitoy- qipchoqlar, SHahrisabz va Urgut hokimlari va xususan Xiva xonligining Umarxon bilan o'zaro (ehtimol maxfiy) yozishmalaridan xabarlari bo'lmagan. SHuning uchun ham Qo'qon xonligining Samarqand va Buxoro hududlari uchun urushlarda ishtirokini yozmagandirlar. "Tarixi Amir Haydar" asarida aytilishicha, hatto Muhammad Raximxon Qo'qon xoniga emas, balki xitoy-qipchoq sardorlariga hamkorlikni taklif qilib maktublar yuborgan.

Samarqand qamaliga keladigan bo'lsak, Amir Haydar besh ming

kishilik askar bilan Samarkand qo'rg'oni ichida qiyin ahvolda qolgan edi. SHaxarning ulamo va nomdor kishilari tinchlik so'rab Umarxon nomiga arznoma yozadilar. Mashxur "Ko'k tosh" (sangi kabud)ni solib evaziga beradilar. Umarxon arzlarini kabul qilib, qo'shinga ortga qaytishga buyruq berib O'ratepa orqali Qo'qonga kaytib ketadi.

"SHoxnomai nusratpayom"dagi biz o'rganib tahlil hilgan bob muna shu erda tugaydi. Bu voqealarni asosan Mirzo Qalandar Mushrif bergan ma'lumotlar asosida yoritib, boshka manbalar va qilingan tadqiqotlar bilan qiyosiy o'rgannib chiqdik. Qo'qon manbalari Umarxonning bu yurishlarini tasdiqlaydi. Lekin Xiva bilan elchilik munosabatlari orqali tuzilgan harbiy ittifoq va shuning natijasida Qo'qon xonligi qo'shni harakatga kelgani haqida ma'lumotlar uchramaydi. Ushbu bobda Xorazm qushinining Qoraqulgacha kelgani to'g'risida ma'lumot beriladi xolos. Muallif Muxammad Rahimxonning keyingi faoliyatiga katta e'tibor bermagan. Lekin Umarxon bilan doimiy aloqada bo'lib turgan bo'lishi kerak, Muxammad Raximxon va Amir Haydarning xarbiy harakatlari Xiva va Buxoro manbalarida yaxshi yoritilgan.

Mirzo Qalandar Mushrifning nega ushbu bobni asosiy asar ichida keltirmagani haqida aniq xulosa chiqarish kiyin. Tug'ri, har qanday asarga ham xonlik bilan bog'liq barcha voqealar kiritilishi, bir hisobda, shart emas. Lekin xonlik tarixida aynan bu voqealarning ahamiyati katta edi. Nima bo'lganda ham ushbu bobda keltirilgan ma'lumotlar uch davlat tarixini o'rganishda aloxhida o'rin tutishi shubxasizdir.

O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar sohadagi zamonaviy tadqiqotlarda muxim o'rin tutgan islomshunoslik tadqiqotlari mustaqillik davrida jamiyatda ma'naviy tiklanish jarayonlari bilan bog'liq holda rivojlanayotgan yangi yo'nalishlardan biridir. SHuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur muammoga nisbatan ilmiy jamoatchshshk e'tibori nafaqat islom dinining jamiyat hayotida tutgai muhim o'rni va ahamiyati bilai, balki bu muammoning so'nggi asrlarda noto'g'ri talqin qilib kelinganligi bilan ham izohlanadi.

Zero mustakillikka qadar islom dini, va umuman din va diniy qadriyatlar «jamiyatni qoloqlikka torguvchi to'g'anoq» sifatida salbiy baholanib, bu hol pirovardida dinning jamiyat ma'naviy hastidagi o'rni asossiz ravishda kamsitib, buzib talqin etilishiga olib keldi.

SHu munosabat bilan 19 asrnig oxiri 20 asr boshida islom dini haqida xukm surgan ijtimoiy siyosiy qarashlar va tadqiqotlar o'z

g'iraviy, siyosiy, mafkuraviy asoslari hamda xulosalari bilan alohida sharga loyikdir.

Xususan, XIX asrning 60-yillarida o'lkada karar tongan mustamlakachilik sharoitida islom diniga bo'lgan rasmiy munosabat markur yunalishda olib borilgan tadqiqotlar yunalshii va mazmuniga ham o'z salbiy ta'siripi o'tkazdi.

Hukumat islom dinining mohiyati, uning o'lkadagi ahvoli va jamiyat xastidagi o'rni o'rganish ishlarnig juda katta e'tibor berib, bu ishig pafakat amaldorlar, balki Qozondagi Diniy Akademiyaniig «Musulmonlarga qarshi missionerlik faoliyatig bo'limi o'qituvchilari va bitiruvchilari xam jalb qiladi.

Qozondagi Diniy akademiyaning «Musulmonlarga qarshi missionerlik» bo'limi mavjud bo'lib, uning qoshida bu yo'nalishda maxsus mutaxassislar tayyorlangan. Bu mutaxassislarga tatar, arab tillari chuqur o'rgatilgan. Bundan tashqari Akademiyada islom dini bo'yicha darslarda Muhammad payg'ambarnig hayoti, Qur'on tarixi atroflicha o'rganilgan. Talabalarni islom ta'limoti bilan tanishtirish jarayonid talabalarig bu ta'limotni inkor etish ruhi singdirilgan. Bundan tashqari talabalarga ruslarning islom diniga qarshi harakatlari tarixi ham o'rgatilgap.

Akademiyada uning o'qituvchilari va talabalari tomonidan «Musulmonlarga qarshi missionerlik to'plami» tayyorlanib, nashr etilgan va dars jarayonlarida keng qo'llanilgan. Bunday tayyorgarlikdan o'tgan talabalarning bir qanchasi o'qishni tugatgach, Turkistonda xizmat qilganlar. Masalan, Turkistondagi islom dini va musulmon aholi hayotini o'rganish bo'yicha keng izlanishlar olib borgan N.Ostroumov ham Qozon Diniy Akademiyasining musulmonlarga qarshi missionerlik bo'limi bitiruvchisi bo'lib, shu erda tarbiya topgan va tahsil olgan.

Turkistonda islom dini, uning tarixi, jamiyat hayotidagi rolini o'rganishig aynan shunday kishilarning jalb etilishi bejiz emas edi. Ular ayni paytda bu masalalarda ma'muriyat uchun axborot berish, dinga karshi kurash choralarini belgilash vazifasini ham bajarishlari kerak edi. SHu sababli hukumat bu masalada mablag'ni ayamadi.

Bunday izlanishlar natijasi Turkiston general-gubernatorining buyrug'i bilan bir necha qismdan iborat «Musulmonchilik bo'yicha materiallar» degan nomda 1898-1900 yillarda Toshkentda Turkiston harbiy okrugi bosmaxonasida nashr etiladi.

YUqorida qayd etilganidek, ushbu to'plamdan joy olgan ma'lumotlar amaliy maqsadlarda, ya'ni musulmonchilik asoslari, uning

o'lkadagi holatini o'rganing, bu bilan rus amaldorlarini tanishtirish va islom diniga nisbatan keyingi chora-tadbirlarni belgilash maqsadlarida to'plagan edi. Ushbu to'plamlarda diniy ulamolar, diniy muassasalar va o'kuv maskanlarining umumiy xolati, islom ta'limoti, shariat asoslari, ularning mohiyati, masjidlar va faoliyati hakida tashqi kuzatishlar natijasida aniqlangan qator ma'lumotlar berilgan.

Garchi ularda o'sha davrga oid qator qiziqarli statistik ma'lumotlar qayd etilgan bo'lsada, asosiy e'tibor islomning mohiyatini konservatizm, ya'ni qoloqlik, mutaassiblik va bilimsizlik natijasi, yoki faqatgina mistika sifatida ko'rsatish, uning ahamiyatini pasaytirish, murosasiz din sifatida ta'surot uyg'otishga qaratilganligi yaqqol sezilib turadi. SHunday to'plamlardan birida islom dinining mohiyati va jamiyat hayotidagi roli faqatgina darveshlar, eshonlar va ularning o'z muridlari bilan munosabatlari misolida ta'riflanadi va bu bilan dinning ahamiyatini pasaytirish, buzib ko'rsatish harakati yaqqol sezilib turadi. YAna shunday nashrlardan ba'zilarida islomning g'ayridinlarga munosabati va boshqa masalalar talqinida islom dini hujumkor, xristian diniga qarshi ta'limot va faoliyat sifatida ta'riflanadi xamda o'lkadagi xristianlar doimo sergaklikka da'vat etiladi, islom dini vakillari bilan murosada yashash go'yoki mumkin emas, degan fikrni uqtirish orqali rus amaldorlari va axolisiga musulmonlarga nisbatan nafaqat ishonchsizlik, balki xavotirlanish, nafratlanish tuyg'ulari singdiriladi.

Ayni paytda hukumat islom diniga qarshi faoliyatda rus sharqshunos olimlaridan ham foydalanishga harakat qiladi. CHunonchi, manbalarda hukumatning o'lkadagi geografiyani o'rganish jamiyatiga murojaati saqlanib qolgan bo'lib, unda rus olimlari o'z faoliyatlarida davlat manfaatlarini nazarda tutishlari lozimligi takidlanadi.

Lekin rus sharqshunoslari tomonidan islom dini tarixi va uning jahondagi holati bo'yicha chop etilgan tadqiqotlar hukumat topshiriqlari asosida tayyorlangan to'plamlardan farq qilardi. Bu tadqiqotlar asosan shariat qonunlarini tarjima qilish, islom tariqatlari, mazhablar va turli oqimlarning kelib chiqish tarixi, Muhammad payg'ambarning hayoti va faoliyatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, masalaga nisbatan xolis, ilmiy asosda yondoshuvi bilan bilan missionerlik tarafdorlari yozgan asarlardan farq qilardi.

Hatto ba'zi holatlarda sharqshunos olimlar tomonidan missionerlarning yaratgan asarlari tanqid qilingan holatlar ham uchragan. Masalan, sharqshunos olim V.V. Bartold N. Ostroumovning asariga baho berib, uning siyosiy maqsadlarda va missionerlik ruhida

yozilganligini, muallif islom dini hakida chuqur bilimlarga ega emasligi tufayli asarda juda ko'p masalalar mohiyati buzib ko'rsatilganligini va chalkashliklarga yo'l qo'yilganligini oshkora ko'rsatib o'tgan.

Rus sharqshunoslarining islom dinini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari natijasida islom tariqatlari, mazhablar va turli oqimlarning kelib chiqish tarixi, madrasalar tarixi, Muhammad payg'ambarning hayoti va faoliyatiga oid qiziqarli ma'lumotlar o'rin olgan bir qancha asarlar choi etilgan.

Islom dini tarixi, uning mohiyati hakida maxsus adabiyotlar qatorida davriy matbuotda ham rus mualliflarining maqolalari muntazam ravishda e'lon qilib borilgan. Xususan, «Turkestanskic vedomosti» sahifalarida chop etilgan tadqiqotlar shular jumlasidan bo'lib, ularda asosan musulmon olami va islom tarixi hakida maqolalar, islom dinida meros va boshqa masalalar talqini, turli manbalardan tarjimalar e'lon kilib borilgan. Xulosa qilib aytganda XIX asr oxiri XX asr boshida Turkistonda islomshunoslik bo'yicha rus mualliflarining tadqiqotlari o'sha davrda o'lkada yashab faoliyat ko'rsatgan rus aholisnipp turli toifa vakillarini mazkur din haqida o'z tillarida ma'lumot olishlari hamda ma'lum darajada tasavvurlarga ega bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etgan.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur tadqiqotlar o'z ahamiyati, yo'nalishi, ilmiy qimmat, mazmuni va manbaviy asoslari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Bu farq eng avvalo ularning mualliflarning bilim darajasi, dunyoqarashi, islom hakidagi tasavvurlari bilan bir qatorda Siyosiy maslagiga ham bog'liqdir. SHu sababli ularni islomshunoslik tadqiqotlari yo'nalishidagi ahamiyatini baholash alohida tadqiqot mavzusi birinchi navbatda maxsus tahlilga muhtojdir.

MANG'ITLAR SULOLASI TARIXINI O'RGANILISH MASALALARIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

Ma'lumki, o'zbek davlatchiligi tarixida Buxoro amirligida hukmronlik qilgan mang'itlar sulolasi (1747-1920 yillar) muhim o'rin tutadi. Lekin bugungi kunda mang'itlar sulolasi tarixi, ularning vakillarini amalga oshirgan ishlari to'g'risida to'liq ma'lumotga ega emasmiz. SHuning uchun ushbu merosni o'rganish, taxdii qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mazkur muammo buyicha yaratilgan tadqiqot va adabiyotlarni quyidagi guruxdarga bo'lib o'rganish mumkin: 1. Zamondosh va saroy tarixchilari tomonidan yozib qoldirilgan mahalliy manbalar; 2. Xorij

tarixshunoslari tomonidan yozilgan adabiyotlar; 3. Rus sharqshunoslari tomonidan yaratilgan nashrlar; 4. Mustaqillik yillarida olib borilgan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan izlanishlar, tadqiqotlar va chop etilgan adabiyotlar.

Ushbu sulolaning yirik vakillari va ular tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar zamondosh tarixchilarning asarlarida, shuningdek, g'arb sayyohatchi va elchilarining esdaliklarida ham uchraydi. Zamondosh tarixchilar tomonidan yozib koldirilgan asarlarning ko'pchiligi fors-tojik tilidagi asarlar bo'lib, chunki amirlikdagi asosiy til fors-tojik tili edi, ularning orasida Buxoro amirligida yashab, ijod etgan Ahmad Donish (1827-1897)ning "Buxoro mang'it amirlarining qisqacha tarixi" asari mang'itlar sulolasi tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Asar amir Doniyol (1758-1785) hukmronligidan amir Abdulahad (1885-1910) hukmronligigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Asarda mang'itlar sulolasi amirlarining siyosiy boshqaruv jarayonlari to'grisida ma'lumot beradi. Muallif amir SHohmurod, amir Haydar, amir Nasrullo hukmronligi davridagi boshqaruvga ijobiy baho beradi, lekin shu davrdagi amirlikda davlat tizimning noto'g'ri yo'lga qo'yilganligi, amirlar va vazirlar tomonidan qonun qoidalarning buzilganligini ko'rsatib o'tadi. Asar fanda paydo bo'lishi birmuncha keyinroq ruy bergan. Masalan, Ahmad Donishning zamondoshlaridan biri bo'lgan Sadriddin Ayniyning asarlarida bu haqda ma'lumot uchramaydi. 1936 yilda e. Bertels birinchi marta Ahmad Donishning noma'lum asarini topadi va uni "Risola" deb ataydi.

Mang'itlar sulolasi to'g'risida bevosita o'zlari guvoh bo'lgan voqealar asosida saroy tarixchilari tomonidan yozilgan asarlar ham mavjud.

Ushbu asarlar xon saroyida, xon farmoni bilan, xon mukofotini qo'lga kiritish maqsadida ham yozilgan. SHuning uchun amirning qilmish va harakatlari ba'zi o'rinlarda "jasorat" qilib ko'rsatilish, amirning g'alaba qozonishi, uning muruvvati, mardligi va boshqa xislatlari maqtab yozilgan. Ba'zan bu asarlarda oddiy xalqqa nisbatan "bosqinchi va yaramas" so'zlari qo'llanilib ularning o'z davri zolim mansabdorlari zulmiga karshi "to'polon" qilganliklari keltirilgan.

Mirza Abdulazim Somiyning "Mang'itlar davlati tarixi", Mirza Salimbekning "Salim tarixi", Muhammad YUSuf Munshiyning 1956 y. chop etilgan "Muqimxon tarixi", Mir Muhammad Amin Buxoriyning 1957 y. tarjima qilingan "Ubaydullanoma", Abdurahmon To'le'ning

1959 y. nashr qilingan "Abulfayzxon tarixi" kabi asarlari ham Buxoro amirligi tarixiga bag'ishlanadi.

Ilgiz-rus sayyohlari va elchilarining Buxoro amirligiga kelishi va u erdagi ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy ahvolni ko'rsatib beruvchi esdaliklari ham bu davrni yoritishda muhim manba hisoblanadi. Bunday manbalar sirasiga B. Msyendorfnig "Orenburgdai Buxoroga sayyohat", A. Byorisning "Buxoroga sayyohat", N.A. Xalfin "O'rta Osiyoda Rossiya siesati", "Rossiya va O'rta Osiyo xonliklari", N.V. Xanikov "Buxoro xonligi bayoni" asarlarini kiritish mumkin.

Albatta, yuqoridagi mualliflar asarlarini shaxsan o'zlari ko'rgan esdaliklar asosida yoritishgan. SHunga ko'ra, bu manbalar birinchi darajali manbalardan xisoblansa ham, ammo ularda keltirilgai ba'zi bir ma'lumotlarni mulohazalar va fikrlarini tanqidiy o'rganishga to'g'ri keladi. CHunki, Rossiya va O'rta Osiyo aloqalarida ishtirok etgan mutaxassislarning deyarli ko'pchiligi chor hukumati vakillari tashkil etib, ular o'z asarlarida ilmiy maqsadlarni olg'a surgan bo'lsalar ham, ularning asarlari hokim sinf g'oyalari bilan sug'orilgandir.

Keyingi davrlarda xorij tarixshunosligida yaratilgan Buxoro amirligi tarixini aks ettiruvchi asarlar birmuncha ko'pchilikni tashkil etadi. Ingliz olimlari R. Krousset "Dasht inneriyasi. O'rta Osiy tarixi", X. enkausse "Islom va rus imperiyasi. Markaziy Osiydvagi revolyutsiya va reformalar", S. Bekker "O'rta Osiyo Rossiya pretokrati tarkibida. Buxoro va Xiva (1865-1924 yillar)", J. Kuiits "Samarqand bo'ylab tong. O'rta Osiyoning qayta tug'ilishi", G. Uiler "Sovet O'rta Osiyosi xalklari", e. Bosvorz "YAngi islom sulolalari" o'z ilmiy tadkikotlarida amirlar va sulolalar nomlari, mang'itlarning Buxoro taxtiga kelish masalalari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar, yuqorida nomlari keltirilgan tarixiy asarlar, sayyohatchilar va elchilarning kundaliklari asosida yozilgan.

O'zidan avvalgi tadqiqotchilardan farqli o'laroq, mang'itlar sulolasi tarixini yanada chuqurroq tadqiq qilgan nemis sharqshunosi Ankefon Kyugelgendir. U o'zining "Legitimatsiya sredneaziatskoy dinastii mang'itov v proizvedeniyax ix istorikov (XVIII - XIX)" asarida Tojikiston, O'zbekiston, Rossiya davlatlari qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan asarlar va arxiv hujjatlaridan keng foydalandi. Ushbu tadqiqotni keyingi davrda xorij tarixshunosligida amalga oshirilgan Buxoro amirligi tarixiga bag'ishlapgai jiddiy tadqiqot deb e'tirof etish mumkin. CHunki, muallif tomonidan sulola tarixining o'rganilmagan qirralari ochib berilgan.

Buxoro amirligi tarixinipg o'rganilishida rus sharqshunoslari V.V. Bartold va A.A. Samsnovlarning xizmatlarini alohida aytib o'tish lozim. YOzma manbalar ma'lumoti asosida ular asosiy e'tiborni sharq xalqlari o'tmishiga, xususan, Buxoro amirligini o'rganishga qaratishdi. Bartoldning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u 1920 yilda Buxorodagi Buxoro Arki erto'lasida tarixiy manbalar asosidagi ma'lumotlarni topgan. Olim hech qachon Buxoro arkida topilgan narsalarning qimmatligini aytmagan lekin, bu ma'lumotlarsiz Buxoro amirligining haqiqiy tarixini yaratib bo'lmaydi. Semenov esa Buxoro amirligini o'rganishdagi e'tibori asosan, SHarqiy Buxoroga uning ma'muriy boshqaruv, feodal er egaligi (tanxo), ijtimoiy tuzilish, hunarmandchilik, savdo, urf odatlariga qaratgan.

Mang'itlar sulolasining Buxoro amirligida tutgan o'rni masalasi mustaqillik yillaridagi ilmiy izlanishlarda ham o'z ifodasini topgan. Ular qatoriga X.G. Gulomov, O.Masalieva, B.I. Ismoilova, A.I. YOrlov, YU.A.SHukurillasv, YU.U.Avazov, J.M.SHodiev, S.A.Zaxidovalarning dissertatsiyalarini kiritish mumki.

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, hozirgi kungacha Buxoro amirligi tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar amirlikning ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy tarixini ochib beradi. Lekin hali bu borada ko'plab ilmiy izlanish olib borish, muomalaga kiritilmagan qo'lyozma asarlar, saychatnomalar, esdaliklarni aniqlash zarur.

Qadimdan O'rta Osiyo xalqlari uzoq va yaqin mamlakatlar aholisi bilan bevosita va bilvosita iqtisodiy va madaniy aloqalarda bo'lib kelganlar. Bu aloqalarning rivojlanishida O'rta Osiyo haqida turli ma'lumotlar asosida to'plangan tarixiy-geografik ma'lumotlar muhim rol o'ynagan. G'arbiy Evropada O'rta Osiyo haqidagi bilimlarning rivojlanib borish jarayoni katta ilmiy qiziqish uyg'otuvchi masalalardan biri hisoblanadi. Qayd etib o'tish lozimki, Evropa tarixiy voqeligi XII-XIII asrlarda Osiyo bilan bevosita yuzma-yuz bo'ldi. Mo'g'ul bosqinchilarining dastlab Rus, so'ngra Evropaga yurishlari bu mintaqa aholisini Osiyo, osiyoliklar haqida tasavvurlarini yanada kengaytirishga undadi. Bu talab XV asr oxirlarida boshlangan buyuk geografik kashfiyotlar tufayli yanada qat'iylashdi, natijada SHarq o'lkalari xususidagi ma'lumotlarni to'plash zaruriyati xristian dini ruhoniylari va Evropa davlatlari hukmdorlarining oldida turgan muhim vazifalardan biriga aylandi. O'rta Osiyo xonliklari SHarq va G'arb o'rtasidagi muhim savdo yo'llari tutashgan erda joylashganligi, asrlar mobaynida bu hududga ko'plab sayyohlar va savdogarlarning tashrif buyurishiga sabab

bo'ldi. Ular bu hududning joylashgan o'rni, tabiati, aholisi, boshqaruvi va ijtimoiy turmush tarzi, ayniqsa o'lkaning iqtisodiy imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlarni yozma shaklda va uzoq-yuluq tasavvurlar sifatida Evropa mamlakatlariga etkazishda muhim vositachi bo'ldilar.

Buyuk geografik kashfiyotlar (XV asr o'rtalari - XVII asr o'rtalari) va kitob chop etishning o'zlashtirilishi oqibatida, dunyoning turli mintakalari, jumladan O'rta Osiyo haqida ma'lumot beruvchi ommabop ma'lumotlar - tarixiy-kartografik manbalarga bo'lgan qiziqish ortib ketdi. Buning sababi, birinchidan, savdo-sotiq aloqalarining kuchayishi, dengizlarda kema qatnovini ortishi bo'lsa, ikkinchidan, Evropa, jumladan Rossiya hukmron doiralarining o'z manfaatlarini O'rta Osiyoning boy iqtisodiy imkoniyatlari vositasida kengaytirishga intilishi bo'lgan. Demak, Evropada O'rta Osiyoning savdo va iqtisodiy imkoniyatlarini o'rganish vositasida, endilikda bu o'lka tarixi haqida erli aholi tomonidan yozilgan asarlarni o'rganish imkoniyati vujudga kelgan.

XVIII asrdayoq bir necha Evropa tillariga tarjima qilinib, Evropada shuhrat qozongan tarixiy turkiy adabiyot durdonalaridan biri-qadim davrlardan to XVII asrgacha Movarounnahr va Xorazm tarixi bo'yicha muhim ma'lumot beruvchi «SHajarai turk» asari evropaliklar tomonidan birinchilardan bo'lib o'rganilgan manbadir.

Xorazm madaniyati tarixi, adabiyoti bilimdoni va namoyandalardan biri Abulg'oz Bahodirxon (1603-1664) mamlakat shon-shuhratini qayta tiklash, parchalanib ketaётgan xonlikni kuchli davlat tarzida markazlashtirish yo'lida ham qurol, ham qalam bilan kurash olib borgan hukmdor edi.

Abulg'oz barcha SHarq hukmdorlari kabi SHarq xalqlari tarixini, madaniy merosini o'rgangan, ilm-fanga e'tiqod qilgan, mamlakatda o'royishtalik o'rnatishga harakat qilgan hukmdor, olim va tarixchi edi.

Abulg'oz Bahodirxonga qadar Xorazm tarixi chuqur, manbaviy va tizimli asosda hali yaratilmagan edi. SHuning uchun Abulg'oz otabobolarining quntsizliklari tufayli yozilmay qolib ketayotgan xonlik tarixini yaratishga qat'iy kirishdi. Xorazmning o'tmish madaniyati Abulg'ozida tarixnavislik ilmiga qiziqish uyg'otib, uining «SHajarai tarokima» (1661), «SHajarai turk» (1664) asarlari yaratilishiga turtki bo'ldi. Abulg'oz Bahodirxon bu ikki qimmatli asarlari orqali Xorazm tarixchilik maktabiga asos solgan.

«SHajarai turk» asari «SHajarai turk va mo'g'ul» nomi bilan ham mashhur bo'lib, bu asarni yaratishda Abulg'oz o'z qo'l ostida mavjud bo'lgan o'n sakkizta forsiy va turkiy tildagi manbalar bilan tanishib

chiqqanligini qayd etgan. U bu manbalar bilan Buxoro, Toshkent va eronda bo'lgan chog'larida tanishgan. Asar to'qqiz bobdan iborat bo'lib, eng qimmatli ma'lumotlar jamlangan. To'qqizinchi bobning 21 sahifasini Abulg'ozzi vafotidan so'ng Anushaxonning (1664 - 1687) buyrug'iga ko'ra, uning qarindoshi Mahmud ibn Mulla Muhammad Zamon Urganjiy yozib tugatgan. Ushbu muallif asarga 1644-1665 yillar voqealarini kiritib, asarni to'liq holga keltirgan.

Asar XVIII asr boshlaridanoq SHarq tarixchilari va, shuningdek, G'arb olimlarining diqqat-e'tiborini torta boshladi. «SHajarai turk»ning Evropada ma'lum bo'lishi, SHimoliy urush (1700-1721) oqibatida shved asirlarining Sibir shaharlariga joylashtirilishi va bu shaharlar bilan Buxoro savdogarlarining qizg'in savdo munosabatlari olib borganligining natijasidir. Buxoroliklarning Sibirda ijtimoiy mavqei va savdo aloqalari mustahkamlanib borgan sari, Turkistonda yaratilgan tarixiy nodir asarlar buxoroliklarning Sibir shaharlaridagi maktab va madrasalar qoshidagi kutubxonalarida to'planib bordi. Bu nodir asarlar orasida Abulg'ozzi Bahodirxonning «SHajarai turk» asari ham bo'lib, Tobolskda topilgan bu asar keyinchalik Evropada muhim tarixiy manba sifatida ma'lum bo'ldi. Bu asarni SHimoliy urushda ruslar tomonidan asir olingan, Evropada O'rta Osiyo va Sibir qaqidagi tarixiy-kartografik bilimlarning yoyilishida alohida xizmat ko'rsatgan Filipp Iogann Tabbert (fon Stralsenberg) Tobolskda yashovchi bir buxoroliqdan olgan. F.I. Stralenberg o'zining «Eay Mop ips zspe pe uop Eigora ipsi Ama» asarida Tobolskdagi asirlik davrida Buxoro tatarlarinipg oxuni Azbakevich (O'zbek) ismli kishi, unga Turkistoidan olib kelingan ikki qo'lyozma kitobni ko'rsatganligini qayd etadi. Ulardan biri «CHingiz-Kitap» (CHingiz kitobi) deb nomlanib, Buyuk Tatariya haqidagi mukammal ma'lumoglarni o'zida aks ettirgan. F.I. Stralenberg bu asar qo'lyozmasini bir tatar og'aynisi orqali Azbakevich (O'zbek)dan so'rab olib, bir buxorolik yordamida rus tiliga, so'ng nemis tiliga ikki shved zobiti yordamida tarjima qilgan.

«SHajarai turk» asarining 1726 yilda Leyden shahrida frantsuz tiliga o'g'irilgan nusxasi O'rta Osiyo tarixi haqida tasavvurlarning Evropada keng yoyilishida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Asarning frantsuz tiliga tarjimasi «nyuge epea yaie s SHaga» (Tatarlar shajarasi tarixi) deb nomlanib, bu tarjima taxallusi bilan ataluvchi kishi tomonidan amalga oshirilgan. Bu taxallusdagi kishi tarixchilar I.SH. Brune va A.A. Barbielarning fikricha, gollandiyalik Bentink edi. U

Vilgelm Oranskiy bilan Gollandiyada muqim yashab qolgan, Portlandiyaning birinchi grafi Vilyam Bentinkning kichik o'g'li edi.

Tobolskda SHnestr tomonidan nemis tiliga o'g'irilib, Varen tomonidan 1726 yilda Leydenda chop etilgan «Izyune epeao ie sez SHagz» asari Evropada katta qiziqish bilan kutib olindi. Ayniqsa, asarning qisqa tarixiy-geografik va etnofafik ilovalarida tarjimon Bentink, Buyuk Tatariya va Sibir to'g'risida turli qimmatli ma'lumotlarni keltirishda Marko Polo, Rubrukvis, Adam Oleariy etdaliklaridan. XVII -XVIII asrlarda Evrpada mashxur bo'lgan J.B. Taverne, F. Berne, J. Teveno, F. Peti, de La Krua va boshqa mualliflarning asarlaridan foydalangan edi.

Asarning kirish qismida tarjimon (Bentink) uni nemis tilidan tarjima qilganligini qayd etsada, kim tomonidan nemis tiliga o'g'irilganligi haqida ma'lumot bermaydi. SHuningdek, tarjimon nemischa tarjimadagi xatolarni takrorlamalik uchun, frantsuzcha tarjima ustida bir yildan ko'proq vaqt mehnat qilib, asarni o'quvchiga manzur bo'larli holatga qeltirganligini qayd etgan.

Muallif tarjimaning ilovasida Buyuk Tatariyada yashovchi xalqlar o'zbeklar, turkmanlar, qozoqlar, qalmoqlar, mo'g'ullar haqida ma'lumot berib, ularning ruslar, forslar va xindlar bilan o'tmishidagi tarixiy aloqalarini tasvirlaydi. SHuningdek, Buyuk Tatariyaning Xiva, Buxoro, Samarqand, Turkiston, Balx, Badaxshon, Urganch va boshqa shaharlarning ichki hayoti va tashqi qiyofasi, tuzilishi xususida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Abulg'ozini «SHajarai turk» asarining Evropada ma'lum bo'lishi natijasida, asar asosida Gollandiyada 1726 - 1727 yillarda uchta O'rta Osiyoga oid geografik kartalar chop etildi. Ulardan biri 1726 yilda Leydenda «YUge epea yaie skz Tagz» asariga ilova sifatida tayyorlangan «SHimoliy Osiyo xaritasi» edi. Bu xaritada CHingizxon qo'shinining Janubiy Osiyoga qilgan yurishi davridagi SHimoliy Osiyoning geografik holati aks ettirilgan. Nihoyat, 1727 yilda barcha aniq ma'lumotlar to'planib, butunlay to'ldirilgan holda (SHimolga sayohat) nomi bilan qayta chop etildi.

«SHajarai turk»ning G'arbiy Evropada O'rta Osiyo haqidagi tarixiy kartografik bilimlarni qo'lga kiritilishidagi ahamiyati, uni boshqa Evropa tillariga ham tarjima qilinishini tezlashtirdi. XVIII asrning birinchi yarmida asar bir necha Evropa tillariga, 1726 yilda frantsuz va nemis tillariga, 1770 yilda V. Predyakov tomonidan rus tidiga, 1780 yilda ingliz tiliga tarjima qilindi. Asar 1825 yilda S.S. Sablukovskiy

tomonidan rus tiliga ikkinchi marta o'g'irilgan bo'lsa, O'zbekiston mustaqilligi sharofati bilan 1992 yilda o'zbek tilida chop etildi.

Asarning Evropa tillariga tarjima qilish jarayonidagi eng mukammal nusxasi 1871-1874 yillarda baron Demezson tomonidan frantsuz tilida tayyorlangan Baron Demezson tomonidan asarni ikki jild holda nashr ettirilgan nusxasi hozirga, qadar eng mukammal qo'lyozma nusxa va tarjima hisoblanadi. P.I. Demson tomonidan amalga oshirilgan tarjima asari asosida «SHajarai turk» asari Qozonda Abdulla Allom Fayzxon tomonidan qozon-tatar tiliga, Rizo Nur tomonidan Stambulda turk tiliga tarjima qilingan.

Abulg'azi Bahodirxonning «SHajarai turk» asari Evropada XVIII - XIX asrlar mobaynida O'rta Osiyo tarixi haqida ma'lumot muhim manba bo'lib keldi. Uning Evropa tillariga tarjima nusxalari hozirgi kunda Evropaning mashhur muzeylarida, ilmiy tadqiqot institutlarining kutubxonalari nodir manba sifatida saqlanmokda. 1732 yilda Georg YAKOB Ker tomonidan (1692 - 1740) Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasida «SHajarai turk»ning nemis tiliga o'g'irilgan nusxasi Rossiya FA SHarqshunoslik instituti Leningrad bo'limi kutubxonasida saqlanayotgan bo'lsa, 1726 yilda frantsuz tiliga tarjima qilingan nusxasi hozirda Gollandiyaning Leyden shahrida saqlanmokda.

SHunday qilib, XVII asr turkiy tildagi adabiyotning nodir namunalari biri bo'lgan «SHajarai turk»ning Evropada shuhrat qozonishi, evropaliklarning O'rta Osiyo va uning o'tmishi haqidagi bilimlarini boyitishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Asar ma'lumotlari asosida evropaliklar O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo aloqalari olib borishga intildilar yoki iqtisodiy imkoniyatlarni o'rganish maqsadida O'rta Osiyoga sayohatchi sifatida tashrif buyurdilar.

Istiqlol sharofati bilan Vatanimizning Evropa mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlari qaytadan jonlandi. Bunda, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 21 iyunda Uzbekiston bilan Evropa Ittifoqi o'rtasidagi sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimning imzolashi, O'zbekistonning rivojlangan Evropa davlatlari bilan aloqalarini kengayishda muhim qadam bo'ldi. Iqtisodiy imkoniyatlari yuksalib borayotgan O'zbekistonga evropalik iqtisodiy doira vakillarining qiziqishi, O'rta Osiyo haqidagi tarixiy bilimlarni Evropada keng yoyilganligining samarasidir. Bu borada tarixiy meros sifatida «SHajarai turk» asarining Evropada O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlarni kengaytirishda goyat muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlash lozim.

Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari xududida joylashgan ko'pdan-ko'p katta va kichik shaharlar xo'jaligida iqtisodning boshqa sohalari kabi dehqonchilik ham katta o'rin tutar va shaharlar qishloq xo'jaligidan to'la ajralib ketmagan edi. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, shaharlar aholisi ko'p yillarda bu markazlar va ularning atrofida dehqonchilik qilish uchun muayyan er uchastkalariga ega edilar. Ular bunday dalalarga bug'doy, paxta, guruch, poliz ekinlari, kunjut na sedana, mevali daraxtlar hamda turli hunarmandchilik sohalari keng ishlatiladigan xom-ashyo turlarini ekib etishtirar edilar. Odatda, bunday er uchastkalarida joylashgan ekinzor va bog'larning atrofini tut daraxti ko'chatlari bilan o'rab qo'yardilar. SHahar atrofidagi erlarda dehqonchilik qilgan shaxslar ko'p hollarda shahardagi asosiy hunar turlari-to'quvchilik, terini oshlash, paxsa urish, kulolchilik, oziq-ovqat ishlab chiqarish va h.k. bilan keng shug'ullanganlar.

Buxoro xonligining yirik savdo-iqtisodiy markazlaridan bo'lmish Samarqand aholisi bog'dorchilik bilan keng shug'ullangan. Bu markaz va uning atroflarida bog'lar juda ko'p edi. XIX a. birinchi yarmida Samarqand va Buxoroni ko'rgan, ular o'rtasidagi farqning butun manzarasini his etgan N. Xanikov, Samarqandda Buxoroga nisbatan «bog'lar ancha ko'p», - deb qayd etgan edi. SHahar va uning atrofidagi bog'larda O'rta Osiyoning boshqa shaharlari misolida kuzatilgani kabi, turli hunarmandchilik sohalari uchun xom-ashyo sanalgan ko'plab daraxtlar o'stirilar edi. Masalan, duradgorlar o'z mahsulotlarini yaratishda bu erda etishtirilgan terakdan keng foydalanar, ancha qimmatbaho mahsulotlar yaratish uchun esa yong'oq, chinor, qayrag'och va tut daraxtiga ehtiyoj katta edi. Samarqandga oid ma'lumotlarning tasdiqlashicha, ko'p hollarda hunarmandlar aholining shahar atrofidagi bog'laridan daraxtlarni kesib sotib olar edilar.

Hunarmandchilik va savdo keng rivojlangan shaharlar atrofida pilla etishtirish ishida juda kerak bo'lgan tut daraxtlari o'stirishga katta zarurat tug'ilgan. SHu boisdan shaharlar va ularning atroflarida tut ko'chatlarini etishtirishga alohida e'tibor bilan qaratganlar. XIX a. Samarqandda turli daraxt ko'chatlari, xususan, tut daraxti ko'chatlari bilan savdo qiluvchi bozorning bo'lganligi bu o'rinda xarakterlidir.

Dehqonchilik va bog'dorchilik bilan aholisi keng shug'ullangan Buxoro xonligi shaharlaridan yana biri Qarshi edi. XIX a. shaharda bo'lgan N. Maev «Qarshi atroflari butunlay ishlov berilgan, bog'lar, uzumzor va polizlar bilan o'rab olingan», - deb yozgan edi. SHaharda bo'lgan N. Petrovskiy esa, u haqida yozar ekan, Qarshi Toshkentni

eslatishini ko'rsatib, shahar o'rtasida «bog'lar va polizlar» borligini qayd etgan edi.

Buxoro xonligi shaharlari ahlining dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanganliklarini etnografik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Xususan, O.A. Suxarevaning SHahrisabz misolida ko'rsatishicha, shaharning Xo'ja-guzar va eshon-guzarida istiqomat qilgan xo'jalar yuqori tabaqa vakillari bo'lsalarda, ularning asosiy ko'pchiligi «hunarmandchilik (xususan, to'kuvchilik) yoki dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Ular shahar atrofidagi qishloklarda joylashgai o'z erlariga shaxsan ishlov berganlar».

SHahar aholisining dehqonchilik va bog'dorchilik bilan keng shug'ullanganliklarini Xiva shaharlari misolida ham kuzatish mumkin. XIX a. oid tarixiy asarlar mualliflari Xiva shaharlarini «bog'lar va dalalar bilan o'ralgan» shaharlar tarzida tavsif etgan edilar.

Xiva xonligi shaharlari ahlining dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanganliklari poytaxt shahar Xivaga oid ma'lumotlar bilan ham tasdiqlanadi. Xususan, XVII a. muallifi Abulg'ozixon quyidagilarni qayd etgan edi: «Bahor qo'y qo'zilar, Xevakda o't bo'lmas. Rang chiqar. Xevak turkmani qumga ketar. Sart jin ekmoq uchun kendli kendina ketar». XVIII a. 40-y. Xivada bo'lgan rus geodezisti N. Muravin ham shaharlar atrofida mavjud bo'lgan shahar ahlining bog'lari haqida xabar berib o'tadi. Uning bu ma'lumotini XIX a. 20-y. shaharda bo'lgan N. Muravev ham tasdiqlab, «shaharga etmasdan 5 chaqirim berida bog'lar boshlanadi», deb qayd etgan edi.

Poytaxt shahar bo'lmish Xiva aholisining dehqonchilik, bog'dorchilik bilan keng shug'ullanganliklarini boshqa shohidlarning so'zlari ham tasdiqlaydi. XIX a. yozib qoldirilgan bunday ma'lumotlardan biriga ko'ra «SHaharning deyarli butun g'arbiy qismi qishloq xarakteriga ega: u bog'lar, dalalar va u erda joylashgan ayrim uylarni o'z ichiga olgan» edi.

Xivaning markaziy qismida esa bog'lar kam edi. Bu shaharni ko'rgan guvohlardan biri Kostenkoning yozishicha, bu markazda iqlim dim bo'lib, «shaharda (yoki aniqrog'i shaharning markaziy va sharqiy qismida) bog'larning yo'qligi» oqibati, deb tushuntiradi.

Xonlikiipg boshqa shaharlari aholisi ham bog'dorchilik bilan keng shug'ullangan Buni ko'pgina tarixiy ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. XIX a. 20-y. P. Muravevning qayd etishicha, «Xiva xonligining hamma shaharlari bog'lar bilan o'ralgan edi». Bu mamlakatda bo'lgan savdogar Abrosimov XIX a. birinchi yarmida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi:

«U erda baland va katta uylar kam; buning ustiga-ustak shaharni chiroyli bog'lar va har bir uy oldidagi daraxtlar berkitib turadi». Ulardan biri Gurlan edi, XIX asr muallifining iborasi bilan aytganda, u «bog'larning qalin soyasi» ostida yastanib yotar edi». Xivaning boshqa bir shahari Xonqa ham bog'lar bilan o'ralgan bo'lib, go'zal manzara hosil qilar edi. Xivaning yirik savdo-iqtisodiy markazi bo'lmish Urganch ham «atrofi bog'lar bilan o'ralgan» shahar edi.

SHaharlar atrofidagi bog'larda turli-tuman mevali daraxtlar o'stirilgan. 1834 y. Toshhovuzda bo'lgan armani tilmoch Turnaev «Toshhovuz ajoyib bog'lar bilan o'ralgandir. Men ulardan birida bo'ldim va 1000 yaqin turli-tuman mevali daraxtlarni ko'rdim», deb yozadi.

Xiva xonligidagi shaharlari atrofi ko'p hollarda ishlov berilgan dalalardan iborat edi. Xonlikda bo'lgan G.I. Danilevskiy «hamma shaharlarning atrofi ishlov berilgan dalalardan iborat», deb qayd etgan edi. Xivada XIX a. 20-y. bo'lgan N. Muravev esa «Xatto Germaniyada ham men Xivadagidek erga tirishqoqlik bilan ishlov berilganligini ko'rmadim», deb ta'kidlagan.

SHaharliklar dalalarda turli qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirganlar. Xususan, xonlik hunarmandlari tomonidan keng ishlatilgan paxta, kunjut, zig'ir, qizil rang beruvchi ro'yai ekilib, ulardan katta hosil olingan.

Dehqonchilik va bog'dorchilik bilan Qo'qon xonligi shaharlari aholisi ham keng mashg'ul bo'lgan. Qo'qon xonligi shaharlari aholisining dehqonchilikdan ajralib ketmaganligini sibirlik kazaklar Milyushin va Bagarnakinlar ham qayd etib, quyidagilarni yozgan edilar: «Butun yo'l davomida biz qirg'izlar va shaharlar aholisi tomonidan ishlanadigan ekin maydonlarini ko'rdik... G'alla, arpa, tariq va bug'doyning boshqa turlari va sabzavotlar etishtiriladi. Dehqonchilik Qo'qonda sug'orish bilan muvaffaqiyatli olib boriladi. SHaharlar aholisi yana pillachilik, uzum va turli mevali daraxtlar etishtirish bilan shug'ullanadilar».

Toshkent aholisi ham Xiva, Marg'ilon, Qo'qon shaharlari ahli kabi dehqonchilik va bog'dorchilik bilan ham keng shug'ullanganlar.

SHaharliklarning ko'pchilik qismi shahar atrofidagi erlarda dehqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanish imkonini beradigan er uchastkalariga ega edi. Bunday er uchastkalari joylashgan xududlar odatda «mavzalar» deb atalar edi. Ular yozda gavjum bo'lib, aholi shaharlardan ko'chib chiqib, bu erlarda yashar edi. Ular jumlasiga

Oqqo'rg'on, Darxonariq YAlong'och, Ayirilish, Oqtepa, YUnusobod, Qorasaray, O'n-qo'rg'on, Achavot, Besh-Qayrag'och, Qora-suv va boshqalarni kiritish mumkin. SHaharning SHaybontohur qismiga 31 ta, Sebzor qismiga 65 ta, Ko'kcha qismiga 45 ta, Besh-yog'och qismiga esa 36 ta mavze qaragan. Garchand bu ma'lumotlar ancha keyingi davrga taalluqli bo'lsada, qayd etib o'tish lozimki, mavzelar asrlar davomida shakllanib kelgan.

Dehqonchilik ba'zi hollarda shaharlar aholisining asosiy mashg'ulot turi bo'lgan hollar ham kuzatiladi. Xususan, Toshkentning Taxtapul, Sebzor, CHuvalachi, Qorasaray deb nomlangan joylari aholisining ko'pchiligini, 1868 y. ma'lumotlariga ko'ra, dehqonlar tashkil etgan edi.

Toshkent atrofi ham qalin «bog'lar bilan o'ralgan edi». Ularda XIX asr muarrixi Muhammad Solihxo'janing ko'rsatishicha, uzunning charos, haliliy, mavziy, husayniy, chillaki navlari, tukli, tuksiz va anjirsimon nav shaftolilar, o'rikning shir-payvand navi, sariq va qora anjir, kaldon va dilafruziy navli nok, bedona, marvaritak, balxiy, shohitut navli tutlar etishtirilgan. Bu bog'larda «etishtirilgan, terilgan va quritilgan mevalar anchagina katta savdo predmetini tashkil etgan». Ular bilan nafaqat shahar bozorlarida savdo kilinib qolmay, bu mollar katta hajmlarda dasht, boshqa shaharlar va o'zga yurtlarga, xususan, Rossiyaga olib ketilgan.

Qo'qon xonligining boshqa shaharlari aholisi ham dehqonchilik va bog'dorchilik bilan ham keng shug'ullanganlar. Buni nafaqat shaharlar atrofida, balki shaharlar ichida joylashgan ko'pdan-ko'p bog'larning mavjudligi ham tasdiqlaydi. XIX a. Namangan haqida quyidagilar qayd etilgan edi: «SHuningdek, Namanganda ham bog'lar tez-tez uchray turadi va ular shunday katta maydonlarni egallaydiki, loydan qurilgan uylar bir-biridan ancha uzoqlikda joylashigaiga to'g'ri keladi».

SHaharlar aholisining asosiy mashg'uloti - savdo va hunarmandchilikni dehqonchilik bilan qo'shib olib borganliklarini XIX a. boshqa muallifi ham Namangan shahri misolida tasdiqlaydi. Uning yozishicha, shaxar «aholisi dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar. SHaharlar aholisi ularni savdo va bo'z hamda shoyi gazlamalar to'qish bilan birga qo'shib olib borganlar».

Dehqonchilik, bog'dorchilik va shuningdek, pilla etishtirish bilan xonlik poytaxti ahli ham mashgul edi. Qo'qon shahri haqida yozar ekan, 1830 y. bu erda bo'lgan xorunjiy Potanin, shahar va uning atroflarida mevali bog'lar borligini qayd etgan holda, «Aholi bog'dorchilik va

savdodan tashqari pilla kurti boqish, paxta va bugdoy etishtirish bilan shug'ullaiadilar. SHu boisdan Qo'qon atrofi turli bug'doy ekilgan dalalar bilan o'ralgan edi, chorva kam, chunki o'tloqlarning katta qismiga ekin ekilar edi», - deb yozgan edi. XIX asr boshlarida atrofi turli mevali daraxtlarga to'la qishloqlar bilan o'ralgan Andijon shahrining aholisi ham ipak qurti etishtirish, ip gazlamalar to'qish va galla etishtirish bilan keng shug'ullanganlar.

Qo'qon shaharlari aholisi tamaki etishtirish bilan ham shug'ullanganlar. Qo'qon shaharlari bozorlarida O'rta Osiyoda eng yaxshi hisoblangan Buxoro tamakisidan tashqari «Namangan va Toshkent atroflarida etishtirilgan tamakini ham sotar edilar». Xonlik shaharlari va ularning atroflarida etishtirilgan paxta, zig'ir va boshqa o'simliklardan to'qimachilikda va boshqa mahsulotlar yaratilishida keng foydalanilgan.

SHunday qilib, O'rta Osiyo xonliklari shaharlari aholisi o'zlarining asosiy kasb-korlari-hunarmandchilik va savdodan tashqari ular bilan bog'liq ravishda rivojlangan turli mashg'ulotlar bilan band edi. Jumladan, shaharlar aholisi o'zlari yashab turgan markazlar va ular atrofida er uchastkalarida dehqonchilik, bog'dorchilik bilan faol shug'ullanganlar. Ular o'zlarining bu serqirra faoliyatlari bilan shahar xo'jaligi, qolaversa, mamlakat iqtisodiy hayotining rivojiga muhim hissa qo'shganlar.

XIX asr boshlarida Rossiya olimlari tomonidan O'rta Osiyoda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, ular yakka tartibda amalga oshirilgan bo'lib, tizimlashtirilmagan xarakterga ega edi. Buning asosiy sababi ushbu davrda O'rta Osiyo xonliklari tomonidan yopiq siyosat olib borilgan. Bunday siyosat Rossiya tadqiqotchilari uchun O'rta Osiyoning tabiati va aholisining turmush tarzini ilmiy o'rganishda ancha muammolarni tug'dirgan. SHunga qaramay, bir qator izlanishlar amalga oshirildi. Sirdaryoning quyi oqimi, Orol va Kaspiy dengizi o'rganildi, tarqoq holdagi faktik materiallari yig'ildi, biroq umumlashgan ilmiy tadqiqotlar yaratilmadi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'lkani ilmiy tadqiq etish bo'yicha shart sharoitlar butkul o'zgardi. O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi natijasida Rossiya olimlari tomonidan ushbu hududni o'rganishda qulay imkoniyatlar vujudga keldi. Turkistonni boshqarishda o'lkani ilmiy o'rganilishi samarali natija berishini anglagan imperiya hukumati ekspeditsiyalarga katta mablag' ajrata boshladi. Rus geografik jamiyati hamda Moskva tabiatshunoslik qiziquvchilari jamiyati O'rta

Osiyoni o'rganish bo'yicha barcha imkoniyat-larni yaratish bo'yicha tashabbus ko'rsatdi. Mazkur tashkilotlarning vakillari O'rta Osiyo geografiyasi bo'yicha ekspeditsiya natijalarini o'z ichiga olgan ilmiy tadqiqot ishlarini taqdim eta boshladilar.

Ayni davrda o'lkani yirik s'yomkalari, yangi xaritalari yara-tildi, mamlakatning o'simlik, hayvonot dunyosi va geologiyasiga duri ma'lumotlar yig'ildi. O'rta Osiyoga amalga oshirilgan ekspeditsiyalar tarkibida Rossiyaning o'sha davrdagi ilg'or olimlaridan P.P. Semyonov, A.P. Fedchenko, N.A. Severtsov ishtirok etdi. Ushbu tadqiqotchilarning nazariy ishlari va ilmiy dunyoqarashida tabiatni o'rganishda materialistik yondashuv kuzatiladi, tadqiqot metodikasining asosida tarixiy-qiyosiy tahlil mavjud. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqot ishlari mamlakatning amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan. Ushbu davr orasida tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan kuzatuvlar, yig'ilgan to'plamlar asosida O'rta Osiyo organik dunyosi taraqqiyotining umumiy-qonuniyatlari o'rnatildi. Mashhur tadqiqotchi-geograf P.P. Semyonov Tyan-SHan hududi, geograf I. Borshov esa Orol-Kaspiy erlari o'simlik zonalarining vertikal taqsimlanishi xarakterini o'rgandi.

XIX asr o'rtalariga kelib O'rta Osiyoning rus tadqiqotchilari tomonidan ilmiy o'rganilgan hudud maydoni kengaydi. Aynan shu davrdan rus geograflari o'lkani Tyan-SHan, Zarafshonning quyi oqimi, Oloy tog'lari kabi hududlarini chuqur o'rgana boshlashdi.

Ushbu davr O'rta Osiyo geografiyasini o'rganishda Moskva universiteti tabiatshunoslarining tadqiqotlari katta ahamiyatga ega. Mazkur universitet haqida o'z zamonasining ilg'or ma'rifatchi-faylasufi A.I. Gertsen quyidagicha ta'rif bergan: «Universitet katta ta'sir ostida o'sa boshladi unga Rossiyaning barcha tabaqalaridan yangi kuchlar kirib kela boshladi, uning auditoriya zallari eski qarashlardan tozalandi, o'zi esa yuqori darajadan o'rin ola boshladi, bu erda yig'ilgan yangi kashfiyotlar Rossiyaning barcha sohalariga samarali ta'sir ko'rsatdi».

Moskva universitetida XIX asrning 50 – 60 yillarida, Darvin g'oyalari keng tarqala boshlagan davrda, u katta e'tiborga ega bo'la boshladi. Ushbu jarayonni rus olimi K.Timiryazev «Asrning uchinchi choragida tabiatshunoslikning uyg'onishi» deb nomlangan maqolasida aniq tasvirlab berdi. U mazkur jarayonni uzoq uyqudan uyg'onadigan bahor fasliga qiyoslagan.

Universitetning K.F.Rule, A.P.Formozov, N.A.Severtsov kabi olimlari XIX asr tabiatshunoslik fani taraqqiyotiga katta hissa

qo'shganlar. Jumladan, zoologiya bo'yicha yirik mutaxassis N.A. Severtsovning «Turkiston hayvonot olamining vertikal taqsimlanishi», «Qushlar migratsiyasining Turkiston hududidagi yo'llari» kabi ilmiy ishlari Turkiston tabiatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rus olimi M.A.Menzbir o'z davrida «Nikolay Apekseevich Severtsov» deb nomlangan maqolasida: «Severtsov evolyutsion harakatning yorqin namoyandasi edi...» deb yozgan.

Rus tabiatshunos olimi, zoologiya fanlari doktori, professor K.F. Rulening shogirdlari, Moskva universiteti professorlari S.A.Usova va A.P.Bogdanov tabiatshunoslik fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. A.P.Bogdanovning mohir pedagog, Moskva universiteti qoshidagi «Tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya qiziquvchilari jamiyati» hamda Zoologiya muzeyining tashkilotchisi sifatidagi faoliyati alohida e'tirofga loyiq. Mazkur jamiyat Rossiyaning tabiatini o'rganishda katta rol o'ynadi. Bundan tashqari, ushbu jamiyat turli tadqiqotchilarni o'ziga jalb qildi.

Jamiyat tashkilotchilaridan yana biri A.P.Bogdanovning shogirdi A.P.Fedchenkoning maqolalari jamiyat nashrlarida o'z o'miga ega bo'lgan. «A.P.Fedchenkoning ilmiy ishlarida etkazish qobiliyati seziladi», - kuzatuvlarning yorqin va qiziqarli holatda etkazish qobiliyati seziladi», - deb yozadi Rossiyaning o'sha davrdagi etakchi olimi I.V. Mushketov. Uning ma'lumotlari geografik va zoologik xarakterga ega bo'libgina qolmay, ularda qiziqarli etnografik ma'lumotlar ham joy olgan.

1819 yili Bosh pedagogik institutga Peterburg universiteti maqomi berildi. 1849 yili tadqiqotchi P.P. Semyonov ushbu universitetda o'z ilmiy tadqiqot ishini himoya qildi. 1868 yili universitet qoshida Peterburg tabiatshunoslari jamiyati tashkil etildi. 1874 yili mazkur jamiyat tomonidan O'rta Osiyoga Amudaryo ekspeditsiyasi yuborildi. Jamiyat prezidenti K.F.Kessler A.P.Fedchenko hamda N.A.Severtsov to'plagan ma'lumotlar asosida Turkiston o'simlik dunyosini tasvirlab bergan.

1845 yili Rus geografik jamiyati tashkil topdi. Keyinchalik ushbu jamiyat eng yirik geografik tadqiqotlarning yagona tashabbuskoriga aylangan.

Rus geografik jamiyati nafaqat o'zining, balki boshqa ilmiy ekspeditsiyalarning muvaffaqiyatli ish olib borishida ko'p jonbozlik ko'rsatgan. Bu borada jamiyat ekspeditsiyalar dasturlarini ishlab chiqdi, ekspeditsiyalar ishtirokchilarini har tomonlama qo'llab quvvatladi, ekspeditsiyalar uchun kerakli unsurlar bilan ta'minladi, yig'ilgan

materiallarni tizimlashtirdi. Ushbu jamiyat ilmiy ekspeditsiyalarning natijalari bo'yicha o'z nashrlarini chop qilib, ilmiy jamoatchilikka taqdim etdi.

1850 yillarda ilmiy ekspeditsiyalarning hisobotlari va ularning yo'nalishlari jamlangan maqolalar «Rus geografik jamiyatining xabarlari»da tez-tez chop etila boshladi.

P.P.Semyonov va I.V.Mushketov Moskva universiteti qoshilagi Tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya qiziquvchilari jamiyatining ilg'or arboblardan hisoblanadi. P.P.Semyonov 54 yil davomida jamiyatning rahbarlik lavozimida ishlab, O'rta Osiyoga yo'naltirilgan bir qancha ekspeditsiyalarning tashkilotchisi bo'lgan.

Pyotr Petrovich Semyonov-Tyan-SHanskiy (1827 - 1914) Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi bo'lgan. Ayni damda, P.P.Semyonovga zamondoshlari tomonidan «Har tomonlama etuk olim, ajoyib tashkilotchi va zamonaviy geografiyaning otasi» deya yuqori baho berilgan. U Rossiyada geografiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan etuk olimlardan biri hisoblanadi. 1845 yili Peterburg universitetida tahsil olishni boshlagan, 1851 yili botanika fani bo'yicha magistrlik dissertatsiyasini yoqlagan, 1863 - 1855 yillarda Berlin universitetida tinglovchi sifatida o'qishni davom ettirgan. P.P.Semyonovning ilmiy faoliyati Rus geografik jamiyati bilan bog'liq. 1873 yildan u jamiyatning vitse-prezidenti sifatida 40 yil faoliyat ko'rsatdi. Mazkur davr ichida Markaziy Osiyoga yuborilgan aksariyat ekspeditsiyalarni tashkil qildi. Uning tahriri ostida Rossiya imperiyasi, xususan, O'rta Osiyo geografiyasiga oid ko'pdan-ko'p ilmiy nashrlar chop etildi. 1856 - 1858 yillarda P.P.Semyonov tomonidan Oltoy, Ettisuv, Olatog', Issiqko'l va Markaziy Tyan-SHan, Xontangri tog' tizmasidagi muzliklar kashf qilindi. Bundan tashqari, uning ushbu ekspeditsiyalari natijasida Tyan-SHan tog' tizmasining geologik holati, O'rta Osiyo tog' tizmalarining vulqonsimonligi haqidagi tasavvurlarning noto'g'ri ekanligi, tog' muzliklarining quyi va ostki qismlari aniqlandi, tog' jismlarining mingdan ortiq turi yig'ildi.

O'rta Osiyoni o'rganish masalalari bilan Rossiya Fanlar akademiyasi ham shug'ullangan, biroq jamiyat bu sohada ancha izchil tadqiqotlar olib borgan. Fanlar akademiyasi 1857 yilda Orol-Kaspiy o'lkasini o'rganish uchun N.A. Severtsov va I.G.Borshov ekspeditsiyasini yubordi. Natijada Orol dengizining sharqiy qirg'oqlarida geografik-geologik kuzatuvlar olib borildi, ushbu hududning zoologik, geologik va botanik to'plamlari ishlab chiqildi, eng

ilmiy, Orol dengizining asta-sekinlik bilan qurib borishi mumkinligi aniqlandi. Rus olimi Nikolay Alekseevich Severtsovning shaxsi haqida aniqrog'iz. U 1827 yili Voronej guberniyasida tug'ilgan. 1843 - 1850 yillarda Moskva universitetida tahsil olgan. 1856 - 1858 yillarda Fanlar akademiyasi tomonidan tashkil etilgan. Severtsov Sirdaryo ekspeditsiyasida ishtirok etgan. 1858 yili Qo'qon hukumati buyrug'i asosida asirga olinib, bir oy davomida YAngiqo'rg'onda bo'lgan. Harbiy qo'mondonlari general-leytenant A.L.Danzas va I.V.A.Osmolovskiy tomonidan asirlikdan ozod etilgan.

1864 yili N.A. Severtsov muhandis Freze bilan birgalikda Tyan-SHan tog'lari, Ettisuv, Qirg'iziston hududlari, Farg'ona vo'diysidagi Namangan viloyati yo'llari, CHotqol tog'lari, Avliyo-ota, CHimkent vo'diysiga ilmiy ekspeditsiyani amalga oshirgan. Natijada Tyan-SHan tog'larining vujudga kelishi va xususiyatlari aniqlandi, G'arbiy Tyan-SHan muzliklarning mavjudligi isbotlandi. Olatog', Tyan-SHan, Qoratog' tog' tizmalarining tabiiy aloqadorligi kashf qilindi, SHimoliy Tyan-SHan tog'larining geologik xaritasi tuzildi. Qoratog' tog'larida Toshko'mir zaxiralari, Turlan hududida qo'rg'oshin konlari va CHimkent vo'diysidan gips va tuz konlari topildi. Bundan tashqari, Toshkent shahri va uning atroflari haqida bir qancha ma'lumotlar berildi.

1858 yili Rossiya hukumati harbiy qo'mondon Ignatevning Buxoro va Xivaga amalga oshirgan diplomatik ekspeditsiyasini tashkil qildi. Mazkur diplomatik ekspeditsiyada rus amaldorlari va har-biylardan tashqari tadqiqotchilardan astronom K.V.Struve, geograf P.I.Lerx, topograf Zelenin qatnashgan. Ularning ekspeditsiyadagi ishtirokini Rossiya Fanlar akademiyasi ta'minlagan. ekspeditsiya natijasida ushbu olimlar tomonidan Xiva va Buxoroga oid qizi-qarli etnografik-geografik ma'lumotlar yig'ildi, metereologik va astronomik kuzatuvlar olib borildi.

Toshkentda «Tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya qiziquvchilari jamiyati»ning tashkil etilishi o'lkada tayyor ilmiy kadrlarning etarli ekanligidan dalolat beradi. Turkistondagi ilk ilmiy jamiyat A.P. Bogdanovning tavsiyasiga binoan A.P. Fedchenko tomonidan tashkil etilgan «Tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya qiziquvchilari jamiyati» edi. Mazkur bo'lim tarixida katta ahamiyatga ega bo'lgan voqea 1872 yili Rossiya texnika ko'rgazmasi uchun mahalliy tabiat va sanoat bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan to'plamning taqdim etilishi hisoblanadi. Jamiyat nashr etgan to'plamning ilk jildi A.P.Fedchenko xotirasiga bag'ishlangan.

Keyinchalik ushbu jamiyat a'zolari turli ekspeditsiyalarda ishtirok etib, Turkistonning tabiati va ishlab chiqaruvchi kuchlarini o'rganish bo'yicha faol ish olib bordilar.

Keyingi ilmiy jamiyat «O'rta Osiyo jamiyati» nomi bilan ma'lum bo'lib, u 1871 yilda tog'-kon muhandisi A.S.Tatarinov hamda geograf A. Bunyakovskiy tashabbusi bilan tashkil etilgan. Ushbu jamiyatni tashkil etishdan asosiy maqsad O'rta Osiyoni ilmiy va iqtisodiy jihatdan chuqur o'rganish holda eng yaxshi maqolalarni o'zbek tiliga o'girishdan iborat edi. Biroq jamiyat o'sha yilning o'zidayoq hech qanday ahamiyatli ishga qo'l urolmay yopildi.

1870 yili N.N. Raevskiy tomonidan tashkil etilgan «Rus sanoati va savdosi taraqqiyotining hamjihatligi yo'lidagi jamiyatning Turkiston bo'limi» ilmiy jamiyati ruslar tomonidan tuzilgan uchinchi jamiyat edi. Jamiyatning asosiy vazifasi paxtaning yangi navlarini ishlab chiqish hamda o'lkada texnikaviy ma'lumotni kengaytirish edi. Biroq ushbu jamiyat N.N. Raevskiy o'lkadan ketishi bilan o'z faoliyatini to'xtatdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'rta Osiyodagi geografik ekspeditsiyalar dastlab XVIII asrda boshlangan bo'lib, ularda mazkur hudud geografiyasiga oid kuzatuvlar amalga oshirilgan. O'rganilayotgan davrda esa ilmiy tadqiqotlar vujudga keldi.

XIX asrning o'rtalarida Rossiya imperiyasi tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan ekspeditsiyalar natijasida O'rta Osiyo geografiyasiga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Ushbu ilmiy tadqiqotlar sodda usulda tahlil qilingan bo'lishiga qaramay, ular O'rta Osiyoning geografik xususiyatlari, trixi va etnografiyasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Savollar:

1. O'rta Osiyo xalqlarining XVI-XVII asrlarda siyosiy-iqtisodiy hayoti tarixshunosligi.
2. Abulg'azi Bahodirxon va uning "Shajarai turk" asari.
3. Hofiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomayi shohiy" asari.
4. Buxoro xonligi tarixnavisligi.
5. Qo'qon xonligi tarixnavisligi.
6. Xiva xonligi tarixnavisligi.
7. Shayboniyxonlar davri tarixshunosligi.
8. Ashtarxoniylar hukmronligi tarixining tarixshunosligi.
9. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari davrida tarixnavislikning rivojlanishi.

VII BOB. O'ZBEKISTONDA SOVET DAVRI TARIXSHUNOSLIGI

Yigirmanchi asardagi o'tmishimizning sobiq sovet hokimiyati hukmronlik qilgan davri (1917-1991 yillar) tariximizda o'ziga xos o'rinni egallaydi. Bu davrning o'ziga xosligi shundakim, u o'zining murakkabligi va ziddiyatligi bilan ajralib turadi.

O'rta Osiyo bugungi kunda bir qancha qardosh xalqlarning mustaqil davlatlari shakllandi. Lekin bu mamlakatlarning yaqin o'tmishida bo'lib o'tgan voqealar, umumiy bir yaxlitlikni tashkil etadi. 1917 yil oktyabrida bol'sheviklar zo'rlik bilan amalga oshirgan inqilob natijasida sobiq Ittifoq xalqlari, shu jumladan, O'zbekiston xalqlari tarixida salkam 75 yil davom etgan yangi mustamlakachilik sahifasini boshlab berdi. Natijada chop mustamlakachilik imperiyasi o'rni «qizil imperiya» egalladi. Yangi mustamlakachilik zulmi ostida yashagan o'z xalqlari bol'sheviklar «sotsialistik tajribasi»ning barcha mash'um muvohlakotlarini boshdan kechirdilar. Eng achinarlisi shundaki, respublikadagi ijtimoiy-siyosiy tarixiy jarayonning o'ta murakkab va ziddiyatli kechishi ko'plab qurbonlar berilishiga, madaniy va ma'naviy yo'qotishlarga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida mustabid sovet tuzumi davriga, sovetlar hukmronligi tarixshunosligiga munosabat bildirar ekan: «Biz shu paytgacha ko'proq eski tuzumni tanqid qilish, uni inkor etish bilan band bo'ldik. Albatta, boshimizdan kechirgan mudhish va mustabid turmushning butun asoratlarini anglab etish, yo'limizni to'g'ri belgilab olish uchun istilolning dastlabki yillarida biz uchun albatta zarur edi. Ammo faqat o'tmishni yozg'irish, inkor etish bilan uzoqqa borib bo'lmaydi...»

SHu bois biz o'ta-bobolarimizga ... sun'iy ranglar bilan ajratib baho bermasligimiz, balki ularning hayotini, ular yashagan davrning mohiyatini to'g'ri tushunishga harakat qilishimiz lozim deb ta'kidlagan edi. Modomiki shunday ekan, his-hayajonga berilmasdan, mustabid siyosiy tuzum tarixi bilan xalqimiz tarixini ajrata bilishimiz, uni xolisona ilmiy asosda yoritish zarur.

Tarix fani mustabidlik davrida O'zbekistonning sovet davrini (1917-1991 yillar), mustaqillik qo'lga kiritilguncha bo'lgan tarixni o'rganish uchun muayyan ishlar amalga oshirildi. Ammo bu asarlarda tarixiy jarayon ko'p jihatdan bir tomonlama, noxolis, tarixiy dalil va

voqealar ataylab buzib ko'rsatildi, kommunistik mafkuraga xulosalar qilindi.

SHuning uchun barcha uslubiy jihatlari yagona siyosiy mafkura qolipida yozilgan sovet davri tarixiy adabiyotlariga alohida baho berishni lozim deb hisoblamaymiz.

O'rta Osiyoda sovetlar hukmronligi o'rnatilishining tarixshunosligiga xolis yondoshuv O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan qulay shart-sharoit qaror topdi. Uslubiy metodologik jihatdan ham aynan shunday yondashuvlarning asosiy printsiplari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 1996 yil dekabrda «O'zbekistonning yangi tarixini yaratish» va 1998 yil iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlarida bayon etilgan.

O'rta Osiyoda sovetlar rejimi amalga oshirgan siyosiy, ma'muriy, ijtimoiy va madaniyat sohasidagi o'zgarishlar haqida quyidagi asarlardan bilib olishimiz mumkin.

Turkiston mintaqasida sovet rejimiga qarshi qurolli harakat, sovet davrida «bosmachilik» deb noto'g'ri talqin qilingan harakat – O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (1997), «Jamiyatimiz mafkurasida xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin» (1998), «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» (1998) va boshqa asarlarda ilgari surgan milliy istiqlol g'oyasi, eng avvalo «bosmachi» va «bosmachilik» atamalarini tushunib olishga xizmat qiladi.

Istiqlolchilar kurashi, barcha ixtilofdagi siyosiy partiyalar tugatilishi natijasida bol'sheviklar yakkahokim partiyaga aylandi, u jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida o'z mafkuraviy ta'sirini o'tkazib bordi. ayniqsa bu kishilar ongini o'zgartirishda muhim omil bo'lgan ta'limda, ilmda va madaniyatda jiddiy tus oldi. dastlabki yillarda madaniyat va uni boshqarish jabhalarida demokratik tamoyillar birmuncha mavjud bo'lib, hokimiyat mahalliy urf – odatlar va xususiyatlarni hisobga olishga majbur bo'lgan edi. keyinchalik esa, ma'muriybuyruqbozlik usullari keng quloq o'tib mustahkamlanib borishi bilan yalpi ko'rsatkichlar ortidan quvish, bol'shevikga «madaniy inqilob» yo'li va usullari ustivorlik qila boshladi. xalqning ma'rifatga, fanga va milliy ma'naviyatga bo'lgan intilishi hukmron kuchlar tomonidan uzoqni ko'zlamay va yaxshi o'ylamay olib borilgan.

harakatlari natijasida siyosiy manfaatlar yo'lga burildi. yangi ziyoli kadrlarni shakllantirish, eski mavjud milliy ziyolilarni yo'q qilish ana shu maqsadlarni ko'zlab amalga oshirildi. savodxonlik darajasining oshishi buyrokratik boshqaruv tizimining mustahkamlanib borishi, texnika taraqqiyoti tomon yurish va ilmiy muassasalarning tashkil topish jarayonlari ular ustidan qattiq mafkuraviy nazoratning o'rnatilishi bilan hamohang ravishda yuz berdi.

Bugungi kunda respublikamizda maorif va ta'lim tizimini takomillashtirish, yosh avlodni barkamol va ziyoli qilib tarbiyalash muhim vazifalar qatoriga kiradi.

Ana shunday ulkan ishlardan biri bu Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida ishlab chiqilib amalga joriy etilayotgan ta'lim va kadrlar tayyorlash milliy dasturidir. ushbu dastur va ta'lim – tarbiya tizimining tamoyillari jahon andozalariga mos kelisha bilangina emas, balki ajdodlarimiz tomonidan bu sohada qo'lga kiritilgan boy tarixiy tajribalarga tayanganligi bilan ham qimmatlidir. shuning uchun mustaqillik yillarida O'rta Osiyoning o'tmishdagi ta'lim – tarbiya va ilmiy muassasalari hamda ta'lim tizimiga doir ma'lumotlar yoritilgan Boturxon Valixojaevning, Kamolxon Kattaev, SHokir G'affurov, Ahtam O'rolev va Rahimjon YUsupov va boshqalarning asarlari va maqolalari nashr etildi.

Lekin, XX asrning 30 – yillarida sovet maktablari darsliklarga muhtoj bo'lib turgan bir paytda, jadid mualliflari yozgan va musulmon bolalarining turmushi va psixologiyasiga moslashtirilgan darsliklardan foydalanish haqida o'ylab ham ko'rilmadi. aksincha ta'lim sohasini «sinfiy dushman» tozalash maqsadida, hatto maxsus qarorlar qabul qilindi.

Bu yillarda Respublika oliy o'quv yurtlari tarmag'i ham ortib bordi. Samarqandda O'z. DU, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Andijon, Marg'ilon, Toshkent, Nuks, Xiva, Urgunch shaharlarida oliy maktablar tashkil etildi 1940 yilda 9 yanvarda fan qo'mitasi ittifoq fanlar akademiyasining O'zbekiston filialiga aylantirildi.

Kompartiyaning madaniya merosni inkor etish siyosati arab yozuvini lotin grafikasiga almashtirish haqidagi qazorda ham o'z aksini topdi. arab yozuvini lotinlashtirish siyosatiga O'zbekistonda G'ozzi Olim YUnusov, Qayum Ramazonov, Abdurahim Yo'ldoshev va boshqalar qarshi turgan edilar. ayniqsa Ashurali Zohiriy katta joibozliklar ko'rsatib, bu islohotni madaniy bilimsizlik deb baholadi.

1940 yil may oyida O'zbekiston SSR Oliy Soveti III sessiyasida T.N.Qorinoyovning ma'ruzasi bo'yicha yozuvning rasmiy grafikasiga o'tkazish haqida ko'rsatma berildi. 1930 yildan boshlab bir qator cherkovlar, masjidlar va diniy maktablar yotib qyildi.

O'zbek tarixshunosligining fidoyisi Po'lat Saliev 1937 yili "Xalq dushmani" deb hibsga olinib, 1938 yilda otildi.

Turkistonda XX asrning 40 – yillariga qadar hukm surgan va g'oyat samarali faoliyat ko'rsatgan jadidchilik harakati qorong'u zulmat yuzidagi yorug' nur edi. Lekin bu nur butun Turkiston bo'ylab keng quloq yozib rivojlanib keta olmadi. aksincha, 1937 – 1938 yillardagi siyosiy qatag'on jadidlar harakatini barbod etdi. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr 30 – yillarining o'rtalarida turkiy musulmon o'lkalar – Qrim, Kavkaz, Volga bo'yi (Bulg'or va Janubiy Urol havzasi) va Turkistonda shakllangan.

Uning yirik vakillaridan Fayzulla Xo'jaev, Cho'lpon, Usmon Nosir, Fitrat, Abdulla Qodiriy Sovet rejimining istibdodi bo'lgan ana shu dahshatli qatag'onning qurboni bo'ldilar. Biroq, o'zining bilimi, aql-zakovati, iymoni – e'tiqodini, butun hayotini o'zbek xalqining milliy ozodligi, Vatanimizning milliy mustaqilligi va baxtli kelajagi uchun saфарbar etgan tadidlar harakatining g'oyalari zoya ketmadi. ular jonajon Vatanimizning mustaqilligi tufayli hozirgi kunda to'la ravishda ro'yobga chiqmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan tarixshunos tadqiqotchilar tomonidan tarix fanining bosib o'tgan yo'lini ham yangitdan tahlil etish zarurati yuzaga keldi. Ana shu yo'ldagi dastlabki izlanishlar ijtimoiy taraqqiyot burilishlarini aks ettirgan hamda ijobiy va salbiy voqealarga boy bo'lgan XX asrning birinchi o'ttiz yilligi chegarasini qamrab olgan. Asar 1994 yilda yaratildi.

Ushbu asarda XX asrning 30 yili ichida O'zbekistonda yuz bergan tarixshunoslik jarayonlari, Milliy davlatchilik masalalari tarixshunosligi, Turkistonda XIX asr boshlarida milliy – ozodlik kurashi tarixshunoslik, O'zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy tarixini o'rganishning ba'zi muammolari, 20-30 yillarda sharqshunoslik va madaniyatning, etnologiya va arxeologiyaning hamda ingliz, frantsuz va nemis tarixshunosligida O'zbekiston tarixi muammolarini o'rganish masalalari yoritib berilgan.

Hozirgi kunda tarixshunosligimizda chet ellik olimlarning asarlaridan foydalanish muayyan bir qiziqish uyg'onmoqda. Sababi ularda tarixga o'z dunyoqarashi bilan mustaqil yondoshish ustunlik

qiladi. Mana shunday asar mualliflaridan biri XX asrning birinchi choragida ingliz Frederik Martman Beyli (1882 – 1976 yy) afsonaviy asariga aylangan edi. Londonda 1946 yilda "Jonaton Keyn" nashriyotga F.Beylining "Toshkentdagi missiya" degan kitobini bosib chiqardi. Bu kitobida u avvalambor milliy – ozodlik uchun kurash fuqarolar urushi sharoitida qolgan Turkistonda Britaniya siyosiy agenti sifatida boshidan yugirgan xatarli sarguzashtlarga to'la hayoti haqida batafsil hikoya qiladi. O'z vaqtida bu kitob haqida ko'p shov – shuv bo'lib o'tgan va Beyli olib borgan ishlar to'g'risida ancha – muncha mish-mishlar va afsonalar to'qilgan. Mashhur sharqshunos – razvezkachining og'ir zamonlarda kechirgan hayotini o'rganish, bilish tariximiz, o'tgan kunlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa, 30 – yil, O'zbekistonda tarix fani keskin burilishlarni boshdan kechirdi. Sovet tuzumi, bir tomondan, o'zbek milliy tarixchiligini, undagi erki – varlikni, milliylikni yo'q qildi, ikkinchi tomondan, mustabid tuzumga sodiq kishilarni tarbiyalashga harakat qildi, "sotsialistik" ruhdagi tarixchi va yozuvchilarni tarbiyalash yo'lidan bordi. Natijada, hukmron va mustabid kommunistik tartibot (rejim) tomonidan buyurilgan mafkuraviy yo'l – yo'riqlar, g'oyalar va ko'rsatmalar tarixshunoslik jarayonining to'laroqli rivojlanishiga yo'l bermadi.

O'zbekiston SSRning tashkil etilishi mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonning eng muhimlaridan biri O'zbekiston nomigagina suveren respublika bo'lib, aslida esa SSSR tarkibidagi unitar (qo'shma) davlat edi. O'zbekiston ittifoq partiya-sovet organlariga to'la qaram bo'lib, uning rahbariyati va direktivalarini, ko'rsatmalarini og'ishmay bajarishga majbur edi.

O'zbekistonda o'tkazilgan arxeologik va etnografik tadqiqotlar o'tkazilgan davr bu SSSRda boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi o'zining barcha salbiy ko'rinishlari bilan qaror topishi va mustahkamlanishi sharoitida sodir bo'ldi. Bu haqda yangicha g'oya va mustaqillik mafkurasi bilan yaxshi qurollanib olgan holda M.A.Axunova va B.V.Lunin tarixshunoslik yo'nalishida yozgan «O'zbekistonda tarix fanlarining tarixi» nomli asaridan bilib olsa bo'ladi. Agar kitobxonlarni 1930-1950 yillarning yarmigacha bo'lgan davrda sovet tarixchilari, arxeologlari va etnograflari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning asosiy bosqichlari bilan tanishtiradi.

Bu davrda S.P.Tolstov, T.A.Jul'ko, I.Djabborov, M.A.Itina, YA.G.Gulomovlar eramizdan avvalgi IV ming yillikdan eramizning

XIV-XV asrlarigacha Xorazm tarixini yangicha ko'z bilan ko'rish imkonini berdi.

30-yillar tarix fanida totalitar tuzumni qo'llovchi «bol'shavoycha» uslubda tarixni yoritish hukmron bo'ldi. Markscha-lenincha mafkura ta'siri ostida bo'lgan gazeta va jurnallar ham shu tuzumga astoydil xizmat qilishga yo'naltirilgan edi. O'zbekiston tarixshunosligida «Eski markazdan» kelgan topshiriqlar asosida tarix fani ishladi. Ilmiy tadqiqotlarni tasdiqlash uchun Moskvadagi Davlat attestatsiya qo'mitasiga mavzular olib borilar edi.

XX asrning 30-yillarida, ya'ni «madaniy inqilob» avj oldirilgan yillarda madaniyatga qarshi kurash shu darajada kuchaydiki, odamlarni qatag'on qilish uchun ularning uyidan arab yozuvidagi kitob yoki daftarlar topilishi kifoya edi. O'sha yildan, 30-yillar va 50-yillar ikkinchi yarmigacha, o'n minglab, yuz minglab jild kitoblar, nodir qo'lyozmalar suvga chuc'tirildi, yoqildi, tuproqqa ko'mildi. Taqdir istehzosini qaranki, o'sha yillari sho'ro tarixchilari madaniy inqilob davri deb atadilar. SHo'rolar siyosati oxir-oqibatda shunga olib keldiki, ajdodlarni ardoqlaydigan o'zbeklarning ham ko'pchiligi etti ajdodini u yoqda tursin, ikki-uch bo'g'in ota-bobolarini zo'rg'a taniydigan bo'lib qoldilar. Bu monqurtlikning bir ko'rinishi edi. Aynan mana shu davrlardan boshlab, sho'rolar adabiyotda, san'atda, «ilg'or farzandlar», «qoloq ota-onalarga» qarshi qo'yila boshlandi. Sovet hukumati 1934 yil 16 mayda «Maktablarda fuqarolar tarixini o'qitish» to'g'risida qaror qabul qildi. CHunki kommunistik mafkura qoidalariga ko'ra davlatchilik tarixini o'qitish bu eski tuzumni yoqlash bilan barobar edi.

Bu ilg'or «o'g'il-qiz» lar ota-onalarining e'zozlash o'rniga ular ustidan kular, juda insofilari esa ularni qayta tarbiyalashga harakat qildilar. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda 50-yillar boshlarida, yangi erlarni o'zlashtirishga jo'nayotgan yoshlar deysizmi, ilg'or kolxozga yigit-qizlar deysizmi, partkom kotiblari-yu zveno boshliqlari deysizmi, ko'pincha o'zlarining «ilg'orlik»larini «qoloq» ota-onalarini qayta tarbiyalash orqali namoyon qiladilar. Oqibatda, avlodlar o'z ajdodlarini, demak tarixni ardoqlashlari u yoqda tursin, ularni mutlaqo unuta boshladilar. Mana shu jabhada, 1937 yilda shaxsan Stalinning o'zi tahrir qilgan VKP(b) (Bol'sheviklar Butun ittifoq partiyasi) qisqacha tarixi nashrdan chiqib, hamma tarixchilar undan qomis sifatida foydalandilar. Natijada 1934-1936 yillar o'quv qo'llanmalar tayyorlash qarori asosida tarix uni o'ta siyosatlashtirilib yuborildi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi xalq xo'jaligini tiklash ham oson kechgani yo'q. Nihoyat alg'ov-dalg'ovlarga to'la fojiali 40 yildan ortiq davrdan so'ng 50-yillar oxirlariga kelib hayotda engillik va ilgari nisbatan hayot farovonligi oshdi. Bugungi kundagi tarixshunosligimizda O'zbekistonning ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki masalasi ham nihoyatda dolzarb muammolardan biri bo'lib turibdi.

Ushbu davr tarixshunosligida urushlar tarixi tarixshunosligini o'rganishdan ko'zlangan maqsad, tariximizning o'rganilmagan yangi sahifalarini ochmog'imiz zarurligidir. Masalan mana shunday dolzarb, o'rganilishi talab qilinadigan yo'nalishlardan biri bu urushlar oqibatida muhojirlikka ketib qolgan o'zbeklar tarixidir.

Bu davr tarixshunosligini o'rganish nihoyatda muhim. CHunonchi 1917-1920 yillardagi fuqarolar urushi natijasida 13 million kishi nobud bo'ldi, minglab kishilar jarohatlandi. Dehqon xo'jaliklari, sanoat izdan chiqdi, ocharchilik qashshoqlik va ommaviy yuqumli kasalliklar keng quloch yoydi. Turkistonda respublikalar tashkil etilishi munosabati bilan esa minglab yillar davomida shakllanib kelgan va takomillashgan yagona iqtisodiy tizimga zarba urildi, dehqonchilik otin-ustin qilinib, boy va o'rta hol dehqon xo'jaliklari davlat tomonidan talon-taroj maydoniga aylantirildi. O'n minglab mirishkor dehqonlar oilalar bilan «quloq» qilindilar, to'zitib yuborildi. YUzlab obod qishloqlar xarobaga aylantirildi. SHuningdek, qdimdan rivojlanib kelgan va kundalik hayotning tarkibiy qismi bo'lmish yuqori darajadagi hunarmandchilik ildiziga bolta urildi. 30-yillardagi ocharchilik, qahatchiliklarda esa o'n minglab kishilarning yostig'i quridi, og'ir dardlarga chalindi. Mana shu og'ir tarix sahiflari tarixshunosligimizda R.SHamsutdinov, N.Karimovlarning sa'y-harakatlari tufayli asta-sekinlik bilan yoritilib bormoqda.

Xullas, XX asrning 30-yillari 50-yillarning birinchi yarmi davridagi O'zbekiston tarixi tarixshunosligini o'rganish hozirgi kunda tarixchilar oldiga nihoyatda dolzarb vazifalarni qo'yishini mana shu yuqorida keltirilgan misollardan ham bilishimiz mumkin.

Ko'p tomlik O'zbekiston xalqlari tarixi asarining yaratilishi uchun zaruriyat sezila boshladi. Sababi, sho'rolar tizimining butun siyosiy tarixini bilish, mana shu oqibatlarni ochib berar edi. Bu davrda ilmiy - tadqiqot ishlarini muvoffiqlashtirishni SSSR fanlar akademiyasining 1930 yilda tashkil etilgan O'zbekiston filiali (O'z FAN) amalga oshirdi. 1943 yil noyabrda O'z FAN bazasida respublika Fanlar akademiyasi tashkil topdi. 1944 yilda O'zFA tarkibida 818 nafar ilmiy va ilmiy

texnik xodimlar bor edi. Oliy ta'lim tizimida ham olimlarning, xususan tarixchilarning yirik otryadi ishlar edi.

Tarixchilar kommunistik mafkura doirasida bo'lsada, o'z oldilariga urush davri qo'ygan vazifalarning mas'uliyatligi va muhimligini tushungan holda ijodiy kuch-g'ayratini fashizm mafkurasiga qarshi kurashga, gitlerchilarning bosqinchilik siyosatini fosh qilishga, xalqimizning yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashga qaratdilar.

Respublika tarixchilari «O'zbekiston xalqlari tarixi»-ikki jildlik fundamental asarni yaratishga kirishdilar.

Bu asarni yozishda olimlardan YA.G'.G'ulomov, T.N.Qori Niyozov, S.P.Tolstov, M.E.Voronets, E.SH.Rajabov, A.YU.Yakubovskiy, V.L.Zohidov, V.A.Shashkin, K.B.Trever va boshqalar qatnashdilar. Lekin birinchi bor yaratilgan bu fundamental asar kommunistik mafkura asosida yozilgan bo'lib, unda tarixiy voqealilar soxtalashtirilgan, g'oyaviy jihatdan noxolis ilmiy xulosalar qilingan edi.

SHu bilan bir qatorda sharqshunos olimlar o'zbek xalqining boy madaniy merosini o'rganishga katta e'tibor berdilar. A.Rasulov, V.Zohidjonov, E.Muhamedxo'jaev, A.A.Semyonov, D.T.Voronovskiy va boshqalar qadimgi qo'lyozmalarni o'rganish va ilmiy izohlash ishlari bilan samarali shug'ullandilar.

Haqiqatdan ham 1944 yilda Respublika davlat kutubxonasining SHarq qo'lyozmalari bo'limi bazasida O'z FA SHarqshunoslik instituti ochilib, uning birinchi direktori vazifasini professor A.A.Semyonov tayinlangan edi.

Jamiyatshunoslik olimlarning tadqiqotlarida O'zbekiston xalqlarining ijtimoiy-falsafiy (I.M.Mo'minov) va tabiiy-ilmiy tafakkuri tarixi masalalari muhim o'rin egalladi. Bir qator falsafa tarixiga oid asarlar e'lon qilindi, ularda fashizmning irqchilik g'oyalari, jahonga hukmronlik qilish da'volari fosh etildi.

Urush davri qiyinchiliklariga qaramasdan, oliy maktab rivojlanib bordi. 1945 yilda O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarining soni faqat tiklanib qolmasdan, shu bilan birga urushdan oldingi davrga nisbatan 3 taga ko'paydi. Markazdan ko'chirib keltirilgan institutlar hisobiga, talabalar soni 19.061 madal 21.195 tagi etdi.

Mustabid tuzum 40-yillar oxiri 50-yillar boshlarida respublikada siyosiy kompaniyalar o'tkazib, 1952 yil 21-22 fevralda bo'lib o'tgan

O'zKP (b) MQning X plenumini o'tkazdi. Tarixchi A.X.Boboxo'jaev panjurkizmini targ'ib qilishda ayblandi.

Plenumda, ayniqsa, O'zbekiston xalqlari tarixini yoritish masalasida jiddiy tanqidiy fikrlar bildirildi. Ushbu plenum «O'zbekiston va O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shilgan», ko'p tomlik «O'zbekiston xalqlari tarixi» ikkinchi jildida «Temur davlati madaniyati oshirib yuborilgan» va «1898 yilgi Andijon qo'zg'oloni reaksion harakat» - degan, aslida haqiqatni inkor etuvchi kommunistik mafkura nuqtai nazaridan baholar berildi.

Xullas, 40-yillar oxiri 50-yillar boshlari stalinizm davrida mustabid tuzum o'z xalqiga qarshi o'tkazgan ommaviy qatag'onlarning navbatdagi bosqichi bo'ldi. Bu qatag'onlarga uchragan ziyolilar orasida tanikli tarixchi olimlar ham bor edi.

Asossiz qatag'on qilinganlarni oqlash «xalqlar otasi» vafotidan keyin boshlandi. Ammo, Stalinning vafotidan keyin ham boshqacha fikrlovchilarga nisbatan ta'qib qilishlar to'xtamadi. Bu esa o'z navbatida ko'plab ko'p tomlik O'zbekiston xalqlari tarixi asarlarning rus va o'zbek tillarida qaytadan yozilishi hollariga olib keldi.

Markaz ideologlari tomonidan o'ylab topilgan xayoliy va noilmiy «qidalar, ya'ni «SSSRda sotsializmning to'la va uzul-kesil g'alaba qilgan»ligi, butun mamlakatda bo'lganidek, O'zbekistonda ham maorif, oliy ta'lim, ilm-fan va san'at, tarixshunoslik ham o'ta siyosiylashgan holda rivojlantirishga majbur etildi.

O'zbek xalqining boy o'tmish tarixini, milliy madaniyatini va qadriyatlarini kamsitish, ularni soxtalashtirish aynan shu yillarda avj olgan edi. Qadimiy tariximizni o'rganish, «o'tmishga sajda qilish» deb qoralandi. Ijtimoiy-gumanitar fan olimlariga «rivojlangan sotsializm» davrini, uning «tarixiy ahamiyati»ni, «afzalliklari»ni o'rganish haqida maxsus «ko'rsatma» berildi. Natijada bu yillarda ijtimoiy-gumanitar fan olimlari tomonidan «rivojlangan sotsializmni» madh etuvchi ko'plab ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar yaratildi.

Tarixshunoslikda ham O'zbekistonda sho'rolar tuzumining o'rnatilishi tarixini madh etuvchi, «ilg'or» ishchilar sinfining shakllanishini yorituvchi va hakazo yo'nalishlardagi tarix asarlarini yaratish vazifalari qo'yildi. Agar ikkinchi jahon urushi yillaridan so'ng I tom «O'zbekiston xalqlari tarixi» 1950 yilda nashrdan, II tom faqat 1947 yilda nashrdan chiqarilgan bo'lsa, Sovetlar davrini aks ettiruvchi III tom qo'lyozma shaklida qolib ketib, kitob qilib chiqarilmadi.

Ko'plab bahs va munozarlardan so'ng «O'zbekiston xalqlari tarixining» yangi nashri 2 tomlik to'rtkitob jildi shaklida 1955, 1956, 1957 yillar nashr etilib, sovetlar davrini madh etuvchi, kommunistik formatiion taraqqiyot qonunlariga mos ravishdagi bosqichlar bilan nashr qilindi.

Mana shundan so'ng, Toshkent va Samarqand shaharlarida O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari tarixining ba'zi muammoli va bahs-munozarali tarixshunosligi masalalari o'rganishga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar o'tkazilib turadigan tarixchi-olimlar markazlariga aylandi. Masalan, 1942 yil avgustida Toshkentda SSSR FA tarixchi olimlarining O'rta Osiyo xalqlari etnogeneza tarixi muammolarini o'rganish haqidagi yig'ilishi o'tkazildi. 1954 yil yanvar-fevral oylarida O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari tarixining 1917 yilgacha bo'lgan tarixi masalalarining muammolariga bag'ishlangan qo'shma yig'ilish bo'ldi.

YA'ni bu yig'ilishlarga barcha O'rta Osiyo va Qozog'istonlik tarixchi olimlar, o'z respublikalaridan kelib qatnashdilar.

Aynan mana shu yillarda Samarqand shahrida, xususan Afrosiyobda katta hajmda arxeologik qazishma ishlari boshlab yuborildi. 1958 yilda Samarqand arxeologik ekspeditsiya tuzilib, V.A.Shashkin, YA.G.Gulomov, L.L.AI'baum, M.E.Masson, A.YU.YAkubovskiy va boshqalar ish olib bordilar. Ayniqsa, O'zbekistonlik arxeolog olimlarning yosh, navqiron avlodi shakllandikim, bugungi kunda ular hozirgi zamon arxeologiya fani ustunlari bo'lib qoldilar O'zbekistonda. 1962 yilda Samarqand shahrida kroman'on tipidagi odam suyagi qoldiqlarining topilishi ham katta ilmiy yangiliklar safiga kiritildi. Xallas, aynan mana shu davrda tarixshunoslik fani o'zining eng rivojlangan bosqichlaridan biriga ko'tarildi. Va o'z navbatida tarix fanining O'zbekistondagi taraqqiyoti butun O'rta Osiyoda juda ham ilg'or pozitsiyani egallab turdi.

XX asrning 20-30 yillar O'zbekiston haqida ingliz, nemis va frantsuz tilida nashr etilgan asarlar tarixshunosligi.

20-30 yillarda O'zbekistonda sharqshunoslikka doir tadqiqotlarning holati va rivojlanishi. O'zbekiston va Rossiyadagi tarixni "bol'shavoycha" tadqiq etish usullari. O'zbekiston va shakllanayotgan markazdagi "yangicha" tuzumning kuch siyosati haqida. Milliy-hududiy "parchalanish" yoki chegaralanishning sho'ro hukumati siyosati tarixshunosligi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimining qaror topishi tarixshunosligi. 20-30 yillarda O'zbekistonda etnografiya masalalarining o'rganilishi.

Xalqning moddiy ahvoli va ijtimoiy qiyofasidagi o'zgarishlar haqida eski va yangi adabiyotlar tarixshunosligi. O'zbekistonda arxeologiya tadqiqotlari. O'zbekiston tarixining 20 yillari ingliz tilida nashr etilgan adabiyotlari tarixshunosligi.

XX asrning dastlabki o'ttiz yilligida Germaniyada O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish. Frantsuz tarixshunosligida O'zbekiston tarixi muammolarining yoritilishi.

Kommunistlarning tarix sahifalarini "yangicha" yoritish bo'yicha, fabrikalar va zavodlar tarixi, fuqarolar urushi tarixini "bol'shavoycha" yozish haqida qarorlari va ularning oqibatlari.

XX asrning dastlabki o'ttiz yilligida O'zbekistonda tarixshunoslik jarayonlari quyidagi soxalarni qamrab oldi:

Tarixiy obidalarni muxofazasi masalasi buyicha. "Turkomstaris" tashkilotining 1921-1924 yillardagi faoliyati. Tarixshunoslikda "partiya tarixi" yo'nalishi. Turkiston MIK qoshida tuzilgan Turkistonda revolyutsion harakatni o'rganish komissiyasi "Turk Istpart" tashkil etilishi. SHO'rolar davri yangi jurnal va nashriyotlarning roli. Professor Po'lat Soliev va uning asarlari. Milliy davlatchilik masalasi tarixshunosligi "Kengash", "Najot", "Ulug' Turkiston", "Hurriyat" gazetalarida Munavvar Qori Abdurashidxonov, M.Behbudiy, A.Boytursunov, A.Buqayxonov, E.Norbo'tabekov, N.Xo'jaev, F.Xo'jaev, M.Cho'qayev va boshqalarning Turkiston kelajagiga qarashlari yoritilgan asarlari tarixshunosligi. Sulton Galiev, Zaki Validiy, Turor Risqulov va Nazir To'raqulov.

O'zbekistonda XX asr dastlabki o'ttiz yilligida tarixshunoslik. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o'rganishning asosiy yo'nalishlari. Turkiston uchun Rossiyada ro'y bergan fevral' burjua inqilobi va oktyabr davlat to'ntarishi voqealarining ta'siri tarixshunosligi. Turkiston muxtoriyati. Istiqolchilar harakati. Mustaqillik uchun kurashlar harakati tarixshunosligi. O'zbekiston madaniyati tarixshunosligining asosiy yo'nalishlari. O'ta "inqilobiy" o'zgarishlar siyosatining tanglikka uchrashi davri xisoblanadi.

50 – villarning birinchi yarmida Sovet davlatidagi siyosiy vaziyat va jamiyatni demokrativalashtirishga urinishi tarixshunosligi.

XX asrning birinchi yarmida Sovet davlati ittifoqqa qo'shib olingan barcha millat va madaniy tengsizligini bartaraf qilish yuzasidan bir qancha shularni amalga oshirgan bo'lsa-da, aslida bu xalqlarga ittifoq tarkibida majburan ushlab turish, ularni nazorat qilib turish siyosatini

olib bordi. Masalan, quyidagi hujjatda Sovet davlatining o'ziga qaram bo'lgan hududlarda qat'iy amal qilinadigan yo'riqnomasidan, bu xol ochiq yozib qoldirilgan: Boshlang'ich va o'rta maktablari, bundan ham avval, o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'ta e'tibor qozongan o'qituvchilar shidan chetlashtirilishi lozim bo'ladi. Ularnig o'miga biz tomonimizdan belgshilanadigan kishilarni qo'yish kerak. Fanlar orasidagi farq teislab yuborilishi originallar nashri cheklanishi, lotin va o'zbek tillari, umumiy filosofiya, mantiq va genetika fanlarinig o'tilmog'i to'xtatilishi shart. Tarix darslarida o'tgan siyosatdonlar kimlar vatan ravnaqi uchun xizmat qilishgani yoki xizmat qilishga urinishga burmoq lozim bo'ladi. Maxsus maktablarda mutaxassislik juda chegaralab o'tilishi kerak.

Ko'rinib turibdiki, urishdan keyin butun dunyoga kommunistik g'oya ustnligini yoyish uchun harakatlar boshlangan. Sovetlar jahon bo'ylab o'z hukmronligini o'matmoqchilar. Bu hujjat – yo'riqnomada tarixchi olimlarga ham bevosita aloqadar jumlar bor edi.. Oliy o'quv yurtlariga shunday kishilarni qabul qilish kerakki, ular halqning omi qatlamidan bo'lishsin va ularni mutaxassislik bo'yicha chuqur bilim olish emas, balki faqat diplom qiziqirsin. Demak, kommunistik mafkura milliy o'zlikni anglashni ongli ravishda buzishga harakat qilib, hayosizlarga, dalil – isbotsiz xalqning eng ongsiz bo'lib qolishini istab, O'zbekistonningsh ham yoshlarining ziyoliy kishilarining hurfikrliklarini yo'q qilishga intildi.

Bu harakatlarning boshida kommunistik partiya turar edi. O'z. KP(b) Mq byurosi 1950 yil 1 sentyabrdagi qonunlari O'zbekiston xalqlari tarixining Sovet davriga bog'ishlangan kitoblar ham yaratilmaganini tanqid qilib, "Bizda tarix masalalarida yana bir muhim kamchiliklar bor. O'zbekiston tarixi Sovet davri haqida birorta ham asar yozilgan emas". "O'zbekiston xalqlari tarixi"ning Sovet davriga bag'ishlangan uchunchi jilda va "O'zbekiston KP(b) tarixi ocherklari" juda sekin yozilmoqda. Bizning tarixchilarimiz VKP(b) ning rahbarlik va yo'l ko'rsatuvchilik rolini, O'zbekiston saqialistik negizda o'zgartirishda buyuk rus xalqi, VKP (b) Markaziy Komitet, ulug' yo'l boshchilarimiz Leninva Stalin bergan g'oyat katta yordamini har tomonlama ko'rsatib berishga alohida e'tibor qilishlari kerak, deb olimlarga tariximizni qanday yozish kerakligi haqida masus "ko'rsatma" berildi.

Mana shular natijasida, zulm va zo'ravonlikka qurilgan mustabid, beshafqat tuzum davrida o'zligini, millat qadr – qiymatini teran anglagan, ijtimoiy – siyosiy ongi yuksak, xalqni uyhotishga, halqni

boshqarishga qodir bo'lgan, ma'rifat va ma'naviyat yo'lida fidoyilik ko'rsatgan barcha aql-zakovat soxiblarining qancha-qanchalari jismonan yo'q qilindi. Bular orasida ko'plab tarixchi, sharqshunos, ziyoliy va olimlarimiz ham bor edi. Partiyaning XX s'ezdi, shaxsga sig'inish deb Stalinni qoralagan bo'lsada, hech qanaqa demokratiya haqida, erkinlak haqida ochiqchasiga gapirish mumkin emas edi.

O'zbekiston tarixshunosligining XX asr 60-80 yillaridan rivijlanishi Raxima Xadieva Aminova, Melixon Axunova Axunova, Boris Vladimirovich Lunin asarlarini o'qib bilsak bo'ladi. Tarixchi olimlar e'tiboriga molik bo'lgan bu asar, mantiqiy jixati "Istoriya istoricheskoy nauki v Uzbekistone. Kratkiy ocherk" (T,1970) asarining davomi bo'lib, kirish, oltini bobdan iboratdir. Har bir bob o'z zamonasiga mos ravishda tarix faning rivojlanish bosqichlarini ochib berishga harakat qiladi. Juda ko'p asar va ularning mualliflari haqida ma'lumotlar to'plangan muhim yo'nalishi sanalgan.

O'zbekiston kommunistik partiyasi tarixi, O'rta Osiyo yoki Turkiston o'lka bolsheviklar tashkiloti tarixshunosligi, shuningdek kolxoz va sovxozlar tarixi, zavod va fabrikalar tarixnovisligi kabi yo'nalishlar yo'qotdi. O'sha davrda partiyaning rahnomaligini yoritib beruvchi asarlar, ular yuzasidan yozilgan va yoqlangan dissertatsiyalar bugungi kunda hech qanday ilmiy ahamiyatga ega bo'lmay qoldi.

Lekin hozirgi tarixshunosligimizni o'sha davrdagi tarixchi – olimlarning ilmiy tadqiqotlarini tan olmasdan rivojlantira olmaydigan mavzu va yo'nalishlarimiz ham bor. Ana shunday o'z aktualligini saqlab turgan mavzulardan biri bu Samarqand shahri va uning yubileyini nishonlash bo'yicha o'tkazilgan ilmiy – tadqiqot ishlaridir.

O'zbekiston moddiy madaniyati tarixini o'rganish, nafaqat Vatan, mamlakat va davlatlar tarixi, balki shu mamlakat va davlatda oddiy xalq vakillari tomonidan bunyod etilgan, ularning hayoti, turmish tarzi va ijtimoiy ehtiyojlariga mos tarzda yaratilgan. Zero, er yuzadagi yoshi ikki, uch va hatto to'rt ming yillik shaharlar barmoq bilan sanarli. O'zbekiston zaminida esa bunday shaharlar ko'p. Qadimiy shaharlarimizning jahon ma'naviy taraqqiyotidagi o'mi munosib baholanayotgan ayni kunlarda mamlakatimizda Samarqand shahrining 2750 yilligiga ham katta hozirlik ko'rilayotir. Bunday halqoro miqyosidagi e'ibor va e'tirofga arziydigan tarixiy shaharlarimiz esa benixoya ko'p. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz va Toshkent kabi qadimda Kesh va Nasaf deb atalib kelgan SHahrisabz va Qarshi, Kosonsoy, Quva va boshqa o'nlab shaharlarimiz ham o'zining boy

o'tmishi, ulug' tarixi, me'moriy obidalar bilan yurtimizning shaharsozlik va davlatchilik tarixining nihoyatda qadimiyligidan dalolat beradi. SHuni hisobga olib, 2000 yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi FNning tarix, arxeologiya va O'zbekiston Respublika Badiiy Akademiyasining san'atshunoslik instituti va olimlari bilan xamkorlikda "o'zbek davlatchiligi tarixi" deb atalgan, so'nggi 3 ming yillik ulkan tarixiy davrni qamrab oluvchi fundamental ilmiy tadqiqotni yaratishga kirishildi ayniqsa, taniqli olim T.Shirinov O'zbekistonda ilk davlatlar "voha davlatchiligi", "shahar davlatlar" mesopotamiya, Misr, Xitoy, Mezoamerikadagi «Noma» davlatchiligi ka'bi bo'lgan degan g'oyani ilgari suradi.

Xaqiqatdan ham tarixiy taxlil shuni ko'rsatadiki, davlatchilik jamiyatda o'z ichki qonuyatlari asosida poydo bo'ladi, rivojlanadi. YA'ni davlat tuzilmasi tashqaridan tayyor xolda ko'chirilmaydi, ma'lum jamiyat bag'rida tug'iladi. O'zbek davlatchilik taraqqiyoti ham bundan mustasno emas.

1969-1970 yillarda o'tkazilgan Samarqanb shahrining 2500 yillik shodiyonalarida ma'lum bir ilmiy axborotlar yig'ilgan edi. Ammo bugungi tarix va arxeologiya faning rivojidan kelib chiqib, yangi tadqiqot usullari natijalariga tayanib ayta olamizki Samarqand shahri 2750 yilga munosib kutib olinadi.

1946-1985 yillar oralig'ida Markaz ideologlari tamonidan o'ylab topilgan "komunizmga erishish uchun rivojlangan sotsializmi qurish g'oyasi" kabi xayoliy va noilmiy aqidalar girdobida, butun mamlakat - SSSRda bo'lganidek, O'zbekistonda ham maorif, oliy ta'lim, ilm-fan, sanat o'ta siyosiydashgan xolda rivojlanishga majbur qilindi. Madaniyat, ayniqsa milliy madaniyat "rivoji" maxsus qolibga solib qo'yildi. Xalqning moddiy ahvoli va ishtimoiy turmushi nixoyatda qoloq darajada rivojlandi. To'g'ri sinfiylik nuqtaiy nazaridan shaharlardagi turmush darajasi qishloqdagi ahvoldan keskin farq qilar edi. Ammo esdan chiqarmasligimiz kerakki, mamlakat aholisining 60% dan ortig'i qishloqlarda istixomat qiladi.

Soxta prolitar baynalminallikni kuchaytirish maqsadida maktablarda rus tili va adabiyotni kengroq o'qitishga o'rgu beriladi. Natijadi 60 yillarda O'zbekiston tarixi darslari xajmi keskin qisqaradi. Nixoyatda boy va ko'xna O'zbek xalqi tarixini o'rganishga 52 soat ajratilgan xolda boshlang'ich maktablarda rus tili va adabiyot predmentlari uchun 1600 soat ajratildi. 1970-1980 yillarda xalq ta'limi uchun davlat tomonidan ajratilgan mavlag' 11% dan 8% gacha kamayib

ketdi. Respublikaning barcha viloyatlardagi maktablarning 20-60% ni tarvur o'quv qurollari, asbob - anjomlar bilan jixozlanmay qolaverdi, 50% dan ortiq maktablarda issiq ovqat, bufetlari tashkil etilmadi. Kuni uzaytirilgan guruhlar ishi ayniqsa o'lda - jo'lda qoldi. 70 - 80 yillarda 1 - 8 sinf o'quvchilarning atigi 8-9 % ni bunday guruhlariga jalb etilgan edi, xolos. Maktablardagi tarbiya evropa tarixi misolida olib borildi. Maktab bolalarini paxta va boshqa qishloq xo'jalik ishlariga jalb qilinishi natijasida, o'quvchilarning o'quv rejasidagi soatlarni o'zlashtira olmasligi odatiy xol bo'lib qoldi.

Bu davrda xalqning moddiy axvolini o'rganish va ijtimoiy ahvolni o'rganish ochiqchasiga xaqqoniy ravishda olib borilmas edi. Agar ochiqchasiga aytadigan bo'lsak, 2 jaxon urishidan keyin xalq xo'jaligini tiklash xam osanlikcha kechgani yo'q. Nixoyat 60-70 yillarda ham oziq ovqat borasida sezilarli darajada katta qiyinchiliklar ro'y bermadi. Ammo oylik maosh bilan ro'zg'orni bemalol tebratish xammaga ham, xech bir qo'rqmasdan aytish mumkinki, ko'pchilikka nasib etmagandi. Uzoq yillar davomida etishmovchilik va nochorlikda yashab kelgan xalq "qorin to'ysa bas" qabilida kun kechirardi. Bundan umumxalq soniga nisbatan kamchilikni tashkil etgan katta maoshli va mifizli tabaqa vakillari mustasno albatta. Brejnev raxbarligining oxirgi yillariga kelib, nisbatan to'qchilik va arzonchilik sharoiti o'zgara borib oziq-ovqat turlari kamayib asta-sekin to'qchilik yuzaga kela boshlaganligini, bazi bir narxlarning oshib borishi xolatlarini kuzatildi. Xuddiy manashu davrda sovet davlati chetga milyard-milyard dollorga neft sotib uning xisobiga mamlakatni ma'lum darajada oziq-ovqat bilan taminlashga majbur bo'lgan edi. Jaxon bozorida neftning narxi arzonlashishi, mamlakatda uni qazib olishdagi qiyinchiliklar orqasida, chetdan oziq ovqat keltirish tobora ozayib borganligi ham XX asrning 60-80 yillari tarixi guvovdir.

Bu tez orada iqtisodiyotda katta qiyinchiliklarni yuzaga keltirib, qammatchilikni boshlanishiga olib keldi. Umuman olganda esa bir necha 10 yillar davomida oziq-ovqat masalasini xal etishni sovet davlati uddalay olmadi. Buni qarangki O'zbekiston to'nalab oltin va shu kabi nodir qazilma boyliklar tashib ketildi, ammo undan baxramand bo'lish u yoqda tursin, xatto xisobini ham aytmay haqiqat egasidan berkitildi. Xalqimiz o'z eri qaridan chiqqan gaz, o'z daryolaridan ichimlik sifatda foydalana olmadi. Tarixshunosligimizning ham eng dolzar vazifasi ushbu muammolarni xaqqoniy yoritish edi.

Malumki tarix fani ishtimoiy siyosiy iqtisodiy va manaviy xayotining taxlilchisi sifatida jamiyat taraqqiyotining muxim tamonlarini ibrat tarozisida o'lchab bermog'i lozim. Lekin, bugungi mintaqaviy qo'shni va qardosh xalqlar o'rtasidagi munosabatlari doyrasida o'zora yordam, bir-biriga ko'makdoshlik ananalari bilan bu qatorda, tarixga munosabat masalarida ayrim maxdud milliy yondashuvlarni olg'a surishga, yaxlid tarixshunosligimizni o'zlariga qulay shaklda tor millatchilik ruxida talqin qilishga urinishlar uchramoqda. Bunday qarashlar xaqiqiy ilmiy nuqtaiy nazardan obektev olimlar tomonidan fosh etilmoqda. Chunki bir tarixiy sharoidda yashab kelgan bir xil iqtisodiy, siyosiy madaniy-manaviy jarayoni boshidan kechirib bir xil tafakkur meyorlariga ega bo'lgan birodar xalqlarni bugun "sen emas, men" ruxida qarama qarshi qo'yish xech qanday mantiqqa mos kelmaydi. Buni agar olimlar qilsa, ilmiy xaqiqat oldidagina emas, balki vijdon oldida ham javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi olimlari yangi, xar tamonlama olis ilmiy yondoshuv asosida ko'p jildli "O'zbekiston tarixini" yozishga kirishdilar. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojigiston va Turkmaniston olimlari tamonidan ham xuddiy shunga o'xshash nashrlarni amalga oshirishga kirilishmoqda.

Lekin xozir markaziy Osiyodagi barcha xalqlarning tarixiy yutiqlarini faqat bir xalqniki qilib ko'rsati xisobiga o'z davlatchiligi tarixini qadimiylashtirishga urinish bemaniylik darajasiga borib etdi.

Kishini ajablantiradigan narsa shuki, xalqlar tarixini maxsus tadqiqodlar vositasida yoritayotgan olimlar qatoriga davlat arboblari ham qo'shilib qolmoqdalar. Afsuski ularning xaddan tashqari extiroslariga berilishi va o'z xalqi tarixini ko'tarinki ruxta ko'satishga urinishi ba'zida yaqqol ko'rinib turgan tarixni o'zgartirish, xalqlarning o'zoro aloqalariga etarli darajada ba'xo bermaslik hamda alohida xodisalar va shaxslarni idiallashtirish bilan qo'shib olib borildi. Bu narsa xususan, davlatchilik tarixi va tsivilizasiyalar rivoji masalariga ta'luqli. Bunday tadqiqodlarning davlat raxbarlari qalamiga mansusligi esa jamiyat ongiga eng so'ngi bosqichdagi xaqiqat siqatida ta'sir ko'rsatib, ularga siyosiy tus beradi. Ayni paytda, aytaylik Saparmurod Turkman boshining "Ruxnoma" kitobida 5 ming yil muqaddam bu xududda xorazm orqali volgacha cho'zilgan qadimiy - o'g'iz - turkman davlati "O'g'izxon turkman saltanati" xukum surganligi davo qilinadi. O'z fikrining dalili sifatida muallif mazkur arealda o'q va yoyning keng tarqalganligini keltirada. Xolbuki bunday davlat fanga ma'lum emas, bu

qadimiy qurol turi esa mis davridan boshlab butun Evropa va Osiyoda tarqalgan.

Ko'chmanchi charvodor xalqlarning davlatchiligi va tsivilizatsiyasi muammolari nixoyatda murakkab. SHunga qaramay, Asqar Akaevning "Qirg'iz davlatchiligi va "Manas" xalq eposi" kitobida qirg'iz davlatchiligi ko'p asrlar mabaynida ko'chib yurib, nixoyat xozirgi Qirg'iziston xududida qaytadan vujudga kelgan bo'lishi mumkin degan fikrni ilgari suradi. Asqar Akaev eramizdan avvalgi II-I asrlarda xitoy sarkardasi Li Linning turli xalqlar qatori, Enisey qirg'izlari ham yashagan Enisey xavzasiga xunlar noibi vazifasini bajarish uchun tayinlanishi ilk qirg'iz davlatining shakillanishidan darak beradi, deb hisoblaydi. Li Lin orqali ushbu saltanatni eramizning VII-X asrlarida hukumronlik qilgan xitoy sulolalari bilan qon-qarindoshlik rishtalari vositasida bohlashga xarakat qilinadi.

Aslida esa, tarkibiga Mo'g'iliston va Enisey qirg'izlari kirgan ko'chmanchi xalqlarning ko'p sonli birlashmalari orqali eramizdan avvalgi birinchi asrlardagi Li Linning noyibli bilan eramizning IX asrdagi Qirg'iz davlatining o'zoro bog'lash mumkin emas.

CHinakkam olim xar bir fikrni nayob xujjatlar, manbaalar asosida mantiqiy isbotlaydi. Tarix ilmi, tarix haqiqati shuni taqoza qiladi. Ammo O'rta Osiyo, xususan turkiy qavmlar tarixini soxtalashtiruvchi, tarix xaqiqatini buzub ko'rsatuvchi kitoblar tez-tez paydo bo'lib turibdi. Qirg'izistonlik olim R.Raxmonaliev qalamiga mansub "Turkiy saltanatlar" (Maskva, "Progres" nashriyoti, 2002 yil) tadqiqoti anashunday asarlar jumlasiga kiradi. Ochig'ini aytganda, bu kitob bir qancha jixatlari bilan diqqatni tortadi. Rustam Raxmonovning tadqiqoti ezgu tilak yo'lida yozilganiga shubxa yo'q. Lekin uning g'ayri ilmiy, noto'g'ri g'ayri ilmiy fikrlariga munosabatimiz bor. Masalan, kitobning 18 betida shunday xulosa chiqarilgan: "Vse ariytsi, katorie sanranili vernost' drevnim bogam, stali turantsami, a storonnika Zarastustri - prantsami. Tak sovershilas' razdelenie na Iron i Turon". Agar xamma oriy bo'lsa turklar qaerdan, osmondan tushganmi?

Mualif kitobining 527 betida Amir Temur faoliyati xususida so'z yuritib, sho'ro davrida tarixchilarning soxta qarashlarini takrorlaydi. Eng yomoni muallif kitobida ko'chirmachilikga ham yo'l qo'yadi.

Ko'p to'mlik O'rta Osiyo Respublikalarining eng yangi, xaqqoni tarixini yorituvchi asarlarni yaratish zarur, qolavesa davr talabidir. Zero bugun O'rta Osiyo axolisini tashkil etgan barcha xalqlar,

dunyo tsivilizatsiyasining yirik o'chog'i xisoblangan bu mintaqa boy tarixiy o'tmishning vorislari ekanliklarini esta tutish zarur.

Bu xalqlarning kelajagi, tarixshunos olimlarga ham bog'liqkim, tarixnovislarimiz o'tmishini asliga muvofiq tiklash shunga qanchalik professional yondoshishimizga ko'p darajada bog'liq.

Mustaqillik yillarida o'lka xalqlarining ozodlik va mustakillik uchun olib borgan ko'p asrlilik kurashi tarixi, shu jumladan, milliy ozodlik kurashi mafkurasining hozirgi davlat mustaqilligiga zamin hozirlagan omil sifatida shakllanishi tarixi chuqur va har tomonlama yoritib berildi.

Mazkur muammoning o'ziga xos aspektlaridan biri O'zbekistonning XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi tarixi bo'lib, ushbu davmi ijtimoiy-siyosiy oqimlarning, xususan, o'lkaning ilg'or milliy ziyolilari harakati -jadidchilikning genezisi va evolyutsiyasini ob'ektiv o'rganmasdan turib tasavvur etib bo'lmaydi.

Hozirga qadar bu borada mavjud adabiyotlarni biz shartli ravishda uch guruhga bo'lib o'rgandik: Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida e'lon qilingan ishlar, sovet mustabid tuzumi davrida yaratilgan tadqiqotlar, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar.

Birinchi guruhga oid ishlarga xos asosiy xususiyatlar shundan iboratki, ularning mualliflari mazkur jarayonlar yuz bergan davrda yashagan kishilar bo'lib, ularni o'z ko'zlari bilan ko'rgan, ularda ishtirok etgai triik guvohlardir. Bu ishlar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'rta Osiyda yuz bergan tarixiy voqealar bilan izma-iz yaratilgan. Ular qatoriga I. Gas-prinskiy, M. Behbudiy, Munavvar Qori, A. Avloniy, A. Fitrat, shuningdek N.P. Ostroumov, S.M. Duxovskoy va boshqalarning asarlari kiradi.

Uzoq yillar davomida jadidchilik harakati tarixi sovet tarixshunosligida bir ekdama, negativ nuqtai nazardan yoritib kelindi. Sovet davrida mavjud bo'lgan mafkuraviy va ma'muriy iazorat tadqiqotchilarga o'z ijodiy tafakkurini to'liq namoyon etish imkonini bermas, yuz bergan voqealar partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan yoritilar edi. Aynan shuning uchun aksariyat mualliflar milliy taraqqiyparvarlarning nashrlari va asarlari e'tibordan soqit qilgan holda ushbu harakatning "konservativ-liligi", "mayda burjua" xarakteriga ega ekanligini haqida asossiz xulosalar chiqardilar. SHunga qaramasdan ko'p sonli manbalar ilmiy iste'molga kiritildi, faktik material to'plapdi va agar ushbu material tanqidiy idrok etiladigan bo'lsa u haqqoniy tarixni tiklashning muhim omili bo'lib xizmat qilishi mumkin.

20-yillarda Turkistondagi jadidchilik harakatining vujudga kelishi jarayonlarini xolis tahlil qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar amalga oshirildi. G. Safarov o'zining "Mustamlaka inqilobi" nomli asarida jadidchilikni musulmonlar o'rtasida milliy o'z taqdirini o'zi belgalash mafkurasining asosiy ustuvorliklarining shakllanishiga xizmat qilgan "progressiv-milliy harakat" sifatida baholaydi.

O'rta Osiyo jadidchiligi tarixi F. Xo'jaev, R. Inog'omov, P. Galuzo kabi mualliflar tomonidan ham ko'rib chiqilgan.

Ushbu muammo sovet davrining keyingi yillarida ham yoritildi. Biroq mazkur tadqiqotlar kommunistik mafkura va shafqatsiz tsenzura hukmronligi davrida yaratildi va shu sababli jadidchilik ularda salbiy tavsiflandi.

L. Klimovichning «Islam v tsarskoy Rossii» nomli kitobida islom dinining Rossiya imperiyasi, shu jumladan O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy hayotidagi o'rni va roli yoritib beriladi. Islomdagi islohotchilik oqimlarini tavsiflar ekan, muallif sinfiy yondashuv doirasidan chikmagan holda jadidlarni burjuaziya manfaatlarini ifoda etuvchilar sifatida baholagan, biroq, shu bilan bir vaqtda u jadidchilarning jamiyatni islox qilishdagi xizmatlarini ham e'tirof etadi.

Tadqiqotchi YA.G. Abdullin ma'rifatparvarlik harakatiga butunlay boshqacha baho berdi va jadidchilikni panislamizm bilan bir narsa deb hisoblashga qarshi chikdi. Uning fikriga ko'ra, jadidlar faqat islom asosida, musulmonlarning diniy rahnamosi sifatida xalifa hukmronligi ostida birlashishga chaqirmaganlar, balki taraqqiyotga olib boruvchi yo'l bilimlar va ilg'or madaniyatni tarkatish, o'zining milliy hududida islohotlarni amalga oshirish orkali o'tadi, deb xisoblaganlar va harakatning vazifalari ana shu qarashlarga muvofiq ravishda belgilangan.

XX asrning 80-yillarning oxiri - 90-yillari boshida ushbu muammo tarixshunosligida va umuman tarix fanida sinfiy yondashuvdan muayyan darajada voz kechish ko'zga tashlandi va jadidchilik mintaqa xalqlarining mustaqillik uchun olib borgan kurashining tarkibiy qismi sifatida qaraldi. Ushbu davrda ma'rifatparvarlik harakatining ob'ektiv tarixini yaratish, uni soxtalashtirishlar va sarkitlardan xalos etishga qaratilgan urinishlar kuzatildi. Biroq, jadidlarning diniy qarashlari haqidagi masala alohida muammo sifatida ajralib ko'rsatilmoqda.

Jadidchilik harakatining mohiyatini ochib berishda adabiyotshunos olimlar tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Ularning mualliflari birinchilardan bo'lib yuqoridagi muammoni

o'rganishga kirishdilar va o'zlarining asosiy diqqat-e'tiborlarini jadidlarning ma'rifatparvarlik hamda adabiy faoliyatiga qaratdilar.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda milliy-ozodlik harakatlari, shu jumladan, jadidchilik tarixini o'rganishga vatanimiz tarixchi olimlari salmoqli hissa qo'shdilar. SHu nuqta nazardan D.A. Alimovning tadqiqotlari, xususan, uning Turkiston jadidchiligi taniqli vakillarining ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bagishlangan ishlari alohida ahamiyatga molikdir. U mamlakatimiz tarix fanida birinchilardan bo'lib, islohotchilik harakatining tarixiy mohiyatini ob'ektiv baholashga harakat qildi, uni davrlashtirdi va ilg'or ziyolilarning intellektual dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflab berdi.

Mazkur muammo tarixshunosligiga qo'shilgan yana bir muhim hissa D.A. Alimovning «Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. Fenomen djadidizma» nomli umumlashtiruvchi asari bo'lib, unda O'zbekistonda ilk bora milliy taraqqiyparvarlik harakatining mohiyati va uning Markaziy Osiyo xalqlari tarixida tutgan o'rni kompleks tarzda tadqiq etilgan, Turkiston va Buxoro taraqqiyparvarlarining qarashlarining o'ziga xosligi aks ettirilgan, jadidchilikning ma'rifatparvarlikdan qudratli siyosiy xarakterga evolyutsiyasi ochib berilgan. SHuningdek, mazkur asarda ilk bora milliy taraqqiyparvarlik harakati namoyandalarning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar rus tilida chop etilgan.

Jadidchilik rivojlanishining siyosiy bosqichi S.S. A'zamxo'jaev tadqiqotlari uchun ob'ekt bo'ldi. Turkistonda birinchi milliy demokratik davlatchilik - Turkiston Muxtoriyatining tashkil topish tarixini tahlil qilar ekan, muallif o'lka musulmon aholisining jipslashuv jarayonlarini batafsil yoritadi, unda jadidlarning o'rni va rolini belgilab beradi.

R.M. Abdullaevning ishlarida «Padarkush», «Gayrat», «Tarakkiy-par-var», «Barakat», «SHuroi islomiya» kabi milliy tashkilotlarning shakllanishi va faoliyati yangi faktologik manbalar asosida tadqiq etilgan. Muallifning fikriga ko'ra, sof diniy xarakterdagi masalalarda jadidlar xatiyotkorlik va vazminlik ko'rsatishga majbur bo'lganlar va bunda ular Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni va diniy-ma'naviy kayfiyatni xisobga olganlar.

Mazkur muammo tarixshunosligiga qo'shilgan yana bir muhim hissa D.H. Ziyoevaning tadqiqotlari bo'lib, ularda kata va keng miqyosdagi material asosida ma'rifatparvarlarning Turkistondagi 1916 yil qo'zg'oloniga bo'lgan munosabatiga baho beriladi.

S. Xolboev tadqiqotlarida esa Munavvar Qorining ma'rifatparvarlik va siyosiy faoliyati ko'rib chiqilgan hamda O'rta Osiyoda oliy ta'lim tizimining vujudga kelishi va rivojlanishida jadidlarning roli ko'rsatib berilgan.

Milliy ozodlik harakatining asosiy yo'nalishlarini muhokama qilish, hamkorlikdagi ishlanmalar loyihalarini ishlab chiqish maqsadida o'tkazilgan bir qator ilmiy-amaliy tadbirlar jadidchilik tarixiga oid tadqiqotlarning faollashtirishiga xizmat qildi.

O'zR FA Tarix instituti tomonidan «Jadidchilik: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash» nomli jamoaviy monografiyaning nashr etilishi milliy taraqqiyparvarlik harakati tarixini o'rganishga qo'shilgan jiddiy hissa bo'ldi. Mazkur tadqiqotda O'rta Osiyoda jadidchilikning ildizlaridan boshlab to uning siyosiy harakat sifatida shakllanishi va rivojlanishiga qadar bo'lgan evolyutsiyasi ilgari ma'lum bo'lmagan tarixiy materiallar asosida tahlil qilingan.

Respublikamiz tarixchi va adabiyotshunos olimlari majmuaviy tadqiqotlarining natijasi o'larok ma'rifatparvarlik harakati etakchilarining «Tanlangan asarlar»i nashr etildi.

Jadidchilik tarixiga oid bir qator masalalar A.M. Xudoyqulov, T.N. Kozakov, K.A. Vohidova, D.N. Rajabova, M.U. Qayumov, D.M. Kenjaev va R.N. Tursunovlarning ko'rib chiqilayotgan tarixshunoslik davrida tayyorlangan dissertatsion tadqiqotlarida ko'tarib chiqildi.

Tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, Rossiya imperiyasi hukum-onligi davrida e'lon qilingan ishlar, sovet mustabid tuzumi davrida yaratilgan tadqiqotlardan farqli ravishda, mustaqillik davridagi tarix fani jadidchilik harakatiga kontseptual yondoshuv masalalariga to'liq oydinlik kiritdi va jadidchilikni faqat madaniy-ma'rifiy harakat sifa-tidagina emas, balki kuchli milliy-demokratik taraqqiyparvarlik harakati sifatida ta'rifladi. So'ngi yillarda yaratilgan tadqiqotlarda umuman milliy ozodlik harakatining tarkibiy qismi bo'lib kolgan ushbu fenomen-ning tabiati, asosiy harakatga keltiruvchi kuchlari va etakchilari ko'rsatib berildi. Xozirgi paytga kelib tarixchi olimlar va adabiyotshunoslar tomo-nidan muammoning ko'plab aspektlari: progressiv harakatning yuzaga keli-shi sabablari, O'rta Osiyolik islohotchilarning dunyoqarashlari, ularning ma'rifatparvarlik faoliyati, adabiyoti, dramaturgiyasi, musiqasi, musulmon dunyosi bilan integratsiyasi hamda muammoning tarixiy-siyosiy aspektlari, shu bilan bir vaktida jadidlarning dinga, xususan islom diniga va uning kadriyatlariga munosabati, bu borada ular taklif qilgan islohotlar hamda

jadidlarning sa'y-harakatlari tufayli odamlar ongida yuz bergan ijobiy siljishlar o'rganildi.

Tarixshunoslik fani nuqtai nazaridan qaraganda O'zbekiston tarixini yoritishda tarixiy xaritalarning ahamiyati benixoya kattadir. Sovet davri ilmiy adabiyotlarida evropalik kartograflarning O'rta Osiyoga oid kartalari dastlab o'tgan asrning 60-yillarida V.N. Fedchina tomonidan yaratilgan monografiyada tadqiq etildi. Muallif o'rta asrlar davriga doir kartalar tahlilini 1320 yilda tuzilgan Petr Viskonti kartasidan boshlagan (odatda venetsiyalik Marino Saiudo kartasi deb ham ataladi). Kartaning tuzilishi, unda aks ettirilish manzillar antik mualliflar, asosan Ptolemey ma'lumotlariga ko'ra berilganligi batafsil aytib o'tilgan. Shuningdek, asarda Katalon, Fra Mauro kartalarining tuzilishi, geografik manzillarning qay tarzda aks ettirilganligi ham qisqacha keltirilgan.

CH.V. Galkov, R.U. Rahimbekov, R.L. YUgay, T.M. Mirzaliev va boshqa-larniig tadqiqotlarida ham Pyotr Viskonti, Kataloi, Fra Mauro kartalari-dagi O'rta Osiyoga oid ma'lumotlar taxlil qilinib, ular o'z davri uchun ahamiyatli ekanligi va keyingi kartografik tadqiqotlar uchun poydevor bo'lib xizmat qilganligi ta'kidlangan.

CH.V. Galkov, R.U. Rahimbekov, R.L. YUgaylarning "O'zbekiston karta-lari" ko'llanmasida (1975 yil) Katalon kartasi (1375 yil) 3-4 qatorli tavsifdan iborat. Unda Kataloniyada tuzilgan kartada Amudaryo berilganligi, Orol dengizi ko'rsatilmaganligi, Issiqko'l aks ettirilganligi ma'lum qilingan, xolos.

T.M. Mirzaliev SH.M. Muxitdinov A. Bazarbaevlarning 1990 yilda chop ettirgan "Atlasnoe kartografirovaniye v Uzbekskoy SSR" nomli kitobida ham venetsiyalik kartograf Fra Mauro kartasi (1459 yil) haqida ma'lumot berilib, faduslar to'ridan foydalanilmaganligi, kartada O'rta Osiyo hududi ancha to'g'ri aks ettirilganligi qayd etilgan.

XVI - XVII asrlarda Garbiy Evroiada O'rta Osiyo haqidagi tarixiy-kartografik ma'lumotlarning taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, bu davrda O'rta Osiyo hududi aks ettirilgan kartalar mazmuni ancha boyidi. Ulardagi ma'lumotlar ancha keng bo'lib, tasvirlangan hududlar haqiqatga yaqin edi.

XVI asrda Garbiy Evropada shakllangan tarixiy kartografiya fani esa O'rta Osiyoning tarixiy kartalarini yaratishda noto'g'ri tasavvurlarga chek qo'ydi. Bu davrning tarixiy-kartografik ma'lumotlari YU.V. Gote, L.S. Berg, N. Korjenevskiy, B.P. Ditmar, H. Hasanov, V.K. YAtsumskiy, B.P. Polevoy, va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilib, asosan

Antoniya Jenkinson, Abraxam Orteliy, Goidius, Nikolay Vitsen, Daniil Giotlib Messershmidlarning O'rta Osiyoga oid tarixiy kartalari va ulardagi ma'lumotlar tahlil etilgan. Ushbu tadqiqotlar XU-XVIII asrlarda G'arbiy Evropada O'rta Osiyoga oid tarixiy-kartografik manbalar mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganligi hamda ancha boyiganligini ko'rsatadi.

XVI asrda ingliz savdogari Antoniia Jenkinsonning "Jenkinsonning 1562 yilgi Rossiya kartasi" deb nomlangan asari 1562 yilda Londonda chop etilgan. Jenkinson O'rta Osiyoga 1558 - 1599 yillarda kelgan bo'lib, uning sayohat yo'li Mang'ishloq yarim orolidan boshlangan; so'ngra Xivaga, u erdan esa Buxoroga kelgan. Aslida Jenkinson Moskva davlati bilan savdo qiluvchi Angliya kompaniyasining vakili edi. U 1557 yilda Xitoyga boradigan qadimgi savdo yo'lini qidirib aniqlash maqsadida sharqqa yuboriladi. Chunki Xitoyga boradigan dengiz yo'lini portugallar egallab olganligidan inglizlar boshqa yo'l qidirishga kirishgan edilar. Bu haqda geograf olim H. Hasanov o'zining "O'rta Osiyoga sayohatlar" nomli risolasida alohida to'xtalib o'tgan.

A. Jenkinson kartasidagi izobli yozuvlar e'tiborga loyiq. Samarqand shahri haqida quyidagi ma'lumot keltirilgan: "Samarqand Tatarlarning doimiy poytaxti bo'lib kelgan; hozirda u xaroba, qadimgi izlar bilan qorishgan bir holda. U erda Temur dafn etilgan bo'lib, u o'z davrida turk imperatori Boyazidni asirga olgan edi". Ushbu matndagi va umuman so'nggi o'rta asrlar davrida yaratilgan kartalarning barchasida O'rta Osiyo hududi

B.P. Ditmar tomonidan 1945 yilda yozilgan "Istoricheskiy ocherk izobrajeniya territorii SSSR v inostrannoy kartografii do XVIII veka" nomli maqolasida XVI asrning eng yaxshi hisoblangan Jenkinson kartasi, bir necha bor nashr etilgan va keng tarqalganligi ta'kidlansa-da, undagi O'rta Osiyoga oid ma'lumotlar tahlili berilmagan.

V.K. YAtsumskiy XIV - XVIII asrlarda tarixiy geografiyaning shakllanishi va rivojlanishigi doir fundamental asarida flamand kartografi Abraxam Orteliy 1570 yilda o'zining 70 ta kartadan iborat dunyo atlasini chop qildirganligi, unda jamlangan kartalarning asosiy qismi Evropa mamlakatlari haqida bo'lsada, ularda Rossiya, xususan O'rta Osiyo hududlari ham aks ettirilgan karta ham borligini, bu karta esa o'z navbatida 1562 yilgi Jenkinson kartasidan foydalangan holda tuzilganligini ma'lum qilgan.

L. Orteliy tuzgan atlasning 27-kartasi ("Buyuk Aleksandr Makedonskiyning yurishlari") deb nomlanib, unda Aleksandr

Makedopskiyning yurishlari emas, uniing istilolari bo'lgan mamlakatlar aks ettirilgan. Unda O'rta Osiyo hududi ham aks ettirilgan bo'lib, hozirgi Samarqandning eski nomi deb atalgan Marakand, Oks va YAkson daryolarining Kaspiyga kuyilishi berilish, Orol dengizi umuman ko'rsatilmagan.

V.K. YAtsunskiy asari aynan O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi va kartografiyasiga bag'ishlanmaganligi bois ham unda ushbu hududga doir yuqoridagi kartaga to'xtab o'tilgan. Olimping keyingi barcha tadqiqotlarida ham O'rta Osiyo masalasi ko'tarilmagan.

O'tgan asrning 40-yillarida O'zFA kartografik byurosida saqlangan O'rta Osiyo hududlari aks ettirilgan eski 12 ta kartani (4 tasi o'rta asrlarda yaratilgan) topib o'rgangan N. Korjenevskiy ulardan biri A. Orteliyga tegishli bo'lib, u 1570 yilda tuzilganligini aniqlagan. Korjenevskiy ushbu karta Sibir va O'rta Osiyo sirlarini aks ettirgan ilk bosma karta bo'lib hisoblanishini, uning hajmi, Kaspiy dengizi) dumaloqroq, kengroq shaklda berilganligi, unga Sirdaryo - Qizil) va janubdan Amudaryo quyilganligini yozib, Amudaryoning o'ng tomonidan unga kuyiluvchi va kartada nomlanmagan irmog'i bo'yida Samarqand shahri bo'lib, unda: ("Samarqand buyuk Tsmurning taxti joylashgan shahar") degan yozuvlar borligini yozadi.

N. Korjsnevskiy yuqoridagi maqolasida Gondiusning 1606 yilda tuzgan "Tatariya" kartasi haqida ham to'xtalib, unda O'rta Osiyoning Toshkent, Samarqand, Termiz shaharlari berilganligini qayd etgan.

B.P. Polsvoyning 60-70-yillarda chop ettirgan maqolalarda gollandiyalik Nikolay Vitsen kartalari tahlil etilgan. Muallif 1664 - 1665 yillarda N. Vitsenning Moskvaga tashrifidan so'ng Tatariyaning katta kartasini yaratishga kirishganligini, kartaning asosini 1667 yilda R'ossiyada tuzilgan "Godunov" chizmasidan olganligini ta'kidlaydi. Ammo, ushbu kartalarning barcha mashhur nusxalari bilan solishtirganda ular orasida deyarli o'xshashlik yo'qligi ma'lum bo'ladi.

Mashhur rus gsografi L.S. Berg o'zining Kaspiy dengizining dastlabki kartalariga bag'ishlangan maqolasida N. Vitsen kartasiga ham kishqacha to'xtalib, undagi ma'lumotlar rus klassik kartalaridagi aniq va Jenkinson kartasi bilan bog'liq ba'zi aralash nomlardan olinganligini apcha oldinroq yozib qoldirganligini ta'kidlash kerak.

Sovet davrida yaratilgan yuqoridagi tarixiy-geografik adabiyotlarni tahlil etish, avvalo mazkur asarlar uzoq yillar davomida informativ xususiyat kasb etib qolaverganligi, kartalardagi ijtimoiy-siesiy, etnik va harbiy tarixga oid ma'lumotlar tarixiy tadqiqotlar, turli darsliklar

yaratishda faol qo'llanilmagan. Ularda tarixiy kartalarni mazmuni jihatidan klassifikatsiyalangan holda berilmaganligi, Urta Osiyoning o'rta asrlar tarixiy shart-sharoitlaridan ko'ra ko'proq geografik omillarga bog'liq berilganligi uchun ham tarixchilarning e'tiboridai uzakda qolib kelgan-ligi asosiy sabablardan biridir. Vaholanki, sobiq Ittifokning markaziy hududlari aks ettirilgan tarixiy kartalar kichik gsografik tomonlar doirasida alohida o'rganilgailigiga qaramay, O'rga Osiyga tegishli kartalar yuzasidan chuqur izlanishlar olib borilmadi, G'arbda allaqachon ommalashgan bu ilmiy yo'nalish uzoq yillar davomida bizda deyarli rivojlanmay keldi. SHu bilan birga tarixiy kartalarda O'rta Osiyo hududida qayd etilgan toponimik ma'lumotlar ham tahlil etilmaganligipi ko'rsatib o'tish o'rindir. Ma'muriy chegaralar, etnonim va etiotoponimlar ham asosiy ob'ekt sifatida o'rganilmaganligi esa mazkur yo'naligdgagi gadqiqotlar zamonaviy tvrix fanining munbashunoslik va tarixshunosligi nuqtai nazaridan hamon dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolayottanligini bildiradi.

XX asrning 20-yillari madaniyat tarixshunos l igida eng mashaqatli va ziddiyatli davr bulib, bu xususiyat mazkur masalaga oid tarixiy adabiyotlarda ham uz aksini toptan edi. Zotan, bu yillarda yashab, ijod etgan mualliflar bevosita sodir bulayotgan jarayonlarning tirik guvohiga aylangan, bulib utayotgan voqealarga uzlarining ob'etiv baholarini berib borgan edilar. Albatta, bunday imkoniyatlar, muqobil fikrlarning aytilishi hali totalitar rejimning u kadar kuchga kirmaganligi bilan belgilanadi)va shuning uchun xam biz bugungi kunda sermazmun, faktlarga boy, sovet sistemasining, ayniqsa madaniyat sohasida olib borgan siyosatiga tanqidiy munosabatlar ochsh bildirilgan qiziqarli maqolalarga egamiz.

Turkistonda «maorif», «maktab», «o'qituvchilar» muammosi XX asrning boshlaridayoq echilishi lozim bo'lgan eng dolzarb masalalardan hisoblangan va usha davrda jadidchilik harakati deb nom olgan oqim vakillari mamlakat, xalqning taraqqiyoti uchun birinchi navbatda maorif hamda ta'lim-tarbiyani tubdan uzgartirish, yangi maktab tuzish, ularni boshqarish masalalarini asosiy uringa kutargan edilar. SHubhasiz, bu muammolar jadidlar matbuotining ham ustuvor mavzusiga aylangan. Biroq, Turkistonda Oktyabr tuntarishidan sung hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar mamlakatning ma'naviy qayotida, ayniqsa maorif sohasida «tubdan yangilanish», ya'ni ilgariidan mavjud bulib kelgan barcha turdagi uquv muassasalarini yuq qilish, o'quv-tarbiya jarayonini siyosiyilashtirish, proletar royasini tarrib qilish va uning hokimligini

urnatish kabi maqsadlarni kuzlagan edilar. CHunonchi, ulkada tuzilgan Maorif Xalq Komissarligi tarkibida dastlab mahalliy millat vakillarining kiritilmaganligi va musulmon maorifiga e'tibor sustligi usha davr matbuoti saxifalarida keskin tanqidga uchradi.

Turkisto ma'orifi tarixi saxilari xam tarixshunoslikdagi muxim soxalardan xisoblanadi. Egorovning qalamiga mansub bulgan «Turkiston musulmonlarning maorifi haqida deb nomlangan maqola bu haqda to'laonli tassavurni beradi. Turkiston shart sharoitidan kelib chiqqan holda ushbu maqola muallfi maorif sohasidagi kamchiliklarni ochishga harakat qiladi. Uning yozishicha "Respublika maktablari rus va boshqa mayda millat vakillari uchun ommabop bo'lsada musulmonlar son jihatidan ustunligiga qaramay (aholining 95% musulmonlar) ular uchun deyarli hech narsa qilinmadi ...va bunga sabab, birinchidan ommaning eski hayyot tariziga o'rganganligi, ikkinchidan ularning etarli darajada uyushmaganligi va buning natijasida ular orasida maorif komissarining yo'qligi va uchunchidan, O'lka Maorif Xalq Kamissariyatining noto'g'ri tuzulganligi bo'lib, u ham xuddi chorizm davridagidek musulmonlar maorifiga e'tibor bermay qo'l orasidan qarash yo'ligi o'tib olganligida edi". O'lka Maorif Xalq Kamissariyatining nazoratida faqat respublika xarakteriga ega bo'lgan maktablar bo'lib, o'lka musulmonlari uchun faqat 100-130 ta unday maktablar ochilgan. Bundan tashqari bu maktablarda etti yillik o'miga faqatgina 1yoki 2 yillik boshlang'ich sinflar ochilgan bo'lib, ularning hammasi ham umumrespublika maktablariga aylantirmagan, mahalliy musulmon aholisi esa maktab va madrasalarda o'qishni davom ettirib ularda yilliga 50.000 ga yaqin musulmon ta'lim olar edi. F.Egorovni ta'kidlashicha, bu maktablarning ishlariga aralashmaslik yoki to'g'ridan-to'g'ri 50 yillik chorizm davridagidek, umuman tan olmaslik printsiplariga qo'llanilgan. O'lka Maorif Xalq Kamissarligi huzurida ularga o'rin berilmagan, birlashtiruvchi tashkilotga ega bo'lmay ular o'z hollariga tashlab qo'yilgan. CHunki bu maktablarga din o'qitilishi munosibati bilan ularni tubdan o'zgartirishni istamaganlar. Bunday vaziyatdan chiqishning yo'lini F.Egorov quydagicha tassavur qiladi: Turkistonning iqtisodiy gullashi va umumiy farovonligini oshirishga bog'liq barcha madaniy choralarini amalga oshirish uchun musulmonlarni ma'rifatli qilishning qat'iy o'ylagan rejasini tuzishni ularning diniy maktablarini nazardan chetga qoldirmay musulmonlarning turmush xususiyatlarini e'tiborga olib, asrlar davomida ularning hayotidan joy olgan islom negizlarini kuch bilan

vindirmay, aksincha reja asosida asta sekin diniy maktablarni qaytadan tashkil etish zarur. Agar bu ma'sul madaniy oqartuv ishlari birgina O'lka Maorif Xalq Kamissarligiga og'irliq qilsa, u vaqtda bu ishlarni musulmon aholisiga yaqin bo'lgan Milliy Ishlar Komissariati bilan hamkorlikda amalga oshirish mumkin». Garchi, muallif sovetlarning bu sohadagi siyosatiga tanqidiy nuqtai nazardan yondashgan bilsada, ammo u yangi tizimning vakillaridan biri edi.

Turkiston ulkasidagi xalq maorifini tahlil qilish, ularning echilish yullari va usullarini izlash, maktablarda dinning uqitilishi zarurati bormi yoki yuqligi kabi masalalar doimo milliy ziyolilarning diqqat markazida bulib keldi. Albatta, uz davri uchun bu masalalarning hal etilishi turli xil fikrlar, tortishuv va bahslarga sabab bulgan. Masalan Ismoil Xaqqiy o'quvchilarga faqat etti yillik maktablar kifoya emasligini aytadi. «Ular uchun oliy maktab bulgan dorilulmualliminning hajmi cheklangan, maqsadi muallim. Bizning muallimlarga ehtayojimiz bordir. Faqat, ortiqcha o'quv-yozuvni bilgan kishini qulidan tutib muallim qilmasmiz va qilmaylik ham. Bu millatning ehtiyoji birgina muallimgina emas, doktorlar, muhandislarga, advokatlarga, adib, muqarrir va shoirlarga, xulosa belgili odamlarga eugiyoji ortivdir». Bunday mutaxassislarni etkazishda muallif Turkiston ulkasida ixtisoslashgan gimnaziya, litseylar ochish fikrini urtaga tashlaydi. Uning bu takliflarini SHokirjon Rahimiy ham qullab-quvvatlaydi va «bu ochiladurgan kurslar hozirga qadar bulganlari kabi o'n- o'n besh turli fandani iborat bo'lmadan birinchi navbatda riyoziyot, tabiat, ona tili, tarix va jug'rofiya kabi aniq fanlarga ahamiyat kerak, ham har bir fan ila barobar usuli ta'lim yullari (metodikasi) kursatmalari mutlaq zarurdir» deb ezadi. Rus tilida chop etilgan gazeta sahifalarida o'z maqolalari bilan ishtirok etgan mualliflar esa asosan uqitish usulini yangi lash, uquvchilarning estetik tarbiyasini proletariashtirish, ularni mehnatga jalb etish, fanlarni isloh qilish va albatta «sotsialistik g'oya» ruhida tarbiyalash kabi masalalarga e'tibor qarattanlar.

Ammo, Turkistonda maorif sohasida amalga oshirilishi kerak bulgan ishlar kutilgan natijalarni bermadi. 20-yillarining boshlarida nashr etilgan «Bilim o'chog'i», «Nauka i prosveshение», «Jizn natsionalnostey» va boshqa shu kabi jurnal sahifalarida chop etilgan maqolalarda Turkistonda sovet xukumati urnatilgandan keyingi 4 yil ichida yangi maktablar qurilishi tarqoq, tartibsiz, hattoki sarosimali ravishda boshlangan, uqituvchilarning saviyasi pasayib ketgan, katta xatoliliklarga yul quyilganligi haqida ma'lumotlar berilgan edi. Fami

Rusal, P. Serbovlar bunday kamchiliklarni «tajriba» deb baho-lab, uning asosiy sabablarini sabr — toqatning, har tomonlama izlanishning etishmasligi, rejali va mustahkam boshqaruvning yuqligi da kuradilar. Zero, P. Serbovning qayd qilib utganidek, «uzlarning g'oyalarini teza ruyobga chiqarishga dildan intilgan, Turkistonda yangi maktabni tuzishning birinchi tashkilotchilari hayotiy shart-sharoitlarni hisobga olmagan, hayot tomonidan kuyilgan beniyahoyat katta talablarni to'xtovsiz amalga oshirishga harakat qilgan edilar». Natijada, Turkistonda sovet hokimiyati urnatilgach, hech qayoqa qaram, uylanmagan ravishda maktab qurilishi boshlanib ketadi. Xatto, ba'zida bu o'zbiarmonlik xususiyatiga ega edi. «Ishchi» taxallusi bilan imzolagan muallif - Tilla Xonja «...uch-turt maktabni olib borishga kuchimiz etmasligi aniq bulgan holda ham, biz oltinsh etmishlab maktablar ochdik va shunga uxshash har bir narsada odatimizcha «bor-barakalla» qildik. Tabiiy, «qozonda bo'lsa cho'michga chiqadi, qozonimizda yuq ekan, chumichimiz quruq chiqi boshladi», - deb kinoyali yozishi usha davrdagi ahvolning aniq tasavvurini beradi. SHu bilan birga, maktablar qanchalik ko'p ochilsa, ularning ahamiyati shunchalik pasayib bordi. Tajribali uqituvchilar, o'quv darsliklari, dasturlarning etishmasligi, imtihonlarning olib tashlanganligi - bularning barchasi maktabning fatqat tashtqi jihatdan maktab, deb atalishiga olib keldi. SH. Rahimiy «maktablar har erda, kuzga kurinarli bino, o'quvchi bulsa bas, ochila berdi», - deb yozgan edi. Inqilobdan keyingi dastlabki uch-turt yilda maktab qurilishi moddiy ta'minoti, pul vositalari, uy-joy va madaniy kuchlarning mavjudligini hisobga olmay to'xtovsiz ravishda o'sdi. «Ularni hisobga olish juda zaif bulib, deb kursatgan edilar P.Serbov va F. Rusal, - vujudga kelgan maktablar haqidagi aniq tasavvurlarga nafaqat Turkiston Xalq Maorifiya Komissarligi (TXMK), hattoki, joylardagi mahalliy tashkilotlar ham ularning aniq ruyxatiga ega emas edilar». Bunday vaziyatni muhokama qilish uchun Xalq Komissarlari Kengashi »(XKK) tomonidan 1923 yil 11 noyabrda madaniyat va maorif xodimlarining xalq maorifi masalalariga oid kengaytirilgan majlisi bo'lib utadi. Bu kengashda so'zga chiqqan Turor Risqulov va boshqa notiqlar maktablar qurilishi tarqoq, biron-bir dastursiz barpo etilayotganligini hozirda esa juda orir ahvolda ekanligini ta'kidlab ko'rsatdilar. Jumladan, notiq Serg'oziev, Turkistonda maktablar taraqqiyotini uch bosqichga buladi. Birinchi bosqich, 1918-1921 yillarni uz ichga olib, bu davrda o'lkada 10-22 mingga qadar maktab tashkil «qilingan, ikkinchi bosqich bu sovet maktablarining

qurilishini davri edi. Sovet hukumati XMK tasarrufidagi muassasalarni ta'minlay olmaganligi tufayli 11 ming o'quv muassasalaridan faqat 35 tasini davlat ta'minotida qoldirib, qolganlarini mahalliy byudjetga topshirishga qapop qiladi. Bu holat maktablarning turt-besh oylab moddiy ta'minotsiz qolishi va tez orada yuqolib ketishiga sabab buldi. Bu vaqt mobaynida maktablar 1.139 taga qisqarib, keyinchalik ulardan 539 tasi shartnoma asosida aholi mablag'i hisobi ta'minotiga utkazilgan. Uchinchi bosqich, 1922 yildan boshlanib, dastlabki davrlardagi maktablardan ixlosi qaytgan aholi u erga farzandlarini yubormay quydilar va maktab, madrasalarning yordamiga tayandilar.

YAngi iqtisodiy siyosatning maorif ishlarining barcha jabhalari salbiy ta'sirini bu davr mualliflari bir ovozdan alohida ta'kidlab kursatgan edilar. Maktablarning moddiy jihatdan ta'minlanishining tang ahvolga tushganligi, moliyaviy qiyinchiliklar, 3-4 oylik bilimga ega bulgan o'qituvchilarning maktablardan uzoqlashuvi kabi illatlar maktablarning keskin ravishda qisqarishiga olib keldi. Siyosiy vaziyat, iktisodiy qiyinchiliklar, ozik-ovkat muammosi kabi kuppina omillar bu rejani amalga oshishiga tusqinlik qilgan va buning natijasida qisqa turt oylik uqituvchilar tayyorlash kurslari bilan chegaralanilgan, xolos. Bu esa uqituvchilarning saviyasi va sifatining pasayishiga olib kaeldi. Bu haqda 20-yillarning boshlarida nashr kilingan maqolalar to'laqonli tasavvuriga beradilar.) Ularda yozilishicha, maktab kurilishining o'sishi yangi o'qituvchilarga bo'lgan talabni keltirib chiqargan edi. Qisqa tayyorlov kurslari orqali o'qituvchilar tayyorlanib, ularning sifatiga e'tibor berilmay, miqdor jihatdan kupaytirish avj oldi. Hattoki, bu kurslarga majburiy ravishda kursantlar o'qituvchilarini safarbar kilish xollari uchradi". Joylarning talabi bilan vazifaning natijasi, imkoniyatlar xisobga olinmay «inqilobiy shoshma-shosharlik» ruhida amalga oshirildi bu esa ko'p hollar salbiy oqibatlariga olib keldi. Bunday kurslarni Tilla Xonja "o'qituvchilar zavodi" deb atab, xar ikki oyda bir necha yuz o'qituvchi chiqarib maktablarimizning taqdirini shularning qo'lida topshirdik."kuyinish bilan yozadi. SH. Raximiy esa bunday ahvolni to'dachilik davri » deb baholab, xatto maktablarini turk zobitlari qo'lga topshirilganligi, ular esa «asosiy e'tiborini xarbiycha yurish qo'shiqlarni urgatishga qaratilgan»iklarini ko'rsatadi". Milliy matbuot orqali bunday ochiq fikrlarning aytilishi xalqning madaniy hayotidagi o'zgarishlariga befarq bo'lmagan maxalliy mualliflarni jamiyat ongiga o'zlarining o'tkir qalamlari bilan ta'sir utkazganliklaridan dalolatdir.

O'qituvchilarning maktablardan uzoqlashuvi va ularning ta'lim ahvolidan ochishga harakat kidali. I. Sevastyanov o'z maqolasida tanqidiy nazar nazardan ochishga harakat kidali. U yozadi: «O'qituvchi mehnati bilan yashash uchun muallimlar kup miqdorda soatlar olib, shaharning tashkilotlaridagi o'quv muassasalarida ishlashga majburlar. Ular kun bo'yi yugurib, uch smenalab ishlab, kechga tomom charchog yarim och holda uyga qaytadilar. Hatto, maktab ishlarining fidoyilari sevimli ishlaridan qochib, kotib, rais yordamchisi xujalik boshlig'i va boshqa lavozimlarda ishlayotganliklariga taajjublanmasa xam bo'ladi. Maktablarda faqat o'qituvchilik ixtidori va alangasi bor insonlarga ishlamoqdalar».

SHu bilan birga bu mualliflar, bunday xolatdan chiqish yo'llarini topishga xarakat qilganlar Masalan, I va P bosqich maktab o'qituvchilari uchun kurslar ochish, muallimlar tayyorlaydiganga institutlarni ochish, o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy jihatdan qullab-quvvatlash kabilat shular jumlasidandir.

Lekin, bunday salbiy holatlar xalqni yangi hukumatning maorif sohasidagi ishlaridan ixlosini qaytardi. Usha davr mualliflari ta'bir bilan aytganda, xalq orasida sovetlar maktabining obro'si keskin ravishda pasayib ketdi, «ular maqsadga muvofiq emas, ularda hayot yuq deb qat'iy aytish mumkin» edi. A. SHukurov qayd qilib atganidek, 1921 yil kuzigacha eski Toshkentning uzida yuzdan ortik; sovetlar maktabi faoliyat kursatgan bo'lsa, yangi iqtisodiy siyosatdan keyin ularning soni 20 dan ham kamayib ketgan edi. Natijada inqilob tufayli yuqolib ketgan eski usul-diniy maktablar uz faoliyatlarini boshlab yubordilar. V. Bilik uz maqolasida Turkiston ulkasidagi diniy maktablar faoliyatini yoritarkan, «...aholi orasida mullalar obro'ining yuqoriligi diniy maktablar mavqeini yanada kutardi. Qisqa muddatli o'qituvchilar kursida ta'lim olgan sovet maktabi muallimlari bu maktablar ta'siriga qarshilik ko'rsata ol madilar» - deb yozgan edi. SHuningdek, Olchin, SH.Rahimiylar ham bu maktablarni xalq orasida yaxshi bir iz qoldirmaganligini, xalq turli bahonalar bilan bolalarini ulardan chiqarib olib, savdo ishlariga aralashtirayotganliklarini kuyunchaklik bilan ta'kidlaydilar. Xalq orasida diniy maktablarga bulgan ehtiyoj keskin ravishda kuchaya boshladi. Xususan, «Turkrespublikasida umumta'lim masalalariga doyr» maqolasining muallifi o'lkadagi maktablarda o'qitish tizimini ko'rib chiqar ekan, «tez orada sovet maktablari diniy maktablar dengizida bir orolchaga aylanishi mumkin» ligini qayd etib o'tgan edi. «Turkiston mahalliy maktablarida diniy ta'limot masalasi» maqolasi muallifi esa xalqni yana sovet maktablariga jalb etish va ularni mustahkamlash din

hukumatining o'qitilishini yulga qo'yilishi bilan amalga oshiriladi deb mulohazalagan. Uning ta'kidlashicha, yangi 1922 o'quv yilidan diniy ta'lim yoki bu nohiya aholisining xohish irodasiga qarab kiritilishi va har kuni mulla yoki o'qituvchi tomonidan olib borilishi lozim edi. Bu masala 1922 yilda utkazilgan o'zbek madaniyati va maorif xodimlarining yig'indida ham kurib chiqilib, «bolalarni yangi maktabga jalb qilish va o'qitishning dinga bulgai yuksak hurmatdagi ruhiyatini hisobga olib, maktablarga din darslarini kiritish karak», deb qaror qiligan edi. Muallif Olchin esa eski usul maktablarini qayta kurib chiqish taklifi bilan chiqadi. U: «Eski maktablarni maorif idoralari tezda «hisob-kitob» qilib, uz nazoratiga olishlari kerak. Bulardan vayron va yaramas binolaridagini yaxshi binolarga ko'chirib, asbob va muallim bilan tamin qilish kerak. Bu maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshi bormog'iga e'tibor qaratib, hisob jug'rofiya, tarix kabi fanlarni maktablarga kiritish, diqqat qilmoq. hisob jug'rofiya, tarix kabi fanlarni maktablarga kiritish, bunda uquv-yozuvlarni, din darslarini tartibli bir holda na Qur'on o'qishlarini ham mumkin bulg'oncha ma'nosi billi o'qitish yuliga kiritish kerakdir». SH. Manatov esa o'z maqolasida o'lkadagi maorif sohasidagi kamchiliklari kursatibutar «kan, vujudga kelgan sharoitda islomni o'qitish bulsa-da, biroq, vaqtincha «yuzaga kelgan sharoitda islomni o'qitish maktabdan tashqari, maktab darslariga xalaqit bermagan bo'sh vaqtlardagina ijozat berish mumkin», -deb hsoblaydi. Muallifning yozishicha, ko'pchilik joylarda dindorlarni, «agar shuro maktablarida din darslari o'qitilishi yulga quyilsa, moddiy jihatdan ta'minlashlari haqidagi arizalar topshirganliklari holatlari ham qayd etil gan.

SHu bilan birga eski usul maktab muallimlarini o'qitishning yangi usullariga o'tkazish hollari ham uchragan. Masalan, «Turkestanskaya pravda» gazetasida yozilishicha, Xo'jand shahrida xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan eski usul maktab muallimlari va ulamolari to'planib, ularga eskicha o'qitish usulining noqulayligi, qoloqligi tushuntirilgan. Ulamolalar o'z navbatida «masalaning bunday quyilishiga shariat qarshilik ko'rsatmaydi, aksincha, shariat e'tiqodlarining savodli, yozuv va hisobni bilishlarini muvofiq deb biladi», - deb o'z » roziliklarini bildirgdnlar. Bu ikki oylik pedagogik kurslar 42 nafar kishiga mo'ljallangan bo'lib, ularga o'z vaqtda katta ishtiyoq bilan qatnovi kuzatilgan.

SHu bilan birga, ushbu davr nashrlarida vaqf mablag'larining maorifga ishlariga jalb etilganligi haqida ham so'z borgan. Jumladan, «Xalq maorifi kengashining 2 - qurultoyiga materiallar», P. I. Serbova va A. D. Nikiforovlarning «O'zbekistonda xalq ta'limi», D. Efanovning

«Maorif frontida» nomli kitoblarda ko'rsatilishicha, Xalq Maorif Komissarligi qoshida Vaqf Bosh Boshqarmasi (VBB) tuzilgan va uning zimmasiga ulkadagi barcha vakf mablag'larini hisobga olish, diniy maktablardan daromad olish va ularni yangi o'qituvchilar bilan ta'minlash va eski usul maktab o'qituvchilarini qayta tayyorlashga qaratish kabi vazifalar yuklatilgan edi. Bu nashrdan bizga yana shu narsa ma'lum buladiki, 1924 yildan boshlab an'anaviy (eski usul) maktablarni «sovetlashtirish» boshlangan va shu yilning 1 aprelidan boshlab VBB qaroriga ko'ra bu maktablarda yagona mehnat maktablari dasturi bilan o'qitish yulga quyilgan. Bungacha diniy maktablar o'quv rejasining 50 foizi diniy axloq qoidalari va qur'onni o'qitishga ajratilgan edi. Birinchi davrlarda UzXMKning vaqf daromadlari 7-8 foizni tashkil qilib, birinchi navbatda umumta'lim maktablarining ta'minotiga sarf qilingan. Andijonlik tadqiqotchi Baxtiyor Rasulovning aniqlashicha, 1924 yilning o'zida vaqf sarmoyalaridan olinadigan davlat SOLIG'INING hajmi O'zbekiston territoriyasi buyicha (Buxoro va Xorazm Respublikalari bilan hisoblaganda) 800.000 so'mni tashkil etgan. Bundan ham avvalroq 1923 yilda yozilgan SH. Rahimiyning risolasida «Agar bu kunda vaqf yoki mahalliy sarmoya qulimizda bulmagan chorida bu o'quv yurtlaridan juda ko'plari hozirgacha yopilg'on bulur edi», degan fikrni uchratamiz. A. SHukurov esa O'z maqolasida vaqf mablag'larini bir qismini mahalliy aholi vakillarini ta'lim olish uchun xorijga yuborishga sarf etish haqidagi taklifni ilgari suradi. «Ana shunda xorijga har yili bir necha yuz kishini yuborish mumkin. 5-8 yil ichida ular Vatanga yangi kishilar bulib qaytadilar va haqiqiy yangi maktablar tashkil etadilar», - deb yozadi u. Bosh Vaqf Boshqarmasining a'zosi bulgan Munavvar Qori Abdurashidxonov ham vaqf mablag'larining asosiy qismi maorif va madaniyat sohasiga sarflanayotganligini o'z hisobotida aniq ravshan ko'rsatib o'tgan edi. Unda yozilishicha, «bosh vaqf idorasi uzining ta'minoti uchun mahalliy shu'balarning umumiy daromadidan «10 foiz» olib, qolgan «90 foiz»ini maxallalarning uzida maorif va madaniyat ishlariga sarflaydi» (Vaqf idorasining 1923 yillardagi butun daromadi 6.529.652 summi tashkil qilgan edi.). Munavvar Qori vaqf idoralari qisqa vaqt ichida xalqning maorifi va madaniyati yo'lida yaxshigina natijalarga erishganini Toshkent vaqf shu'balari faoliyatida anik; kursatib beradi. U bu shu'balarning tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy muassasalar sonini sanab utar ekan, bu tadbirlar nafaqat shaharlarda, balki chekka «uezd»larda ham amalga oshirilishi lozimligini, buning uchun bosh vaqf idoralari «vaqf erlari

«solig'idan ozod qilish» fikri bilan chiqadi. Bu tadbir amalga oshirilsa, «bosh xalqi ham yaxshigina bir maorif va madaniyat sarmoyasiga molik bulib, bu sarmoya vositasi bilan uzining bosib yotgan jaholatlariga qarshi kurashgan bulur edi», - deb ishonadi. Bu ma'lumotlardan bizga shu narsa ayon buladiki, vakf mablag'larini ham o'lka maorifi va madaniyatining rivojlanishiga bevosita o'z hissasini ko'shgan va yordam qilgan.

1927 yildan boshlab eski usul-diniy maktablarga qarshi u xoh isloh qilingan bo'lsin yoki bo'lmasin kurash boshlandi. UzR MIKning III sessiyasida eski usul maktablariga barham berish, ularni tugatish to'g'risida UzR Maorif Xalq komissari M. Ramziy katta ma'ruza qildi. Albatta, usha davrga xos bulganidek, u mazkur maktablarga «burjua jadid maktablari», ziyoli va dindorlarga «sinfiy dushman» kabi yorliqlar yopilggiradi. Bu ma'ruzadan bizga ma'lum buladiki, eski usul maktablarni yopish uchun turli xil choralar qullanilgan. Jumladan, ularda o'qish uchun 14 yoshgacha bulgan bolalar sho'ro maktabining 1-sinfini bulsada, albatta bitirgan bulishi shart qilib quyilgan. Sog'liqni saqlash organlari bu maktablardan tozalik sharti-sharoitlarini talab qilishlari shart edi. Birov, bu choralarga qarshi o'laroq sovet maktablari uchun binolarning etishmasligi, bolalarning 2-3 smenada o'qitilayotgani haqida ham so'z boradi. M. Ramziy ziyoli va dindorlarning isloh qilingan eski usul maktablarni koldirish haqidagi fikrlariga keskin qarshi chiqadi. Uning qarashlarini M.Stambler ham qo'llab-quvvatlaydi. U o'z maqolasida shuro maktablarini kuchaytirish asosida eski usuldagi maktablarga qarshi kurash yullarini ishlab chiqqan edi. Qurbon Birigin esa «eski maktablarni bitirish emas, ularni isloh qilish kerak, eski maktablarni tugatgan bilan biz etarli darajada yangi maktab bilan ta'min qila olmaymiz. SHuning uchun ular faoliyati davom etsa ham mayli», - deb fikrlovchilarni qattiq tanqid ostiga oladi va «mafura maydonida kurashimizning bir muhim bandi eski usul maktablarni tugatishdir», - deb hisoblaydi. Bu davr mualliflari «Dinga qarshi kurash!» shiori bilan maktablarda dinga qarshi tarbiyani kuchaytirish, muallimlarni tekshirib, ularni «tozalash», nashr qilinadigan kitoblarning barchasini mazmun-mohiyati dinga qarshi kurash usulida, mafkuraga mos qilib chop etilishi kabi fikr-mulohazalarini bildirganlar. Bunday yondashuvlarning bulishiga sabab esa diniy maktablarning sovet maktablaridan miqdor jihatdan oshib ketganligida edi. Masalan, 1925 yilda eski usul maktablari 1329 tani, sovet maktablari esa 908 tani tashkil etgan. Bu esa o'z navbatida bolsheviklar hukumatini xavotiriga sabab buldi. O'sha

davrdagi qapop topib kuchga kirgan g'oyaviy tazyiqlar endilikda milliy an'anaviy eski usul maktablarni yuq qilib yuborishni o'z oldiga maqsad qilib qaydi va bunga erishdi ham. endilikda aholi sovet maktablariga majburan jalb etila boshladi.

Yuqoridagi mualliflar sovet maktablarini usishi haqidagi kursatkichlarni keltirsalarda, biroq bu maktablarga maktab yoshidagi bolalarning juda oz qismi jalb etilgan. Masalan, maktab yoshidagi 100 ta boladan faqat 8 tasigina sovet maktablarida uqiyotgani, qishloqdagi sovet maktablarida esa bolalarning faqat 5 foizi o'qiganligi haqida ma'lumotlar bor. Milliy an'anaviy maktablarda esa o'qituvchilarning anchagina qismini qiz bolalar tashkil etgan. E. Fedorovning ta'kidlashicha, «...aholini boshlang'ich maktab bilan ta'minlash maktab yoshidagilarni juda oz foizini (12%) qamrab olganligi bilan xarakterlanadi». 20-yillarning oxiri - 30-yillarning boshlariga kelib, bu davr uchun xarakterli bo'lgan sinfiy kurash, millatchilik, kadrlarni tozalash kabi g'oyalar maorif, maktab sohalarini xam o'z nazaridan chetda qoldirmadi. Bu davr maqolalarida yozilganidek, «maktablarga divdatni kuchaytirish, ular ustidan nazorat va boshqaruv; proletariat G'OYASI uchun kurash; o'sayotgan avlodni internatsional ruxda tarbiyalash» masalalari birinchi uringa quyilishi kerak edi. Bundan tashqari, bu davrga kelib barcha sohalarida bulganidek xalq ta'limi, maorif sohasiga oid faqat yutuq, maqtovlarga boy bo'lgan maqola va risolalar ko'plab yozila boshlandi. Ularda maktab tarmoqlari o'sishining yuqori ko'rsatkichlari, umumiy majburiy ta'limning yulga qo'yilganligi, ularning yuksak yutuklari haqida so'z boradi. Kezi kelganda Mustafo CHuqayning «Turkiston sovetlar xokimiyati ostida» kitobida yozilgan fikrni keltirmoqchimiz: «...Madaniyat sohasini «tushuntirish» katta qiyinchilik tug'diradi. Maktablar mikdori, ularda o'qiyotgan o'quvchilar, «oliygohlar», «bilim yurtlari», - bularning barchasi taassurotli, albatta. Biroq, milliy yutuqlar nuqtai nazaridan qaraganda, bolsheviklarning uzlari tomonidan bo'rttirib ko'rsatilgan dasturga muvofiq natija bolshevikcha «o'z - o'zini tanqid»dan past turadi».

Demak, XX asrning ikkinchi un yilligi adabiyotlari taxlili shuni ko'rsatadiki, madaniyat sohasining eng muhim bandi hisoblangan maorif va uning turli sohalariga oid muammolarning echilishi, masalaning kuyilishi turli xil uzgarishlarni boshidan kechirdi. Dastlab - ki vaqtli va davriy matbuot sahifalarida chop etilgan maqolalar uchun xato va kamchiliklarni aniq ko'ra bilish, bu tugrida dadil, qo'rqmasdan yoza olish, qiziqarli va muhim takliflarni quyish kabi xususiyatlar xos edi.

O'rganilayotgan davr adabiyotlarida mualliflar maorif, maktab va o'qituvchilar xususida turli-tuman muqobil yullarni va usullarni izlab, bu muammolarning echilishida milliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda turli xil tanqidiy, qarama-qarshi fikr va mulohazalar, qiziqarli, hattoki bugungi kunimizda ham o'z ahamiyatini yuqotmagan takliflarni o'rta tashlaganlar. Biroq, 20-yillarning oxiri 30-yillarning boshlariga kelib, siyosiy vaziyatning o'zgarishi bilan adabiyotlarning ham sifati uzgara boshladi:

Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritishi tufayli eri-shilayotgan yutuqlarni chuqur idrok etish va qadrlash zarurati sho'rolar davrida qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan iqtisodiy va mafkuraviy siyosat tufayli sodir bo'lgan. Davr taqozosi bilan o'zining to'g'ri ifodasini topmagan, bo'yabbezab talqin qilingan tarix sahifalariga ob'ektiv qarashnn, salbiy holatlarning oqibatlarini yana bir bor qaytadan ko'rib chiqishni, ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur tahlil etishni dolzarb masala qilib qo'ydi.

O'zbekiston uchun tarixiy taraqqiyotning oldingi marralariga chn-qishda qishloq xo'jaligi muhim rol o'ynashi shak shubhasiz. «Bugun jamiyatimiz shuni anglab oldiki, — deb ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Qarimov, — hayotimizni yaxshilash, aholi gurmush darajasini ko'tarish, iqtisodiyotimizning samaradorligini oshirish, xalqimizni boqish, istiqbolimizni rejalash — xullas, qanday muammo, qanday masalani ko'rmaylik, ularning aksariyati birinchi navbatda qishloq xo'jaligiga borib taqaladi».

Qishloq xo'jaligining ulkan ahamiyati agrar soha tarixini keng miqyosda tadqiq etish ehtiyojini oshirdi, chunki «...bugungi kunda qishloq xo'jaligining iqtisodiyotimizdagi, hayotimizdagi o'rni shuni taqozo etmoqda». Qishloq xo'jaligini tubdan qayta qurish bilan bog'liq masalalarning o'ziga xos mezonlarini anglab etish, tarixiy tajriba saboqlarini o'rganish, o'zbek qishlog'i rivojlanishi jarayonlarini, ulardagi znddiyatlarining namoyon bo'lishini tushunib etish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa sho'rolar davlati dehqon xo'jaliklarini yoppasiga kollektivlashtirish borasida olib borgan siyosati va uning oqibatida yuz bergan mudhish holatlardan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ma'lumki mustabid tuzum mafkurasi ta'siri ostida tarix fani amalda soxtalikka to'lib toshgan edi. Unda o'tmishga oid ko'plab haqqoniy sahifalar chiqarib tashlangan, oshkor qilish mumkin bo'lmagan, taqiqlangan mavzular ancha-muncha edi. Xususan, 1932—

1933 yillardagi ommaviy ocharchilik o'ta mahfiy hodisalar sirasiga kiritildi. Hatto bu haqda eslash ham uzoq yillar mobaynida taqiqlab qo'yildi. Holbuki, o'sha yillarda Stalin tomonidan ilgari surilgan «barcha kolxozchilarni «o'ziga to'q» dehqonlarga aylantirish» shiori hamma yoqda keng ko'lamda targ'ibu tashviq qilindi. Dehqonlarga qarshi, «bolshevik»larga xos bo'lgan «yuqori idoralar» tomonidan amalga eshirilgan jinoiy «agrар inqilob» mo'l-ko'l «qayg'u hosilini» yig'ib olgan bepoyon mamlakatning millionlab boquvchilarini halokatga olib kelgan bo'lsada mafkuraviy andishalar siquvi ostida jamiyatshunoslar bu fakt xususida gapirish o'rni, yakdillik bilan go'yoki og'izlariga talqon solib olgan edilar.

Qolxoz tuzumining kuch ishlatish, zo'rlik yo'li bilan amalga oshirilishi bu mash'um ocharchilikni keltirib chiqargan sabablardan biri edi. Dehqonlar manglayiga qurol tirab kolxozlarga a'zo qilindilar hisob. Dehqonlarni shu tariqa kolxozlarga ommaviy ravishda majburan kiritish boshlandi. Mol-mulkni umumlashtirishga barcha asosiy mehnat qurollari, chorva mollari, parrandalar kirdi. Bu esa o'z vaqtida chorva mollari jon boshining keskin kamayishiga (so'yib yuborilishi) va mehnat qurollarinig berkitilishiga sabab bo'ldi.

Ikkinchi tomondan, shoshilinch tuzilgan kolxozlar moddiy jihatdan o'z xo'jalik funksiyalarini bajarishga tayyor emasligini ko'rsatdi. Qolxozlar tuzilayotganda ular uchun eng muhim bo'lgai omborlar qurishda, millionlab umumlashtirilgan chorva mollarining ozuqa bazasini yaratishda moddiy yordam ko'rsatilmadi. Tabiiyki, bu mollarning ozuqasiz qolishiti va natijada ularning qirilishiga olib keldi.

Faqatgina 1930 yili o'zida O'zbekistonda qora mollarning 60 mingdan ortiq jon boshiga qisqarishiga olib keldi. 1928—1932 yillar mobaynida esa hammasi bo'lib qo'ylar soni 6001,2 mingdan 2199,6 mingga, otlar bo'lsa 550,2 mingdan 390,7 ming boshga kamaydi.

Markazdan turib boshqarilgan va moddiy chegaralarga ega bo'lmagan kolxoz qurilishining bunday tajribasi butun sho'ro davlati qishloq xo'jaligi izdan chiqardi, «sotsialistik agrar ishlab chiqarish»da turg'un regressiv jarayonlarning qaror topishiga olib keldi. Natijada, 30-yillarning boshida qishloq xo'jalik yalpi mahsulotning keskin kamayishi kuzatildi. Misol uchun, agar 1928 yilda Ittifoq bo'yicha go'sht etishtirish hammasi bo'lib 4,9 mln. tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1932 yilga kelib bu ko'rsatkich bor yo'g'i 2,8 mln.ga etdi. SHunga muvofiq ravishda sut 31,0 mln. tonnadap 20,6 mln. tonnaga, tuxum 10,8 mlrd. donadan 4,4

mlrd. donagacha kamaydi. Xuddi shunday ahvol Uzbekistonda ham kuzatildi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini etkazib berish ishi dehqonlar moddiy ahvoliga halokatli ta'sir o'tkazdi. Lekin mahalliy rahbarlar sho'ro hukumati tomonidan o'zboshimchalik bilan o'rnatilgan noreal topshiriqlarni qapday qilib bo'lmasin bajarishga harakat qilib, kol-xozlar va yakka xo'jaliklardan mahsulotlarini «zo'rlik bilan» tortib olardilar. Jumladan, bug'doy masalasida shunday edi.

Ayiqsa, 1930-1932 yillarda ko'plab kolxozlarda etishtirilgan donning hammasi, hatto urug'lik bug'doy ham qoldirilmay olib qo'yilgan. Go'sht tayyorlash borasida ham xuddi shunday yo'l tutildi. Bunda ham «reja topshiriqlari» mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanmadi, balki shafqatsizlik bilan tortib olindi. Masalan, hujjatlarda qayd qilinishicha, Qashqadaryo viloyatining ko'pgina uman-larida 1932 yilda aholi bir tayyorlov mavsumi mobaynida qo'ylar soni (umumlashtirilgan qismini hisobga olgan holda)ning qarib yarminn davlatga topshirishi kerak edi, bundan norozi bo'lgap qishloq yalpi ixtiyoriy ravishda qo'y-qo'zilarni davlatga topshirishga qarshilik ko'rsata boshladilar. Natijada qishloq sho'rosi xodimlari tegishli chora-tadbirlar o'ylab topdilar, ular zo'rlik yo'liga o'tishdi, ya'ni chorva mollarni «sotib olish» niqobi ostida tortib olib boshladilar. Bu quyidagicha amalga oshirildi: kolxozchining uyiga 7—8 nafar faollar tashrif buyurishar, xonadon sohibi va sohibasining qo'lini bog'lashar, shu paytda qolgan «xaridorlar qulflarni buzib, «sotib olishgan» uy hayvonlarini tezlik bilan olib chiqib ketishar edi.

Sobiq sho'ro davlatining barcha hududlarida amalga oshirilgan bunday xatti-harakatlar, oxir-oqibat, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni halokat yoqasiga olib keldi. Bu hol aholinnig oziq-ovqat ta'minotiga o'z ta'sirini o'tkazmasdai qolmadi. U kundan-kunga yomonlasha boshladi. Uni minimal darajada ushlab turish uchun kartochka tizimi joriy qilindi. SHu bilan bir vaqtda, qishloq mehnatkashlariga nisbatan ma'muriy tazyik kuchaytirildi. Ularning oxirgi nasibalari ham tortib olib boshlandi. Uzbekistonda esa qat'iy paxta yakka hokimchiligining o'rnatilishi bilan ahvol yanada og'irlashdi. 1933 yildayoq paxta respublikada etishtirilgan yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining 81,5 foizini tashkil etdi. Davlat rejasidagi dara-jasiga ko'tarilgan oziq-ovqat razverstkasi (taqsimoti) qishloqlarning muqarrar ravishda qashshoqlashuviga olib keldi. Zero, kolxozchilar tinka-madorni quritadigap og'ir mehnat qilishlariga qaramay, amalda hech qanday haq

olmas edilar. Ularga faqat afsonaviy mehnat kunlari yozilar edi. Bunday sharoitda qishloq mehnatkashlari faqatgina o'z tomoqasiga suyanishi mumkin edi. Lekin ko'pdan-ko'p to'sqinlik qiluvchi omillar, ya'ni masalan, tomoqadagi har bir daraxt, qoramol, parranda uchun oqlar sig'maydigan soliqlarning to'lanishi, yaylov maydonlarining qo'tirib chegaralab qo'yilishi dehqonlarning imkoniy-jimoiy-iqtisodiy ahvolarini yanada og'irlashtirdi. Bundan tashqari 1935 yillargacha shaxsiy tomoqqa dehqonlar yakkaxo'jalik manfaatlarini ko'zda tutuvchi moddiy asos deb qaralib, ularga tomoqqa ajratish qo'llab-quvvatlanmas edi. Bularning hammasi, tabiiyki, dehqonlar turmush darajasini pasayib ketishiga olib kelgan omillardan biri bo'ldi. Usha davrda yuqori tashkilotlarga yozilgan dehqonlarning sop-sanoqsiz tanshish to'la xatlari ular turmushining og'irlashtirib ketganidan dalolat beradi. Masalan, ulardan biri «Qizil dehqon» kolxoz dehqonlari «Dehqonlar faqat suv bilan nonda o'tirganligi, u ham bo'lsa (non) etishmayotganligidan» nolib yozishardi.

Qishloqlarni qamrab olgan ocharchilik dehqonlarni bo'g'ish siyosati g'ijining kulminatsion nuqtasi bo'ldi. Ocharchilik ayniqsa, don etish-tiriladigan tumanlar — Ukraina, SHimoliy Kavkaz, Quyi va Ural Volga, janubiy Ural va Qozog'istonda ommaviy tus oldi, ba'zi joylarda esa butun-butun qishloqlarning ochlikdan qirilib ketishi kabi hodisalar yuz berdi.

Bugungi kunda qurbonlar sonini aniq aytib berish qiyin. Robert Devis, Robert Qonkvist, Stiven Uitkroft kabi xorijiy tarixchilar, Barbara Anderson va Brayon Silver singari demograflar ishlaridagi statistik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, ochlik vaqtida qurbon bo'lganlar soni 3—4 million kishini tashkil etadi. Faqatgina Qozog'istonda 1932—33 yillarda ochlik va u bilan bog'liq bo'lgan kasalliklardan halok bo'lganlar soni 1,7 mln. kishini tashkil qildi. Ayni vaqtda, O'zbekistonda ocharchilik qurbonlari yuqorida sanab o'tilgan tumanlarga nisbatan ancha kam bo'ldi, lekin u ham taxminiy hisoblarga ko'ra 350—400 ming kishining yostig'ini quritdi.

1930 yillarda O'zbekistonda sun'iy ravishda keltirib chiqarilgan ommaviy ocharchilikning xarakteri va hukmron doiraning unga bo'lgan munosabatini Toshkentda xizmat qilgan moskvalik Lev Vasilevning xorij matbuotida e'lon qilingan xotiralarida keltirilgan ma'lumotlar asosida ko'rib chiqish mumkin: «Mening xizmatdagi martabam ko'tarildi va Moliya Xalq Qo'mitasining bo'lim boshlig'i sifatida Toshkentga keldim... Ko'chalarda och onalar bolalari bilan sanqishadi

va ittijoli nigoh bilan sadaqa uchun qo'l cho'zishadi. Son-sanoqsiz bandalarni xuddi o'tin kabi yuk mashinalariga ortishadi va umumiy bandalarda ko'mish uchun qaysidir tepalarga olib ketishadi. Ochlikdan o'lib ulgurmagap itlar bu handaqlarni ochib, qo'lga kiritilgan o'lja ustida talashadilar. Bunday dahshatli yuk mashinalari—o'lim aravalarini (katafalki) men ko'p marta ko'rdim».

SHuni ta'kidlash joizki, agarda mustabid sho'rolar hukumati o'z vaqtida och qolayotgan tumanlarga moddiy yordam ko'rsatganda, 30-yillardagi uqubatli ocharchilik oqibatlari bu qadar ayanchli bo'lmagan bo'lar edi. Bu hol 1920—1922 yillar sharoitida bo'lgani kabi, hech bo'lmasa cheklangan miqyosda amalga oshirilganida edi, ahvol butunlay o'zgacha tus olgan bo'lar edi. Afsuski, Stalin boshliq ma'muriyat ommaviy ochlikni ko'rib ko'rmaganga oldi. Bugina emas u xorijiy mamlakatlar tomonidan taklif qilingan oziq-ovqat yordamini rad etdi. Aksincha rasmiy mafkura tomonidan hamma erda «hayot yaxshilandi, hayot quvonchli bo'lib qoldi» degan fikr qayta-qayta ta'kidlanadigan bo'ldi. Qishloqlarda esa yordam o'rniga qanday vositalar bilan bo'lmasin tirik qolishga uringan qishloq aholisiga nisbatan jazo chorlari kuchaytirildi. Och, son-sanoqsiz taqiqlardan toliqqan, hamma tomondan ma'muriy tuzoqlar qurshab olgan xalq kolxoz dalalaridan don, kartoshka, o't va boshqalarni o'g'irlashga majbur edi. Misol uchun, 1932 yilning yozida hali hosil pishib etilmagan, ko'pchilik donchilik tumanlarida «sartarosh»lar paydo bo'ldi. Ular och bolalar, ayollardan iborat bo'lib, oilada pishadigan bo'tqa uchun qaychi bilan boshqalarni qirib olishardi (kolxoz dalalarida bu narsa odatda tunda va yashirin amalga oshirilardi). O'rim mavsumi boshlanib, donni to'raligicha tayyorlov idoralariga tashib ketish boshlanganda, donni cho'ntaklar va qo'yniga solib kelishardi. Va nihoyat nochor qishloq aholisining bunday xatti-harakatiga javoban 1932 yilning 7 avgustida Stalinning o'z qo'li bilan imzolangan sotsialistik mulkni qo'riqlash to'g'risidagi qarori qabul qilindi. U kolxoz va kooperativ mulkni o'g'irlaganlik uchun jinoiy jazo chorasi sifatida oliy ijtimoiy himoya vositasi — bor mol-mulkni musodara qilgan holda otib tashlash hamda «jinoiyatni engillashtirish» mumkin bo'lgan taqdirda uni bor mol-mulkini musodara qilgan holda kamida 10 yil ozodlikdan mahrum etish bilan almashtirishni joriy etdi. Bunday hollarda avf etish taqiqlangan edi. Aslida qonunchilikka yo'l ochgan bu qonunning mohiyatini zamon-doshlar yaxshi tushunar edilar. Mazkur qonun dehqonlarni yanada qash-shoq ahvolga solib qo'ydi. Ochlikdan azob-to'zib ketgan qishloq aholisining arzimagan darajada

bo'lsada qo'llab-quvvatlab turgan eng so'nggi umidini ham uzib tashladi. Oqibatda ochlar soni fojialn darajaga etdi, ko'pdan-ko'p odamxo'rlik va jasadxo'rlik hodisalari kuzatildi.

Boshqa tomondan esa xalq tilida «besh boshqoln qonun» deb atalgan 1932 yil 7 avgustdagi qonun ko'p sonli qishloq aholisining mash'um «Gulag arxipelagi» kabi erlarga surgun qilinishiga sabab bo'ldi. Birgina 1933 yilniig boshidayoq tugab ulgurmagan besh oy mobaynida O'zbekistonda minglab dehqonlar ma'muriy javobgarlikka tortildi.

O'zbek qishlog'ning tabiiy ravishda rivojlanishini to'xtatib qo'ygan, dehqonlarning boqim bo'lib qolishiga, ularda jamoat ishlab chiqarishida faol ishtirok etishdan manfaatdorlikning bo'g'ib qo'yilishiga, bozor munosabatlarining emirilishiga olib kelgan kollektivlashtirilgan agrar ishlab chiqarishning joriy qilinishni shu tariqa qishloq xo'jaligining butunlay izdan chiqishiga, uning halokatli qashshoqlashuviga olib keldi.

Respublikamizning mustaqillikni qo'lga kiritishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, bozor munosabatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tiklanishi, samaradorligining oshayotganligi bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida o'tkazilayotgan siyosatning nechog'lik to'g'ri yurgizilayotganidan dalolat beradi va o'tmishda yo'l qo'yilgan salbiy oqibatlarni yuzaga keltirgan xato va kamchiliklardan saboq olgan holda to'g'ri xulosa chiqarish uchun imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishganligi tariximizning eng murakkab va ziddiyatli bosqichlaridan biri bulgan mustabid sovet rejimining boshlanishi paytlarini. Turkiston mintaqasida uzoq yillar davomida Rossiya va sobiq Ittifoqining mustamlakachilik siyosatiga qarshi ko'tarilgan istiqloqlchilik harakati tarixini har tomonlama sinchiklab o'rganishga imkoniyat yaratib berdi. O'lkamiz miqyosdagi arxiv hujjatlari, o'sha davrda nashr qilingan milliy matbuot materiallari va ushbu mavzuga ta'luqli o'zimizda va xorijda nashr qilingan ko'p miqdordagi adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, Turkiston mintaqasidagi istiqloqlchilik harakati tariximizdan qonuniy ravishda o'z munosib o'rin olishga haqli bo'lgan milliy mujolola kurashi hisoblanadi.

Turkiston mintaqasidagi istiqloqlchilik harakati bo'sh bir za-minda paydo bo'lmasdan, uning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy, ruhiy, diniy, ma'naviy, milliy va maishiy ildizlari hamda asoslari mavjudki,

o'lka xalqlarining 50 yil davomida chorizm zulmi ostida og'ir turmush kechirganligi va bol'shevikcha rejim o'zining dastlabki kunlaridan boshlab bu tartibni yanada mustahkamlaganini alohida qayd etish lozim. Jadidlarning sa'iharakatlari bilan tashkil topgan Turkiston Muxtoriyati hukumatining bosqinchi askarlar yordamida 1918 yil fevral oyida tortmoq qilinishi, Qo'qon shahrida begunoh o'n minglab kishilarning vahshiyona o'ldirilishi istiqloqlchilik harakatining boshlanishiga faqat bir turtki vazifasini o'taganligini alohida ta'kidlash kerak. Holbuki, bugungi kunda ham ko'pchilik Qo'qon fojealari istiqloqlchilik harakati boshlanishiga asosiy sabab bo'ldi deb, noto'g'ri talqii qilmoqda.

Istiqloqlchilik harakati «bir hovuch bandit va bezorilar»ning qurolli xuruj bo'lmay, balki uzining sarchashmalariga ega bo'lgan, etarli darajada jadid munavvarlari va islom dini ulamolaridan iborat g'oyaviy rahnamolari va mafkurachilari, qo'rboshi va sardorlardan iborat harbiy yo'lbo'shchilari bo'lgan hamda muntazam qo'shinga ega muazzam bir harakatdirki, uning qiyosi hatto jahon tarixida ham uchramaydi.

Turkiston mintaqasidagi istiqloqlchilik harakati o'z jug'rofiy doirasiga ko'ra uch hududga bo'linadi: Turkiston avtonomiyasi, Buxoro va Xorazm Xalq Respublikasi hududi. Istiqloqlchilik harakati dastlab Turkiston avtonomiyasi hududidagi Farg'ona vodiysida, shuningdek, Samarqand viloyatida boshlanib, keyinchalik o'zining eng baland cho'qqisiga ko'tarildi. Buxoro Respublikasida bu harakat SHarqiy Buxoro (hozirgi Tojikiston Respublikasi va O'zbekistonning Surxondaryo viloyati) va G'arbiy Buxoroda (hozirgi Buxoro va Navoiy viloyatlari), ayniqsa kuchaygan bo'lsa, Xorazm Respublikasida harakat asosan hozirgi Turkmaniston Respublikasining Toshavuz, Uzbekistonning Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida goz berdi.

Turkiston mintaqasidagi istiqloqlchilik harakati o'z rivojlanishi jarayoniga ko'ra katta ikki davrii bosib o'tdi: birinchi davr (1918—1924 yillar) va ikkinchi davr (1925—1935 yillar). Har bir davr harakat qatnashchilarining miqdori, qo'rboshilar, kurash taktikasi va janglar amaliyotiga ko'ra, shuningdek, alohida xususiyatlari bilan bir-biridan o'zaro farqlanuvchi mustaqil bir nechta bosqichlarga bo'linadi. Bu o'rinda shuni qayd etib o'tishga burchlimizki, istiqloqlchilik harakati mintaqada o'sha davr mavjud bo'lgan Turkiston avtonomiyasi, Buxoro va Xorazm Respublikalarining har birida o'z ichki qonuniyatlariga ko'ra bir-biridan o'zaro ajralib turuvchi bosqichlarga ham bo'linadp.

Istiqlolchilnk harakati tarixining davrlashtirish haqidagi mulohazalarimiznn dastlab Turkiston avtonomiyasi xususan, Farg'ona vodiysi misolida asoslab bermoqchimiz.

Farg'ona vodiysidagi istiqolchilnk harakati 1918—1924 yillardagi birinchi davrda bir-biridan mustaqil uch bosqichga bo'linadi. 1918 yil fevralidan 1920 yil martigacha davom etgan birinchi bosqichda dastavval Qichik va Katta ergash, so'ngra Madamnibek mujohidlar armiyasiga qo'mondondik qildilar. Bu paytda faqat Farg'ona vodiysidagi istiqolchilarning harbiy kuchlari 70.000 yigitdan kam bo'lmagan. Mazkur bosqichda vodiyni deyarli butun hududi istiqolchilar qo'lida bo'dgan, ular katta zafarlarga erishganlar, qizil armiyaga qarshi g'olibona harbiy harakatlarni olib borishgan. Marg'ilon, Namangan, O'sh, Jadalobod, CHust shaharlari to'liq. Andijon va Qo'qonning bir qismi esa istiqolchilarning qo'liga o'tgan.

Sovet rejimi faqat temir yo'l bekatlarida, viloyatning ma'muriy markazi Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahrida saqlanib qolgan. Madaminbek boshchiligidagi 1919 yil 22 oktyabrda Pomirdagi ergashtom (Irkeshtam) ovulida «Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati»ning tuzilishi istiqolchilik harakatining mantiqiy yakuni, fidoyi bobolarimiz kurashining dastlabki mevasi bo'ldi.

Samarqand viloyatida ham bu paytga kelib istiqolchilik harakati boshlandi va ular farg'onalik birodarlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga harakat qildilar. Turkiston frontining tashkil qilinishi va M. V. Frunzening bu erga kelishi natijasida istiqolchilar 1920 yil qish va ko'klamda bo'lgan janglarda dastlabki yirik mag'lubiyatga uchradilar.

Madaminbekning sovet hokimiyati vakillari bilan o'zaro tinchlik shartnomasiga imzo chekishi va uning oradan ko'p vaqt o'tmay vahshiyona qatl etilishi bilan Farg'onadagi istiqolchilik harakatining birinchi bosqichi tugadi. Ikki yildan ziyod davom etib, 1920 yil bahorida yakunlangan bu bosqichda sovet hokimiyati Farg'ona vodiysida omonat turdi. Istiqolchilar o'zlarining fidokorona kurashlari bilan bosqichi qizil askarlarning tinkasini quritishar, vodiydagi vaziyatni boshqarib turishar edi. Vatanparvarlar armiyasi erk va mustaqillik uchun olib borgan kurashlarini aslo bo'shashtirmadilar. Farg'ona vodiysiga 1920 yilning boshida Rossiya markazidan tashlangan katta miqdordagi harbiylar kuchlar nisbatini bosqinchi sovet armiyasi tomoniga burib yubordi. Qizil imperiyaning tashvi-qotchi mashinasi benuqson ishlab, o'zining havoyi va dabdabali shiorlari bilan istiqolchilar qatoriga dastlabki rahna solishga muvaffaq bo'ldi. Milliy ruhning birlashishi qiyin kechdi. Millat

orasidan chiqqan yangi tuzum siyosatdonlari (Turor Risqulov, Inomjon Xidraliev va b.) bilan harbiy rahbarlar (Madaminbek, SHermuhammadbek, qo'rboshi va b.) hamkorligi ham shirin orzuligicha qolib ketdi.

1920 yilning bahoridan boshlab to 1922 yilning oxirigacha bo'lgan ikkinchi bosqichda istiqolchilar qo'shiniga SHermuhammadbek qo'mondonlik qildi. SHermuhammadbek boshchiligidagi 1920 yil 3 mayda «Turkiston— turk mustaqil islom jumhuriyati» tuzildi va 1922 yil aprel oyida ushbu Turkiston muvaqqat hukumatining vaqtinchalik Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bolshevikcha rejim va Turkfront rahbarlari Farg'ona vodiysiga yangidan-yangi kuchlarni tashlab turganliklari, askarlar barcha zamonaviy urush qurollari bilan tish-tirnog'igacha qurollanganliklariga qaramasdan sovet hokimiyati bu srda 1922 yil kuzi va qishigacha jiddiy bir yutuqqa erisha olmadi.

SHermuhammadbek boshchiligidagi Turkiston muvaqqat hukumatining 1922 yil oxirida tarqalib ketishi va bek tomonidan dekabr oyining so'nggi kunlarida Farg'ona vodiysinpng tark etilishi bilan istiqolchilik harakatiniig ikkinchi bosqichi tugadi. Qariyb uch yil davom etgan va asosan SHermuhammadbek nomi bilan chambarchas bog'liq ushbu bosqichda istiqolchilar vodiydagi qizil armiya jangchilariga qaqshatqich zarbalar berishga muvaffaq bo'ldilar. Kurash yana ham shiddatli va shafqatsiz tus oldi. Bu paytda Bahrombek va Ochil qo'rboshi etakchiligidagi Samarqand viloyati istiqolchilari ham qizil askarlarga qarshi hayot-mamot janglarini olib borishdi. Istiqolchilar hamda jadidlar boshchiligidagi tashkil qilingan Turkiston muvaqqat hukumati va Ahmad Zakiy Validiy To'g'on rahbarligidagi Turkiston Milliy Birligi tashkiloti ozodlik kurashining mantiqiy hosilasi sifatida istiqolchilarning g'oyaviy jihatdan jipslashda muhim rol o'ynadi.

1923—1924 yillarda davom etgan uchinchi bosqichda istiqolchilar qo'shini kichik-kichik dastalarga bo'lingan holda vodiya jang ha-rakatlarini olib borishdi. Farg'onada kichik qo'rboshi dastalarining miqdori 1923 yilda kamida 350—400 atrofida edi. Ularga bu davrda oldin Islom Pahlavon, keyin YOrmat Maxsum kabi qo'rboshilar rahbarlik qildilar. Biroq 1923 yilnshtg oxiriga kelganda sovet hokimiyati va bolshevikcha rsjinning Farg'ona vodiysidagi istnqolchilik harakatiga qarshn keng ko'lamda olib borgan urush harakatlari natijasida mujohidlarnipg ahvoli iihoyatda og'irlashdi. Bundan keyin qo'rboshilar turli sabablar va mahalliy shart-sharoitlar

natijasida bir-biri bilan doimo ham kelishib ish tutmadilar. erk va istiqloq kurashining ushbu bosqichida har bir qo'rboshi yoki istiqloqlolchilar guruhining boshlig'i o'zi joylashgan va harakatda bo'lgan makonning xo'jaynni deb hisoblab, o'z holicha ish yurita boshladi. Bu hol qizil askarlar va ularning qumondonlariga juda qo'l keldi. Istiqloqlolchilar qo'lidan vodiydagi barcha yirik qishloqlar va shaharlar tortib olindi. Ular o'zlarining kichik-kichik dastalari bilan tog'u toshlarda, dasht va adirlarda kurashni davom ettirdilar. Etti yillik tinimsiz muhorabadan charchagan istiqloqlolchilarning aksariyat qismi 1923 yilning oxiri va 1924 yilning boshlariga kelib, qurolni tashlashgan majbur bo'ldilar.

SHunday bo'lishiga qaramasdan, Turkiston mintaqasidagi mustaqillik uchun kurash bir daqiqa ham tinmadi. Tarixchi Boymirza Hayitning yozishicha, 1924 yil 1 mayda faqat Farg'ona vodiysida 70 ta kichik qo'rboshi dastalari qizil askarlarga qarshi urush olib bordilar, 1924 yilning oxirlariga kelganda Fargona vodiysidagi istiqloqlolchilik harakatining birinchi davri yakunlandi. Etti yil davom etgan ozodlik kurashi jarayonida istiqloqlolchilar o'z fidoyiliklari va katta qurbonlar berish evaziga qizil armiya qismlarini doimo tahlikaga solib turdilar. O'lkadagi bolshevik rejimi o'zining butun kuch g'ayratini istiqloqlolchilik harakatini tor-mor qilish va uni butunlay tugatishga safarbar qildi. Turkfront qo'mondonli-gi tomonidan olib borilgan harbiy harakatlar natijasida Farg'ona vodiysidagi istiqloqlolchilik harakati vaqtinchalik maglubiyatga uchradi.

Sobiq Buxoro amirligi o'rni tashkil topgan Buxoro Respublikasidagi mujohidlar yoxud istiqloqlolchilik harakatining birinchi davri (1920—1924 yillar) ham mustaqil uch bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqichda (1920 yil kuzi—1921 yil oktyabr) sobiq amirlik hududida mujohidlar harakati boshlandi. Dastlab SHarqiy Buxoroda yuzaga kelgan ushbu harakat tez orada butun Buxoro Respublikasi hududini qamrab oldi va dastlabki porloq g'alabalarga erishdi. Qizil askarlarga qarshi kurashni oldiniga Buxoroning sobiq amiri Said Olimxon boshqarishga urindi. Biroq 1921 yil martda u SHarqiy Buxoro hududidan Afg'oniston davlatiga o'tib ketdi. Mujohidlar qo'shiniga SHarqiy Buxoroda Ibrohimbek Laqay, Buxoro, Karmana, Nurotada esa Mulla Abdulqahhor qurboshilar rahbarlik qilishdi.

Harakatning ikkinchi bosqichi (1921 yil noyabr—1922 yil avgust) uning eng kuchaygan davri bo'lib, bu turkiyalik mashhur sarkarda Anvar Poshonng Buxoroga kelishi bilan bevosita bog'liqdir. Mujohidlar bu

paytda deyarli butun SHarqiy Buxoroni (Tojikistonning hozirgi paytdagi poytaxti Dushanbeni ham) qizil askarlar qo'lidan ozod qilishdi. Dushanbe, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Hisor, Denov, SHERobod, Boysun shaharlari ularning tasarrufiga o'tdi. Qizil askarlar ixtiyorida faqat YAngi Termiz shahri va Boysun garnizonigina saqlanib qoldi. G'arbiy Buxorodagi mujohidlar ham Mulla Abdulqahhor boshchiligidagi respublika poytaxti Buxoro shahrining katta qismi va uning atrof tumanlarini egalladilarki, bu voqea istiqloqlolchilik harakati tarixiga zarhal sahifalar bo'lib yozildi.

Buxoro Respublikasidagi mujohidlar harakatishshg Turkistondan, xususan, Farg'ona vodiysidagi istiqloqlolchilik harakatidan farq qiladigan asosiy tomoni shundan iboratki, vatanparvarlar Buxoroda ikki jabhada turib kurash olib borishlariga to'g'ri keldi. Bir tomondan, amirlik tuzumi tarafdori bo'lgan mujohidlar jadidlardan iborat yosh Buxoro hukumatiga va shuningdek, bosqinchi qizil armiya qo'shinlariga qarshi kurash olib bordilar. Ularning pirovard maqsadi Buxoro sharifda amir Said Olimxonning hokimiyatini qayta tiklash, qizil askarlar va kommunistlar bilan birgalikda, ularning ta'biricha «kofirlarga sotilgan jadidlar hukumati»ni ham yo'qotish edi (Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor va b.). Ikkinchi tomondan, milliy istiqloq g'oyalarga sodiq bo'lgan buxorolik va-tanparvarlar Fayzulla Xo'jaev boshliq Buxoro Xalq Respublikasi hukumati bilan yashirin aloqalar o'rnatib, Buxoroning muqaddas tuprog'idan qizil askarlarning olib ketilishi, Buxoro Respublikasinnng mustaqilligi amalda qaror topishi uchun kurashdilar (Anvar Posho, Davlatmandbek, Jabborbek, Doniyolbek va b.).

«Mujohid» — so'zning lug'aviy ma'nosi «e'tiqod uchun kurashuvchi kishi» demakdir. «Mujohidlar» deb o'sha pzytda Turkiston, xususan, Buxorodagi qizil armiyaga qarshi kurashgan kishilarni aytilgan. Lxiv hujjatlarida kstirili-nshcha; faqat nufu.chli shaxslarning tavsiyasi bilai qo'shinga qabul qilpgan ko'n-gillilar mujohidlar deb atadgan. Lsrimiz boshlarida bosqinchi qizil armiyaga qarshi kurashgan fidoiy mujohid bobolarmmieni Afg'onistonda hozir ham bir-biriga qarshi jang qilayotgan turln mujohid guruhlar va islom dini niqobi ostida faolint ko'rsatayotgan ayrim «mujohidlar» bilan chalkastirib yubormaslik lozim. Aynan ular safiga keyinchalik Buxoro jumhuriyatining juda ko'pchilik rahbarlari (Buxoro MIQ.sining birinchi raisi Usmonxo'ja Po'latxo'jaev, CHQ raisi Muhiddin Maxsum Xo'jaev, rsspublika militsiyasi-ning boshlig'i Ali Rizo afandi, SHERobod viloyati

noziri Hasan afand, Termiz militsiyasining boshlig'i Usmon afandi, turkman ko'ngilli askarlarining boshlig'i Qulmuhammedov, harbiy ishlar noziri Abdulhamid Oripov, shuningdek, Surayyo afandi, Donnyolbek va b.) qo'shildilarki, bu arboblarning aksariyati kechagi jadidlar va YOsh buxoroliklar edi.

Buxorodagi bu harakat Anvar Poshoning kelishi bilan o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi.

Butun Turkiston hududida bolsheviklar va sho'rolarga qarshi kurashayotgan vatanparvar kuchlarning harakatlari yagona markazga muvofiqlashtirildi. SHu vaqtda Buxoro, Farg'ona, Xorazm qo'rboshilarining uchrashuvlari muntazam o'tkazilib turildi va ularga kerakli yo'l-yo'riqlar berildi. Aivar Posho bilan SHermuhammadbek va Junayidxon o'rtasida doimiy ravishda o'zaro aloqalar bo'lib turgan.

Anvar Posho vafotidan so'ng (1922 yil 4 avgust) bu harakat «yaxlit bir uyushgan siyosiy kurash» darajasidan o'z bo'lsa-da pastga tushdi.

Buxoro Respublikasidagi mujohidlar harakatining uchinchi bosqichida (1922 yil sentyabr—1924 yilning oxiri) harbiy harakat asosan ikki yo'nalish: SHarqiy Buxoroda Ibrohimbek boshchiligidagi va G'arbiy Buxoroda Mulla Abdulqaxhor etakchiligidagi kechdi. Bu paytda Ibrohimbek, Salim Posho, Mulla Abdulqahhor harakatga umumiy ravishda rahbarlik qildilar, SHarqiy Buxorodagi qo'rboshilarni birlashtiruvchi kuch yana Ibrohimbek siymosida namoyon bo'lgan bo'lsa ham ular bilan Buxoro va Karmana (G'arbiy Buxoro), Qashqadaryo va qisman Surxondaryo (O'rta Buxoro) viloyatlaridagi mujohidlar o'zaro hamkorlikda ish olib bormadilar. Aniqroq qilib aytganda Buxoro Respublikasidagi vatanparvarlar doimo ham yagona bir qo'mondon qo'li ostida va yaxlit bir dastur asosida faoliyat yuritibilmadilar.

Xiva xonligi hududi va Xorazm Xalq Respublikasidagi vatanparvarlar harakati esa o'zgacha sharoitda kechdi. Bu erdagi tang siyosiy vaziyat, millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi kurash jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Turkman urug'laridan biri bo'lgan yovmutlarning etakchisi Qurbon Mamed Sardor—Junayidxon Xorazmda Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi olib borilgan kurashga etakchilik qildi. SHuningdek, amalda Xiva xonligining mutlaq hukmdoriga aylangan Junayidxon barcha davlat lavozimlariga o'z kishilarini tayinladi. Xiva xopligi va sobiq xonlik o'rnida tashkil topgan Xorazm Xalq Respublikasida bosqichi qizil armiya qismlariga qarshi olib borilgan kurash bir-biridan mustaqil uch davrga bo'linadi.

Birinchi davr 1918 yil o'rtalaridap boshlab to 1920 yil boshlarigacha davom etdi. Bu paytda Junayidxon boshchiligidagi arbozlar Turkistonning Amudaryo bo'limida (aslida xonlikning avvalgi hududida) joylashgan qizil askarlarga qarshi hujumlar uyushtirib turishdi. Bu janglarda Junayidxonning yigitlari bo'lg'usi kurashlar uchun mashaaqqatli sinovdan o'tishdi. Junayidxon Xivada hukmronlik qilgan davrda (1918 yil noyabr — 1920 yil yanvar) Xiva xonligi amalda mustaqil davlatga aylandi. Junayidxonning qattiqqo'l sissati bunda muhim rol o'ynadi.

Biroq, 1919 yil noyabr-1920 yil yanvar oyida bo'lgan keskin janglar natijasida Junayidxon qo'shini mag'lubiyatga uchradi. 1920 yil 2 fevralda Xivada xonlik tuzumi ag'darib tashlanib, 1920 yil aprelda Xorazm Xalq Respublikasi tashkil topdi. Polvonniyoz Hoji YUsupov boshchiligidagi yosh xivalik jadidlar hokimiyat tepasiga ke-lishdi.

Bosqinchi qizil armiyaga qarshi vatapparvarlar kurashining ikkikchi davri uning eng shiddatli qismini tashkil etib, o'z ichiga 1920—1924 yillarni oladi. Uz navbatida bu davr ham uch bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqichda (1920 yil bahori — 1921 yil mart) mag'lubiyatga uchragan Junayidxon o'z qo'shinlari safini qaytadan to'ldirdi, o'ziga yangi ittifoqchilar izladi. Junayidxonning adolatli siyosatidan rozi bo'lgan nafaqat turkmanlar, balki o'zbeklar, qoraqalpoqlar, qozoqlar ham uning lashkariga kelib qo'shildi. Bu paytda Xorazm jumhuriyati raisi bo'lgan P. YUsupov bilan Junayidxon o'rtasida ayrim masalalarda kelishuvga erishildi, natijada sardorning yigitlari faol jang harakatlaridan o'zlarini cheklab turishdi. Biroq qizil askarlarning 1921 yil martda o'tkazgan navbatdagi davlat to'ntarishidap keyin Xorazm Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada keskinlashdi, kurash shafqatsiz va shiddatli tus oldi.

Ikkinchi bosqichda (1921 yil bahori—1923 yil kuzi) Junayidxon yigitlarining qizil askarlarga qarshi kurashi sezilarli darajada jonlandi. Xususan, 1922 yil ko'klamda Junayidxon Xorazm-da o'z faoliyatini kuchaytirdi. Bu paytda uning qo'li ostidagi 15000 mujohid qizil askarlarga qarshi bo'lgan janglarda qatnashdi. 1922 yil aprel oyida Porsu va uning atroflari, ko'hna Urganch yonidagi qishloqlar bosqinchi askarlardan ozod qilindi. Biroq hal qiluvchi janglar Qoraqumni bepoyon qumlarida bo'lar edi.

Uchinchi bosqichda (1923 yil oktyabr—1924 yil oxiri) Xorazmdagi vatanparvarlar kurashi o'zining eng baland cho'qqisiga chiqdi, avj nuqtasiga ko'tarildi. Xorazm Respublikasi hukumatining

«sotsialistika» qurilish yo'liga o'tish to'g'risidagi keskin yangi siyosatidan norozi bo'lgan barcha kishilar mujohidlar safini to'ldirdi. Mamlakatning markaziy va janubiy qismlarida bir qator sardorlar harakatni avj oldirishdi. Junayidxon qo'lida bu paytga kelib katta miqdordagi harbiy kuch to'plandi.

1923 yil dekabr oyida Pitnak, Hazorasp, Bog'ot, Xonqa tumanlarida sovet hokimiyatiga qarshi dehqonlarning ommaviy qo'zg'olonlari boshlanib ketdi. Qo'zg'olonchilar ushbu joylardagi sovet tashkilotlarini tugatib, mamlakat poytaxti Xiva shahri ustiga yurish qildilar. Qoraqumda turgan Junayidxon qo'shinlari ham G'arb tomondan kelib, bir vaqtning o'zida shahar qurshab olishdi (1924 yil yanvar-fevral). Biroq, 1924 yil mart-aprel oylarida bo'lgan janglar natijasida faqat aviatsiyaning yordami bilangina Qoraqumdagi Junayidxon qo'shinlarining asosin qismi tor-mor keltirildi.

1924 yil noyabr oyida sovet hokimiyati vakillari bilan Junayidxon o'rtasida muzokaralar boshlandi. Sovet hokimiyatiga qarshi 7 yildan buyon tinimsiz kurash olib borayotgan Junayidxon o'z kuchlarini saqlab qolish uchun muzokaralar samarali tugashidan manfaatdor edi. Nihoyat, uzoq davom etgan muzokaralardan keyin Junayidxon sovet hokimiyati vakillariga taslim bo'ldi.

SHunday qilib, Xorazm Respublikasidagi mujohidlar harakati 1924 yilning oxirida asosan tor-mor qilindi. Harakatning ikkinchi davri ham poyoniga etdi. Lekin Xorazmda ham, Buxoroda ham, hatto Farg'ona vodiysida ham kurash hali davom etar edi. 1924 yilning oxirida Turkiston mintaqasida milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishi natijasida Turkiston, Buxoro va Xorazm Respublikalari tugatilib, ularning hududi O'zbekiston Respublikasi (turkibida 1929 yilgacha Tojikiston avtonom Respublikasi ham bo'lgan) va Turkmaniston Respublikasi shuningdek, Qoraqalpogiston Muxtor viloyati tarkibiga kiritildi.

Turkiston mintaqasidagi istiqlolchilik harakatining ikkinchi davri 1925—1935 yillarni o'z ichiga oladi. Qurashning ikkinchi davri 10 yil davom etib o'zining xarakteri va kuchlari nisbati jihatidan birinchi davrga nisbatan ancha farq qiladi. Bu davrda asosan Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida o'nlab qo'rboshi dastalari mavjud bo'lib, ular imkoniyatlari doirasida mavjud tuzumga qarshi kurash olib bordilar. Farg'ona qo'rboshilarining so'nggi umumiy etakchisi YOrmat Maxsum edi. Tojikistonda Ibrohimbek,

Turkmanistonda Junayidxon boshchiligidagi qizil askarlarga qarshi milliy istiqlol janglari olib borildi.

Uz paybatida ikkinchi davr ham bir-biridan o'zaro farqlanuvchi mustaqil to'rt bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich 1925—1926 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda kurash asosan SHarqiy Buxoroda Ibrohimbek etakchiligidagi va Farg'ona vodiysida kechdi. Xususan, Ibrohimbek yigitlari qizil askarlarga qarshi shiddatli janglar olib borishdi. Lekin kurash astasekin pasaya boshladi. Qariyb 10 yil davom etgan tinimsiz janglardan ular charchashgan edi. Mujohidlarning ko'pchilik qismi o'z sardorlari etakchiligidagi Afg'oniston davlatiga o'tib ketgach, janglar deyarli to'xtadi.

Harakatning ikkinchi bosqichi o'z ichiga 1927—1929 yillarni olgan bo'lib, bu paytda faqat ayrim joylarda juda kichik qo'rboshi dastalari o'z holicha sovet rejimiga qarshi kurashga ko'tarildi. eng katta janglar Junayidxon Turkmanistonda 1927 yil 19 sentyabrda qo'zg'olon ko'targach, yuz berdi. 1929 yilda jang harakatlari faollashdi. Biroq bu bosqich harakat tarixining eng sokin kechgan davri bo'lib, go'yo qaqshatqich janglar oldidan bo'lajak dahshatli sukutni eslatar edi.

Harakatning uchinchi bosqichi 1930—1931 yillardan iborat bo'lib, kurash qaytadan shiddatli tus oldi. Uzbekistonda 20-yillarning oxiriga kelib, kollektivlashtirishning majburiy suratda amalga oshirilishi va zo'ravonlik yo'li bilan dehqonlarning kolxozlarga kiritilishi natijasida istiqlolchilik harakati qaytadan gurillab alanga oldi. 1930 yil Farg'ona vodiysida o'nlab qo'rboshi dastalari harakat qilgay. Bu paytda Farg'ona qurolli muxolifatining asosiy manzili tog'lar orasidagi So'x tumani edi. So'x tumani uch respublika: O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston chegaralari kesishgan o'rinda joylashgan bo'lib, strategik mavqeiga ko'ra bu erdan butun Farg'ona vodiysini nazorat qilib turish imkoniyati mavjud edi.

Uchinchi bosqichda Tojikistonda Ibrohimbek boshchiligidagi janglar qaytadan avj oldi. 1931 yil 23 iyunda Ibrohimbekning sovet chekistlari tomonidan qo'lga olinishi bilan kurashning shiddatkor ko'lami ancha tushib ketdi. Turkmanistonda Junayidxon etakchiligidagi mujohidlar ham hayot-mamot janglarini olib borishdi. 1931 yil 4 mayda uning o'g'li eshim boshchiligidagi guruh Xiva tumaniga kelib, qo'zg'olon ko'tardi. Lekin Sardorning eron orqali Afg'onistonga 1931 yilda butunlay o'tib ketishi bu erda ham jang harakatlariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Kurashning so'nggi to'rtinchi bosqichi 1932—1935 yillarni o'z ichiga olib, bu paytda u asta-sekin pasayib, jang harakatlari tina boshladi. 1933—1935 yillarda Qoraqumda Durdi Murod va Ahmadbek, Farg'ona vodiysidagi So'x tumanida Jiyon qo'rboshi askarlarga qarshi kurashdi. Mujohidlarning aksariyat qismi mustaqillik janglarida shahid bo'ldi, ularning ayrimlari asir tushishdi ham. Tirik qolgan vatanparvarlar esa xorijiy davlatlarga muhojir bo'lib jo'nub ketishga majbur bo'lishdi. Manbalarda bunday odamlarning miqdori 1 mln. kishi atrofida keltiriladi.

SHunday qilib, qariyb 20 yil davom etgan milliy istiqlol kurashi faqat 1935 yilga kelib Turkiston mintaqasida butunlay mag'lubiyatga uchradi. Biroq istiqlol janglari 1991 yilda Markaziy Osiyo respublikalarining davlat mustaqilligiga erishishlari uchun puxta zamin tayyorladi. Turkiston istiqloli yo'lida yovqur bobolarimizning to'kilgan qutlug' qonlari behuda ketmadi.

1935 yil fevralida joriy etilgan yangi qishloq xo'jalik nizomi kolxozchilarga yordamchi xo'jalikka ega bo'lishga ruxsat etdi. SHunga qaramasdan O'zbekistonda ajratiladigan er uchastkasi miqdori markaziy miptaqalarga nisbatan ikki barobar kamroq edi. Ayniqsa, aholi juda zich joylashgan Farg'ona vodiysi qishloqlarida shaxsiy tomorqa uchastkalari juda ham kichkina edi. Buning ustiga, ko'pgina kolxozchilarga er uchastkasi ajratib berilmagan edi. Masalan, 1937 yilda rsspublikadagi 66 ming kolxozchi xonadoni (28,37 foiz) tomorqa uchastkasiga ega bo'lmagan, 140 ming xonadonning eri belgilangan eng oz me'yordan ham kamroq edi.

Bu davrda axolining aksariyat qismi qishloqlarda yashashini xisobga olgan xolda o'zbek xalqi xayot tarzini aks ettiruvchi shaxsiy tomorqalar tarixshunosligi xam aloxida urganilmoqda. Iqtisodchi G.I.SHmelev asarida Sovet ittifoqida 1930-1980 yillarda shaxsiy tomorqa xo'jaligining ahvoli, rivojlanishi kabi masalalar tahlil qilingan. Ushbu muallif respublika bo'yicha bu davr ichida tomorka erlar ajratish biroz ko'paygan bo'lsada, ammo, «...kolxozlarda katta-katta er maydonlari, arzon ishchi kuchi, traktorlar bo'lgap holda, odamlarning shaxsiy tomorqa erlari 1/5 yoki 1/3 gektar bo'lib, ularda ishlash uchun dehqonda faqat belkurak va xaskash bor xolos. Lekin shunday bo'lsada, shaxsiy tomorqa xo'jaliklari qishloq xo'jaligida etishtirilayotgan mahsulotning chorak qismini bermoqda», deb ma'lumot beradi.

Qishloq xo'jaligini jamoalashtirishning eng avj nuqtasiga etgan 1932 yilda shaxsiy tomorqaga ega dehqon (kolxozchi)larda 430,9 ming bosh yirik shoxli qoramol, 224,4 mingta sog'in sigirlar, 0,5 mingta cho'chqa, 79,5 mingta qorako'l qo'ylari, 122,5 mingta qo'y, 157,2 mingta echki va 16,4 mingta ot bo'lgan. Bu vaqtda ishchi va xizmatchilar deyarli shaxsiy tomorqalarga ega bo'lmagan, shuning uchun ham ular hisobida chorva mollari ro'yxatga olinmagan. YAkka tartibdagi dehqon xo'jaliklari jami 1016,6 ming bosh chorva mollari bo'lib, ularning soni ikkinchi jahon urunti boshlanishiga qadar kamayib borgan hamda urushdan so'ng ular qo'lida birorta ham chorva mollari qolmagan. Buning asosan ikkita sababi bo'lib, birinchisi, qishloq xo'jaligini yoppasiga jamoalashtirish natijasida yakka tartibdagi dehqon xo'jaliklaridan chorva mollari davlat foydasiga tortib olingan. Ikkinchisi, 1941 yil sovet ittifoqi hududiga fashistlar bostirib kirgandan so'ng, frontdagi jangchilarni oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun dehqonlar o'z chorva mollari topshirishgai. Aksiticha dehqonlar, ishchi va xizmatchilar shaxsiy tomorqa xo'jaligida boqiladigan chorva mollari soni ikkinchi jahon urushiga qadar oshib borgan. 1941 yildan shaxsiy xo'jaliklardagi chorva mollari yarmidan ko'piga kamaygan bo'lsa, 1964 yilga kelib, 1932 yildagiga nisbatan ikki borobar ko'proqni tashkil qilgan.

Moddiy hasti tomorqa xo'jaligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan o'zbek xalqining turmush darajasiga urush katta zarba bo'lgan. e'tiborli tomoni shundaki, yuqoridagi jadvalga nazar tashlasak, urush yillarida kolxozchilar, itchi va xizmatchilarning shaxsiy tomorqalarida boqiladigan cho'chqalar soni boshqa chorva mollari soniga teskari ravishda ortib borgan. Bunga urush paytida ittifoqning g'arbiy o'lkalaridan bolshanasiz qolgan oilalar, yosh bolalar hamda yarador bo'lganlarning ko'pchiligini O'rta Osiyo xususan O'zbekistonga ham evakuatsiya qilinishi natijasida tomorqa xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi rusiyazon kolxozchi, ishchi va xizmatchilarning soni ortganligi sabab bo'lgan. SHuningdek, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxsiy tomorqalarda boqiladigan echkilar soni keskin ravishda kamayib borgan. Paxta maydonlarining ortishi hisobiga tomorqa maydonlarining qisqarishi bir sabab bo'lsa, echkilarning kemiruvchilik xususiyati va boshqa chorva mollariga nisbatan kamnafilligi ikkinchi sababdir.

CHorva mollari (1 yanvar xolatiga: ming bosh hisobida)

SHaxsiy tomorqa xo'jaligi	1932 yil (iyun)	1938 yil	1941 yil	1954 yil	1960 yil	1962 yil	1964 yil
Yirik shoxli qoramol							
Dehqonlar	439,7	945,0	983,2	533,8	741,7	755,8	801,7
Ishchi-xizmatchilar	-	101,7	150,3	123,4	355,0	348,9	370,5
YAkka tar. deh. xo'ja	291,9	21,8	3,7	-	-	-	-
Sog'in sigirlar							
Dexdonlar	224,4	394,5	454,3	239,9	373,7	386,5	420,9
Ishchi-xizmatchilar	-	45,7	80,2	58,1	199,9	206,2	228,1
YAkka tar. deh. xo'ja	126,9	9,3	1,8	-	-	-	-
CHO'chqalar							
Dehqonlar	0,5	3,5	6,0	10,2	7,1	5,4	4,1
Ishchi-xizmatchilar	-	38,0	42,7	32,8	12,2	10,5	6,5
YAkka tar. deh. xo'ja	2,4	0,2	-	-	-	-	-
Qorako'l qo'ylari							
Dehqonlar	79,5	461,6	422,0	50,9	195,1	305,4	356,2
Ishchi-xizmatchilar	-	7,5	15,3	5,7	87,8	117,2	148,4
YAkka tar. deh. xo'ja	159,3	7,9	-	-	-	-	-
Qo'ylar							
Dehqonlar	122,5	404,1	578,6	249,7	339,2	365,6	390,0
Ishchi-xizmatchilar	-	32,7	86,8	64,0	316,2	377,8	402,8
YAkka tar. deh. xo'ja	98,5	37,0	-	-	-	-	-
Echkilar							
Dehqonlar	157,2	863,5	1007,1	321,0	154,3	116,5	90,0
Ishchi-xizmatchilar	-	75,3	98,2	129,5	169,4	125,4	44,6
YAkka tar. deh. xo'ja	212,4	79,7	11,8	-	-	-	-
Otlar							
Dehqonlar	16,4	20,7	19,9	2,8	1,4	1,9	0,6
Ishchi-xizmatchilar	-	11,1	5,9	0,6	1,6	2,2	0,4
YAkka tar. deh. xo'ja	125,2	6,2	-	-	-	-	-

1964 yilda chop etilgan statistik to'plamdagi ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonda jami 2567,5 ming gektar sug'oriladigan er bo'lib, shundan 116,7 gektari dehqonlar, ishchi va xizmatchilar mehnat

qiladigan shaxsiy tomorqa erlari hisoblangan. Respublika bo'yicha sug'oriladigan shaxsiy tomorqa erlarining 86,9 ming gektari kolxozlarda mehnat qiluvchi dehqonlar hisobiga to'g'ri kelsa, 29,8 ming gektari sovxozlarda bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi va boshqa davlat ishlarida ishlovchi ishchi-xizmatchilar hissasiga to'g'ri kelgap. Hududiy jihatdan olganda esa eng ko'p sug'orishga asoslangan shaxsiy tomorqa erlari Farg'ona vodiysida 38,1 ming gektar, ya'ni respublika bo'yicha jami sug'oriladigan erlarning 1/3 qismini tashkil qilgan. Undan keyingi o'rinlarda Toshkent, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari bo'lib, eng kam sug'oriladigan shaxsiy tomorqa erlar Qoraqalpog'iston Respublikasida 5,2 ming gektar bo'lgan. 1962 yilda Qoraqalpog'iston ASSR va viloyatlarda foydalaniladigan sug'orma srtlar ulushi quyidagi jadvalda keltirilgan:

Kolxozlar, sovxozlar va boshqa davlat xo'jaliklari; ming gektar

Hudud	Davlat hisobidagi jami foydalaniladigan sug'orma er	Dehqon, ishchi va xizmatchilar hisobidagi shaxsiy tomorqa erlar
Uzbekiston SSR	2567,5	116,7
Toshkent viloyati	329,0	16,1
Sirdaryo viloyati	290,7	13,5
Farg'ona viloyati	297,0	14,5
Andijon viloyati	436,2	23,6
Samarqand viloyati	280,6	13,0
Buxoro viloyati	223,4	8,8
Qashqadaryo viloyati	195,6	6,8
Surxondaryo viloyati	162,9	7,8
Xorazm viloyati	148,2	7,4
Qoraqalpog'iston ASSR	203,9	5,2

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, shaxsiy tomorqa erlarining asosiy qismi O'zbekistonning markaziy-sharqiy mintaqasiga to'g'ri kelmokda. Buning bir nechta o'ziga xos sabablari bor, birinchidan Toshkent, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari va Farg'ona vodiysi tabiiy iqlim sharoitining poliz hamda bog'dorchilik maqsulotlarini etishtirish uchun qulayligi, ikkinchidan, suv resurslarining etarli darajada ko'pligi, uchinchidan ushbu viloyatlarda Respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan aholiing zichligi va nihoyat to'rtinchi sabab, bu hududlarda yashovchi odamlarning shaxsiy tomorqada ishlash bo'yicha asriy tajribalarining ko'pligi va mehnat omilkorligi sabab bo'lgan.

Qishloq xo'jaligida madaniy ekinlar hisoblangan, makkajo'xori, kartoshka, beda, kanop, tamaki, sholining tomorqa xo'jaligidagi maydoni 1940 yilda jami 107,8 ming gektarni tashkil qilgan. SHundan 102,6 ming gektar maydondagi ekinlar kolxozchilarning, qolgan 5,2 ming gektardagi ekinlar ishchi va xizmatchilarning shaxsiy tomorqa maydonlariga to'g'ri kelgan. 1963 yilda shaxsiy tomorqalarda ekiladigan madaniy ekinlar maydoni 85,2 ming gektardan iborat bo'lib, 59,3 ming gektari kolxozchilar, 25,9 ming gektari esa ishchi va xizmatchilar tomorqasi bo'lgan. Raqamlardan ko'rinib turibdiki, vaqt o'tishi bilan shaxsiy tomorqalarda ekiladigan madaniy ekinlar maydoni qisqarib borgan. Ikkilamchi oziq-ovqat mahsulotlari hisoblangan madaniy ekinlar maydonining shaxsiy tomorqalarda qisqarib borishiga, 1960-yillarda boshlangan paxta monokulturasiga katta ta'sir o'tkazgan. Madaniy ekinlar maydopi ming gektar hisobida

SHaxsiy tomorqa	1940	1953	1958	1959	1960	1961	1962	1963
Kolxozchilar	102,6	63,6	63,8	64,8	58,7	56,8	59,3	59,3
Ishchi va xizmatchilar	5,2	10,8	27,2	26,4	27,5	26,7	25,9	25,9
Jami:	107,8	74,4	91,0	91,2	86,2	83,5	85,2	85,2

SHaxsiy tomorqa xo'jaligi deyilganda faqat er va suvdan foydalanib dehqonchilik qilish emas, balki bor resurslar negizida chorva mollari, parranda boqish, asalarichilik bilan ham shugullanish tushuniladi. CHorva mollari boqish tomorqa xo'jaligi bilan shutullanuvchi aholining asosiy daromad manbalaridan hisoblanib, birinchi navbatda shu xo'jalik a'zolarining shaxsiy ehtiyojlarini qondirgan va qolgan qismi yo bozorga chiqarilgan yoki xarid bahosida davlatga topshirilgan.

Xulosa qilib aytganda, dehqonlarning shaxsiy tomorqa xo'jaligi oziq-ovqat zaxiralarini ko'paytirishdagina emas, shu bilan birgalikda aholining ayniqsa qishloq aholisining turmush darajasini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Respublikamiz viloyatlariining shahar markazidagi ancha olis, transport qatnovi qiyin bo'lgan chekka qishloqlarida shaxsiy tomorqa iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishda birinchi o'rinda turgan. Tomorqa xo'jaligining ahamiyati nafaqat qishloq aholisi, balki davlat xo'jaligida ham katta o'rin tutgan.

O'zbekistonda sovet davlati boshqaruv tizimi tarixining shakllanishi, bosqichlari va mohiyati vatanimiz tarixidagi dolzarb va murakkab mavzulardan biridir. Bu muammo 1917 - 1941 yillarga

tegishli bo'lib, keyingi davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iktisodiy jarayonlar uning hosilasi sanaladi.

Biz ushbu maqolada O'zbekistonda sovet boshqaruv tizimi haqida zamonaviy qarashlar va yondashuvlarni o'zida mujassamlashtirgan mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlar tahliliga to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Mustaqillikning dastlabki 20 yili - 1991 - 2011 yillarda O'zbekistonda yaratilgan tarixiy tadqiqotlarda sovet tuzumining mohiyati yangicha mushohada qilindi. Bolshheviklar tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilgan «inqilobiy o'zgarishlar»ning asl mohiyati arxivlarda taqiq belgisi ostida saqlanayotgan material-larni o'rganish asosida yoritildi. Bu davrda yaratilgan tadqiqot-larni mavzu ko'lamiga ko'ra bir nechta guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga oid tarixiy adabiyotlarda mustabid sovet tuzumining asl mohiyatini ochib tashlash bilan birgalikda jadidlarning dav-latchilik borasidagi qarashlari, Turkiston Muxtoriyati hukumati faoliyati, milliy davlatchilikni tiklash uchun harakatlar, O'rta Osiyoda sovet rejimiga qarshi qurolli kurash, Turkiston va O'zbekistondagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy qatlamlar faoliyati, kadrlar siyosati kabi masalalar tahlil qilindi. Xususan, Rajapova, D. Alimova, F. Qosimov, R. Abdullaev, S.A'zamxo'jaev, A. Golovanov, D. Ziyaeva, Q. Rajabov, R. SHamsutdinov, B. Hasanov va boshqa tarixchilarning bu sohada izlanishlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

O'zbekistonda sovet hokimiyatining agrar siyosati, qishloq xo'jaligini majburan kollektivlashtirish, quloq qilish va qatag'on siyosati, vaqf mulklarining tugatilishi, xotin-qizlar masalasi, sug'orish siyosati, nazorat organlari va iqtisodiy kengashlar faoliyati yoritilgan tarixiy adabiyotlarni shartli ravishda ikkinchi guruhga kiritish mumkin. Bu adabiyotlarda yangicha metodologik kontsepsiya asosida sovet davri tarixining ilgari mutlaqo yoritilmagan yoki buzib ko'rsatilgan jihatlari tadqiq qilindi.

Uchinchi guruh tadqiqotlari mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan fundamental tadqiqotlar va kollektiv monografiya-lar bo'lib, ularda O'zbekistonning sovet davridagi tarixi yoritilgan. SHuningdek, Qoraqalpog'iston tarixi ham aks etgan adabiyotlar bor. Bu yillarda og'zaki tarix metodi asosida O'zbekiston sovet davri tarixining ba'zi jihatlari o'rganildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda himoya qilingan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida ham mustabid sovet rejimining totalitar

xususiyati ochib tashlangan. Ayniqsa, S. A'zamxo'jaev, R. Abdullaev, D. Ziyaeva, Q. Rajabov, A. Rasulovning doktorlik disser-tatsiyalarida bevosita sovet davridagi tarixiy jarayonlar maxsus tadqiq qilindi.

Tarixshunoslikning yangi bosqichida Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistonda sovet tuzumining totalitar mohiyatini o'rganishga doir bir qator umumlashtiruvchi tadqiqotlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar yaratilgani va dissertatsiyalar himoya qilinganligini qayd etib o'tish lozim. Xususan, rossiyalikta-rixchilar va siyosatshunoslar bu sohada ko'plab jiddiy tadqiqotlarni e'lon qilishdi.

Tadqiq etilayotgan mavzuga oid xorijiy tarixiy adabiyotlar tari-xiy tadqiqotlarning alohida turini tashkil etadi.

O'zbekistonda mustabid davlat boshqaruv tizimining shakllanishi, bosqichlari va mohiyati to'g'risida XX asr va XXI asr boshlarida xorijda yaratilgan ko'plab tarixiy tadqiqotlarda ayrim ma'lumotlar mavjud.

Taniqli ingliz tarixchisi edvard Karr, italyan tarixchisi Juzeppe Baffa, amerikalik siyosatshunos Robert Takerning asarlarida Rossiyada bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi, mustabid sovet jamiyatining mohiyati, Lenin va Stalin kabi diktatorlarning hokimiyat uchun kurashi tasvirlangan. Bu asarlar 1990 - 1991 yillarda rus tiliga tarjima qilinib, Moskvada nashr etildi.

Ko'rib chiqilayotgan bosqichda ko'plab G'arb olimlari: Yorg Babe-rovski, Viktor Kondrashin, elen Karrer d'Ankoss, Leonid Lyuks, Xaynts-Ditrix Lyove va boshqalarning tarixiy asarlari rus tiliga tarjima qilinib, «Stalinizm tarixi» ruknida Moskvada bosilib chiqdi. Bu asarlarda Lenin va Stalin kabi diktatorlar faoliyati, Rossiya va Sovet Ittifoqining Lenindan Eltsingacha bo'lgan tarixi, 1932 -1933 yillardagi Rossiya qishloqlaridagi fojia va qizil terror kabi masalalar o'z aksini topgan. Ularda O'zbekistonning mazkur davr tarixiga oid ayrim ma'lumotlar mavjud.

Tarixshunos olim Boymirza Hayit (1917 - 2006) asarlari ham mavzuni yoritishda muhim rol o'ynaydi. Uning nemis va turk tillarida xorijda chop etilgan «Turkiston XX asrda», «Turkiston Rusiya ila CHin orasida» va boshqa asarlarida sovet imperializmining mustamlakachilik xususiyati, uning qatag'on siyosati va boshqalar ochib berilgan.

G'arb olimlari Gustav Vetter va Volfgang Leonxard asarlarida esa sovet mafkurasi va uning XX asrdagi siyosiy jarayonlarga ta'siri masalalari yoritilgan. Bu asarlar turktiliga tarjima qilingan.

Mustaqillik yillarida yaratilgan asarlarda O'zbekistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi, bolsheviklar siyosatining mohiyati, uning

o'ziga xos jihatlari yangicha kontseptual yondashuvlar asosida yoritilgan. Davr voqeligi tahliliga tsivilizatsion yondashuv bu kontseptsiya asosini tashkil qilib, yangi arxiv materiallarning xolisona talqini mavzu tarixshunosligi zamonaviy bosqichi xususiyatini belgilagan.

1920 yilning boshlarida Turkkomissiya raisi YA.Rudzutak Turkiston ASSRni bo'lib tashlash va milliy til belgisiga qarab muxtor (avtonom) respublikalar tuzish masalasini qo'ydi. Milliy respublikalar tuzish zarurligi g'oyasi tashabbuschilari bu masalani erli xalqlar hayotida tengsizlik mavjudligi, milliy mojarolar kuchayib borayotgani bilan asosladi. Bolsheviklar O'rta Osiyoda yashab kelayotgan millatlarning ushbu geografik hamda siyosiy chegara ichida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiy qilishi mumkin emas deb topdilar. Ushbu masala yuzasidan matbuotda e'lon qilingan maqolalarni tahlil etar ekanmiz, ularni mazmuni va mohiyatiga qarab quyidagi guruhlar-ga bo'lishimiz mumkin:

O'rta Osiyoni milliy-hududiy chegaralash masalasiga doir savollar va murojaatlar.

Markazdan yuborilgan va mahalliy rahbarlarning O'rta Osiyoni milliy-hududiy chegaralash masalasidagi fikrlari va savollarga javob maqolalari.

O'rta Osiyoni milliy-hududiy chegaralash masalasida milliy-etnik nizolarning oldini olishga bag'ishlangan maqolalar.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasining milliy-hududiy chegarala-nishga tortilishi masalasi.

O'zbekiston SSRning tashkil topishi va uning poytaxti masalasi.

Xorijdagi vatandoshlarimizning O'rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishiga oid maqolalari.

O'rta Osiyoni milliy respublikalarga bo'lish masalasi o'rta-ga tashlangach, davriy matbuotda milliy ziyolilarning ushbu masalaga oid turli-tuman savollari va murojaatlari chiqa boshladi. «Milliy jumhuriyatlarga ayrilish kerakka o'xshaydir. Busiz iloj yo'q ekan. Ayrilish Turkiston doirasida bo'lsunmi yoxud O'rta Osiyo masshtabidami? Milliy jumhuriyatlar bo'lgach, uni birlashtiradigan Markaz masalasi qanday hal bo'ladi? O'rta Osiyo federatsiyasi kerakmi? Jumhuriyatlar Rusiya Sovet jumhuriyatiga bog'lanadirmi? Milliy jumhuriyatlar bevosita markazga bog'lansa, millatlar orasida iqtisodiy aloqa qanday bo'ladi? Bo'linish tartiblari va qirg'iz qozoqlar Qozog'istonga qo'shiladirmi yoxud alohida jumhuriyat bo'ladirmi?

Turkmanlar, Xorazm va Buxoro turkmanlarini birlashtiradimi? Tojik, qirg'iz avtonomiyasi qanday tuziladi?».

YUqorida keltirilgan savollar hamda murojaatlar faqatgina hukumatning rasmiy gazeta va jurnallarida emas, hatto hajviy nashr hisoblangan «Mushtum» da ham chop etildi. «Turkistonda barchadan ham katta nufuzga ega biz deb davo qiluvchi ba'zi rus mustamlakachilarning chegarasi qaerdan boshlanadir yoki ularning respublikasini bo'yab ko'rsatish uchun bo'yoq etmay qoldimi? Agar taqsimda xiyonat qiling'on bo'lsa, bu masala boshqatdan ko'rilsun!».

YUqorida keltirilgan muhim savollar o'rta tashlanganidan ke-yin ba'zi bir mutassaddilar «Mushtum» nashriyoti nomidan ushbu savollarga quyidagicha javob qaytargan: «Milliyat masalasi to'g'risida axtarganimizda hech narsa ko'rsatilmagan. Milliy masalaga qaratilib bir lug'at nashr etilgandan keyin munosib bir javob berish niyatidamiz. Har holda, Sovetlar hukumatida mustamlakachilar jumhuriyati bo'lmaydir. O'rtoq, bu masala to'g'risida Angliya hukumatiga murojaat qiling!».

Markazdan yuborilgan kommunistlar bilan birga mahalliy rahbar xodimlarning Turkiston mintaqasining milliy-hududiy chegara-lanishi masalasidagi fikrlari rasmiy matbuotda bosilib turdi. Masalan, Zelenskiy, Aytakov, Gajuxov, F. Xo'jaev, A. Muhiddinov, S. Xo'janov, I. Xidraliev va boshqalarning nutqlarida milliy siyosat to'g'ri hal etilishiga ishonch bilan qaraldi.

1924 yil 4 iyun kuni Moskvada 13-firqa qurultoyi bo'lib, unda Turkistondan vakil S.Xo'janov ishtirok etadi hamda unda ko'rilgan masalalar matbuotda e'lon qilinadi. Bu qurultoyda O'rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishiga doir muhim masalalar muhokama etiladi. eng asosiysi, milliy respublikalar tashkil topgach, O'rta Osiyo o'lkalari birikib, federatsiya tuzilishi masalasi ko'riladi. Dastlab qurultoyda O'rta Osiyo byurosi nomidan Rudzutak ma'ruza qilganidan keyin Turkistondan borgan har bir millat vakillariga so'z beriladi. Afsuski, o'zbek, qozoq, turkman va qirg'iz millatiga mansub vakillar ham O'rta Osiyoning yagona federatsiyaga birlashishiga hali erta ekanligini ta'kidlab, bu masalaga rad javobini beradilar.

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi paytida milliy-etnik nizolarning oldini olishga bag'ishlangan bir qator maqolalar e'lon qilingan. Jumladan, hukumat vakillaridan biri Hojiboev milliy muxoliflikka bormaslik va etnik nizolarning oldini olishga e'tibor qaratadi. Afsuski, milliy-hududiy chegaralanish arafasida milliy-etnik nizolar va hudud talashishlar ku-zatiladi. Mahalliy ziyolilardan bo'lgan

Imoilyozoda matbuotda bu kabi janjallarni to'xtatishga chaqiradi. «Milliy jumhuriyatlarga ajratish to'g'risida gazetalarimizda ko'b narsalar ko'rimokdadir. Bu to'g'rida «Oq jo'l», «Angbakchil qozoq» (Urunburug'da), Turkiston, Farg'ona va Zarafshonda har xil maqolalarning ichida aksarisi bir tomonliq va tor bir o'lchovda millatchilik ruhida bo'ldikim, bu matbuotimizda katta nuqson hisoblanadir. Bunday maqolalarning natijasida matbuotimizda milliy shovinizm ruhining ko'tarilishi-ni sezamiz, hatto bu to'g'rida gazetamizning bir-birlari bilan omma orasiga millatchilik shovinizmining tuxumini ekish emasmi? Masalan, «Turkiston» bilan «Oq jo'l» janjallari «Angbakchil qozoq»ning haddan oshishi, Zarafshonning chiqishi va Farg'onada Alievning maqolasi va boshqalar. Albatta, biz bu erda aybning kimda va qaysi tomonda ekanini surishtirmay matbuotimizning bu xususida to'g'ri yo'l tutishini va uning har masalada ijtimoiy qarashga ega bo'lishini chindan tilab qolamiz».

SHu bilan birga, «YAcheyka yoki rayondagi firqa a'zolarini aldab, sen o'zbek jumhuriyatiga o't, sen qirg'iz jumhuriyatiga o't deb ul bechoralarni miyasini aynitishdan nima foyda bor? Tezidan chetga chiquvchilarga tegishlik firqa idoralari chora ko'rsalar kerak» degan fikrlar matbuot sahifalarida uchragan.

1924 yil 8 mayda O'rta Osiyo iqtisodiy konferentsiyasida qatnashish uchun Toshkentga kelgan Xorazm delegatsiyasi a'zolari RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi raisiga «Xorazmda milliy masalaning hal qilinishi to'g'risida maktub» topshiradilar. Unda Xorazmni mustaqil ma'muriy rayon sifatida o'zining doirasida qoldirish, shuningdek, Xorazm Respublikasi bilan Turkiston Respublikasining Amudaryo viloyatini birlashtirish taklif qilingan edi. Aslida, bu Xorazmning chegaralanish o'tkazilishini rad qilishi edi... 1924 yilning 26 iyunida yangilangan Xorazm kommunistik partiyasi Xorazm uchun ham milliy chegaralanishning zarurligini e'tirof etadi.

Xorazm Respublikasi Markaziy Ijroqo'mining raisi Sulton Qori Jumaniyozov «Keyinroq qoldik» sarlavhali maqolasida o'lkaning milliy chegaralanish uchun ortda qolganligi sababini tushuntirishga harakat qilib shunday deydi: «O'lkamizning markazdan juda uzokda bo'lishi va yo'llarining qiyinligi sabablik ko'b masalalar bizga juda qiyin va butunlay eshitilmasdan qolar edi. Milliy chegaralash masalasi ham shunday bo'ldi. 1924 yilning yanvar oyida o'rtoq Mizlavik Xivaga kelib, milliy chegaralash masalasida doklad qildi. Lekin bu doklad bo'yicha uning asosiy qoidasini va qanday yo'lda bo'lishini bilgan odamimiz bir

bo'lsa, bilmaganimiz o'n bo'ldi... O'rta Osiyo byurosining kotibi o'rtoq Korklin Xivada bo'lib, milliy chegaralash masalasida qanoatlanarlik dokladlar qildi va uning asosiy foydalarini tamoman tushuntirdi. SHundan keyin biz Xorazm o'zbeklari uchun O'zbek jumhuriyatiga qo'shilishdan boshqa chora yo'qligini tushundik. Lekin shunday bo'lgani holda qo'shilishga qaror berib, shuni O'rta Osiyo byurosiga bildirdik va qarorimizni topshirdik. Natija nima bo'lur, hozircha ma'lum emas...»

Bolsheviklarning Turkiston mintaqasini milliy chegaralashdan maqsadi ushbu o'lkalarni xomashyo etkazib beruvchi hududiy birlikka yoki rayonga aylantirish edi. Hatto O'rta Osiyoda milliy chegaralanish jarayoni bo'layotgan bir paytda xomashyo va xo'jalikka qarab yirik shirkatlar tuzish loyihasi allaqachon yaratilgan edi. «O'rta Osiyo jumhuriyatlarini chegaralash munosabati bilan Turkiston paxtachilik shirkatini ikkiga ajratish to'g'risida loyiha tayyorlana boshlandi. Ushbu shirkatlarning biri «rus-o'zbek shirkati» va ikkinchisi «rus-turkman shirkati». «Rus-o'zbek shirkati» hay'atiga O'zbekiston jumhuriyati bilan unga qaragan qozoq, qora qirg'iz, tojik rayonlari hamda Buxoro bilan Xorazmning ko'proq qismlari kiradi. Buxoro bilan Xorazmning qolgan qismlari «rus-turkman shirkati» ga kiradi. Turkiston paxtachilik shirkatining sarmoyasi bu jumhuriyatlarda ekilgan va ulardan sotib olingan paxtalarining hisobiga qarab taqsim qilinadi - ya'ni bo'linadi».

Davriy matbuotda berilgan rasmiy ma'lumotga ko'ra, O'zbekiston SSRning maydoni (tojik muzofotidan boshqa) 440 ming murabba' chaqirim va 7 ta muzofotdan: Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Zarafshon, Surxon, Qashqadaryo hamda Xorazmdan iborat ekanligi qayd etilgan.

Toshkentda 1924 yilning 5 dekabr sanasi O'zbekiston SSRning tuzilgan kuni sifatida bayram qilingan. 5 dekabr tantanasini o'tkazish bo'yicha Rahmat Ahmadiy raisligida komissiya tuzilib, tad-birni o'tkazish rejasi ishlab chiqilgan. Ushbu tantanada O'zbekiston inqilob qo'mitasi nomidan F.Xo'jaev, Butunrusiya kommunist firqasi O'rta Osiyo byurosi nomidan Zelenskiy, eski shahar ijroqo'mi firqa raykomi kasabalar byurosidan Mallaboev, bundan tashqari, Rahimboboevningtabrik so'zlari yo'llangan.

1925 yil fevralda Buxoro shahrida chaqirilgan sovetlarning birinchi s'ezdi «O'zbekiston SSRni tuzish to'g'risidagi deklaratsiya»ni qabul qildi. Bu deklaratsiyada shunday deyilgan edi: «Sovet hokimiyatining SHarqdagi avangard posti bo'lgan O'rta Osiyoda

millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirish maqsadi bilan sobiq Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari hududlaridagi o'zbek erlarining qishloq va ovullari mehnatkashlar ommasi birinchi sovetlar s'ezdi orqali bu xalqning tarixida ilk marotaba ishchi va dehqonlar O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi ta'sis qilinganini e'lon qiladilar».

O'zbekiston SSRning poytaxti masalasi ham matbuotda ko'p muhokama qilingan. Respublika markazining Samarqand shahri bo'lishini barcha mahalliy aholi vakillari yoqlab chiqqanidan so'ng, «Markaz» ham buni tasdiqlaydi. Matbuot materiallarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, hukumat va qator muassasalar uchun binolar qurish va shaharni obodonlashtirish maqsadida «Markaz»dan mablag' ajratilgan. «Samarqandni markaz holiga qo'yish uchun hozirliq boradir. Buning uchun markaz million so'm berdi». To'plangan materiallarga tayanib shuni aytish mumkinki, qisqa muddatda (1924 yil 5 dekabrda 1925 yilning 3 apreligacha qadar) Buxoro va Toshkent shaharlari O'zbekiston SSRning poytaxti vazifasini bajardi. 1925 yilning 3 aprel kuni respublika poytaxti Samarqandga O'zbekiston markaziy hukumati ko'chib boradi. Poytaxtning Samarqandga ko'chib kelishi munosabati bilan shahar maydonida bayram bo'lib, unda F.Xo'jaev, Y.Oxunboboev, I.Xidiraliev, V.Ivanov va boshqalar tabrik yo'llaydilar. Jumladan, Ivanov shunday deydi: «Bu kungacha tarixda hech bir davlatning o'z poytaxtini yaxshi katta shahardan ko'ra quyiroq darajada bo'lgan shaharga ko'chirgani ko'rilmagan. Sovet hukumati bo'lsa o'z poytaxtini mehnatkashlarga eng yaqin bo'lgan joyga quradi».

Xorijda yashagan vatandoshlarimiz tomonidan nashr etilgan jurnalda sovet milliy siyosati va O'rta Osiyoning milliy chegaralanishiga oid maqolalar talaygina. Jumladan, ushbu jurnalning ta'sischisi bo'lgan Mustafo CHO'qay O'rta Osiyoning milliy chegaralanishi xususida shunday deydi: «Turkistonning ayrim bo'limlari - Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston - sovet jumhuriyatlari bo'ldimi. yo'qsa, qozoq, o'zbek, qirg'iz, tojik, turkman rayon va yo u okruglari ataldimi - farqsizdir, Baribir, ularning hammasida O'rta Osiyo byurosi va boshqa bir ism bilan Moskva idorasining diktaturasi ostida bo'ladi».

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish jarayoni bolsheviklar milliy siyosatining yangi bosqichi bo'lib, bunda milliy mojarolarning oldini olishi va hududlarning iqtisodiy taraqqiy etishi belgilangan edi. Ammo milliy nizolar, ya'ni hudud

talashishlarning davom etishi natijasida Turkiston mintaqasining yaxlitligiga putur etdi. Sovet namunasida tuzilgan mazkur respublikalar iqtisodiyoti bir yoqlama, sobiq Ittifoqning xomashyo etishtiradigan chekka hududlariga aylantirildi.

Savollar:

1. 50 yillarning birinchi yarmida Sovet davlatidagi siyosiy vaziyat va jamiyatni demokratiyalashtirishga urinish tarixshunosligi.
2. 60-yillardagi ilmiy anjumanlar. Samarqand shahri tarixshunosligi.
3. Jamiyatni demokratiyalashtirishga urinish tarixshunosligi.
4. Ko'p tomlik O'rta Osiyo respublikalari tarixining yaratilishi.
5. Ko'p tomlik "O'zbekiston xalqlari tarixi"ning nashrlari.
6. Ko'p yillik O'zbekiston xalqlari tarixining yangi nashrlari.
7. O'rta Osiyo sovetlar hukmronligi o'rnatilishining tarixshunosligi.
8. O'zbekiston xalqining moddiy ahvoli va ijtimoiy turmushini o'rganishning tarixshunosligi.
9. O'zbekistonda o'tkazilgan arxeologik va etnografik tadqiqotlar tarixshunosligi.
10. O'zbekistonning ilm-fan va ta'lim-tarbiya maskanlari tarixshunosligi.
11. O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda V.V.Bartoldning o'rni.
12. O'rta Osiyo xalqlarining milliy-ozodlik uchun kurashlari tarixshunosligi.
13. O'rta Osiyoda sovetlar hukmronligi o'rnatilishining tarixshunosligi.
14. O'zbekiston xalqining moddiy ahvoli va ijtimoiy turmushini o'rganishning tarixshunosligi.
15. O'zbekistonda o'tkazilgan arxeologik va etnografik tadqiqotlar tarixshunosligi.
16. O'zbekistonda tarix fanining tarixi va uning davrlashtirilishi bo'yicha ilmiy munozaralar tahlili.
17. O'zbekistonning ilm-fan va ta'lim-tarbiya maskanlari tarixshunosligi.
18. Rossiya sharqshunosligida O'rta Osiyo xalqlari tarixi masalalari.
19. Sharqshunoslikning rivojlanishi va XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganish.
20. Sovetlar rejimiga qarshi qurolli kurash tarixi tarixshunosligi.

21. Tarixiy o'lkashunoslikka bo'lgan qiziqish va tarix fani bo'yicha ilmiy maktablar tajribalari.
22. Toshkent shahrida tashkil etilgan O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari tarixiga doir ilmiy anjumanlar.
23. Turkistonda sovetlar rejimining tarix faniga ta'siri.
24. Xiva xonligi va Buxoro amirligida tarixshunoslik.
25. Xiva xonligi va Buxoro amirligida tarixshunoslikning ahvoli.
26. XX asrning 20-30 yillardagi ilmiy manozaralar va tarixnavislik.
27. Tarix fakul'tetlari va tarixshunoslik kafedralarining ochilishi.
28. XX asrning birinchi o'n yilida Turkistonda tarix fani.
29. XX asrning boshlarida Turkistonda tarix fani.

VIII-BOB: MUSTAQAL O'ZBEKISTON TARIXSHUNOSLIGI

1998 yil yozida mamlakatimizda ma'naviy – ilmiy hayotida, afkori ilm moydanida muhim voqea ro'y berdi. Iyul' oyida birinchi prezidenti bir guruh etakchi tarixchilar va ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan uchrashdilar. Bu uchrashuvda yurtboshimiz tarix fanining muammolari haqida mutaxassislar bilan fikr almashdilar, kuyunib gapirdilar. Mustaqil O'zbekiston tarixchi olimlar oldida turgan va tezda hal qilinishi kerak bo'lgan qator masalalarni ochiq – oydin ko'rsatdilar. Ushbu masala bilan bog'liq bo'lgan aniq vazifalar haqida so'z yuritib, shunday deydilar: "Haqqoniy tariximizni barpo etish ishini nimadan boshlash lozim? Avvalo ko'p ming yillik boy o'tmishimizni tadqiq etishning yaxlit kontsentsiyasini, ya'ni, dasturrini, ilmiy izlanishlarining uslubini, qo'yilabtgan vazifani amalga oshiradigan ilmiy muassasalari, ulardan potentsial kadrlar masalasini aniqlab olishdan" boshlamog' lozim.

Haqiqatdan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida asl manbalar va ularning tahlili asosida Vatanimiz tarixini haqqoniy yaratish muammosi alohida ta'kidlandi. "Faqat bahs, munozara, taqlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin" – deb yozadi YUrtboshimiz.

Mazkur asarida muxum ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy muammolarni echish yo'llarini o'rta qo'yish bilan birga bu asarda O'zbekistonda tarix fanining bugungi ahvoli va tarixchi – mutaxassislar tayyorlash masalasi ham ochib berildi. Ma'lumki, ayrim yo'nalishlar bo'yicha mutaxassis tarixchi olimlarimiz sanoqlidir. Antirapalogiya, etnologiya, Numizmatika, manbashunoslik mutaxassisliklari shular jumlasidandir. Qadimgi va o'rta asrlar tarixini chuqur biladigan va maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlarimiz ham juda oz.

Umuman olganda, Islom Karimovning "O'zbekistonning yangi tarixi markari"ni tashkil etish haqidagi farmonidan (1996), "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" (1998) nomli risolasi, tarixchi olim va ijodiy ziyolilar bilan uchrashuvidagi (1998), "Turkiston" (1999) va "Fidokor" (2000) gazetalar muxbirlarining savollariga bergan javoblaridan, "O'z FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroridan (1998) so'ng tarix fani davlat siyosati darajasida ko'tarildi.

Natijada, nafaqat Respublikamizda milliy qadriyatlarini tiklash, necha ming yillik ma'naviy – ma'rifiy merosni asrab – avaylash, mustamlakachilik davrida chetga olib chiqib ketilgan madaniy yodgorliklarni aniqlash va yurtimizga qaytarish borasida ko'plab xayrli shilar amalga oshirila boshladi. Bu shiga xorijda yashayotgan hamyurtlarimiz ham o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Xususan, Turkiyada istiqomat qilayotgan bir guruh vatandoshlarimiz ulug' bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiyning "Xazoyinul – ma'niy" majmuasining o'tgan asrning yigirmanchi yillarida O'zbekistondan olib chiqib ketilgan qo'lyozma nusxasini Prezident Islom Karimovga yuborishdi.

Mamlakamiz birinchi Prezidenti bu benazir "Ma'nolar xazinasi" asarini she'riyat mulki sultonining ramziy uyi – Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyiga tuxfa etdi. Mazkur qo'lyozma XVIII asrda Samarqandda Usta Bobojon o'g'li Mulla Muqimjon Samarqandiy ismli xattot tononidan ko'chirilgan. Bunaqangi nodir qo'lyozma, arxiv hujjatlari ham chet elda ko'p bo'lib ularni qaytarish yoki nusxa olish burch va vazifamizdir.

O'zbekiston xalqlari tarixini yozish o'z tarixshunosligiga ega bo'lib, bugungi kunda ham dolzarb vazifalardan biridir. Mustaqillik sharafti bilan O'zbekistonning hech qachon o'zgarmaydigan, xolisona tarixini yozish imkoniyati tug'ildi. Dekamkim, xuddi shu asosda yozilajak tariximizgina noyob ma'naviy xazinamiz bo'ladi.

O'zbekiston xalqlari tarixining tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadikim, soxta yoritilgna tarix, hech qachon haqiqiy tarix asari bo'lolmaydi. Uning tarviyaviy ahamiyati ham bo'lmaydi, yo'q desak ham adashmaymiz, aksincha bunday asarlar xalqni chalg'itadi, ongini o'tmaslashtiradi.

O'zbekiston xalqlari tarixni bilishligi dolzarb vazifasi – tarixiylik – haqqoniylikdir, haqqoniylik esa tarixning jon ozig'idir.

O'zbekiston xalqlari tarixnavisligining dolzarb vazifalaridan biri davlatchilik tarixini yoritishdir. Bu yo'nalishda eng qadimgi davr tarixini o'rganish muxum bo'lib, birinchi galdagi vazifa yozma manbalar tarixiga katta z'tiborning qaratilishidir. Bu borada bir guruh olimlar tamonidan "Qadimgi yozma yodgarliklar" kitobining nashr etilishidir.

O'rta Osiyo tarixi bo'yicha ilk yozma manba "Avesto" ni o'zgarish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. M.Ishoqov tomonidan "Avesto" ning "YAngi kitobi" o'zbek tilida o'chirildi, nashr etildi.

(Avesto yangi kitobi /Mirsodiq Ishoqov tarjimai. – Toshkent, 2001).
Ayni paytda o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish bo'yicha ham izlanishlar boshlanib, uning ilk natijalari rus va o'zbek tillarida "O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari" sifatida chop etildi. (O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari / Mas'ul muharrirlar D.A.Alimova va E.V.Rtveladze. Mualliflar. T.S.Hirinov, M.Filanovich, B.Kochnev, R.Mukminova, G.Agzamova, N.Abdurahimova, D.A.Alimova, S.A'zamxo'jaev, Q.Rajabov, A.Golovanov. – Toshkent, 2001). Ushbu asarning o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligining tarixiga bag'ishlangan qismida turk haqonligi, G'aznaviylar davlati, Qoroxoniylar xonligi va Amir Temur davlati haqida so'z yuritilgan. SHuningdek, XVI-XIX asrlarda hukm surgan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonlarida davom ettirilgan davlatchilik an'analari hamda Rossiya imperiyasi va sovet davridagi boshqaruv tizimi tahlil etilgan.

Bu davrda o'zbek xalqining shakllanish tarixini o'rganish borasida ilk izlanishlar boshlandi. Bu masalada Karim SHaniyozovning qarluq davlati tarixiga va o'zbek xalqining shakllanishiga bag'ishlangan kitoblari nashr qilindi. (SHaniyozov K. Qarluq va qarluqlar – Toshkent 1999: O'zbek xalqining shakllanish jarayoni D.Alimova, Z. Orifxonova va boshqalar – Toshkent 2001).

O'zbekistonning mustamlaka davri tarixini o'rganish borasida ham ma'lum natijalarga erishildi. Turkistonning XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar tarixi bo'yicha "Turkiston v nachale XX veka" nomli asar mualliflar guruhi tomonidan tayyorlanib, R.Rajabova tahriri bilan chop etildi.

(Turkiston v nachale XX vka: k istorii Ismonov natsional'noy nezavisimosti /Ruk.proekta D.Alimova, nauch.rezaktor R.Radjapova, avtori R.Rajapova, R.Abdullaev, S.Agzamxodjaev, I.Alimov, A.Golovanov, R.Nurullaev, V.Ivanov, E.Prilutskiy, K.Rajabov, V.Semennok, M.Xasanov, -Toshkent, 2000).

O'zbekiston xalqlari tarixshunosligining yana bitta, dolzarb vasifasi, bu XX sar tarixini yoritishdir. XX asr insoniyat tarixida irkinlik, shu bilan birga inson huquqlarining paymol bo'lishi, tug'ilishning ko'payib, insoniyat sonining keskin o'sishi, eng ayanchli sahoda bo'lgan millionlab insonlarning qirilib ketishi, ayniqsa ikkinchi jahon urishi yillaridagi fojialardir.

Olam islohg muhtoj. Odamzod bu haqiqatni anglaganidan buyon tinib-tinchimaydi goh qursa, goh buzadi, birda bino qilsa, birida vayron

etadi. Alqissa, isloh yo'li murakkab Qurmoq oson, tuzatmoq – qiyin, deydi xalqimiz.

Tarixshunosligimizning birinchi vazifasi Vatanimizda taraqqiyot yo'li to'g'ri tanlangani xususida tarixiy haqiqatni yozish deb xisoblayman. Bizdagi o'zgarishlarga tan berish, tajribalarimizdan andoza olish ishtiyoqida uyrqshanlar ham oz emas. Bular barchasi yaxshi ko'ngilda g'urur, dilda iftixor tuyg'usini toshiradi. Ammo eng muhimi – mamlakattimizdagi islohat xalq hohish-prodasiga mos kechayotganidir...

Ikkinchi yo'nalish mamlakatimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ramz-umumxalq bayramlari yil sayin yangicha mazmuni maqomda nishonlanmoqda. Ayniqsa, Ikkinchi jaxon urishida qozonilgan g'alabalik ko'rilabtgan keng nishonlash uchun 560 yil to'ladi – sohibqiron Amir Temur tavalludiga/.

Uchunchi yo'nalish tarixshunosligimizda bu yigirmanchi asr tarixchiligi – bilamizki XX asr – dunyo halqlarining birlik va hamkorlikka intilish asridir. Bu jarayon, ayniqsa, asr so'ngida kuchaydi. Jaxondagi turli mamlakatlar yagona mintakaviy manfaatlar asosida iqtisodiy, ma'daniy va ma'naviy birlik sari harakat qilmoqda. Bu umuminsoniy taraqqiyot tamoyili. Bu tamoyil bizning mintaq – Turkiston zaminida ham tabora ustun yo'nalish kasb etmoqda. Prezidentimiz Oliy Majlis ikkinchi sessiyasida so'zlagan nutqida bu mavzuga atroflicha to'xtaldi. Ayniqsa, Islom Karimovning "Turkiston – umumiy uyimiz" deb nomlanuvchi jamoatchilik harakatini tuzish va uni mintaq mamlakatlari va xalqlarining mushtarak manfaatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qildirishi haqidagi g'oyalari nafaqat yurtimiz fuqarolarini, balki barcha Turkiston farzandlarini to'lqinlantirib yubordi. Binobarin, ayni islohotlar – tuzutishlar davrida bir zamonlar zo'rlik bilan vayron etilgan yagona Turkiston xonadonini qayta obod etish – mintaqamizdagi har bir xarq vakillarining orzusidir. Navbatdagi muammo bu hozirgi davrda Ovrupa madaniyati dunyoning barcha tamonlariga yoyilmoqdadir. Bugun bir ko'p islom o'lkalari G'arb madaniyatiishtiyoqida taraqqiy qilmoqdadir. Zamanomizda mulkdor kishilar, bilimdonlar ko'paymoqdadir va bu madaniyatni yoyish haqida tashfiqotlar ortayabdi. Binobarin, uni mulohaza va mukoma qilib, ko'rmoq va nima ekanligini bilmoq eng zarur misoldir.

Ovrupa xalqlarida tarbiyaning mezoni nofasad estetika sharq halqlarida esa, asosan, ahloq – odob, (etika) ekanini bilishimiz kerak.

Tarixshunosligimizdagi yana bir muhim muammo shundan iboratki, mustaqilligimiz tufayli siyosiy, madaniy ongning o'sishi, milliy ong va milliy g'urur yuksalishiga sabab bo'lmoqda.

Imperiyaning parchalari jarayoni nechog'liq qiyin kechgan bo'lsa, undan so'ng yuzaga kelgan "Postimperiya" MDX makonidagi siyosiy, iqtisodiy, ma'daniy munosabatlar tarzi ham shu qadar murakkab tus oldi va bu xol taxonus davom etmoqda. Bu murakkablikning kamida ikki asosiy jixati mavjud. Birinchi jixati – mustaqil davlatlarning mundan buyongi taraqqiyot yo'li qanday kechadi? Ikkinchisi – "Postimperiya" xozirgi MXD makonida o'zoro siyosiy, iqtisodiy, ma'daniy, manaviy munosabatlar jarayonining bugini va kelajagi qanday bo'ladi.

Respublikamiz birinchi Prezidenti I.Karimov "Ta'lim O'zbekiston halqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faolligini baxsh etadi", deganida mutloqa haq edi. Bugun mamlakatimizda halq ta'limi davlat siyosati darajasida ko'tarildi.

O'zbekistonda tarixshunoslik fanining rivojini jahon xalqlari tarixini o'rganmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi, albatta. SHuning uchun eaxon mamlakatlari, xususan g'arb davlatchiligi tajribasi to'g'risida, uning davlatchilik an'analari haqida gap kelganda nusxa ko'chirish emas, balki umuminsoniyat ahamiyat kasb etgan tamoyillarni milliy davlatchilik an'analari bilan uyg'unlashtirish nazarda tutiladi. Biz Angliya, Frantsiya, GFR, RF va boshqa davlatlar tarixini o'rganar ekanmiz o'zimizning davlatchiligimiz tarixshunoslik haqida ham mushoqada qilishimiz mumkin.

SHunday qilib, O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimlarining shakllanishi bir tomondan chuqur milliy tarixiy ildizlar asosida kechayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan jahon, qolaversa G'arb dunyosining eng maqbul tajribalarini o'zlashtirishning zamirida sodir bo'lmoqda. Bu jarayon ham O'zbekistonning jaxon hamjamiyati bilan nechog'liq integratsiyalashuvini nanoyish etmoqda.

Agar biz O'zbekiston tarixini mustaqil davlat tarixi sifatida ko'rishni istasak, unga jahon tarixi bilan bir butunlikda qarashimiz zarur. Uning uchun esa har bir tarixpavis oldigi chet el tarixshunosligini albatta bilish va undan foydalanish talabini qo'yishimiz kerak. Biror – bir muammo tadqiqi faqat mamlakatimiz adabiyotlarigagina asoslanib qolmasligi darkor. Binobarin, faqat ichki emas, balki tashqi manbalardan (masalan arxivlar, taqdir taqozosi bilan chet elda voqealarning bevosita ishtirokchisi bo'lganlarning xotira materiallaridan) ham foydalanish

taqozosi etiladi. Ham mahalliy, ham chet el manba va adabiyotlarini bilish tadqiqotchini eng xolis xulosalar chiqarish uchun kuchli vosita bilan ta'minlaydi.

Jahon tarixi fani tarixshunosligini o'rganishni rivojlantirishning yana bir tamoyili – tarixshunoslik ilmining ahamiyati va o'rni, sobiq sho'ro davrida bibjografiya yozish bilan cheklangan bu sahago endilikda muhim ahamiyatga ega vazifalar yuklanganligidir. Bu vazifalar tarix fani taraqqiyot yo'nalishlari va istiqbollarning aniqlash, bu taraqqiyoti ta'sir etuvchi muhim omillar, ijtimoiysiyosiy tuzim, davlatning fanga munosabati, xur fikrlik imkoniyat, xukumron mafkuroning ta'sirini o'rganishdan iborat. SHuningdek tarixshunoslik tadqiqodlari muhim va dolzarb muammolar haqida fanda shakllangan ilmiy qarashlar munozarali va mavxum masalalarni ham aniqlash imkoniyati beradi. Bu esa o'z navbatida vatanimiz haqida nafaqat o'z xalqimiz yurtimizda, balki butun jahonda shakllangshan tarixiy bilimlar tasafurini aniqlash va taxlil etish imkoniyati beradi. Demak, jaxon tarixi fani tarixshunosligini o'rganish va rivojlantirish birinchi novbatda manbalarni chuqur o'rganish, eski o'zbek yozuvi, arab, fars, tillari mutaxassislarni mujassamlashtirishni talab qilsa, ikkinchidan ingliz, frantsuz, nemis tarixshunosligiga ixtisoslashgan kadrlarni etishtirishni talab etadi.

Salkam yuz ellik yil ajdodlarimizning orzu-xavasi, umid va armoni bo'lib kelgan mustaqillik bizlarga nasib etdi. Bunga raxnoma bo'lishdek tarixiy masuliyat esa I.Karimovning zimmasiga tushdi.

I.Karimovning jasorati va aql zakovoti ila vatanimiz demokratik yo'l parlament orqali mustaqil. Islom Karimov mamlakatimizning mumtaqil boshqaruvini o'z qo'llariga olgan kundanoq tarix saboqlari va falsafasiga asoslangan holda ish yuritmoqda. O'tgan davr mabonida tarix fani ham butunlay yangidan qayta shakllandi. Islom Karimovning o'zlari takidlaganidek, tariximiz "YAngidan kashf etildi...", o'tmishimizni "Oqlash" vazifalari umuman olganda bajarib bo'lindi xozir esa asosiy vazifa tarixiy taxminni ilmiy jihatdan xolisona va xalol amalga oshirishdan iboratdir.

Boshqacha aydsak, yurtboshimiz: "Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O'zgalar yozib bergan tarixni o'qitishgan mutloqa qarshiman" deb o'rta qo'ygan aniq masalani qo'ygan holda, uning echimini ham o'zlari topdilar, ya'ni "o'zbekistonning yangi tarixi" ta'limotiga asos soldilar bu ta'limot I.Karimovning "O'zbekistonning yangi tarixi markazi" ni tashkil etish xaqidagi formoni (1996 yil) da

boshqa xukumat qarorlarida, u kishining turli ma'ruza va to'la asarlari to'plamlarida asoslab berilgan.

Yurtboshimizning tarix va tarixshunosligimizga oid talimoti haqida to'la tasavvurga ega bo'lishimiz va uni ilmiy istimolga kiritishimiz muhim ilmiy nazariy metalogik va amaliy ahamiyatga molik masaladir. Chunki u tarix fanimizni etti yod begona mafkura va talimotdan tezroq xoli bo'lib, o'z taraqqiyot yo'li – "O'zbek modili"ga ega bo'lishga, halqimizning esa o'z xaqqoniy tarixiy bilan qurollanishga tarixchi olimlarning ijodiy mehnat faoliyatlari yanada samarali bo'lishga yordam beradi.

I.Karimovning "O'zbekistonning yangi tarixi" ta'limoti mazmun va mohiyatini to'la anglash uchun avvalo, ta'limot nima savolga e'tibor bermiq kerak. "Ta'limot" so'zining o'zagi "Ta'lim" bo'lib, u ko'pchilik va umumlashma ma'nodagi bilimlar tartibini anglatadi. Dekam ta'limot deganda, yuksak imiy yoki amaliy faoliyat bilan bog'liq buyuk bir maqsadni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mafkuraviy g'oyaviy, nazariy – falsafiy, iqtisodiy-madaniy bilimlar, uslubiy (metadalogik) tamoyillar majmoyi tushuniladi. Albatda, ta'limotlar o'z maqsadi va mahiyatiga ko'ra xilma – xil bo'ladi.

Islom Karimovning ta'limoti O'zbekiston tarixini milliy istiqlool ruxida o'rganish va yozishda qo'llaniladigan usul va ta'moilarni o'z ichiga oladi. Bu ilmiy ta'limot ikkinchi bir ma'noda, tarix ilmiga mahsus fan hamdir. Bu fanning rivojlanishi xizirda zaruriy ehtiyoj bo'lib turibdi.

I.Karimovning "Yangi tarix" ta'limoti O'zbek tarixi ilmining qadim ananalari hamda jahon tarixi fanining umumiy qonuniyatlari o'z aksini topqon. Bunga yurtboshimizning din bilan dunyovilik o'rtasidagi mo'tadil munosabat bo'lishi ilmiy nazarariyasi misol. U o'z mazmun mahiyatiga ko'ra xozirga tarix ilmidagi butunlay yangicha dunyoqarash, tushuncha bo'lishi bilan birga, qadim anananing tiklanishi ham dir. Bu ananada mumtoz tarixchilarimiz ijod qilgani ma'lum u mahiyatdan xalqoro ilmiy andozalarga umuminsoniy ahamiyatga ham egadir.

Mustaqillik yillari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tezkorligi, voqea va hodisalarning shiddatligi, olamu odam taqdiriga daxldor bo'lgan dunyoviy muammolaru serqirra hayotning barcha jabhalarini kamrab olgan umumiy qarashlarimizdan tortib, eng kichik, eng shaxsiy yumushlarimizgacha bo'lgan barcha hodisalarni o'zida mujassam etdi. Mudroq bosgan tuyg'ularimizni junbushga keltirdi. Boshkacha qilib aytganda, hayotga tiyrakroq qaraydigan bo'ldik O'zligimizni anglay boshladik.

Tabiyyki, bunday hayotiy zaruriyat barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori tarix fani oldiga ham yangi vazifalar ko'yadi. Tadqiqotchilar birinchi navbat xalqning istiqloolga erishish yo'lidagi fidoyi mehnatini, milliy mustaqillikka-erishish yo'llari va vositalarini, milliy davlatchilik qurilishiga doir tajribani, istiqloolni mustahkamlashning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy omillarini o'rganish va milliy istiqlool mafkurasini yaratish kabi bir qator muhim muammolarni har tomonlama mushohada qilmoqlari lozim. Darhaqiqat, o'rganishga, tadqiq etishga, dastlabki ilmiy-nazariy xulosalarni o'rta tashlashga asos bor.

«Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»,-degan edi I.Karimov. Darhaqiqat, tarix xotirasi inson taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazadi, milliy istiqlool mafkurasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Milliy ong, milliy tafakkur xalq xalq tarixi, uning rivojlanish bosqichlarini nechog'lik o'rganish, undan saboq-chiqarish bilan bog'liq. Ulug' allomalar aytganidek, tarix insonni istiqboli, da'vat etadi. Ulkan yaratuvchilikni rag'batlantiradi. Zotan, uning murabbiylik, tarbiyachilik, yo'naltiruvchilik kuchi xuddi ana shunda.

SHu ma'noda mamlakatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi qoshida «O'zbekistonning yangi tarixi» Markazini tashkil qilish to'g'risida chiqarga Farmoyishi katta tarixiy va siyosiy ahamiyatga ega. Qo'lingizdagi «Mustaqil O'zbekiston tarixi» kitobi ana shu xayrli yo'lda qilingan dastlabki ishdir.

Kitobda O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi, yangi jamiyat o'tish davrida siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi, O'zbekistonda huquqi demokratik davlat qurilishi, fuqarolik jamiyatining shakllantirilip, iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga doir tadbirlar, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlash omillari, ma'naviy-ruhiy poklanish va milliy qadriyatlarning tiklanishi hamda O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olishi kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

Xullas, «Mustaqil O'zbekiston tarixi» kitobi ana shu tarixiy jarayonlarni mumkin qadar to'laroq qamrab olish, uni jamlash, ma'lum bir tartibga solip qolaversa, ana shu jarayonlarni iloji boricha ko'proq o'rganish orzu-istagi vujudga keldi. Darhaqiqat, mustaqillik davrida o'tgan kunlarimiz alohi o'rganishni, tadqiq etishni, ilmiy va nazariy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqd Buning o'ziga xos asoslari bor.

Birinchidan, istiqlol yillarida O'zbekiston mustaqil suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'ziga xos nufuzga ega bo'ldi. U o'zining katta ishlab chiqarish imkoniyatlari, boy aqliy va jismoniy salohiyati, tengsiz tabiiy boyliklari bilan dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari diqqatini tortdi va ular bilan tengma-teng turib hamkorlik qilish qudratiga ega ekanligini ko'rsata oldi.

Ikkinchidan, eng og'ir, mashaqqatli va ziddiyatli paytlarda, o'tish davrining o'ziga xos murakkabliklari mavjud bo'lgan bir vaqtda mamlakatda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlikning saqlab turilishi mamlakat hukumat siyosatining naqadar hayotiy va xalqchil ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yuzda ortiq millat va elat yashayotgan mamlakatda turli aqidalar va g'oyalar ta'sirida bo'lgan aholining talab-ehtiyojlarini o'z vaqtida qondirish, ularning qarashlariga bir nuqtada jamlash alohida uddaburonlikni va qat'iyatlikni talab etadi. O'zbekiston hukumati xuddi ana shunday qat'iyatni ko'rsata bildi.

Uchinchidan, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalash, dunyoviy davlat qurishning asosi bo'lgan qonun ustuvorligiga erishish qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash tamoyillari vujudga keldi. Tub islohotlarning Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mashhur besh tamoyili istiqlolning dastlabki yillaridayoq jahon hamjamiyatida yuqor baholandi va to'la tan olindi.

To'rtinchidan, xorijiy jalb etish, chet ellik ishbilarmonlar bilan yo'l; qo'yish, shu asosda mamlakat ishlab chiqarishini tubdan o'zgartirish, uni jahonni eng ilg'or texnologiyalari bilan qayta jihozlantirish yo'li tutildi. Bu O'zbekistonning jamiyatni bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tkazishda barcha yosh mustaqil mamlakatlar o'rtasida eng to'g'ri yo'l tanlaganini ko'rsatdi.

Beshinchidan, O'zbekiston hukumatining islohotchilik siyosati bevosita xalq, dunyoqarashi, uning ming yillar mobaynida shakllangan urf-odatlarini, an'analarini bilan uyg'un holda amalga oshirila boshlandi. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir», «Savob ishni har kim qilish kerak»; «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, aqlli, dono va albatta baxtli bo'lishi kerak; singari shiorlar xalqimizning orzu-istagi, umid va intilishlari bilan uyg'un holda dunyoga keldi. Bugungi Uzbekistonning tom ma'noda ma'naviy tiklanish ruhiy poklanish maydoniga aylanganligi ana shu eng ezgu niyatlar asosida davlat siyosati va xalq orzu-umidlarining uyg'unligi natijasidir.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida shaxsning roli benihoya katta. Ayniqsa, o'tish davrida davlat arbobining, siyosiy etakchining o'rnini yana ham yaqqolroq ko'z tashlanadi. Chunki, bu paytda hali ma'lum bir siyosiy tutum, siyosiy qatlam 'd jamiyatni yo'naltiradigan oqim shakllanmagan, qarashlar bir o'zanga tushmagan, turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar mavjud bo'lgan murakkab bir vaziyat vujudga keladi. Bunday paytda xalq o'z kelajagini asosan davlat rahbariga qarab belgilaydi. O'zining iymon-e'tiqodini, taqdirini u bilan bog'laydi.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda mustaqillikning o'tgan davri mamlakatimizda amalga oshirilgan keng qo'lamli ishlar bevosita davlat rahbarining shaxsiyati, uning ish uslubi, voqea-hodisalarga yondoshish usuli bilan bog'lanib ketgan. Xohlaymizmi-yo'qmi, davlat arbobining siyosiy qiyofasi o'tish davrining noyob mahsuli sifatida tarix sahifalarida Bosh islohotchi qiyofasi o'tish mustahkam o'rnatilgan bo'ladi. Demak, mustaqillik davri tarixini o'rganar ekanmiz, bu jarayon bevosita mamlakat Prezidenti I.Karimov faoliyati bilan uzviy bog'langanligini yaqqol ko'ramiz va uni sahifalarga aynan ko'chirishga intildi Tarixiy haqiqat ham, hayotiy va ilmiy haqiqat ham shuni taqozo etadi.

SHubhasiz, yuqorida tilga olingan masalalarni o'rganish va mushohada qildi kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yoshlarni tarixiy an'analarga, umuminsonk qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga ko'maklashadi.

O'zbekiston mustaqilligiga oid rasmiy hujjatlar deganda sobiq sho'ro davrining hokimiyati tizimi so'nggi qarorlarini tushunamiz. Chunki mustaqillik sobiq ittifoqning barham topishi bilan yuzaga keldi. Bu davr hujjatlari bir qismi sobiq ittifoq tizimi qabul qilingan.

Ikkinchi guruh rasmiy hujjatlar mustaqil O'zbekiston rahbariyat organlari tomonidan qabul qilingan «Mustaqillik deklaratsiyasi», «O'zbekiston konstitutsiyasi» va boshqa qonunlar, Prezident farmonlari, vazirlar maxkamasi qarorlari va boshqalardir. Ayrim tarmoq hujjatlari ham yurtimiz tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etish mumkin.

O'zbekiston mustaqilligi davri eng muhim hujjatlari «Yangi O'zbekiston tarixi» 3 jildida (Tosh. 2000), R.X.Murtazaeva tahriri ostida chop etilgan «O'zbekiston tarixi» (Tosh. 2003) darsligida o'z aksini topgan.

O'zbekiston mustaqil bo'lgach, taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning doklad va

nutqlarida, monografik asarlarida aks etgan. Mustaqillikka erishish g'oyasi xalqimizga azaldan meros, shu maqsad ajdodlar orqali ming yilliklar qaridan bizgacha etib kelmoqda. Prezident I.Karimov «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati» nomli risolasi, - «O'zbek millati azaldan o'z fikri zikri, o'z istiqloli uchun kurashib yashagan». Bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat, yurtimizning fidoyi, o'z yo'lidan maslagidan, so'zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart " bo'lgan tarix sahifalarini qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham qarz, ham farz-deganda ana shu holatni nazarda tutadi. Xalqimizning uzoq tarixi u o'z o'tmishida ozodlik, istiqlol uchun tinimsiz kurash olib borganidan guvohlik beradi.

I.A.Karimov asarlarida ko'p asrlik tariximizdagi eng yirik tarixiy shaxslar Imom al-Buxoriy, Axmad al-Farg'oni, Axmad YAssaviy, Jaloliddin Mangu Berdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk ajdodlarimizning jaxon madaniyatiga qo'shgan, xissasi, hamda mustaqil respublikamiz taraqqiyotining-ustuvor yo'nalishlari o'z aksini topgan. Bundan tashqari Prezident davlat raxbari sifatida respublikamizning xalqaro miqyosida olib borayotgan siyosati, aniqlaydi. Mana shuning uchun ham O'zbekiston respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlar xalqimiz tarixini o'rganishda metodologik qo'llanma sifatida, zamonaviy jarayonlarni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. eng muhim asarlari ingliz, frantsuz, ispan, nemis, hind, xitoy, arab kabi o'nlab turli xorijiy tillarga tarjima qilinib chet ellarda bir necha bor nashr qilingan. Respublikamizda esa I.A.Karimov asarlarining 19 jildlik to'plami nashr qilingan.

Mustaqillik azaldan insoniyatning orzu-umidlari, armon va izzatlarini, o'zida mujassam etgan. Darhaqiqat, inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga intilib yashaydi. U hamisha har jihatdan o'zini erkin his qilishga, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. SHuning uchun ham kishilik tarixi turli davrlarda Er sharining barcha mintaqalarida ozodlik uchun kurashish shakllari turlicha, mohiyatan o'xshash bo'lgan hurriyatga intilish hodisalarini ko'p ko'rgan.

YAqin o'tmishimizning sobiq sovet hokimiyati hukmronlik qilgan davr (1917-1991 yillar) mamlakatimiz tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Bu davrgarchi tarixan qisqa bo'lsada, lekin o'zining murakkabligi va ziddiyatligi bilan ajralib turadi. 1917 yil oktyabrida bolsheviklar zo'rlik bilan amalga oshirilgan to'ntarish sobiq Ittifoq xalqlari, shu jumladan, O'zbekiston xalqlari tarixida salkam 75 yil

davom etgan yangi mustamlakachilik sahifasini boshlab berdi. Natijada chor mustamlakachilik imperiyasi o'rni «qizil imperiya» egalladi. YAqin mustamlakachilik zulmi ostida yashagan o'zka xalqlar bolsheviklar «sotsialistik tajribasi»ning barcha mash'um mushkulotlarni boshdan kechirdilar. eng achinarlisi shundaki, respublikadagi ijtimoiy-siyosi tarixiy jarayonning o'ta murakkab va ziddiyatli kechishi ko'plab qurbonlar berilishiga, madaniy va ma'naviy yo'qotishlarga olib keldi.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan tarixiy haqiqatni tiklash uchun, yangicha va xolis yondashuv, sovet davrida yuzaga kelgan. Vatanimiz tarixidagi noxolisliklar va «oq dog'lar»ni milliy mustaqillik mafkurasi asosida tugatish uchun qulay shart-sharoit qaror topdi. Bunga bosh mezon sifatida tarixiy dalil va voqealarga, butun tarixiy jarayonga respublika" va uning xalqi manfaatlarini hisobga olgan holda printsipl baho berish asos qilib olindi. Aynan shunday yondashuvlarning asosiy printsiplari Uzbekists Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 1996 yil dekabrda «Uzbekistonning yangi tarixini yaratish» « 1998 yil iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlarida bayon etilgan bo'lib, ushbu ilmiy-ommabop kitobning mualliflar jamoasi ham shu asosda sovet davri O'zbekiston tarixini, sovet davlatchiligining mustabidchilik mohiyatini xolisona yoritishga harakat qildi. O'zbekistonning Mustaqillikka erishuvi tarix fani vazifalari va mohiyati tubdan o'zgartirdi.

Bunga binoan tarixshunoslik va tarixshunoslar ham yangi jamiyat talablari va mezonlari asosida o'z oldida turgan vazifalarni qayta ko'rish chiqib, bu jamiyat tafakkuriga mos keladigan tadqiqotchilik faoliyati shakllantirishga kirishdilar va o'tgan yillar davomida ma'lum natijalarga erishdilar. Mustaqillik yillarida tarixshunoslik sohasi dinamik ravishda, ma'lum darajada maqsadli rivojlanib bordi. Bu kontekstda muammo tarixshunosligi holati va xususiyatlari haqida fikr yuritir ekanmiz, unig rivojida asosiy tendentsiyalardan biri ushbu yo'nalishdagi tarixshunoslar va ilmiy maktabning shakllanishi bo'ldi. Bu ilmiy maktabning yangiligi shundaki, tadqiqotchi o'zini qiziqitrayotgan mavzuga oid tarixshunoslg. manbalarini o'rganish bilan cheklanmay, tadqiq qilinayotgan mavzu ramkasida "tarixshunoslik jarayoni" tushunchasini tashkil qiladigan masalalar doirasida ham ko'rib chiqishni qamrab oldi. Tarixshunoslar bu tushunchaga "ilmiy tadqiqotlarni tashkil etilishini", konkret tarixiy muammo oid nazari tasavvurlar tahlilini

mujassamlashtirib, manbaviy asosidagi, tarixiy tadqiqot usullaridagi o'zgarishlarni, tarixiy profildagi ilmiy muassasalar faoliyati xususiyatlarini, tarix fani rivojining har bir bosqichida kadrlar salohiyatini shakllanishi ko'rsatishga urindilar.

Muammo tarixshunosligi tadqiqotlari rivojida ikkinchi tendentsiyalar tarixshunoslik manbalari janrining yiriklashuvi bo'ldi: ilmiy anjum-anlardagi materiallari, jurnal maqolalari bilan bir qatorda individual monografiyalar chop etildi, alohida muammolar bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindig o'tkazilgan yirik ilmiy anjumanlar tarix fani rivoji kontekstida tarixshunoslik rivoji muammolariga ham e'tibor qaratdi. FA Tarix instituti o'tkazilib kelayotgan an'naviy tarixshunoslik o'qishlari muammo tarixshunosli holati, mavzular doirasini belgilash, istiqbolida o'rganiladigan dolzary muammolarni aniqlashda muhim rol o'ynab kelmoqda.

Mustaqillik yillarida muammoviy tarixshunoslik sohasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilishga o'tar ekanmiz, shuni ta'kidlash zarurki, 1990 yillarning boshlaridagi muammo tarixshunosligiga doir ishlar xususiyati shundan iborat bo'ldiki, ular sovet davrida tadqiq qilinib, shu davrda yaratilgan adabiyotla, sovet tarix fani g'oyalari asosida tahlil qilingan.

Bu yillarda tadqiqotlar mavzusining yangilanishi ancha sekinlik bilan amalga oshdi. Tarixshunoslik tadqiqotlari mavzularining yangilanishiga ularni, sifat jihatidan o'zgarishiga tarix tadqiqotlaridagi yangilanish jarayoni turtki bo'ldi. Muammo tarixshunosligi rivojida Vatan tarixining dolzarb muammolarini qayta mushohada etishda yangicha yondoshuvlarga asoslangan tadqiqotlar 1990 yillarning o'rtalaridan boshlab ayniqsa vujudga kela boshlaganligini kuzatish mumkin. Vatan tarixining dolzarb muammolarini o'rganishda yangicha yondoshuvlarning ommalashuvida 1994 yilda tayyorlangan maqolalar to'plami UR FA Tarix instituti tarixshunoslik bo'limida tayyorlangan "XX asrning dastlabki o'ttiz yilligida O'zbekistonda tarix fani (Tarixshunoslik ocherklari)" ni alohida ko'rsatib o'tmoqchimiz. Mazkur tarixshunoslik ocherklarid, mustaqillik davri ilgari surgan, sifat jihatidan yangi vazifalardan kelib chiqib, XX asrning dastlabki 30 yilligida O'zbekiston tarixi fani rivojini asosiy bosqichlari har tomonlama izchillik bilan yoritildi. Ushbu asarning ijobiy momenti sifatida ilmiy o'rganish ob'ektiga kirgan muammo va masalalarni nihoyatda chuqur va jiddiy, yangi nazariy-metodologik yondoshuvlar asosida o'rganilganligini ta'kidlash zarur.

O'zbekistonda amalga oshirilgan tarixshunoslik tadqiqotlarini xarakterlashga o'tar ekanmiz, shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillari ilmiy tarixshunosligida O'zbekistonning alohida hududlar tarixshunosligi masalalari tadqiq qilindi. Xususan, Qoraqalpog'iston, Buxoro, Xiva tarixshunosligiga oid ishlar chop etildi. SHuni ta'kidlash zarurki, tadqiqotlarda O'zbekiston tarixining umumiy va regional jihatlarini turli muammoviy mavzuviy va xronologik resurslari vatan adabiyotlari doirasida tahlil qilish bilan chegaralanmaydi. Ishga yuqori mutaxassislik mahorati darajasida chet el tarixshunoslik manbalari jalb qilinadi. Bunday yondoshuv o'z navbatida tahsinga sazovorki, bu orqali vatan tarixining u yoki bu muammosi tarixshunosligining yaxlit manzarasi yaratiladi.

1991 yillargacha sovet tarixshunosligida ilgari o'rganilmagan printsipliy yangi mavzu paydo bo'ldi. Gap tarixiy tsivilizatsion kommunikatsiyalar muammosi avvalambor Buyuk ipak yo'li haqida ketyapti. Bugungi unda ushbu mavzu O'zbekistot Respublikasi geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlari nuqtai-nazaridan uning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga asosli ravishda intilayotganligi dunyoning turli davlatlari bilan (asosan iqtisodiy va transport kommunikatsiyalar sohasida) har tomonlama munosabat o'rnatishida etakchi mavzu bo'lib qolmoqda. So'nggi yillardagi «istoriografik mahsulotlar» ijtimoiy-siyosiy mavzulari etarlicha intensiv tadqiq qilish bilan xarakterlanadi. Ular mustaqillikning o'n yillarida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va uning oqibatlarini, milliy-ozodlik kurashlari, «bosmachilik harakati», milliy va diniy siyosatning amalga oshirilishi, xotin-qizlar muammosi.

Jadidchilik tarixshunosligi masalasi tahlil qilishda original yondashuvni qo'llayotgan Uzbekiston tarixshunosligi maktabida bir muammo doirasig birlashgan ilmiy hamjamiyat xususiyatlarini namoyon qilmoqda.

Mustaqillik yillaridagi muammoviy tarixshunoslikdagi eng kat yutuqlaridan biri bu O'zbekiston tarixining turli mavzularini xorijlik tarixshunosligini yoritish bo'ldi. Yangi avlod tarixchilarining chet tillari o'zlashtirishi, xorijiy mamlakatlarga safarga chiqish, ilmiy markazlar, kutubxonalardan foydalanish imkonining vujudga kelishi bilan bu sohadagi tadqiqotlar ayniqsa kengaydi. O'zbekistonda tarixshunoslik tadqiqotlar rivojlanishining asosiy tamoyillari haqida aytilgan fikrlarimizga yakun yasay ekanmiz, tarix fani rivojida muhim

ahamiyatga ega bo'lgan hozirgi zamon tarixshunosligi oldida quyidagi dolzarb muammolar borligi kayd etish lozim. Tarixshunoslik tadqiqotlari tahlili asosiga qo'yilgan tarixiy adabiyotlarlar yangicha nuqtai-nazardan o'qib, o'rganib chiqish kerak. Bunday tadqiqotchilar harakatlari tanqidiy ishning xolisligi va vatan tarixi tarixshunoslik muammolarini o'rganish umuman va xususan qanday amalga oshirilganligin baholashda maqsadga muvofiq bo'lar edi. Tarixshunoslik tadqiqotlari mualliflari ilmiy tarixshunoslikning zarurligini ta'kidlamokdalar. U fanda sodir bo'layotgan o'zgarishlar sabablarini anlashga, zamonaviy tarixiy ogg mohiyatini, ilgari surilayotgan kontseptsiyalarning qanday tekshirilayotganini, yangi ilmiy bilimlar qanday qilib yangi shaklga kirishini tushunishga, tarix nafaqat bilim, balkim amalga oshayotgan jarayonni anglash vositasi sifatida ham zarur bo'ladimi degan savollarga javob topishga yordam beradi. Muammo tarixshunosligi o'zining rivoji davomida sifat jihatdan o'zgarib, tarixshunoslik tadqiqot usullarini takomillashtirish uchun istiqbolda yaxshi imkoniyatlarga ega.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida jadidchilik, uning namoyandalari, umuman XX asr boshidagi siyosiy jarayonlar bilan bog'liq masalalarga qizikish ortganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, milliy davlatchiligimiz uchun dastlabki urinish sifatida XX asr tarixi sahifalaridan o'rin olgan Turkiston muxtoriyati tarixi, mazkur harakatning vujudga kelishi va taraqqiyotiga xissa qo'shgan, unga aloqadorligi bor kishilar hayoti va faoliyatini o'rganish masalalari ijtimoiy fan soha vakillarida katta qiziqish uyg'otdi. Tadqiqotchilar tomonidan mustaqillikning dastlabki yillarida ko'plab maqola, risola va dissertatsiyalarda milliy demokratik davlatchiligimiz tajribasi bo'lgan Turkiston muxtoriyati tarixiga oid ko'plab faktik materiallar iste'molga kiritildi.

Muammoni ijtimoiy-adabiy jarayonlar nuqtai nazaridan yoritishda adabiyotshunoslar o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar. Adabiyotshunoslarning yurt ozodligi yo'lida kurashgan fidoyi kishilarning hayoti va faoliyati, ilmiy adabiy meroslariga bag'ishlangan qator nashrlari Turkiston muxtoriyati tarixiga oydinlik kiritishda o'ziga xos o'rin tutdi.

Tarixiy jihatdan yondoshilgan tadqiqotlarning dastlabkilari esa hajmi jihatdan katta bo'lmagan maqola va ocherklardan iborat. SH. Doniyorovning muxtoriyatning bostirilishiga bag'ishlangan maqolasini shular jumlasiga kiritish mumkin. Maqolada muallif mazkur harakat mohiyati va ko'lamiga to'g'ri baho bergan. U Turkiston

musulmonlarining favqulodda IV qurultoyida muhokama etilgan asosiy masalalardan biri - «hukumatni Janubiy-sharqiy ittifoqqa qo'shilishini ham foydali bo'lgan», deb hisoblaydi. SHu bilan bir qatorda tadqiqotchi «Turkiston taqdiri uchun, milliy istiqbol uchun, erk va hurlik uchun millatparvar ziyolilar kurashgan xolos», «muxtoriyatning asoschi va yo'l boshchilarini asosan «milliy savdo-sanoat burjuaziyasi» tashkil etgan», «hukumat harbiy kuchga ham ega emas edi, qisqa muddatda harbiy kuch yig'ishning umuman imkoni bo'lmagan», degan bir qator noto'g'ri xulosalarga ham kelgan. Mazkur kamchiliklar tadqiqotchining asosan sovet davrida yaratilgan adabiyot va manbalardan foydalangani sababli kelib chiqqan, deb hisoblash mumkin. SHunga qaramay, mazkur tadqiqot mustaqillik davridagi muammoni o'rganishda dastlabki qadamlardan biri ekanligi, keyingi tadqiqotlar yo'lini boshlab bergani bilan ham ahamiyatlidir.

Turkistondagi XX asr boshidagi siyosiy tashkilotlar faoliyatini xolisona nuqtai nazarda maxsus tadqiq etgan R.M. Abdullaevning Turkistonning 1917 yil fevralidan keyingi siyosiy jarayonlarga bag'ishlangan maqolasida esa «milliy harakat qatnashchilari butun Rossiya va o'lkadagi s'ezd, rezolyutsiyalaridan ruhlanib, kimlardir siyosatining ob'ekti bo'lib qolishni xohlamagan holda o'zlari kutgan orzu-istaklarini tezlik bilan amalga oshirishni istaganliklari» ta'kidlanadi.

Sovet rejimiga qarshi harakat masalalarini yangi manbalar asosida yoritgan Q.K. Rajabov tadqiqotida bevosita mazkur harakat namoyandalari, shu jumladan, muxtoriyat qo'shiniga aloqador bo'lgan katta va kichik ergashlar xususida ham so'z yuritgan. Ularning muxtoriyat hukumati davridagi faoliyati tadqiqotchi tomonidan xorijdagi vatandoshlar asarlari hamda sovet davri xotiralari orqali yoritib berilgan.

A.M. Xudayqulovning nomzodlik dissertatsiyasida Turkiston taraqqiyparvarlarining ma'rifatparvarlik faoliyati negizida xalqni faqat ma'rifatli qilishgina emas, shu yo'l bilan birinchi navbatda xalqni, taraqqiyotdan orqada qolayotgan mamlakatni qoloqliqdan, mustamlaka zulmidan xalos qilish vazifalari mujassamlashgan edi, degan xulosaga kelingan. SHu bilan birga tadqiqotchi muxtoriyat davrida vujudga kelgan milliy norasmiy matbuotga baho berishda sovet davri manba va adabiyotlaridan foydalangan bo'lsa ham taraqqiyparvarlarning 1917 yildan keyingi matbuotini nafaqat son jihatdan, balki siyosiy jihatdan ham o'sganligini e'tirof etadi.

Bundan tashqari I.Y. Tursunovning O'zbekiston maorifchilarining istiqloq yo'lidagi kurashi tarixiga bag'ishlangan umumlashgan tadqiqotida milliy istiqloq mafkurasining vujudga kelishi va uni hayotga tatbiq etilishida ishtirok etgan ma'rifatparvarlarning o'rni va roli, D. Toshkulov dissertatsiyasida Turkiston taraqqiyparvarlarining siyosiy-huquqiy g'oyalari, siyosiy dastur va talablari tahlil qilib berilgan. SHu o'rinda D. Toshqulovning ba'zi bir sovet davri tadqiqotchilarining «milliy burjuaziya manfaatlarini himoya qilgan inqilobiy millatchilik harakati» sifatida taraqqiyparvarlarga bergan baholarini noto'g'ri ekanligini ko'rsatib o'tganligini ham ta'kidlab o'tish joiz. Muallifning fikricha, taraqqiyparvarlarning «xalqni ma'rifatli qilish, mamlakatni ilg'or rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish uchun milliy kadrlar etishtirish, iqtisodiyot, fan va madaniyatni rivojlantirish, ijtimoiy, diniy va milliy kelib chiqishidan qati nazar butun mamlakat uchun demokratik huquq va erkinliklar berish, demokratik respublika barpo etishga qaratilgan sa'yi harakatlari ularning faqat milliy burjuaziya manfaatlarini himoya qilmaganligidan dalolat beradi». Taraqqiyparvarlarning mustaqillik uchun kurashi mohiyatiga tadqiqotchi quyidagicha baho beradi: «jadidlarning mustaqillik uchun kurashi oxir-oqibat butun mamlakat hududida mamlakat tabiiy zaxiralari, moddiy va ma'naviy boyliklariga ega bo'lgan, xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatidagi a'zoliqini ta'minlashga qaratilgan tom ma'nodagi davlat suverenitetini ta'minlashga yo'naltirilgan edi».

Umuman olganda muammoga oid 90-yillarning birinchi yarmida yaratilgan tadqiqotlarda sovet tarix fanidagi kamchiliklar va undan chiqish yo'llari, uslubiy ishlatdan yangi tadqiqotlar borasida ilk qadamlar qo'yilgani, milliy davlatchilik uchun kurash masalalariga oid ilmiy tadqiqot muammolari birmuncha kengayligi hamda keng nashrchilik ishlari boshlangani kuzatiladi. Biroq, bu davr tadqiqotlarida Turkiston muxtoriyatining mohiyati, etakchi kuchlari va ularning milliy mustaqillik borasidagi harakatlari va bu boradagi qarashlari, mazkur harakatda turli aholi qatlamlarining ishtiroki, muxtoriyatni bostirilishi va uning oqibatlari har tomonlama to'liq ochib berilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 18 sentyabrdagi «O'zbekistonning yangi tarix markazini tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishi, hamda Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 16 dekabrda «O'zbekistonning yangi tarixini yaratish to'g'risida»gi qarorlari esa muammoni o'rganishda yana bir yangi bosqichni boshlab berdi. Tarix fanidagi bunday burilish pallasi muammoni nazariy va uslubiy jihatdan

qayta ko'rib chiqishga, u bilan bog'liq masalalarga doir umumlashgan tadqiqotlar yaratilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

1996 yilning may oyidan boshlab O'zR FA Tarix instituti qoshida tashkil etilgan «Jadidshunoslik markazi» ilmiy guruhi «Turkiston jadidchiligi» mavzusida fundamental tadqiqot ustida ish boshladi va shu yilning o'zida institut tomonidan tayyorlangan «Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan» nomli to'plam nashrdan chiqdi. To'plamda D.A. Alimova, S.S. Agzamxujayev, R.N. SHigabdinov, R.M. Abdullaev, Q.K. Rajabovlarning jadidchilik, muxtoriyatchilik va istiqloq-chshshk harakatlariga doir maqolalari o'rin oldi. CHunonchi, t.f.d. D. A. Alimova jadidchilikning tarixiy mohiyati, siyosiy bosqichlari va intellektual darajasini ko'rsatib berdi va birinchilardan bulib taraqqiyparvarlarning milliy davlatchilikka oid qarashlarini va harakat rahbarlarini tarixiy jarayonlardagi ishtirokini xolis tahlil qilib berdi. R.N. SHigabdinov, Validiy hayoti va faoliyati hamda uning muxtoriyatchilik g'oyasini rivojlantirishga qo'shgan hissasini yoritishga, R.M. Abdullaev esa, 1917 yilda Turkiston o'lkasida mavjud bo'lgan siyosiy partiyalar va ularning faoliyatini ochib berishga harakat qilgan.

SHu yili tadqiqotchi S.S. Agzamxujayev tomonidan Turkiston muxtoriyati tarixiga bag'igalangan doktorlik dissertatsiya2si himoya qilindi. Mazkur tadqiqot mustaqillik davrida muammoni yangi nuqtai nazar asosida tadqiq etgan dastlabki maxsus umumlashgan tadqiqotdir. Dissertatsiyada o'lkadagi birinchi milliy-demokratik davlat bo'lgan Turkiston muxtoriyati tajribasi umumlashtirilgan. Muammoni arxiv hujjatlarini davriy matbuot nashrlari hamda respublika va chet el adabiyotdarini qiyosiy tahlil qilinishi Turkiston muxtoriyati tarixining ko'pgina qirralarini, harakatning etakchi kuchlari hamda qatnashchilari faoliyatining muhim jihatlarini tiklash imkonini bergan.

Tadqiqotda Turkistonda muxtoriyatchilik g'oyasining vujudga kelishi, rivojlanishi, bu jarayonda o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va taraqqiyparvar kuchlarning ishtiroki uch bosqichda ochib berilgan:

1. Muxtoriyatchilik g'oyasining yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy shart-sharoit va taraqqiyparvarlarda muxtoriyatchilik g'oyasining vujudga kelishi.

2. Muxtoriyat uchun amaliy tayyorgarlik davri.

3. Milliy davlatchilikni tiklash uchun kurash: Turkiston muxtoriyatining vujudga keltirilishi va bolsheviklar tomonidan tor-mor etilishi.

Birinchi va ikkinchi bosqichda ko'rsatilgan masalalar, ya'ni 1917 yil fevral inqilobidan keyin o'lkada boshlangan siyosiy jarayonlar, milliy-siyosiy tashkilotlar faoliyati, ularning dasturi, o'zaro munosabati, imkoniyatlari va kamchiliklari, muxtoriyatchilik g'oyasi paydo bo'lish sabablari, o'lkadagi turli siyosiy kuchlar va ijtimoiy toifalarning unga nisbatan munosabatlari muallif tomonidan ayniqsa, keng va atroflicha tahlil qilib berilgan. SHuningdek, muxtoriyatning tuzilishi, mahalliy aholi tomonidan xayrixohlik bilan qo'llab-quvvatlanishi, harakat etakchi kuchlarining tadbirlari hamda muxtoriyat hukumatini bolsheviklar tomonidan bostirilishi aniq tarixiy dalillar bilan ko'rsatib o'tilgan hamda quyidagi xulosalar chiqarilgan:

- Turkiston sovetlarining III o'lka s'ezdida qabul qilingan qararlarda evropalik jamoalar, asosan bolsheviklarning shovinistik kayfiyatlari aks etgan.

- Turkiston muxtoriyatining Qo'qon shahrida vujudga kelishi Toshkent ijroqo'mitasi va Sovnarko'mining hatti-harakatlariga javob tariqasida yuzaga kelgan.

- O'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyida turli millat vakillarining ishtirok etishi hamda unda qabul qilingan qararlarda Turkistonda yashayotgan barcha aholi manfaatlarini inobatga olinganligi uchun haqiqiy baynalminalchilik tamoyilini o'zida mujassamlashtirgan.

- Mazkur harakat mustamlaka zulmini tugatish uchun maydonga chiqqan, demokratiya tamoyillariga tayanuvchi va o'lka tub aholisining tarixiy ehtiyojlarini hisobga olgan, Rossiya davlati doirasida suveren milliy davlat barpo etish maqsadini o'zida mujassamlashtirgan harakat edi.

- Turkiston muxtoriyati o'lka aholisining turli ijtimoiy qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan hamda tub aholining ommaviy harakatini ifoda etgan.

Muxtoriyatchilar va ulamo o'rtasidagi kelishmovchiliklar muayyan darajada muxtoriyatning keyingi taqdiriga ta'sir ko'rsatgan.

Muxtoriyatchilik harakatining mohiyati, muxtoriyat hukumati faoliyati davridagi o'lkada hukm surgan tarixiy vaziyat hamda muxtoriyatchi va bolsheviklar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga (oid qarashlari tadqiqotchining bundan keyingi tadqiqotlarida ham aks ettirilgan.

Turkiston muxtoriyati masalalari X. Uzoqov, B. Do'stqoraevlar ishlarida ham uchraydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yilning 26 iyunidagi tarixchi olimlar va ijodiy ziyolilar vakillari bilan uchrashuvi ham muammoni o'rganishga ta'sir ko'rsatgan omillardan biri bo'ldi. Mazkur uchrashuv natijasida respublikada tarix fanini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjat - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyulida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori qabul qilinib, unda tarix fanining nazariy, ilmiy va kontseptual yo'nalishlari belgilab berildi. Qarorga muvofiq «o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi bo'yicha tadqiqotlarni rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish belgilandi. Tayyorlangan kontseptsiyada o'zbek davlatchiligining muhim bosqichi bo'lgan jadidchilik, Turkistonda ozodlik va mustaqillik uchun kurash, Turkiston muxtoriyati va uning tugatilishi sabablarini o'rganish alohida belgilab qo'yildi.

1998 yilning 9 oktyabrida esa O'zR Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Jurnalistlarni kayta tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi, Konrad Adenauer nomli mintaqaviy fondi hamkorligida xalqaro anjuman o'tkazilib, unda ishtirok etgan olimlar jadidchilik va uning namoyandalari, Turkistonda mustaqillik uchun kurashlar tarixi bilan bog'liq masalalar xususida fikr almashdilar. Anjumanda t.f.d. D.A. Alimova tomonidan qilingan ma'ruzada bu harakat «XIX asr oxiri - XX asr boshida Turkiston jamiyatining siyosiy kuchlar silsilasida zng progressiv yo'nalishni ifoda etgan jahon ijtimoiy va milliy qadriyatlariga asoslangan, tub aholi manfaatlariga javob bergan va ijtimoiy taraqqiyotning pishib etilgan ehtiyojlarini to'la qondira oladigan harakat» deya baholandi. Olima «Jadidchilik ma'rifatparvarlikdan siyosiy harakatgacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi», - deb ta'kidlab, uni ikki bosqichda tahlil etdi: 1. XX asr boshida harakatning ma'rifatparvarlik yo'nalishi. 2. 1915-1917 yillar - siyosiy, tashkiliy va miqdor jihatdan o'sish davri 3. Keyingi bosqich jahon urushi, fevral inqilobi ta'sirida ryvojlandi va taraqqiyparvarlarning mustaqillik g'oya va amyollarini yuzaga kelishini jadallashtirdi». Tadqiqotchining keyingi tadqiqotlarida ham taraqqiyparvarlarning davlatchilik masalasiga qarashlari birinchi davrdanoq shakllana boshlaganligi va ikkinchi davrda aniq bir shaklga kelganligi e'tirof etilgan.

XX asr oxiri - XXI asr boshlariga qadar O'zbekiston tarixining XX asrning dastlabki, ayniqsa milliy davlatchilik uchun kurash

jarayonlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy asoslariga oid tarixiy mavzularda ko'plab maqola, risola, ilmiy to'plam, monografiya va dissertatsiya ko'rinishidagi tadqiqotlar yaratildi. Ularda Turkiston Muxtoriyati tarixi bilan bogliq bir qancha fakt va xulosalar iste'molga kiritildi, yangicha yondashuvlar umumlashtirildi. Va shu asosda muammo yuzasidan yangi kontsepsiya yaratildi.

CHunonchi, DA. Alimova risolasida Turkiston xalqining muxtoriyatni qo'llab-quvvatlaganligi va uni sovetlar yomonidan ag'darib tashlashanligi masalalariga atroflicha to'xtalib, sovet hokimiyati muxtoriyati (TASSR) bilan milliy Turkiston muxtoriyati o'rtasidagi farqlarni hujjatlar asosida ko'rsatib berilgan bo'lsa, «Turkestan v nachale XX veka: istoki natsionalnoy nezavisimosti» nomli monografiyada tarixchi olimlardan R.YA. Radjapova, R.M. Abdullaev, S.S. A'zamxo'jaev, R.A. Nurullin, M. Xasanovlar 1917 yil fevralidan oktyabrigacha bo'lgan davr tarixi, muxtoriyat uchun qilingan harakatlar, Turkiston Muxtoriyatining tuzilishi, uning faoliyati, bostirilishi bilan bog'liq bir qancha masalalarga to'xtalib o'tganlar.

M. Xaydarov tadqiqotida esa mazkur harakat millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash masalasini demokratik yo'l bilan hal etishga bel bog'lagan xalq irodasi va ilg'or ziyolilarning ko'tarinki xatti-harakati zaminida vujudga kelganligi ta'kidlanadi. Tadqiqotchi R.M. Abdullaev maqolasida hozirga qadar etarlicha o'rganilmagan Turkiston Muxtoriyati milliy qo'shini bilan bog'liq bir necha yangicha qarashlar ilgari surilgan. Maqolada Turkistonda milliy qo'shin tashkil etish bilan bog'liq tadbirlarga muxtoriyat tashkil etilgandan ancha ilgariroq kirishilganligini, Turkiston aholisining muxtoriyat va uning milliy qo'shiniga munosabati xususida ham fikr yuritilgan. Muallifinipyozi shicha, «muxtoriyat e'lon qilingan dastlabki kunlardan oq Turkistonning ko'pgina aholi punktlarida xalq militsiyasi va qo'shiniga yozila boshlagan». «Harbiy tayyorgarligi bor va muxtoriyat hukumatiga sodiq kishilar esa instruktor vazifasiga taklif etilgan». Biroq, tadqiqotchining fikriga ko'ra, «moddiy va moliyaviy etishmovchilik, tajribali va malakali harbiy kishilarning etishmasligi muxtor hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarni jadal va samarali bajarishga imkon bermagan».

Tadqiqotchi D.X. Ziyaeva esa bu davrda qizil armiya Turkistonda talonchilik va zo'ravonlik siyosatini qo'llagani bois mahalliy aholi o'rtasida qizil armiyaga nisbatan norozilik kayfiyatlari kelib chiqqanligini hujjatlar asosida ko'rsatib o'tgan.

SHuningdsk, bu davrda Turkiston Muxtoriyati harakati-ning alohida namoyandalari hayoti va faoliyatiga doir umumlashgan tadqiqotlar ham yaratildi.

Umuman, Turkiston Muxtoriyati tarixi masalalariga oid mustaqillik davri tadqiqotlari tahlili natijalaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tarix fanida bugunga kelib tadqiqotchilar Turkiston muxtoriyati xalqining asriy orzu-niyatlari zaminida vujudga kelgan harakat, tashkilotchilari esa o'z vatanini rivojlangan, mustaqil davlatlar qatoriga olib chiqishga intilgan, o'z davrining ilg'or taraqqiyparvar kishilari ekanligi, ularning maqsadi Turkistonni Rossiyadan ajratish emas, balki butun o'lka aholisiga demokratik huqo'q va erkinliklar berilgan dastlabki mustaqil demokratik davlatni vujudga keltirish bo'lgan, degan yagona bir to'xtamga keldilar.

Muammoni o'rganishda qo'lga kiritilgan yutuqlarni e'tirof etish bilan birga yana muammoning tadqiq etilishi lozim bo'lgan ba'zi bir masalalar borligini aytib o'tish o'rinli. Ular qatoriga o'rganilayotgan davrdagi yirik sarmoyadorlar, o'lkadagi evropalik (ayniqsa, so'l eser, kadetlar partiyasi vakillari) va tub erlik bo'lmagan (polyaklar, yahudiylar, eronliklar va b.) aholi qatlamlari va ularning muxtoriyat harakatlaridagi ishtiroki masalasini, muxtor hukumatning Xiva xonligi Buxoro amirligi, «Janubi-sharqiy ittifoq»i, Boshqird, Ukraina, Alash-O'rda hukumatlari bilan bo'lgan aloqalarini, shuningdek, muxtoriyat qo'shini va Turkiston muxtoriyati barcha rahbar va qatnashchilarining hayoti va faoliyati, muxtoriyat tugatilgandan keyingi taqdiri masalalarini kiritish mumkin. SHuningdek, Turkiston Muxtoriyati muammolarining xorijiy tarixshunosligini ham tadqiq etilishi lozim bo'lgan mavzular doirasiga kiritish mumkin. Turkiston Muxtoriyati tarixining bunday kemptik tomonlari kelgusidagi tadqiqotlar orqali to'ldirilsa, Turkiston Muxtoriyati tarixini to'laqonli yaratilishiga ma'lum ma'noda hissa qo'shishi shubhasiz.

XX asrning 90-yillaridan O'zbekiston xalq xo'jaligida agrar masalani hal etish zarurati paydo bo'ldi. Uzoq davr hukmron bo'lgan erga ijtimoiy mulkchilik shakli, eskirib qolgan xo'jalik yuritish usullari qishloq xo'jaligida inqirozni yuzaga keltirgan edi. O'zbekistonda yuzaga kelgan vaziyat tub agrar islohotlarni talab etardi.

O'zbekiston mustaqil Respublika sifatida tan olingandan so'ng qishloq xo'jaligidagi umumiy ahvol - boshqaruvda ma'muriy buyruqbozlik tizimi, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarida jamoa va davlat mulki, qa'tiy belgilangan davlat buyurtmasi, davlat ta'miotti,

narxii davlat tomonidan boshqarilishi kabi holatlarga barham berila boshlandi.

O'z davrida O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov «qishloq xo'jaligi sohasi, uning tarmoqlarini yangi ish uslubiga o'tkazayotgan islohotning asosiy maqsadi - avvalambor, dehqonlari-mizning ishdan manfaatdorligini tubdan o'zgartirishdir, o'z mehnatining hosili, pirovard natijasini birinchi navbatda o'zlariga qaytarishdir, ularning turmush darajasini, saviyasini ko'tarishdir», - deb ta'kidlab o'tgan edi. SHu maqsaddan kelib chiqib, mustaqillikning dastlabki yillaridai boshlab qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish orqali turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarini teng sharoitda faoliyat ko'rsatishining huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini yaratish hamda ular faoliyatini bir maqsadga yo'naltirishga alohida e'tibor berila boshlapdi. Natijada tarmoqda boshqaruv, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari, ekinlar tizimi, ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlar tubdan o'zgardi. Sobiq davlat va jamoa xo'jaliklari o'rmda xususiy mulkchilikka asoslangan nodavlat xo'jalik yuritish shakllari vujudga keldi. Turli xo'jalik yuritish shakllari orasida shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklar istiqbolli deb topilib, ularni o'zaro raqobat va teng huquqli faoliyat yuritishining huquqiy asoslari shakllantirildi. Ushbu xo'jalik yuritish sub'ektlari orasidan fermer xo'jaliklari bir qator afzalliklarga ega bo'lganligi uchun uni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Respublika parlamenti qishloq xo'jaligida tub burilish-larning huquqiy asoslarini yaratgap qator qonunlarni qabul qildi. Jumladan, «Er to'g'risida» («1990.20.6»), «Davlat tasarru-fidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida» [1991.19.11], «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» (1992.3.70), «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'grisida» (1992.9.12), «Er soligi to'grisida» (1993.6.5), «Suv va suvdan foydalanish to'grisida» (1993.6.5) va boshqa qonunlar hamda hukumat qarorlari qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisodiyot poydevorini yaratishga yo'l ochdi. 1992 yildan birinchi navbatda paxta yakkahokimligini bartaraf etish va ekin maydonlari tarkibini ilmiy asosda tuzish tadbirlari ko'rildi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishga asosiy e'tibor qaratildi. Jumladan, shu yillari O'zbekiston Respublikasining Er Kodeksi tasdiqlandi.

«Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida», «Davlat Er kadastri to'g'risida»gi qonunlari qabul qilindi. 1998 yil 18 martda esa

Respublika Prezidentining «1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi to'g'risida» farmoni e'lon qilindi.

O'zbekistonda dastlabki fermer xo'jaliklari O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 3 iyulda qabul qilingan «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» qonuniga muvofiq, dehqon xo'jaligi shaklida tashkil etildi. Dastlab yirik qishloq xo'jaligi korxonalari (kolxozlar) ichki fermer xo'jaliklari va mustaqil yuridik shaxs sifatidagi. fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatdi. 90-yillarning oxirlaridan boshlab esa fermer xo'jaliklarini tashkil etish va uning faoliyatiga doir huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida» qonuni [1998 yil 30 aprel; yangi tahrirda 2004 yil 26 avgust) bilan tartibga solipdi. Ma'lumki, fermer xo'jaligiing ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va faoliyat ko'rsatish tartibi turli mamlakatlarda turlicha bo'lib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish munosabat-larining rivojlanish darajasi va xususiyatlari, shuningdek, mehnatdan va erdan foydalanish sharoitlari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini industrlash va ixtisoslashtirish darajasi, kapital hajmi va shu kabi omillar bilan belgilanadi. Fermer xo'jaligida asosan, fermer oila a'zolari, qarindosh-urug'lari va mavsumda yollanma ishchilar mehnat qiladi.

O'tgan davr ichida fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni qabul qilinishi natijasida ularning soni, er maydoni, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushi ko'payib bordi. Agarda 1990 yilda fermer xo'jaliklari-ning soni 6977 tani tashkil qilgan bo'lsa, 1995 yilga kelib, 19746 tani (3 barobarga ko'payib), keyingi yillarda esa har yili o'rtacha 10,0 mingxo'jalikdan ko'iyib, 2004 yil boshiga kelib, 87,5 mingtadan oshiq fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan edi.

Fermer xo'jaliklari faoliyatini yanada rivojlantirish uchun qabul qilingan «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi»ga ko'ra asosan past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jalik-lariga aylantirish tadbirlari xamda bozor infratuzilma sub'ektlari faoliyatlarini rivojlantirish orqali tarmoq iqtisodiyotini barqaror o'sishini ta'minlash, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir ko'pgina tadbirlar amalga oshirildi. Masalan, 2005-2008 yillarda fermer xo'jaliklari soni yildan-yilga oshib borganligi statistik ma'lumotlarda kuzatiladi. 2005 yilda fermer xo'jaliklarining soni 125,7 ming, 2006 yilda 189,2 ming, 2007 yilda 217,1 ming, 2008 yilda esa 218,6 miigpi

tashkil etdi. Har bir fermer xo'jaligiga shu yillar oralig'ida o'rtacha 26 ga dan 30 ga gacha er to'g'ri kelgan edi. Respublika bo'yicha fermerlarga ajratilgan er maydoni 2005 yildan 2008 yillar oralig'ida 3775,3 ming ga dan 2008 yilda 5896,8 mingga cha o'sib bordi. SHunigdek, qishloq xo'jaligida dehqon xo'jaliklarining ham nufuzi ortib bordi. 2005 yilda 4544,4 ming dehqon xo'jaligi bo'lgan bo'lsa, 2008 yilda esa ular 4703, mingtani tashkil etdi.

2004 yilga kelib yalpi qishloq xo'jalik mahsulotida fermer xo'jaliklar ulushi 14,1 % ni tashkil qilib, ularning mavqei mustahkamlanib bordi. Masalan, birgina paxta etishtirish bo'yicha fermerlarning ulushi barcha qishloq xo'jalik tarmoqlariga nisbatan 2005 yilda 66,3% bo'lgan bo'lsa, 2008 yilda 99,1% ni tashkil etdi.

Albatta shirkat xo'jaliklarinipg fermer xo'jaliklariga aylantirilishi qishloqxo'jaligidagi barcha muammolar birdaniga va o'z-o'zidan hal bo'lib qolmas edi. Respublikamiz hududlarining tabiiy-iqlim sharoiti, tuproq unumdorligi va boshqa unsurlarni hisobga olgan holda fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish na ixtisoslashtirish, davlat na nodavlat tashkilotlar bilan o'zaro shartnomaviy iqtisodiy munosabatlarni o'rnatish, fermer xo'jaliklarida o'z-o'zini boshqarish, turli mahsulot etishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining maqbul hajmlarini ishlab chiqish, fermer xo'jaliklarini sifatli va ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va sotishga bo'lgan moddiy manfaatdorliklarini oshirishga qaratilgan moliya-kredit tizimini yanada takomillashtirish, fermer xo'jaliklarida etishtirilayotgan mahsulotlarni joyida qayta ishlash va sotishni tashkil qilish hisobiga yalpi daromadni ko'paytirish hamda qishloq hududlarida yangi ish joylarini ochish, fermer xo'jaliklari rahbarlarining iqtisodiy, huquqiy va siyosiy bilim saviyalarini oshirish natijasida xo'jaliklarni barqaror rivojlanishini ta'minlash kabi muammolarning tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy asoslarini pazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish zarur edi.

1990-2005 yillar ichida qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida qishloq xo'jaligida mulkpi davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish tugatildi. 1991 yil 29 dekabrda Respublika Prezidentining «Dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada musahkamlash va respublikada ishbilar-monlik faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmoni va ushbu farmonga muvofiq 1991 yil 30 dekabrda Vazirlar Mahkamasining №315-sonli «Respublikada

dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash choralari haqida»gi qarori bu jarayonlarning asosiy debochasi bo'lib xizmat qildi. «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonun asosida shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga dehqon xo'jaligi maqomi berilib, ular yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishi, etishtirilayotgan mahsulotlarni tashqi bozorga eksport qilishni rag'batlantirilishi qishlokdagi mulkdorlarning manfaatlariga aynan mos kelgan edi. SHaxsiy tomorqalarni ko'paytirishning afzallik tomoni shundan iborat bo'ldiki, bu tadbir qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlari miqdorini oshirishga imkon berdi.

Respublika Oliy Majlisi tomonidan «Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida» qonun qabul qilinishi doimiy ishlayotgan mehnatkashlar shirkat xo'jaligi mulkidan o'zlariga tegishli bo'lgan mulkiy va er pay (paychilik) lariga ega bo'lishlariga erga, mulkga va etishtirilayotgan hosilga bo'lgan egalik hissini tiklash hamda qishlokdagi mulkdorlar tabaqasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

«Fermer xo'jaligi» to'g'risidagi qonunni qabul qilinishi natijasida tadbirkor va qobiliyatli dehqonlarga er maydoni 50 yilgacha, ammo 30 yildan kam bo'lmagan muddatga biriktirilib, fermer xo'jaliklari boshqa xo'jalik sub'ektlari bilan teng sharoitda faoliyat ko'rsatish erkinligi berilishi qishloqda mulkdorlar tabaqasining shakllanishini yanada rag'batlantirdi.

Qishloq mulkdorlari manfaatlarini qo'llab-quvvatlash uchun qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulot etishtirishda belgilangan davlat buyurtmalari bosqichma-bosqich bekor qilinishi, faqatgina boshoqli don ekinlariga 50% va paxta xom ashyosiga 30% miqdorida davlat ehtiyoji uchun xarid qilish rejasi belgilanishi xususiy mulkning rivojlanishiga keng darajada turtki bergan edi.

SHirkat va fermer xo'jaliklarida mexanizatsiya va agrotexnika tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish hamda ularga turli agroservis xizmatlarini ko'rsatishni kengaytirish maqsadida qishloq tumanlarida Mashina traktor parklari muqobil MTP lar tashkil qilinishi ham tomorqa, dehqon va fermer xo'jaliklarini moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Paxta maydonlarining qisqarishi evaziga aholiga shaxsiy foydalash uchun 550 ming gektarga yaqin uumdor er ajratildi. Natijada 1989 yilga nisbatan 2000 yilga kelib, respublika bo'yicha tomorqa uchastkalarining o'rtacha miqdori 2 barobar oshdi. Dehqon xo'jaliklari qaramog'idagi erlarning ulushi respublika jami sugoriladigan

erlarda 5,2 % dan 15% gacha o'sdi. 2003 yilda dehqon xo'jaliklari tomonidan kartoshkaning 90%, mevalarning 70,3 %, go'shtning 93,7%, sutning 95,9 %, tuxumning 53,5 %, junning 76,2 ishlab chiqarildi. 2005 yilda dehqon xo'jaliklarining soni 4544,4 ming bo'lgan bo'lsa, 2008 yilda 4703,0 mingni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrda «Fermer xo'jaliklarini 2004-2006 yillarda rivojlan-tirish kontseptsiyasi to'g'risida»gi farmoni va Vazirlar Mahkama-sining 2004 yil 30 oktyabrda «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori istiqbolda qishloq xo'jaligi maxsulotlarini etishtirishda asosiy sub'ekt hisoblanadigan fermer xo'jaliklarini ustuvor rivojlantirishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Umuman, bu davrda O'zbekistonda amalga oshirilgan islo-hotlar davomida fermer va dehqon xo'jaliklari xususiy tadbir-korlikning shakllari bo'lib, mohiyati jihatidan bir-biridan keskin farq qilmadilar. Ular o'rtasidagi barcha tafovutlar ularga birlashtirilgan er uchastkalarining hajmiga bog'liq bo'ldi. Dehqon xo'jaliklariga beriladigan er uchastkalarini yuqori darajasi belgilanadigan bo'lsa fermer xo'jaliklariga aksincha, ularning quyi darajasi cheklandi. Natijada fermer xo'jaliklarining rivojlanishi uchun amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida keng yo'l ochib berildi. Islohotlarning dastlabki natijalari va erishilgan yutuqlardan shunday xulosa qilish mumkinki, bu davrda O'zbekiston qishloq xo'jaligida fermarlik harakatining va shu asosda qishloq xo'jaligining yaiada rivojlanishi uchun huquqiy, moddiy va ma'naviy asos yaratilgan edi.

Mustaqillik yillarida Buxoro amirligi tarixini o'rganishda yangicha yondashuvlar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borildi va bir qator tarixiy asarlar nashr qilindi. Buxoro amirligi tarixiga oid tadqiqotlar asosini XIX - XX asr boshlarida Buxoro amirligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, savdo-sotiq, markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini o'rganish tashkil etdi.

A.R. Muhammadjonov tahriri ostida nashr etilgan «Naseleniy punkt Buxarskogo emirata» nomli kitobda birinchi marotaba O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining Buxoro amiri qo'shbegi devonxonasi jamg'armasi hujjatlari asosida Buxoro amirligidagi geografik joy nomlari ro'yxati o'rganilib, uning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Ushbu kitobda Buxoro amirligining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida muhim geografik, tarixiy, etnografik va lingvistik

ma'lumotlar jamlangan. Bu asar Buxoro amirligida mavjud bo'lgan 10 mingdan ziyod ma'muriy-hududiy tuzilmalar, viloyat, tuman, bekliklar, amlolliklar va qishloqlarning nomlari ham keltirib o'tilganligi bilan ahamiyatli.

R. Xoliqovning «Rossiya-Buxoro: tarix chorrahasida» nomli monografiyasida Buxoro amirligining XIX asr o'rtalaridagi ma'muriy-hududiy tuzilishi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli, Rossiya imperiyasining Buxoroga harbiy harakatlari boshlanishi sabablari va uning salbiy oqibatlari, Buxoro amirligining XIX asr oxiri -XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tuzumi va davlat boshqaruvi, Buxoro amirligi ma'muriy-hududiy tizimidagi o'zgarishlar va unga Rossiya siyosatining ta'siri, Buxoroda Rossiya imperiyasi imperatorligi Siyosiy agentligining tashkil etilishi va uning o'lkada olib borgan faoliyatiga oid masalalar yoritilgan.

Monografiyada Buxoroga Rossiya kapitalining kirib kelishi va uning oqibatlari, Buxoro amirligida temir yo'llar qurilishining ahamiyati, Buxoroda rus maznigohlarining tashkil etilishi, rus harbiy garnizonlarining joylashtirilishi, Boysun, Denov, SHerobod, SHahrisabz, Kitob, G'uzor, Qarshi, Hisor, Ko'lob kabi shaharlarning (bekliklarning) ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga doir ma'lumotlar tahlili berilgan.

Buxoro bilan Rossiya imperiyasi qo'shinlarining ilk to'qnashuvi, harbiy harakatlarning kuchaytirilishi, Buxoro bilan Rossiya imperiyasi o'rtasida tinchlik shartnomasining imzolanishi va uning oqibatlari, Buxoro amirligining XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tuzumi masalalarini ham o'rganishga e'tibor qaratilgan.

SH. Vohidov o'z tadqiqotlarida Buxoro amirligi tarixini katta hajmdagi mahalliy manbalarni tahlil qilish asosida yoritgan. Muallif Buxoro amirligida mavjud bo'lgan unvon va mansablarni o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. XVII - XIX asrlarda Buxoro amirligida davlat boshqaruvi tizimi to'g'risidagi masalalar ham o'rganilgan.

SH. Vohidov va 3. CHoriev tomonidan Muhammad Ali Baljuvoniyning «Tarixi nofeiy» asari hozirgi o'zbek tiliga o'girilib nashr qilindi. «Tarixi nofeiy» Buxoro amirligining XX asr boshlaridagi siyosiy tarixini yoritib beruvchi manbalardan hisoblanadi. Asarda 1918 -1924 yillar davomida Buxoro amirligida yuz bergan siyosiy voqealar bayon qilingan. SHuningdek, unda o'sha davrda Denov, Boysun, Sarijo'y, Sariosiyo, SHerobod va boshqa shaharlarda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar to'g'risidagi muhim ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin.

N.Norqulov tomonidan nashrga tayyorlangan Mirzo Salimbekning «Tarixi Salimiy» asari ham Buxoro amirligi tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Mirzo Salimbekning «Tarixi Salimiy» asari Buxoro amirligining oxirgi sulolasi - mang'itlar tarixini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy voqealar bayon qilingan. Manbaning ahamiyatini tomonidan shundaki, muallif o'zi qatnashgan va ko'rgan voqealarni bayon etgan. Mirzo Salimbek SHerobod, Boysun, SHahrisabz, YAKkabog', Xatirchi, G'uzor kabi beklklarda o'zi bek lavozimida ishlagan davrlarda Buxoro amirligi va beklklarda ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar berib o'tgan.

D.Rozoqovning tadqiqoti Buxoro xonligining tashqi savdo aloqalariga bag'ishlangan (XIX asrning 60 - 90-yillari). Dissertatsiyada Buxoro xonligining Rossiya bilan iqtisodiy aloqalari, Buxoro xonligining savdo markazlari va karvon yo'llari, Buxoro xonligining Afg'oniston, eron, Hindiston, Xitoy bilan savdo aloqalari va qo'shni hududlardan olib kelingan savdo mollari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Buxoro xonligining XVI - XVII asrlar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotida Jo'ybor xojalarining tutgan o'rniga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishi H. To'raev tomonidan amalga oshirilgan. Bu ishda Buxoro xonligining tashkil topishi va uning keyingi siyosiy hayotida Jo'ybor xojalarining tutgan o'rnini, SHayboniy Abdullaxonning oliy hukmdor sifatida o'z mavqeini mustahkamlashda Jo'ybor xojalari diniy-siyosiy obro'yidan foydalanishi, xonadon vakillari bilan markaziy hokimiyat vakillari o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy negizi masalalari o'rganilgan.

Ushbu ilmiy ishda Buxoro xonligining XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotida Jo'ybor xojalarining tutgan o'rnini, Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotida Jo'ybor xojalari mavqei, XVI - XVII asrlardagi ma'naviy-madaniy hayot, XVI -XVII asrlardagi adabiy muhitda Jo'ybor xojalarining tutgan o'rnini kabi masalalar tadqiq qilingan. Mustaqillik yillarida Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi masalalarining huquqiy jihatlarini ham o'rganishga oid tadqiqotlar olib borildi. J. SHodievnning tadqiqoti shu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, ishda Buxoro amirligining tashkil topishi davridagi ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar, amirlikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan siyosiy-huquqiy va g'oyaviy omillar, amirlikda markaziy va

mahalliy boshqaruv apparati, ular o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari, amirlikning tashqi siyosati va diplomatiyasi masalalari o'z aksini topgan. Buxoro amirligida sud tizimi, amirlik huquqiy tizimining o'ziga xos xususiyatlari, huquq tizimining asosiy sohalar, soliq, jinoyat huquqi, savdo huquqi, oila nikoh, meros huquqi kabi masalalar tadqiq qilingan.

Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida) tarixi F.Bobojonova tomonidan olib borilgan tadqiqotda yoritilgan. Bu ishda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi ta'lim tizimidagi muammolar, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida an'anaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va boshlang'ich ta'limning holatini o'rganishga asosiy e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda amirlikdagi o'quv jarayoni va uning moddiy ta'minoti, boshlang'ich ta'limdagi muammolar, ularning sabab va oqibatlari, Buxoro amirligidagi madrasalar hamda ularning holati, madrasalarning moliyaviy-xo'jalik asoslari, madrasalardagi ta'lim jarayoni, o'quv tartibi, predmetlar va ularning mazmuni, amirlikda ta'lim tizimini isloh qilish g'oyalari, ma'rifatparvarlik harakatining asosiy yo'nalishlari va mohiyati tahlili berilgan. SHuningdek, Buxoro amirligida boshlang'ich ta'lim tizimining umumiyligi holati, ta'lim tizimining yuqori bosqichi, madrasalar faoliyati va ularning muammolari, madrasalarning qurilishi, moddiy-xo'jalik ta'minotini tashkil etish masalalari, madrasalarda o'qitiladigan fanlar va ta'lim sifati, XX asr boshlarida an'anaviy ta'lim, yosh buxoroliklarning ma'rifatparvarlik g'oyalari va faoliyati, yangi usul maktablarining ochilishi kabi masalalar o'rganilgan.

A.Odilovning tadqiqot ishi Buxoro amirligida milliy ozodlik harakatlari tarixiga (Abdumalik To'ra boshchiligidagi xalq ozodlik harakati misolida) bag'ishlangan. Tadqiqotda Rossiya bosqini arafasida Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, amirlikda murakkab siyosiy vaziyatning vujudga kelishi, ilk marotaba Abdu-malik To'ra boshchiligidagi milliy ozodlik harakati, uning mohiyati, xarakteri, maqsadi, harakatlantiruvchi kuchi, hukumat tomonidan ularni bostirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan.

F. Ochildiev tomonidan olib borilgan tadqiqot XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Janubiy O'zbekistonning ijtimo-iqtisodiy munosabatlari (Surxon vohasi misolida) tarixini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Surxon vohasining tutgan o'rnini va ahamiyati, vohaning ma'muriy-hududiy bo'linishi va siyosiy tarixi, mahalliy boshqaruv tartiblari,

ijtimoiy munosabatlar va aholining soliq siyosatiga qarshi norozilik chiqishlari, qishloq xo'jaligi va hunar-mandchiliklarining rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Aholining voha bo'ylab joylashuvi va etnik tarkibiga oid ma'lumotlar keltirilgan. SHuningdek, tadqiqot davomida Buxoro amirligida Rossiya imperiyasi tashqi siyosatining mohiyati va vohaga sanoatning kirib kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda tutgan o'rni, XIX asr - XX asr boshlarida ichki va tashqi savdoning rivojlanishi manba va ilmiy adabiyotlar asosida o'rganilib, xulosalar berilgan.

F. Ochildievning tadqiqotida SHarqiy Buxoro bekliliklarida ma'muriy boshqaruv va ijtimoiy-siyosiy hayot, soliq turlari, XIX asr - XX asr boshlarida Surxon vohasining iqtisodiy ahvoli, qishloq xo'jaligi, vohadan o'tuvchi savdo yo'llari, ichki va tashqi savdo aloqalari tahlil qilingan.

YU. Avazovning dissertatsiyasida XIX asr oxiri - XX asr boshlarda Buxoro amirligi janubi-sharqiy bekliliklari Hisor, Denov, Qabodiyon, Boysun, Qo'rg'ontepa, Ko'lob, SHerobod aholisining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti o'rganilgan.

S. Tursunov, e. Qobilov, X. Kichkilov va 3. Daminovning tadqiqotlari ham Buxoro amirligi tarixiga bag'ishlangan bo'lib, ularda XIX asr oxirlaridan XX asr boshlariga qadar Rossiya hukumatining Termiz shahrida olib borgan siyosati hamda mustamlakachilik davrida barpo etilgan inshootlar, Rossiya fuqarolariga shahar hududidan ijaraga er berilishi va uning salbiy oqibatlari yoritilgan. Bu tadqiqotlarda Rossiya hukumatining Termiz shahrida olib borgan siyosati tanqid qilingan, shuningdek, yangicha qarashlar asosida xolisona baho berilgan.

Buxoro amirligi tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlardan YU.A. SHukurillaevning ishini ham keltirib o'tish o'rinli. Bu tadqiqot ishi Buxoro amirligida mavjud qo'shin va harbiy ish tarixiga bag'ishlangan. Mang'itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelish jarayonidagi siyosiy vaziyat. Buxoro amirligining qo'shini, tarkibiy tuzilishi va undagi o'zgarishlar, harbiy unvonlar va mansablar, ularning vazifalari, harbiy-texnik ta'minot, qurol-yarog'lar, jangovar holat, qo'shinning, harbiy xizmatchilarning hayoti va moddiy ta'minoti kabi masalalarni o'rganishga e'tibor qaratilgan.

Ma'muriy-hududiy jihatdan Buxoro amirligi tarkibiga kirgan Qashqadaryo vohasining XIX asr - XX asr boshlari tarixi A. Xoliqulov tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotda asosan XIX asr - XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasidagi bekliliklar tarixi yoritilgan. Ishda voha

aholisining etnik tarkibi, XIX asr - XX asr boshlarida vohadagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol, bekliliklarining ma'muriy tuzilishi, mahalliy boshqaruv an'analari va uning o'ziga xos xususiyatlari bayon qilingan. SHuningdek, tadqiqotda Qashqadaryo vohasining XIX asr - XX asr boshlari tarixiga oid manbalar va adabiyotlar tahlil qilinib, ma'lumotlar ilmiy tizimlashtirilgan. XIX asr - XX asr boshlarida vohadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar va ularga ta'sir qilgan asosiy omillar, ichki vatashqi savdo aloqalari, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik rivojining o'ziga xos tomonlari, Buxoro amirligining vohada yuritgan soliq siyosati kabi masalalar o'rganilgan.

Qashqadaryo vohasining XVI - XIX asrlardagi me'morchilik va shaharsozlik an'analari tarixi A. Hasanov tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotda Buxoro amirligi shaharlaridagi ijtimoiy va iqtisodiy ahvol, XVI - XIX asrlarda vohadagi me'morchilikning o'ziga xos ji-hatlarini o'rganishga e'tibor qaratilgan. Qashqadaryo vohasining Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni, shaharlaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol, shaharsozlik an'analari, shaharlarning jug'rofiy o'rni va mudofaa tizimi kabi masalalar ham tahlil etilgan.

G. Tanievaning dissertatsiyasida XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asrning birinchi yarmida Qarshi shahri va uning atrofidagi hudud-larning Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida tutgan o'rni o'rganilgan. Muallif o'z tadqiqotida Qarshi bekliligining Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni, aholi-sining mashg'ulotlari, hunarmandchilik turlari, etnik tarkibi kabi jihatlarni, beklilikning ma'muriy markazi bo'lgan Qarshi shahrining tuzilishini yoritishga e'tibor qaratgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasi hunarmandchiligi tarixi M. Hamidova tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotda voha hunarmandchiligi tarixshunosligi, vohadagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayot, hunarmandchilik markazlari tavsiflangan, to'qimachilik, kulolchilik, metalga ishlov berish sohalari, hunarmandchilik uyushmalari, ustoz-shogird munosabatlari, savdo aloqalarining rivojlanishi va uning hunarmandchilikka ta'siri tarixi yoritilgan.

Mustaqillik yillarida Buxoro amirligi tarixiga doir tadqiqotlar obzori ularning yangi yondashuvlar asosida amalga oshirilgani, aksariyati amirlikda kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot kabi masalalarga bag'ishlanganligini ko'rsatadi.

Zamonaviy O'zbekiston tarix fanida bo'lganidek, xorij tarixshunosligida ham Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan o'zbek xonliklari davri tarixi, ularning an'anaviy ijtimoiy tizimi, davlat boshqaruvi hamda jamiyat ierarxiyasidan o'rin olgan turli ijtimoiy tabaqalar, guruhlar holatini o'rganish masalasi tarixchilar e'tiboridagi mavzulardan biridir. Xususan, ushbu masalani o'ziga xos va murakkab ijtimoiy stratifikatsiyaga ega bo'lgan Buxoro amirligi tarixshunosligi misolida yoritish ma'lum ahamiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, ko'plab xorijlik tarixchi olimlar Markaziy Osiyo tarixi, jumladan, o'zbek xonliklari tarixi, islom dini va uning an'anaviy jamiyatdagi o'rni, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi siyosati, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida mintaqada yuzaga kelgan islohotchilik harakatlari, uning tarixiy ildizlari kabi masalalar bilan qiziqib kelmokdalar. Ayniqsa, O'rta Osiyoda o'ziga xos nufuzga ega bo'lgan Buxoro amirligi tarixi bilan bog'liq masalalar ham ko'pchilik olimlar e'tiborini tortib kelmoqda. Xususan, ko'rsatilgan muam-mo tarixshunosligi doirasida O. Soloveva, A.O. Egorenko, O. Ptev, YU. Bregel, Adib Xolid, Paolo Sartori, Anke Fon Kyugelgen, Satoru Kimura va boshqalarning ilmiy izlanishlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Ushbu masalaga doir ilmiy tadqiqotlarni MDX hamda xorijlik olimlar asarlariga ajratdik. Masala tarixshunosligini yoritish uchun dastlab MDH davlatlarida olib borilgan ba'zi bir ilmiy tadqiqotlarga to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Buxoro amirligining Rossiyaga vassalligi davri (1868 - 1920 yillar) tarixshunosligi muammosi O. Egorenko tadqiqotida ko'tariladi. Muallif muammoning tarixshunosligini to'rt guruh tadqiqotlar, ya'ni inqilobga qadar, sovet, postsovet rus va Markaziy Osiyo izlanishlari hamda xorij tadqiqotlari asosida tahlil qilgan. Mazkur ishda muallif Buxoro jamiyatining ijtimoiy masalasi tarixshunosligini o'rganib chiqib shunday xulosaga kelganki, Rossiya ma'muriyati juda chuqur o'ylangan siyosati bilan amirlik ijtimoiy tuzumi, mahalliy hayot tartiblari hamda ma'lum darajada boshqaruvda zodagonlar faoliyatini saqlab qolgan. SHu bilan birga, muallif kapitalistik davlat bo'lgan Rossiya hukumati uchun g'amxo'rlik qilish istagi ham yot bo'lganligini ta'kidlab o'tgan.

XX asr boshlarida Buxoro amirligida jadidlarning madaniy-ma'rifiy faoliyati tojikistonlik N. G'afforov ilmiy ishida o'rganilib, katta hajmdagi tarixiy manbalar asosida jadidlarning islohotchilik, maorif va matbuot sohasidagi faoliyatini tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotda Markaziy Osiyo xalqlari taraqqiyotida umumiy bo'lgan jadidchilik harakati

faoliyatining ba'zi jihatlarini faqat tojik xalqi bilan bog'lab ko'rsatishga urinish holati kuzatiladi. Misol uchun, «Buxoroi sharif» ning birinchi tojik milliy gazetasi sifatida e'tirof etilishi.

O'rganilayotgan masala doirasida bo'lmasada, mualliflar jamoasi tomonidan Moskvada nashr qilingan «Rossiya va O'rta Osiyo: islom va siyosat» nomli ikki qismdan iborat kitob ham ma'lum ahamiyatga ega. Bu asarning birinchi qismida berilgan ba'zi ma'lumotlar diqqatga loyiq. Masalan, barcha xonliklar uchun xos bo'lgan an'anaviy jamiyatdagi islom dini bilan bog'liq ijtimoiy toifalar, xususan, «oqsuyak tabaqa» lar tahlil etilgan. Ishda ko'tarilgan yana bir masala «mujaddid islohoti» to'g'risida bo'lib, bu islohot o'sha davrda o'zbekxonliklarida kengyoyilgani, xususan, Buxoro misolida islom jamiyatini isloh qilish, tiklashga qaratilgani yoritilgan. Ki-tobning ikkinchi qismida 1917-1918 yillarda Buxoro jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tahlil etilib, taraqqiyotga etaklovchi o'zgarishlarni yoqlagan ijtimoiy qatlamlarning islohotchilik faoliyati arxiv hujjatlari asosida o'rganilishi e'tiborga loyiq.

A. Ptevning 1917-1920 yillarda Buxoro amirligi va Xivaxonligining siyosiy tarixiga bag'ishlangan kitobi ham ko'tarilgan muammoni yoritishda o'ziga xos o'ringa ega. Xususan, unda Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy tarixi yoritilar ekan, an'anaviy jamiyatda qaror topgan ijtimoiy transformatsiyalarga ham qisqacha to'xtalinadi. Bu transformatsiyalar, avvalo, amirlikda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, boshqa tomondan, jamiyatni modernizatsiyalashga, islohotchilikka tarafdor bo'lgan yangi ijtimoiy kuchlarning etilishi bilan ro'y berganligi qayd qilinadi. Rossiya iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi sanoat tizimi, mahalliy sanoat, ishlab chiqarishning vujudga kelishi, milliy burjuaziya faoliyati Buxoro jamiyatida ro'y bergan muhim transformatsiyalar sifatida e'tirof etiladi.

Buxoro jamiyati ijtimoiy tizimi, amirlikning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy masalalari amerikalik, shveytsariyalik, yaponiyalik, avstriyalik olimlar tadqiqotlarida qalamga olindi. YU. Bregel, Anke Fon Kyugelgen, Satoru Kimura, Paolo Sartori kabi olimlarning ilmiy izlanishlari e'tiborga loyiqdir.

Anke Fon Kyugelgenning rus bosqini arafasida mang'itlar hukmronligi tarixiga bag'ishlangan tadqiqotida XVIII asr - XIX asr boshlariga oid mahalliy tarixchilar asarlari asosida mang'it amirlari hukmronligining legitimatsiyasi tamoyillariga keng o'rin beriladi. Asarda boshqaruv tizimining yuqori bo'g'inlari nufuzli o'zbek urug'i

vakillari bo'lgan shaxslarga hamda oliynasab sayyidlar, xo'jalarga tegishli bo'lganligi ta'kidlanadi.

Asarda aholi ijtimoiy tabaqalari to'g'risida aniq ma'lumotlar keltirilmas-da, ba'zi bir aholi toifalari bilan bog'liq tushunchalarga izoh beriladi. Misol uchun, «fuqaro» tushunchasi ostida asosan o'troq aholi, shuningdek, boshqaruvdagi xizmatchi qatlam va diniy vazifalarni bajaruvchi guruxdan tashqaridagi aholi qatlami birlashtiriladi. Muallif mahalliy manbalar bilan chuqur ish olib borishga qaramay, ijtimoiy tabaqa va qatlamlar hamda ularning toifalari borasida yakdil fikrlarni bera olmaydi. e'tiborli tomoni shundaki, ushbu xorijlik muallif O'zbekistonda tarix fani sohasida Buxoro amirligi tarixining ba'zi sahifalarini o'rganish e'tibordan chetda qolayotganligi, hatto mang'itlar hukmronligi davri hali ham «tushkunlik» va «diniy mutaassiblik» davri sifatida baholash kuzatilayotganligini ta'kidlab o'tadi.

Buxoro amirligida boshqaruv masalalari hamda aholining etnik muammolari yaponiyalik olim Satoru Kimura tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Uning tadqiqotlaridan biri «Buxoro amiri qo'shbegisi mahkamasi» jamg'armasi (I-126-fond) bilan bog'lanib, o'sha davrda ish yuritish tizimi bo'yicha o'tkazilgan islohot to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar beradi. XX asr 10 yilligiga kelib qo'shbe-gi mahkamasi va mahalliy hokimiyat o'rtasidagi yozishmalarda yangi tartib-qoidalar kiritilganligi, mahalliy hokimiyatlarga jo'natilgan xatlar uchun maxsus daftar joriy qilinib, xatlarni ro'yxatga olish boshlanganini aytadi. Satoru Kimuraning mazkur izlanishi shu jihatdan ahamiyatliki, bu davrda mahalliy boshqaruv tizimida ma'lum tartib-qoidalar asosida ish olib borishni belgilovchi o'zgarishlar kiritilgani, turli amaldorlarning o'z ishiga sadoqatli va hushyor bo'lishi, mansabini suiiste'mol qilmasligi uchun qator chora tadbirlar ko'rilgani haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan.

Ushbu muallif yana bir izlanishida shia mazhabidagi etnoslarning Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rniga e'tibor qaratgan. Misol uchun, XIX asr oxirlaridan davlatdagi yuqori mansab, lavozimlar sunniy mazhabdagilar bilan bir qatorda shia mazhabdagilar tomonidan ham egallanishi qayd etilgan. Buxoro amirlarining bunday siyosati, odatda, o'z hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan.

O'rta Osiyoda jadidchilik hamda madaniy o'zgarishlarning tarixiy tahlili bilan qiziqqan yana bir xorijlik tadqiqotchi italiyalik olim Paolo Sartori hisoblanadi. Uning xorijiy jurnallardan bi-rida nashrdan chiqqan «Buxoroda ijthod: O'rta Osiyo jadidchiligi va madaniy o'zgarishlarning

mahalliy genealogiyasi» nomli ilmiy ishida XIX asr - XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi jadidchilikka hududga mos hodisa-sifatida, mahalliy «ulamalar»ning qoloqik kishanlaridan ozod bo'lishi, olimlar o'rtasidagi muloqot modeli, eng asosiysi, fikrlar almashinuvi sifatida qaraladi.

Ko'rib o'tilgan adabiyotlar tahlili natijasida Buxoro amirligi ijtimoiy tizimi tarixi masalasi zamonaviy xorij tarixshunosligida alohida, yaxlit bir tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan degan xulosaga keldiq. Biroq MDH va xorij tarixshunosligida rus bosqini arafasi hamda vassal Buxoro jamiyati ijtimoiy masalalari bilan bog'liq ba'zi ma'lumotlar e'tiborga loyiq. Yana bir bor ta'kidlaymizki, yuqorida ko'rsatilgan tadqiqotlarda Buxoro jamiyati ijtimoiy tizimi, xususan, uning an'anaviy ijtimoiy tabaqalanishi, mavjud ijtimoiy qatlamlar va ularning jamiyatdagi o'rnini masalalari borasida anyq, tizimli tahlil amalga oshirilmagan. Mazkur mavzuni nafaqat Buxoro, balki boshqa o'zbek xonliklari misolida yaxlit o'rganish O'zbekiston tarixi fanidagi mavjud bo'shliqlarni to'ldiradi deb o'ylaymiz.

O'zbekistonda sovet davlati boshqaruv tizimi tarixining shakllanishi, bosqichlari va mohiyati vatanimiz tarixidagi dolzarb va murakkab mavzulardan biridir. Bu muammo 1917 - 1941 yillarga tegishli bo'lib, keyingi davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iktisodiy jarayonlar uning hosilasi sanaladi.

Biz ushbu maqolada O'zbekistonda sovet boshqaruv tizimi haqida zamonaviy qarashlar va yondashuvlarni o'zida mujassamlashtirgan mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlar tahliliga to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Mustaqillikning dastlabki 20 yili 1991-2011 yillarda O'zbekistonda yaratilgan tarixiy tadqiqotlarda sovet tuzumining mohiyati yangicha mushohada qilindi. Bolshheviklar tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilgan «inqilobiy o'zgarishlar»ning asl mohiyati arxivlarda taqiq belgisi ostida saqlanayotgan materiallarni o'rganish asnosida yoritildi. Bu davrda yaratilgan tadqiqotlarni mavzu ko'lamiga ko'ra bir nechta guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga oid tarixiy adabiyotlarda mustabid sovet tuzumining asl mohiyatini ochib tashlash bilan birgalikda jadidlarning dav-latchilik borasidagi qarashlari, Turkiston Muxtoriyati hukumati faoliyati, milliy davlatchilikni tiklash uchun harakatlar, O'rta Osiyoda sovet rejimiga qarshi qurolli kurash, Turkiston va O'zbekistondagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy qatlamlar faoliyati, kadrlar siyosati kabi masalalar

tahlil qilindi. Xususan, Rajapova, D. Alimova, F. Qosimov, R. Abdullaev, S. A'zamxo'jaev, A. Golovanov, D. Ziyaeva, Q. Rajabov, R. SHamsutdinov, B. Hasanov va boshqa tarixchilarning bu sohadagi izlanishlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

O'zbekistonda sovet hokimiyatining agrar siyosati, qishloq xo'jaligini majburan kollektivlashtirish, quloq qilish va qatag'on siyosati, vaqf mulklarining tugatilishi, xotin-qizlar masalasi, sug'orish tarixi, nazorat organlari va iqtisodiy kengashlar faoliyati yoritilgan tarixiy adabiyotlarni shartli ravishda ikkinchi guruhga kiritish mumkin. Bu adabiyotlarda yangicha metodologik kontsepsiya asosida sovet davri tarixining ilgari mutlaqo yoritilmagan yoki buzib ko'rsatilgan jihatlarini tadqiq qilindi.

Uchinchi guruh tadqiqotlari mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan fundamental tadqiqotlar va kollektiv monografiyalar bo'lib, ularda O'zbekistonning sovet davridagi tarixi yoritilgan. SHuningdek, Qoraqalpog'iston tarixi ham aks etgan adabiyotlar bor. Bu yillarda og'zaki tarix metodi asosida O'zbekiston sovet davri tarixining ba'zi jihatlarini o'rganildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda himoya qilingan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida ham mustabid sovet rejimining totalitar xususiyati ochib tashlangan. Ayniqsa, S. A'zamxo'jaev, R. Abdullaev, D. Ziyaeva, Q. Rajabov, A. Rasulovning doktorlik dissertatsiyalarida bevosita sovet davridagi tarixiy jarayonlar maxsus tadqiq qilindi.

Tarixshunoslikning yangi bosqichida Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistonda sovet tuzumining totalitar mohiyatini o'rganishga doir bir qator umumlashtiruvchi tadqiqotlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar yaratilgan va dissertatsiyalar himoya qilinganligini qayd etib o'tish lozim. Xususan, rossiyalik tarixchilar va siyosatshunoslar bu sohada ko'plab jiddiy tadqiqotlarni e'lon qilishdi.

Tadqiq etilayotgan mavzuga oid xorijiy tarixiy adabiyotlar tarixiy tadqiqotlarning alohida turini tashkil etadi.

O'zbekistonda mustabid davlat boshqaruv tizimining shakllanishi, bosqichlari va mohiyati to'g'risida XX asr va XXI asr boshlarida xorijda yaratilgan ko'plab tarixiy tadqiqotlarda ayrim ma'lumotlar mavjud.

Taniqli ingliz tarixchisi edvard Karr, italyan tarixchisi Juzeppe Baffa, amerikalik siyosatshunos Robert Takerning asarlarida Rossiyada bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi, mustabid sovet jamiyatining mohiyati, Lenin va Stalin kabi diktatorlarning hokimiyat

uchun kurashi tasvirlangan. Bu asarlar 1990 - 1991 yillarda rus tiliga tarjima qilinib, Moskvada nashr etildi.

Ko'rib chiqilayotgan bosqichda ko'plab G'arb olimlari: Yorg Babe-rovski, Viktor Kondrashin, elen Karrer d'Ankoss, Leonid Lyuks, Xaynts-Ditrix Lyove va boshqalarning tarixiy asarlari rus tiliga tarjima qilinib, «Stalinizm tarixi» ruknida Moskvada bosilib chiqdi. Bu asarlarda Lenin va Stalin kabi diktatorlar faoliyati, Rossiya va Sovet Ittifoqining Lenindan Eltsingacha bo'lgan tarixi, 1932 -1933 yillardagi Rossiya qishloqlaridagi fojia va qizil terror kabi masalalar o'z aksini topgan. Ularda O'zbekistonning mazkur davr tarixiga oid ayrim ma'lumotlar mavjud.

Tarixshunos olim Boymirza Hayit (1917 - 2006) asarlari ham mavzuni yoritishda muhim rol o'ynaydi. Uning nemis va turk tillarida xorijda chop etilgan «Turkiston XX asrda», «Turkiston Rusiya ila CHin orasinda» va boshqa asarlarida sovet imperializmining mustamlakachilik xususiyati, uning qatag'on siyosati va boshqalar ochib berilgan.

G'arb olimlari Gustav Vetter va Volfgang Leonxard asarlarida esa sovet mafkurasi va uning XX asrdagi siyosiy jarayonlarga ta'siri masalalari yoritilgan. Bu asarlar turktiliga tarjima qilingan.

Mustaqillik yillarida yaratilgan asarlarda O'zbekistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi, bolsheviklar siyosatining mohiyati, uning o'ziga xos jihatlarini yangicha kontseptual yondashuvlar asosida yoritilgan. Davr voqeligi tahliliga tsivilizatsion yondashuv bu kontsepsiya asosini tashkil qilib, yangi arxiv materiallarning xolisona talqini mavzu tarixshunosligi zamonaviy bosqichi xususiyatini belgilagan.

Hozirgi tarixiy ilmiy tadqiqotlarda, birinchi navbatda, fan rivojiga ta'sir qilgan omil va shart-sharoitlar, fanning jamiyat bilan o'zaro munosabatlariga e'tibor qaratiladi. Bu kabi vazifalarni esa fanshunoslik bajaradi. Fanshunoslikning asosiy jihatlaridan biri fan tarixidir.

O'zbekiston tarix fanining rivojlanishi bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, uning akademik bilimlar tizimida shakllanishi va rivojlanishi fan tarixida alohida o'rin tutadi. Bu tizimning vujudga kelishidan to bugungi kunga qadar bo'lgan davrdagi rivojlanish yo'lini chuqur o'rganish muammolar doirasini aniqlash va fan istiqboli uchun kerakli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarix fanining akademik bilimlar tizimida shakllanishi va rivoji bilan bog'liq bir qator tadqiqotlar yaratildi. Ular qatoriga O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

hamda Tarix institutining yubiley sanalariga bag'ishlagan nashrlar, O'zbekistonda tarix fani rivojiga oid bir necha risola va maqolalar, shuningdek, institutning «Tarixshunoslik va manbashunoslik» bo'limida tayyorlangan ayrim fundamental va amaliy tadqiqotlar, o'rganilayotgan muammo bilan bog'liq bir nechta dissertatsion ishlarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Tarix institutining yubiley sanalariga bag'ishlangan ishlarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimidagi Tarix institutining asosan mustaqillik yillaridagi faoliyati ochib berilgan. Jumladan, 1993 yili O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ellik yillik yubiley sanasiga ba-g'ishlangan yirik to'plam nashr etildi To'plamda Tarix instituti olimlarining mazkur ilmiy muassasa tarkibida tarixshunoslik, arxeologiya, etnografiya yo'nalishtari yarim asrlik rivojlanish yo'li umumlashtirilib tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 60 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy anjumanida (2003 yilning 23 - 24 dekabr), O'zR FA Tarix institutining yubiley sanasiga bag'ishlangan ilmiy to'plamida mazkur ilmiy muassasa tarkibidagi bo'limlarning oltmish yillik tarixi va faoliyati umumlashtirib ko'rsatib berildi.

D.A. Alimova, D.X. Ziyaeva maqolalarida O'zbekistonda tarix fani, tarix fanining Fanlar akademiyasi tizimidagi taraqqiyoti masalalari haqida fikr yuritilgan. SHuningdek, X.Z.Ziyaev risolasi hamda «O'zbekiston tarixi va arxeologiya fanlarining dolzarb muammolari» mavzuidagi respublika ilmiy anjumani ham akademik YAhyo G'ulomov tavalludining 95 yilligi va mazkur institutning 60 yilligiga bag'ishlangan.

2013 yilda O'zR Fanlar akademiyasining 70 yillik yubileyiga bag'ishlangan yirik monografiya nashr etildi. Unda akademiya tizimidagi boshqa ilmiy muassasalar bilan bir qatorda Tarix institutining mustaqillik yillarida qo'lga kiritgan muhim ilmiy nazariy va amaliy yutuqlari, institutning xalqaro aloqalari hamda ilmiy tadqiqotlarning ustuvor va istiqbolli rivojlanishi bilan bog'liq ma'lumotlar ham o'rin olgan.

O'zbekiston tarix fani akademik tizimining vujudga kelishida muhim o'rin tutgan Turkiston muassasapari bilan bog'liq masalalar M.M. Sagatova hamda M.A. Mirzaev tomonidan o'rganilib, tadqiqotchilar tomonidan XX asrning 20 - 30 yillarida faoliyat olib borgan tarixiy-ilmiy muassasalar, madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va o'rganish borasida tuzilgan qo'mitalar (Turkkomstaris, Sredazkomstaris, Uzkomstaris) faoliyati ochib berilgan. 1994 yili O'zR

FA Tarix instituti tomonidan tayyorlangan «XX asrning dastlabki o'ttiz yilligida O'zbekiston tarix fani (Tarixshunoslik ocherklari)» deb nomlangan ikki kismdan iborat ilmiy monografiyaning birinchi qismida ham O'zbekiston tarix fani va tarixshunosligining XX asrning dastlabki 30 yilligidagi holati tahlil qilingan bo'lib, unda mazkur davrda tarix fanining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. O'zbekiston tarix fanining XX asrning 20 - 30 yillaridagi holati, shuningdek, t.f.d. N.R. Mahkamovning maqolalarida ham ilmiy jihatdan o'rganilgan.

Mavzuning mustaqillik davri tarixshunosligi haqida so'z yuritganda t.f.d., prof. D.A. Alimovning O'zbekiston tarix faniga doir qator asarlari alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Mustaqillik yillarida olima respublikada birinchilardan bo'lib XX asrning 80-yillari oxiridan boshlangan tarix fanidagi o'zgarishlar: muammo va yondashuvlarning o'zgarishi, sovet davrida tarix fanining sovet davridagi muhim jihatlari, institut jamoasining roli, shuningdek, bugungi kunga qadar mavjud fanning yutuq va kamchiliklari hamda kelgusida amalga oshirilishi zarur bo'lgan dolzarb ilmiy-nazariy va metodologik muammolar xususida so'z yuritadi.

O'zbekiston tarix fanining ilmiy-nazariy va metodologik masalalari SH.L. Asadovning bir qator maqolalari orqali ham yoritib berilgan.

V.A.Germanovning 1941 - 1945 yillarda Rossiyadan Toshkentga evakuatsiya qilingan tarixchilarga bag'ishlangan maqolalarida esa K.V. Trever, S.V. Baxrushin, A.K. Borovkov, YU.V. Gote, P.P. Ivanov, M.V. Nechkina, V.I. Picheta, A. Yakubovskiy singari tarixchi olimlar-ning «O'zbekiston xalqlari tarixi»ni yaratishdagi ishtiroki, ularning O'zbekiston tarix faniga qo'shgan hissasi ma'lum darajada ko'rsatib berilgan.

«XX asr O'zbekiston tarixi va tarixchilari» nomli monografiya-da esa Tarix institutida faoliyat olib borgan va akademik bilimlar rivojiga hissa qo'shgan akad. YA. G'ulomov, RX.Aminova, B.V.Lunin kabi olimlar hayoti va ilmiy faoliyati yoritib berilgan.

Akademiya tizimida faoliyat olib borgan tarixchi olimlarga ba-g'ishlangan yana bir qator maqolalar «O'zbekiston tarixi» jurnali sahifalarida, alohida monografiya, risola va bibliografik nashrlarda ham o'rin olgan.

«Tarixshunoslik va manbashunoslik» bo'limi tomonidan tayyorlangan «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti nashrlari» bibliografik to'plamining chop etilishi6 mustaqillik

yillarida akademiya tizimida faoliyat yuritayotgan olimlarning tadqiqotlari haqida axborot beruvchi manba bo'ldi.

2017 yilning iyul oyida esa internet sahifalarida professor D.A. Alimovning V.S. Xan bilan hammualliflikda yozilgan va ko'pchilik tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortgan ilmiy maqolasi e'lon qilindi. Ushbu maqolada jamiyat hayotida tarix fanining ahamiyati, oliy ta'lim tizimida tarix fanining o'qitilish holati, ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi kengashning akademik tizimdan oliy ta'lim tizimiga o'tkazilishi natijasida vujudga kelgan vaziyat tahlil qilinib, muammolar echimi haqida aniq tavsiya va takliflar beriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda mustaqillik yillarida O'zbekiston tarix fanining akademik tizimda tashkil etilishi va rivoji yoritilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining ushbu jarayonni amalga oshirishdagi etakchilik faoliyati alohida o'ringa ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Savollar:

1. Mustaqil O'zbekistonda tarix fanining davlat siyosati darajasida o'rganilishi.
2. O'zbekiston xalqlari tarixining dolzarb muammolari.
3. Jahon tarixi fani tarixshunosligini o'rganishni rivojlantirishning asosiy tamoyillari.
4. I. Karimov asarlarida ilmiy metodologiya, mustaqillik mafkurasi va tarixiy tafakkur.
5. Tarix faniga bo'lgan qiziqishning kuchayishi va yangicha dunyoqarashlardagi izlanishlar.
6. Vatanimiz tarixini o'rganishdagi yangi yo'nalishlar. Jadidlar; milliy davlatchilik; kolonial boshqaruv tuzumi; milliy-ozodlik uchun kurash konsepsiyalari.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari va ularning tarix fanini rivojlantirishdagi ahamiyati.

Manbalar va adabiyotlar

1. Arrian. Anabasis Aleksandra ili istoriya poxodov i zavoevaniy Aleksandra Velikogo ili istoriya poxodov i grecheskogo N. Korenkova. - M.; 1961, -366 str.
2. Abul Fazl Bayhakiy. Istoriya Ma'suda (1030-1041). Perevod s persidskogo, vvedenie, kommentariy i prilozhenie A.K. Arends. Izd. 2-e dopol. -M., 1969.
3. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. Arabchadan A. Rasulov, Yu. Hakimjonova, G. Jalolov tarjimai. -T.: Fan, 1965.
4. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. -T.: Fan, 1968.
5. Amir Temur Ko'ragon. Zafar yo'li. Nashrga tayyorlovchi B. Ahmedov. -T.: Nur, 1992, -40 bet.
6. Ahmedov B. Bahr-ul-Asror. T.: Fan, 1982.
7. Bichurin N.YA. Sobranie svedeniy o narodax obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. V 3-x tomax. M - L.; 1950-1953.
8. Bartol'd V.V. Sobranie soch. V 9-i tomax. M.; 1960-1968.
9. Belyaev E. Istoriko-sotsiologicheskaya teoriya Ibn Xalduna. //M.; Istorik-marksis. 1940, № 4, № 5. -78-84 str.
10. Gerardot. Istoriya. Drevnegrecheskiy tekst i perevod. L.; Nauka, 1972, -600 str.
11. Davlatshoh Samarqandi. Tazkirat ush-shuaro. Tarjimon B. Ahmedov. M.: G'G'ulom, 1981. -222 str.
12. Zayniddin Mahmud Vasifiy. Badoe ul-vaqoe. -T.; G'G'ulom, 1979, -214 bet.
13. Zevelev A.I. Istoriografiya Turkestana. T., "Uzbekistan", 1968. 276 str.
14. Muhammad Solih Shayboniyoma. Nashrga tayyorlovchi Nasrullo Davron. T.: Fan, 1964, -359 bet.
15. Mirza Abdal Azim Sami. Tarixi salatini mang'itiya (Istoriya mangitskix gosudarey). Perevod, predis. i prim. M.N. Epifanova. M., 1962, 172 str.
16. Narshaxi. (Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far). Buxoro tarixi. T.: Fan, 1966.
17. Peshtich V.T. Russkaya istoriografiya v XVIII v. L., Izd. LGU, 1970-1971g. CH - 1-3. 376 str.
18. Rui Gonzales de Klavixo. Dnevnik. Puteshestvie v Samarkand ko dvoru Timura (1403-1406). Perevod i predis. M., S. Mironova. M., 1990. 210 str.
19. Strabon. Geografiya. V 17-i knigax. Perevod, stat'ya i kommentariy G.A. Strabonskogo. M.; 1964, -943 str.
20. Saxarov A.M. istoriografiya istorii SSSR. Dooktyabrskiy period. Kurs lektsiy. M., 1978 g. 266 str.
21. Sa'diev A. XIX asrda Turkistonda tarix fani. T.: O'zdamnashr. 1960 y.
22. Toynbi A.D. Postijenie istorii. M., 1991. 730 str.
23. SHapiro A.L. Russkaya istoriografiya v period imperializma. L., Nauka, 1962, 192 str.
24. Yaspers Karl. Smisl i znachenie istorii. M., Prosveshenie. 1994 g.
25. O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublika Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirishi" to'g'risidagi qarori. 1998 y. 29 iyul.

26. Saidqulov T.S. Ocherki istoriografii istorii narodov Sredney Azii: Ucheb. posobie dlya studentov. CHast' I. – T.: Ukituvchi, 1992, -192 bet.
27. Gumilev L.N. Drevnie turyki. –M.: Tvorchestvo "Klishnikov – Komarov i K", 1993, - 525 str.
28. Irisov A., Nosirov A., Nizomiddinov I. O'rta Osiyolik qirk olim. –T.: O'zfanakdemnashr, 1961, -102 bet.
29. Ahmedov Bo'riboy. Tarixdan saboqlar: Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tarix fakultetlari uchun qo'llanma.-Mas'ul muharrir H.Ziyoev. -T.: O'qituvchi, 1993, -432 bet.
30. Hudonazarov H. Abulg'azi Bahodirxon tarixchi va adib. -T.: O'zbekiston, 1994, - 56 bet.
31. Masharipov O. Xorazm tarixidan sahifalar. –T.: O'zbekiston, 1994, -234 bet.
32. D'Osson K. Ot CHingisxana do Temerlana. – Alma-ata, "Sanat", 1996, -256 str.
33. Axmedov B. Istoriiko – geograficheskaya literatura Sredney Azii XVI-XVIII vv. _T.: " Fan", 1985, -259 str.
34. Axmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari (Qadimgi zamon va o'rta asrlar): Tarix muallimlari, talabalar va yuqori sinf o'quvchilari uchun qo'llanma. – T.: "O'qituvchi", 2001, - 352 bet.
35. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) //Mas'ul muharrir: B.Ahmedov. –T.: "Sharq", 2000, -368 bet. Mustaqil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari: (Davriy to'plam) № 3 // Mas'ul muharrir: D.Alimova; - T.: "Sharq", 2000, - 224 bet.
36. Choriev Z. Tarix atamalarining qisqacha izohli lug'ati. –T.: "Akademiya", 2002, - 361 bet.
37. Hoji Ismatilloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. Qisqacha ma'lumotnoma /Mas'ul muharrir N.Ibrohimov/ - T.: Sharq, 2005, - 384 bet.
38. Matniyozov M., Sodiqov A. Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm. – Urgench, "Xorazm" nashriyoti, 1999, - 177 bet. O'zbekiston davlatchiligi tarixi: (Ocherklar) / Mas'ul muharrirlar: D.A.Alimova, e.V.Rtveladze. – T.: Sharq, 2001, - 224 bet.
39. O'rolov A., Yusupov R. O'rta Osiyoning ma'naviyat maskanlari. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand; SamDU nashri, 2005, -58 bet.
40. O'zbekiston o'rta asrlarda: tarix va madaniyat. //Tarix fanlari doktori, professor R.G.Mukminovning 80-yillik yubileyiga bag'ishlanadi. (Xotiralar anjuman ma'ruzalari) –T.: Izdatel'stvo UDANRU, 2003, - 190 bet.
41. O'zbekistonning yangi tarixi. -T.: "Sharq", 2000, tom 1; - 464 bet; tom 2; -688 bet; tom 3; - 560 bet.
42. Pixoya R. Vostrebouvannaya vremenem istoriya. Otechestvennaya istoricheskaya nauka v 20-30-e godi XX veka. //Novaya inoveyshaya istoriya, № 2-son, 2004, -28-53 str.
43. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. –T.: "Ma'rifat", 2002, - 400 bet.
44. Rashohot ayni-hayot (Obihayot tomchilari): tarixiy-ma'rifiy asar. –T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiy nashriyoti. 2004, -536 bet.
45. Sagdullaev A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. I qism. – T.: "Akademiya", 2000, - 270 bet.
46. Shoniyoov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. –T.: "Sharq", 2001, - 464 bet.
47. Tarix shohidligi va saboqlari: chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekiston milliy boyliklarining o'zlashtirilishi. –T.: "Sharq", 2001, -464 bet. Turkestan v nachale XX veka: K istorii istokov natsional'noy nezavisimosti. –T.: "SHark", 2000, -672 str.
48. Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar. –T.: "Adolat", 2004, -385 bet.
49. Ziyoov H. Tarix – o'tmish va kelajak ko'zgusi: (Tarixning dolzarb masalalari) //Mas'ul muharrir: K.Normatov. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000, - 288 bet.
50. Ziyoov H. Tarixning ochilmagan sahifalari. – T.: "Mehnat", 2003, - 232 bet.
51. Alimova D. O problemakh istoricheskoy nauki v Uzbekistan // "O'zbekiston Respublikasi jahon hanjariyati tizimida" mavzusidagi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Xorijiy mamlakatlar tarixi" va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining "O'zbekiston tarixi" kafedralari hamkorligida o'tkazilgan Respublika ilmiy-nazariy anjumanining ilmiy to'plami. –T.: 2004, -6-14 betlar.

Baxtiyar Ergashev

TARIXSHUNOSLIK

O'quv qo'llanma

Muharrir

Musahhih

Texnik muharrir

J. Bozorova

L. Xoshimov

N. Isroilov

ISBN-978-9943-6320-2-8

2019 yil 25 dekabrda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.

2019 yil 30 dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 60x84_{1/16}. "Times new roman" garnituras.

Offset qog'oz. Shartli bosma tabog'i – 15,75.

Adadi 30 nusxa. Buyurtma № 229.

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.





ISBN 978-9943-6320-2-8



9 789943 632028

